

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TABIYY FANLAR FAKULTETI

“Ekologiya va geografiya” kafedrasи

GEOEKLOGIYA

fanidan o'quv-uslubiy majmua

Bilim sohasi:	600000 - Xizmatlar sohasi
Ta'lim sohasi:	630000 – Atrof-muhit muhofazasi
Ta'lim yo'nalishi:	5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi

Guliston-2021

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2019-yil 4-oktabrdagi 892-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

«Geoekologiya» fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Guliston. 2021. 111 bet.

O‘quv-uslubiy majmua 5630100 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga mo’ljallangan bo’lib, unda Geoekologiya fani predmeti va metodlariga doir ma’lumotlar yoritilgan.

O‘quv metodik majmua GulDU o‘quv-metodik kengashining (1-sonli, 2021. 28.08) qaroriga asosan nashrga tavsiya qilingan.

Tuzuvchi: Tovbayev G.Z. – GulDU Ekologiya va geografiya kafedrasи o‘qituvchisi

Taqrizchi: Xidiraliyev K.E. – GulDU Ekologiya va geografiya kafedrasи dotsenti, g.f.n.

MUNDARIJA

1-MAVZU	KIRISH. GEOEKOLOGIYANING TADQIQOT OBYEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.	4
2-MAVZU	GEOEKOLOGIYANING RIVOJLANISHI VA HOZIRGI HOLATI	13
3-MAVZU	GEOEKOLOGIYA-GEOTIZIMLAR EKOLOGIYASI HAQIDAGI FAN	20
4-MAVZU	GEOEKOLOGIK TADQIQOT METODLARI. BIOSFERANING TARKIBI VA UNING XUSUSIYATLARI	28
5-MAVZU	LITOSFERANING XUSUSIYATLARI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR	37
6-MAVZU	GIDROSFERANING XUSUSIYATLARI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR	39
7-MAVZU	ATMOSFERANING XUSUSIYATLARI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR	43
8-MAVZU	GEOEKOLOGIK OMILLAR VA ULARNING TASNIFLANISHI	48
9-MAVZU	TABIYY MUHITNING INSON XO'JALIK FAOLIYATI TA'SIRIDA IFLOSLANISHI	53
10-MAVZU	GEOEKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING TURLARI	57
11-MAVZU	GEOEKOLOGIK BAHOLASH. GEOEKOLOGIK MONITORING. O'ZBEKISTONDA GEOEKOLOGIK MONITORINGNI AMALGA OSHIRISH	62
12-MAVZU	GEOEKOLOGIK PROGNOZLASHTIRISH. O'ZBEKISTONDA GEOEKOLOGIK VAZIYATLARNI O'ZGARTIRISHNING PROGNOZI	74
13-MAVZU	ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA TABIYY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISHNING GEOEKOLOGIK ASOSLARI	77
14-MAVZU	EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA BARQAROR RIVOJLANISH.	83
15-MAVZU	EKOLOGIYA SOXASIDA XALQARO HAMKORLIK VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TABIATNI MUHOFAZA QILISH TOG'RISIDAGI QONUNLARI	89
	XALQARO EKOLOGIK SANALAR	92
	AMALIY MASHG'ULOT	95
	TEST	95
	GLOSSARIY	103
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	109

1-MAVZU: KIRISH. GEOEKOLOGIYANING TADQIQOT OBYEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.

Kirish

Dunyo aholisi sonining ko‘payishi, uning ehtiyojini, ayniqsa, ehtiyojiga nisbatan xohishining ildam o‘sishi Yer resurslaridan kengroq foydalanishga sabab bo‘lmoqda. Bu esa yangi texnologiyalarning joriy etilishiga, energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport sohalarida ishlab chiqarishning o‘sishiga, yer yuzi landshaftlarini antropogen o‘zgartirishga va oqibatda, atrof tabiiy muhitga antropogen yukning ortishiga, o‘z navbatida, jamiyat va tabiat orasidagi o‘zaro ta’sirning kuchayishiga olib keldi. Buning natijasida geotizimlarda ming yillar davomida barqaror bo‘lib kelgan tabiiy muvozanat buzilib, inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabat murakkablashib, ekologik inqirozli hududlar tarkib topmoqda. Shu sababdan mazkur munosabatlarni o‘rganish, ijobjiy tomonga o‘zgartirish dolzarb masaladir.

Bu borada geografiya, ayniqsa, geoekologiyaning o‘rni kattadir. Chunki, geografik fanlar tabiat qonunlari va qonuniyatlarini, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga doir masalalarni yaxshi anglagan holda, boshqa fanlarga nisbatan kompleks ravishda to‘g‘ri hal qilishga qodir. Geoekologik vaziyat murakkablashib borayotgan sharoitda uni o‘rganish, uning makon va zamonda o‘zgarishini nazorat qilish, baholash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishga, lokal singari mintaqaviy miqyosdagi murakab geoekologik muamolarni yechishga qodir mutaxassislar tayyorlash zamon talabidir.

Geoekologik muammolarni o‘rganishda, avvalo, tabiiy komponentlar va geotizimlar orasidagi o‘zaro ta’sir va aloqalarga hamda antropogen omilga alohida e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, topologik miqyosdan boshlab global miqyosdagi geotizimlargacha o‘zaro aloqadorlikda, bir butunlikda ekanligini hisobga olish lozim. Umuman, bunday masalalar bilan ekologik va geografik qonuniyatlar haqida tushunchaga ega bo‘lgandan so‘nggina shug‘ullanish lozim.

Fanni o‘qtishdan **maqsad** – geoekologiyaning ilmiy-nazariy asoslari, geoekologik muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi omillar, ularning makon va zamonda o‘zgarishi, geoekologik baholash, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning geoekologik asoslarini o‘rgatishdir.

Fanning **vazifasi** – geoekologik omillar va indikatorlarni aniqlash, geoekologik baholash, geoekologik monitoring, geoekologik prognozlash, bo‘yicha nazariy bilimlarni shakllantirish; geotizimlarda bo‘layotgan tabiiy va antropogen jarayonlarni o‘rganish, ularning geoekologik vaziyatini aniqlash, geotizimlarning inson uchun ekologik qulay yoki noqulaylik darajasini baholash, geoekologik vaziyatni yaxshilash va tabiiy muhitni optimallashtirish chora-tadbirlarini loyihalash va boshqalar bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malaka hosil qilishdan iborat.

Ekologiyaning umumiy masalalari

Atrof muhitni sog‘lomlashtirish, aholini ichimlik suvi, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, biologik xilma-xillikni asrash, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish dolzarb muammolar hisoblanadi va ularni ijobjiy hal qilish insoniyatning kelgusi taraqqiyotini belgilaydi.

Hozirgi mavjud ekologik muammolarni o‘rganish, ularni tushunib yetish va zarur tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish uchun har bir inson Koinot, Quyosh, Yer, tirik va notirik tabiatning uyg‘unligi to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozimdir.

Ekologiya biologiya fanlari qatoridagi mustaqil fan hisoblanadi. “Ekologiya” tushunchasi fanga birinchi bo‘lib 1866-yilda, nemis biologi E.Gekkel tomonidan kiritilgan.

Ekologiya – yunoncha so‘z bo‘lib, tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatini o‘rganuvchi fandir.

Umumiy ekologiya to‘rt bo‘limga bo‘lib o‘rganiladi: autekologiya, populyatsiyalar ekologiyasi, sinekologiya va biosfera.

1. Autekologiya ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o‘zaro munosabatini, turlarning qanday muhitga ko‘proq va uzviy moslashganligini o‘rganadi.

2. Populyatsiyalar ekologiyasi populyatsiyalar tuzilmasi va dinamikasi, ma’lum sharoitda turli organizmlar sonining o‘zgarishi (biomassa dinamikasi) sabablarini tekshiradi.

3. Sinekologiya biogeotsenozung tuzilishi va xossalari, ayrim o‘simlik va hayvon turlarining o‘zaro aloqasini hamda ularning tashqi muhit bilan munosabatini o‘rganadi.

4. Ekotizimlarni tadqiq qilishning rivojlanishi biosfera haqidagi ta’limotni vujudga keltiradi. Ushbu ta’limotning asoschisi V.I.Vernadskiy hisoblanadi. Sayyoramizda tarqalgan organizmlar, ya’ni Yer qobig‘idagi mavjudotlar tizimi **biosfera** deb ataladi.

Bugungi kunga kelib ekologiya sof biologik fanlar tizimidan chiqib, uning mazmuni kengayib bormoqda. Atrof muhitga zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining ta’siri natijasida “Ekologiya” tushunchasi kengaydi. Fanga “Inson ekologiya” si degan atama ham kirib keldi. Insonni tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi.

Inson ekologiyasi yangi fan sifatida 1921-yilda amerikalik olimlar Borjes va Park tomonidan kiritilgan. Dastlab, inson ekologiyasi tibbiy soha bo‘limi sifatida qaralib, keyinchalik uning ijtimoiy, texnik, me’moriy, iqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o‘rganildi. Inson ekologiyasi insonni atrof muhitga va aksincha, muhitning insonga ta’sirini o‘rganadi. Inson ekologiyasini o‘rganish natijasida ijtimoiy ekologiya vujudga keldi. Unga birinchi bo‘lib Raderik Mak Kenzil ta’rif bergan.

Ijtimoiy ekologiya ijtimoiy fanlardan biri hisoblanib, uning predmeti inson bilan atrof muhit o‘rtasidagi xususiy bog‘lanishlarni o‘rganishdan iborat.

Shunday qilib, ekologiya bugungi kunda tibbiy va ijtimoiy fanlar jumlasiga kirib, o‘rganilayotgan obyekt yoki tizimni atrof muhit bilan munosabatini keng miqyosda tadqiq etadi. Bir hujayrali sodda tuzilishdagi bakteriyalar, zamburug‘lar, o‘simlik, hayvonlar va ularning hamjamoalari, biosfera, shuningdek, inson ham ekologiya fanining obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

Ekologiya fani tabiat bilan tirik organizmlarning uzviy bog‘lanishini ifoda etar ekan, u shubhasiz, tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asosini tashkil etadi.

Ekologiyada qo‘llaniladigan usullar: **Dala usuli.** Tabiiy sharoitda olib boriladigan va o‘tkaziladigan kuzatishlar dala usuli asosida bo‘ladi. Dala usuli bo‘yicha tur vakillari, ular hosil qiladigan turli katta-kichik tirik organizmlar guruhlari tabiiy sharoitda o‘rganiladi. Bunday holda floristika, sistematika, geobotanika, fiziologiya kabi biologik hamda nobiologik fanlarning usullari ham keng qo‘llaniladi va tirik organizmlarni o‘sish, rivojlanish, ko‘payish, o‘zgarib turish jarayonlari aniqlanishi bilan, ularning bir-birlariga hamda muhitga munosabatlari o‘rganiladi, olingan materiallarni ekologik tahlil qilish asosida tirik organizmlarning hayot faoliyatiga oid turli ekologik qonunlar aniqlanadi.

Laboratoriya tajriba usuli – maxsus joylarda, xonalarda, turli mikroorganizmlar, suvo‘tlar, umurtqasiz hayvonlar, ularning shakllari (shtamlari), kichik-kichik idishlar, Petri kosachasi, akvariumlarda maxsus ozuqa moddalar, yorug‘lik, harorat yordamida o‘stiriladi va kuzatiladi. Ularning ko‘payish jadalligi, massa hosil qilishi, fiziologik, biokimyoviy tarkiblari, hamda foydali shakllarini tez ko‘paytirish usullari ishlab chiqilib, non, qatiq, yog‘, vino, spirt tayyorlashda foydalilaniladi. Organizmlar va ularning populyatsiyasi holatini aniqlashda **morfofiziologiya indikator** usulidan foydalilaniladi. Bu usul yordamida hayvon tanasining og‘irligi, ayrim a’zolarining tabiiy mintaqalar va muhit omillariga bog‘liq holda o‘zgarishi, shakllarining kattalashishi yoki kichrayishi o‘rganiladi.

Organizmlarning son ko‘rsatkichlarini o‘rganish. Ekologik tadqiqotlarda organizmlarning soni va ularning o‘zgarib turishini aniq bilish katta ahamiyatga ega. Organizmlar miqdori vizual va instrumental yo‘l bilan aniqlanadi. Organizmlar vizual hisobga olinganda, ularning ma’lum joyda, to‘g‘ri yo‘nalishda yoki ma’lum hajmda suvdagi miqdori aniqlanadi. Masalan, geobotanikada ma’lum joydagi o‘simliklarni hisobga olish, gidrobiologiyada dengiz, okeanlardan «dnocherpatellar» yordamida suv tagidagi loyqa tortib olinib, uning ichidagi organizmlar tarkibi va soni aniqlanadi. Suv qatlidan plankton holda yashovchi organizmlarning turlar tarkibi, biomassasi aniqlanadi.

Matematik modellar va modellashtirish. Turli ekotizimlarning tabiiy holati, o‘zgarishi va ularga xos boshqa ekologik tomonlar matematik modellar usuli yordamida aniqlanadi.

Tabiatdagi ko‘p qirrali voqeliklarni ekologik nuqtai nazardan tekshirishda katta va kichik ekotizimlarga xos qonuniyatlarini aniqlash jarayonida ularning doimo o‘zgarib turishi, muhit omillarining ta’siriga ko‘rsatadigan reaksiysi, turli senozlarning har xilligi va farqi aniqlanadi.

Ekologiya fanining vazifalari

Ekoglarning keljakdagi amaliy vazifalari inson ehtiyojini yanada to‘lar oqondirishga qaratilgan holda antropogen biosenozlarni qayta ko‘rib chiqish va barqarorligini oshirishga qaratilishi kerak. “Inson va biosfera” deb atalgan yirik xalqaro dasturda keyingi yillarda ekologiya sohasida hamda insonni o‘rab turgan atrof muhitni tadqiq qilishning aniq ilmiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan:

Hayot jarayoni qonuniyatlarini o‘rganish, shuningdek, insonning tabiiy tizimlarga va biosferaga bo‘lagan ta’sirini bir butun holda o‘rganish.

Biologik resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, inson faoliyati natijasida o‘zgargan tabiatdagi o‘zgarishlarni oldindan bilib olish va biosferada kuzatilayotgan jarayonlarni boshqarish va nihoyat insonning yashash muhitini saqlash.

Antik davr va XVII-XIX asrlardagi ekologik tadqiqotlar

Hozirgi davrdagi bilimlarimizning shakllanishida qadimgi yunon olimlarining xizmati katta. Masalan, Aristotel (e.av. 384-322-y.y) o‘zining “Hayvonlar tarixi” nomli asarida suvda va quruklikda yashovchi hayvonlar, shuningdek, suzuvchi, havoda uchuvchi va o‘rmalovchi kabi hayotiy shakllarni ajratgan. Ulardan tashqari, organizmlarning yashash joylari, yolg‘iz yoki gala bo‘lib yashash, oziqlanishi va boshqalar qiziqtirgan. Tirik organizmlarning tuzilishi va hayoti Aristotelning shogirdi Teofrast (e.av. 380-271-y.y) ishlarida ham uchraydi. Teofrast o‘simliklarning yashash joylarini hisobga olib, ularni o‘t, chala buta, buta va daraxt kabi hayotiy shakllarga bo‘ladi.

XVII-XVIII asrlardagi ekologik ma’lumotlar tirik organizmlarning ayrim guruhlarini o‘rganishga qaratilgan edi. J.Byuffon ishlarida hayvonlarning tuzilishiga tashqi muhitning ta’siri, J.B.Lamark o‘simlik va hayvonlarning evolyutsion o‘zgarishlarida, eng muhimi, tashqi muhit ta’siri ekanligi, ekologik g‘oyalarning rivojlanishida Ch.Darvinning organik olam evolyutsiyasi haqidagi ta’limoti ilgari surilgan. Nemis biologi Ernest Gekkel 1866-yilda fanga “Ekologiya” tushunchasini birinchi bo‘lib kiritdi va unga ta’rif berdi. Ekologiya mustaqil fan sifatida XX asrning boshlarida vujudga keldi. Uning rivojlanishiga G.F.Morozov, V.N.Sukachev, V.G.Romenskiy, K.Raunkier, Ch.Elton, M.S.Gilyarov, N.S.Serebryakov, A.Tensli, G.Odum, Y.Odum va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. Yirik rus olimi V.I.Vernadskiy biosfera haqidagi ta’limotni yaratdi va biosferaning holati inson faoliyati bilan bog‘liq degan xulosaga keldi.

O‘rta Osiyo allomalarining ekologiyaga oid qarashlari

O‘rta osiyolik allomalar al-Xorazmiy, Farobi, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrlardayoq tabiat va undagi muvozanat, o‘simplik va hayvonot dunyosi, tabiatni e’zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Muhammad Muso al-Xorazmiy: “Bilginki, daryoning ko‘zлari yoshlansa, uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi”, deb ta’kidlagan edi. Buyuk alloma suvlarni ortiqcha sarflash hozirgi kundagi Orol fojiasi kabi noxush hodisalarini keltirib chiqarishini nazarda tutgan bo‘lsa, ehtimoldan xoli emas. Abu Nasr Forobi odam a’zosining tuzilishi va unda kelib chiqadigan o‘zgarishlar, ya’ni kasalliklar, ovqatlanish tartibining buzilishi, kasallikning oldini olish chora-tadbirlari, shuningdek, tabiiy, sun’iy tanlanishlar haqida ma’lumotlar qoldirgan. Abu Rayhon Beruniy asarlarida o‘simplik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi, tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi va xo‘jalik ahamiyati haqida ma’lumotlar topish mumkin. Abu Ali Ibn Sino inson sog‘lig‘ini saqlash, parhez, gigiyena to‘g‘risida, kasalliklarni, jumladan, asab kasalliklarini davolashda jismoniy usullar yaxshi natija berishini ta’kidlagan. U inson organizmiga tashqi muhit ta’siri muhimligini, ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida o‘z fikrlarini bayon etgan.

O‘zbekistonda ekologiya fanining rivojlanishi

Ekologik yo‘nalishdagi ishlar keyinchalik O‘zRFA Botanika instituti olimlari V.A.Burigin, O.X.Hasanov va boshqalar tomonidan o‘simpliklarni qurg‘oqchil issiq (cho‘l) sharoitga moslashishi, o‘simpliklar hamjamoaesining tuzilmasi, mahsuldorligi, yem-xashakbop o‘simpliklar orasidan qurg‘oqchil issiq sharoitga chidamli turlarini tanlash va ularning ekologik-biologik xususiyatlarini o‘rganib, sun’iy yaylovlar barpo etishning ilmiy asoslari ishlab chiqildi. O‘zRFA Zoologiya va parazitologiya institutida hayvonot olamini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish tadbirlari, qishloq xo‘jalik hayvonlarida uchraydigan yuqumli kasalliklarning oldini olish, qimmatli hayvon turlarining kadastri va nazorat ishlari olib borildi.

Ushbu ilmiy ishlarga T.Z.Zohidov, A.M.Muxammadiyev, V.V.Yaxontov, M.A.Sultonov, G.O.Olimjonov va boshqalar rahbarlik qildi. XX asrning ikkinchi yarmida hozirgi davr fanlarini “ekologlashtirish” boshlandi. Bu esa ekologik bilimlarning katta ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Demakki, hozirgi davrda ekologiya fanining kelajagi porloq, chunki insoniyatning sayyoramizda yashab qolishi, ko‘p jihatdan ushbu fanning rivojlanish darajasi bilan bog‘liq bo‘lib qoladi.

Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi asosiy vazifalar

O‘zbekiston Respublikasining atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi birinchi navbatdagi vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- jamiyatning ta’lim olish va intellektual potensiali o‘sishini ta’minlovchi sharoit yaratish;
- atrof muhit holatini yaxshilash uchun hamda global ekologik muammolarni hal etishga yetarli mablag‘ ajratish kerak;
- genetik fond, turlar va landshaftlar xilma-xilligini saqlash;
- tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;
- maxsus muhofazaga olingan hududlarni boshqarish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish;

- atrof muhitni ifloslanish manbalarini aniqlash bo'yicha nazorat tizimini takomillashtirish va rivojlantirish;
- xususiyashtirish jarayonlarida ekologik talablarga riosa qilish va atrof muhitga zarar keltirmaslik uchun javobgarlik kabilarni nazorat qilish mexanizmini yaratish;
- ekologik xavfsiz mahsulotlar va texnologik jarayonlar sohasida ekologik sertifikatlash tizimini takomillashtirish;
- ekologik axborotlar va atrof muhit monitoringi bo'yicha bank tizimini yaratish;
- Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining tabiatni muhofaza qilish ishlari bo'yicha faoliyatini yurituvchi markazlashgan axborot tizimini yaratish;
- ekologik va tarbiyaviy tizimini yanada rivojlantirish;
- xalqaro ekologik normalar va standartlar bo'yicha bosqichma-bosqich dasturlar ishlab chiqish;
- xalq xo'jaligining turli sohalarida ekologik toza texnologiyalar, chiqindilarni zararsizlantirish va o'zlashtirish bo'yicha ilmiy-texnik ishlanmalarni hayotga tatbiq etish hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni davom ettirish;
- atrof muhitni muhofazasi, tabiiy resurslardan foydalanish masalalari bo'yicha hamjamiyat ekologik tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va birgalikda ekologik qarorlar qabul qilish.

O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganidan boshlab Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada qabul qilingan ekologik siyosatni, ya'ni atrof muhit holatini yaxshilash aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni muvafaqqiyatli amalga oshirib kelmoqda .

Ekologik muammolarni hal etishning asosisy yo'naliishlari Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi, turli nodavlat tashkilotlar hamda davlat tomonidan qabul qilingan atrof muhitni muhofazasi, gigiyenik, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy harakat rejalarini va strategiyalarida o'z aksini topgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning eng muhim vazifasi aholi sonining o'sishi, shaharlarning transport orqali yuk tashishi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bilan bog'liq ravishda atrof muhit muhofazasi muammolarini hal etish, ya'ni tabiiy resurslarni qayta ishslash va ulardan oqilona foydalanish masalalaridan iborat. O'tish davrida, shubhasiz, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi o'zgaradi va atrof muhitning ifloslanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bunday sharoitda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davdat qo'mitasi tomonidan tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish va kam chiqindili texnologiyalardan foydalanish kabi ekologik siyosatni qo'llashni taqozo etadi. Shunga qaramasdan, respublikada quyidagi ekologik muammolar hal etilmay qolmoqda:

- Orol bo'yidagi ekologik tang ahvol;
- yer, suv, biologik resurslarning qisqarishi;
- yer, suv, biologik xilma-xillikka va atmosfera havosi sifatiga qo'shni davlatlarning ta'siri;
- tabiiy holatni va uning ifloslanish manbalarini, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish uchun yetarli texnik va metodik imkoniyatlarning cheklanganligi;
- atrof muhit holatini analistik nazorat qilish uchun maxsus asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalarining mayjud emasligi;
- tog'-kon chiqindilari, avvalgi uran konlari, ayniqsa, ularning chegara hududlardagi holat;

- sanoat va maishiy turmushdagi chiqindilarning qayta ishlovchi va o‘zlashtiruvchi tizimning takomillashmaganligi;
- tabiiy atrof muhit va ularning ifloslanish manbalari hamda tabiiy resurslardan foydalanish holati bo‘yicha yetarli ekologik bank tizimi ma’lumotlari yetarli emasligi;


Tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari makroiqtisodiyotni isloh qilish jarayonida uning diqqat markazida turmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasining atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi birinchi navbatdagi vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- jamiyatning ta’lim olish va intellektual potensiali o‘sishini ta’minlovchi sharoit yaratish;
- atrof muhit holatini yaxshilash uchun hamda global ekologik muammoalarni hal etish uchun yetarli mablag‘ ajratish;
- genetik fondni, turlar xilma-xilligi va landshaftlarni saqlash;
- tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;
- maxsus muhofazaga olingan hududlarni boshqarish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish;
- atrof muhitning ifloslanish manbalarini aniqlash bo‘yicha nazorat tizimini takomillashtirish va rivojlantirish;
- xususiyashtirish jarayonida ekologik talablarga rioya qilish va atrof muhitga zarar keltirgani uchun javobgarlik kabi nazorat mexanizmlarini yaratish;
- ekologik xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar sohasida ekologik sertifikatlash tizimini takomillashtirish;
- ekologik axborotlar va atrof muhit monitoringi bo‘yicha bank tizimini yaratish;
- Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining tabiatni muhofaza qilish ishlari bo‘yicha faoliyatini yoritib boruvchi markazlashgan axborot tizimini yaratish;
- ekologik ta’lim va tarbiya tizimini yanada rivojlantirish;
- xalqaro ekologik normalar va standartlar bo‘yicha bosqichma-bosqich dasturlar ishlab chiqish;
- xalq xo‘jaligining turli sohalarida ekologik toza texnologiyalar, chiqindilarning zararsizlantirish va o‘zlashtirish bo‘yicha ilmiy-texnik ishlarni hayotga tatbiq etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishni davom ettirish;
- atrof muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan foydalanish masalalari bo‘yicha jamiyatdagi ekologik tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va birgalikda ekologik qarorlar qabul qilish.

Jamiyat va tabiat o‘zaro ta’sirining hozirgi davrdagi xususiyatlari va atrof muhitni muhofaza qilish muammosining dolzarbligi

Ikki yirik tizim – “Tabiat” va “Jamiyat”ning o‘zaro ta’siri masalasi bir vaqtning o‘zida ham qadimgi, ham zamonaviy muammodir. Qadimiyligiga sabab, azaldan, ya’ni *Homo sapiens* biologik turining paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelganligidir. Zamonaviyligi shundaki, hozirgi kunda jamiyatning tabiatga ta’siri ko‘lami halokatli darajaga yetdi.



Zamonaviy ekologiyaning bo‘limlari

Jamiyat va tabiatning nomutanosib munosabatlari, ya’ni tabiatdan nooqilona foydalanish ko‘pincha ekologik inqirozga olib keladi. *Ekologik inqiroz* – atrof tabiiy muhitning barqaror salbiy o‘zgarishlari bilan tavsiflanadigan va odamlar sog‘ligiga tahdid soladigan ekologik noxush holat. Boshqacha aytganda, inson xo‘jalik ishlab chiqarish faoliyati hajmining geotizimlarning resurs va barqarorlik imkoniyatlariga mos kelmasligi oqibatida yuzaga kelgan jamiyat-tabiat o‘zaro aloqlarining ziddiyatli holati.

Insoniyat rivojlanish tarixida bir nechta ekologik inqirozlar bo‘lgan:

- ✓ ovchilik va termachilik resurslari inqirozi,
- ✓ konsumentlar inqirozi,
- ✓ oddiy sug‘orma dehqonchilikning degradatsiyasi bilan bog‘liq inqiroz,
- ✓ produtsentlar inqirozi.

Hozirgi sivilizatsiya inqirozi atrof tabiiy muhit ifloslanishining global inqirozi yoki *redutsentlarning inqirozi* deb atalmoqda. Bu noxush holat shu bilan bog‘liqliki, redutsentlar geotizimlarni antropogen chiqindilardan tozalab ulgura olmayapti yoki tashlanayotgan chiqindilarning tabiiy xossalarga ega bo‘lmagan sintetik moddalar ekanligi sababli redutsentlar bunday moddalarni parchalashga qodir emas. Bundan tashqari, hozirgi ekologik inqiroz geografik qobiqning termodinamik (issiqlik) zo‘riqish holati va geotizimlar hamda ijtimoiy ishlab chiqarish tizimlari barqarorligining pasayishi bilan tavsiflanadi. Bunday holat troposferaning quyi qismida energiya ishlab chiqarishning ko‘payishi va tabiatdagi muvozanatning buzilishi bilan bog‘liq.

Hozirgi sivilizatsiyaning ekologik inqiroziga asosiy sabab quydagilar:

- yer aholisi sonining ko‘payishi;
- ishlab chiqarish kuchlarining o‘sishi;
- yangi hududlarni, birinchi navbatda, antropogen ta’sirga barqarorligi birmuncha zaif bo‘lgan ekstremal tabiiy sharoitli hududlarni o‘zlashtirish;
- ilmiy-texnik taraqqiyot (ITT) va uning tabiatga yot xususiyatga ega bo‘lgan moddalar, material va obyektlarni (pestitsidlar, plastmassalar, AES va h.k.) ishlab chiqarish bilan bog‘liq ekologik oqibatlari.

Ekologik inqiroz ko‘لامи bo‘yicha *lokal*, *regional* va *global* bo‘lishi mumkin.

Global ekologik inqirozning shakllanishida fan-texnika inqilobi (FTI) yetakchi rol o‘ynaydi.

FTI – insoniyatning ishlab chiqarish kuchlarida tubdan sifatiy o‘zgarish bo‘lib, fanning rivojlanishidagi keskin sakrashga va uning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanishiga asoslangan.

FTI va ITT quyidagilarga olib keldi:

- ❖ tabiiy resurslar iste’moli oshdi;
- ❖ xo‘jalik faoliyatida o‘zlashtirilgan hududlarning kengayishi ro‘y berdi;
- ❖ tabiiy muhitga, geotizimlarga antropogen yuk va ta’sir kuchaydi;
- ❖ atrof tabiiy muhitning ifloslanishi va degradatsiyasi ortmoqda;
- ❖ tabiatda mavjud bo‘lmagan, tabiiy muhitda qiyin parchalanishi yoki umuman parchalanmasligi bilan xavfli bo‘lgan yangi sun’iy organik birikmalar paydo bo‘ldi;
- ❖ qo‘llanilishi hozirgi sivilizatsiyaning nobud bo‘lishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavfli ommaviy qirg‘in qurollari (yadroviy, kimyoviy, biologik) yaratildi.

Hozirgi ekologik inqirozning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tabiiy resurslarni qazib olish va iste’mol hajmining keskin o‘sishi;
- geotizimlarga antropogen ta’sirning kuchayishi;
- atrof tabiiy muhit holatining yomonlashuvi;
- o‘zgartirilgan noqulay tabiiy muhitning insonlar sog‘lig‘i va kayfiyatiga ta’sir etishi va h.k.

Hozirgi ekologik inqiroz, insonning faol harakati hisobiga, dastlabki holiga qayta oladigan hodisa sifatida baholanib, bunda FTI va ITT ko‘pgina geoekologik muammolarni yechishiga umid sifatida qaralmoqda:

- ❖ ko‘p energiya va ko‘p resurs talab qilmaydigan texnologiyalarni joriy qilish hisobiga energiya va resurs tejashga erishish;
- ❖ kam chiqindili, ekologik jihatdan toza yoki kam zararli texnologiyalardan foydalanish;
- ❖ sanoat chiqindilarini zararsizlantirish texnologiyalarini keng qo‘llash.

Geoekologik tadqiqotlarning dolzarbliji yer yuzining turli joylarida geoekologik vaziyatning keskinlashuvi va atrof tabiiy muhitni optimallashtirish muammolarini bartaraf etish bilan bog‘liq. Hozirgi paytda geotizimlarga antropogen ta’sir ko‘lami juda katta miqyosga etdi. Tabiiy muhitni muhofaza qilish va optimallashtirish masalalarining zarurligi O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunida ta’kidlanadi.

Geoekologiyaning tadqiqot obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari

XX asrning II yarmidan boshlab fan-texnikaning rivojlanishi va zamonaviy fanlarga ehtiyoj sababli fanlarning integratsiyalashuvi hamda ikki yoki uch fan “orasida” ko‘plab yangi fanlarning shakllanishi va rivojlanishi ro‘y berdi. Shunday fanlardan biri geoekologiya bo‘lib, geografiya va ekologiya fanlari orasida, ko‘pgina fanlarda bo‘lgani kabi, geografiya fanining “ekologiyalashuvi” bilan shakllandidi. Uning shakllanganiga bir asrga yaqin vaqt bo‘lganiga qaramay, adabiyotlarda o‘rganish obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari haqida o‘quvchilarni chalg‘itadigan fikrlar uchrab turadi. Albatta, buning obyektiv va subyektiv sabablari bor.

Geoekologiyaning obyekti va predmeti haqida bildirilgan tushunchalar xilma-xil bo‘lib, ularning barchasi, asosan, tabiiy muhitga salbiy antropogen ta’sirni o‘rganish va tabiiy muhitni optimallashtirishga qaratilgan. Bu borada biror fikr bildirishdan oldin ushbu sohaning taniqli olimlarining fikrlarini keltirmoqchimiz.

Nemis olimi K.Trollning fikricha, geoekologiyaning obyekti – landshaft, predmeti – landshaftning ekologik xususiyatlari va funksiyalaridir (Troll, 1972).

Fransuz olimi P.Delkurtning fikricha, obyekti – landshaft, predmeti – landshaftning strukturasini hamda uning hududiy va davriy jarayonlarining borishini baholash, landshaftning antropogenlashuvining ekologik oqibatlarini o‘rganishdir (Rixling, 1999).

Polyak olimi A.Rixling bo‘yicha, obyekti – landshaft, predmeti – landshaft komponentlari va ular orasida ro‘y beradigan o‘zaro aloqadorlikni tahlil qilish, tabiiy hududiy birliklarni, tabiiy muhitni insonning turli faoliyati uchun baholash, tabiiy hududni tashkil etishdir (Rixling, 1999).

Gollandiyalik Y.S.Zonnefeldning fikricha, obyekti – Yer yuzasi, ya’ni geografik qobiq, predmeti – geografik qobiqda sodir bo‘layotgan barcha hodisalarni inson ekologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etish (Rixling, 1999).

AQSH olimlari R.Forman va M.Gordonlarning fikricha, obyekti – ekosistema, predmeti – ekotizimlarning shakllanishi va ekologik funksiyalari hamda hududlardan foydalanishning usullarini optimallashtirishdir (Rixling, 1999).

B.I.Kochurov ta’rificha, obyekti – geotizim, predmeti – tirik organizmlarning abiotik muhit bilan o‘zaro ta’sirining makon-zamondagi qonuniyatlari bo‘lgan fandir.

A.G.Isachenko bo‘yicha, obyekti – geotizim, predmeti – geotizimlarni ekologik nuqtai nazardan va insoniyatning ekologik muammolarini yechish maqsadida tadqiq etish, o‘rganishdir.

I.E.Timashevning fikricha, ob’ekti – geotizim, predmeti – tabiat va jamiyat orasidagi bo‘lishi mumkin barcha hodisa va jarayonlarni, ayniqsa, salbiy tusdagilarini – insonlarni o‘rab turgan tabiiy va tabiiy antropogen geotizimlarning holatiga va rivojlanishiga ta’sir etadiganlarini o‘rganish, tavsiflash va oldini olish.

A.V.Chigarkin bo‘yicha, obyekti – geotizim, predmeti – geotizimlarning ekologik xususiyatlarini tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va sog‘lom atrof muhitni saqlash maqsadida o‘rganish.

A.A.Rafiqovning fikricha, obyekti – geotizim, predmeti – geotizim (landshaft)lardagi ekologik qonuniyatlar va jarayonlarni inson ekologiyasi nuqtai nazaridan o‘rganish.

Geoekologiyaning o‘rganish obyekti ekotizimlar va geoekotizimlar deguvchilar ham bor, lekin predmetiga ta’rif berilganda yuqoridagi singari e’tibor, asosan, tabiiy muhitga salbiy antropogen ta’sirni o‘rganish, uning oldini olish va tabiiy muhitni optimallashtirishga qaratilgan.

Bizningcha, geoekologiyaning **obyekti** – turli ko‘lamdagi geotizimlar, tadqiqot **predmeti** esa – geotizimlarning tabiiy holatini saqlash, muhofaza qilish, geoekologik muammolarning oldini olish va bartaraf etish, tabiiy muhitni optimallashtirish, shuningdek, geotizimlarning komponentlaridan resurs (biologik, mineral, rekreatsion va b.) sifatida oqilona foydalanish masalalaridir.

Geotizim – boshqaruvchan tizimlarning alohida, o‘ziga xos sinfi; yer yuzasidagi komponentlari bir-biri bilan tizimli aloqada bo‘lgan hamda ma’lum yaxlitlik sifatida fazo qobig‘i va kishilik jamiyati bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan barcha o‘lchamdagisi maydon.

Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, **geotizim** – o‘zaro bog‘liq komponentlarning to‘g‘ri va teskari aloqalar orqali birlashgan hamda bir-biri bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan tabiat va jamiyat kichik tizimlaridan iborat moddiy-energetik bir butun yaxlit holdagi hududiy tizim, deb ta’rif bersak bo‘ladi.

Geoekologik tadqiqotlarda geotizim – insonning haqiqiy yashash muhiti, xo‘jalik faoliyati bevosita yoki bilvosita ta’sir etadigan tabiiy, tabiiy-antropogen (o‘zgartirilgan tabiiy) yoki antropogen (inson tomonidan butunlay o‘zgartirilgan) hududiy tizim sifatida qaraladi.

Geotizimlarning ko‘lamiga, ya’ni katta-kichikligiga qarab global, regional, topologik (lokal) darajalari ajratiladi.

Geotizimlarning modda va energiya almashinuviga ko‘ra ikki tipi ajratiladi:

- a) modda, energiya va axborot almashinuvi chegarasidan tashqariga chiqmaydigan yopiq tizimlar, masalan, geografik qobiq;
- b) modda, energiya va axborot almashinuvi chegarasidan tashqariga chiqadigan ochiq tizimlar, masalan, landshaftlar.

Geotizimlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ❖ gomeostazning mavjudligi – ichki dinamik muvozanat holati;
- ❖ turg‘unlik – tizimda tebranishlarning tezda so‘nishi yoki yo‘qligi;
- ❖ barqarorlik – tashqi ta’sirga qarshilik ko‘rsatish va bu ta’sir tugaganidan so‘ng dastlabki holatini qayta tiklash imkoniyati;
- ❖ elastiklik – tizimning bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish qobiliyati.

Maqsadi va vazifalari. Ma’lumki, fanning asosiy vazifasi inson hayoti, turmushining farovon bo‘lishiga xizmat qilishdir. Bu masalaga har bir fan sohasi, jumladan, geoekologiya ham, o‘z tadqiqot yo‘nalishi doirasida hissa qo‘sadi.

Geoekologik tadqiqotlarning **maqsadi** – geotizimlarda insonning tabiiy muhit bilan bo‘lgan munosabatida yuz beradigan barcha hodisa va jarayonlarni tadqiq etish, geotizimlarda bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash, baholash, prognozlash, boshqarish va tabiiy muhitni optimallashtirishdan iborat.

Geoekologik tadqiqotlarning **asosiy vazifasi** – geotizimlarda kechayotgan tabiiy jarayonlar bilan manfaatlari ko‘pincha zid bo‘lgan aholi va ishlab chiqarish o‘rtasida oqilona va maqbul murosa topish orqali atrof tabiiy muhitni optimallashtirish. Shundan kelib chiqadigan *kichikroq vazifalari* quyidagilar:

- ✓ tabiiy muhitda bo‘layotgan tabiiy va antropogen jarayonlarni o‘rganish;
- ✓ geotizimlarga ta’sirning asosiy manbalari va ularning geoekologik vaziyatini aniqlash;
- ✓ atrof muhitga va geotizimlarga antropogen ta’sir manbalarini, ularning turlari va miqyosini, makon va zamondagi taqsimlanishini o‘rganish;
- ✓ turli tabiiy komponentlarning va tabiiy muhitning ifloslanish darajasi va o‘zgarishini tadqiq etish, ular dinamikasining doimiy nazoratini olib borish;
- ✓ geotizimlarga turli darajadagi antropogen yukni va bu yukka ularning barqarorligini o‘rganish, ushbu geotizimlarni tartibga solish va boshqarish, turli ko‘rinishdagi texnologik jarayonlarga biotaning ta’sirlanishini o‘rganish;
- ✓ geotizimlarning inson sog‘lig‘i va xo‘jalik faoliyati uchun qulay yoki noqulaylik darajasini aniqlash;
- ✓ antropogen ta’sirlarni baholash, prognozlash va modellashtirish;
- ✓ geotizimlardan oqilona va eng yaxshi natija beradigan foydalanish turi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va h.k.

Nazorat savollari:

- 1.Geoekologiyaning tadqiqot obekti nima?
- 2.Geoekologiya nazariyasi deganda nimani tushunasiz?
- 3.Geoekologiyaning predmeti deganda nimani tushunasiz?
- 4.Geoekologiyaning maqsadi va vazifalari haqida nimalar bilasiz?

2-MAVZU: GEOEKOLOGIYANING RIVOJLANISHI VA HOZIRGI HOLATI

XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa, XXI asr arafasida atrof muhitni asrash, muhofaza qilish muammolariga e’tibor sezilarli darajada o‘sdi hamda ilmiy va amaliy

faoliyatning turli jabhalarini “ekologiyalashtirish” kuchaydi. So‘nggi 30-35 yil ichida “geoekologiya” so‘zi keng tarqaldi. Oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejalariga fan sifatida kiritildi, ayrim kafedralar, fakultetlar, ilmiy jurnallar shu nom bilan atala boshladi. Lekin ba’zan chalkash, gohida esa bir-biriga zid fikrlar uchrab turadi. Bunday holat, birinchidan, ushbu tushunchaning turlicha ishlatalishi bilan, ikkinchidan, mazkur sohada izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarining tayanch ma’lumoti har xilligi bilan bog‘liq. Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun “geoekologiya” tushunchasi va ilmiy yo‘nalishining vujudga kelishi, uni qaysi fan sohasi vakillari rivojlantirgani va hozirgi holatini ko‘rib chiqish taqozo etiladi.

Geoekologiyaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish tarixida 4 ta asosiy davrni ajratish mumkin.

1. Geoekologik bilimlarning to‘planishi va geoekologiyaning fan sifatida vujudga kelishi uchun mavjud konsepsiyalarni anglash (1939-yilgacha) davri. XX asrning boshlariga kelib, geoekologiyaning shakllanishida asos bo‘lgan geografiya va ekologiya fanlari zaminida tabiat va jamiyat o‘zaro munosabatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ko‘pgina g‘oyalar, konsepsiylar, ilmiy yo‘nalishlar dunyoga kelgan edi. Shuningdek, insonning tabiatga bo‘lgan ta’sir ko‘laming ortib borishi tufayli inson va tabiat munosabatlarini o‘rganishda o‘zida geografik va ekologik bilimlarni sintezlashtiruvchi ilm sohasining dunyoga kelishi muqarrar bo‘lib qolgan edi. Shu munosabat bilan geografiya fanida bir qancha ta’limotlar – biosfera haqidagi (Vernadskiy, 1926), geografik qobiq haqidagi (Grigoryev, 1932) hamda bir necha konsepsiylar (biotsenozlar (Myobius, 1877), ekotizimlar (Tensli, 1935) va h.k.)ga asoslanib, tadqiqotlarning yangicha mazmun kasb etishi natijasida geoekologik yo‘nalish shakllana boshladi.

Bu davrda V.V.Dokuchayev, D.N.Anuchin va ularning shogirdlari “landshaftshunoslik” fani singari geoekologiyaga ham o‘z vaqtida asos solgan edilar. Chunki ularning ishlarida tabiatga bir butun tizim sifatida qarash, tabiatdan foydalanishda ularning hududiy farqlaridan kelib chiqib, ya’ni zonal-regional darajada o‘rganish lozimligi aytilgan edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ularning landshaftshunoslik maktabi keyinchalik geografik-ekologik fan sifatida rivojlandi. Bu davrda O‘rtta Osiyoda SAGU (hozirgi O‘zMU) professorlari D.N.Kashkarov va E.P.Korovinlar ham mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayotgan edi.

2. Landshaft ekologiyasining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda geografiyada ekologik yondashuv rivojlanishining klassik davri (1939-yildan 1960-yillargacha).

“Geoekologiya” terminini nemis geografi, aniqrog‘i landshaftshunos **Karl Troll** birinchi bor 1939-yilda *Landschafts ökologie* deb, keyinchalik A.Tenslining ekotizimlar va V.B.Sochavanning geotizimlar haqidagi ta’limotlaridan foydalangan holda takomillashtirib, “turli mamlakat olimlarining o‘zaro bir-birlarini tushunishlarini osonlashtirish maqsadida 1966-yilda inglizchada *Geoeology* deb ishlataldi. Buning sababi ingliz tilida “*Landschafts ökologie*” terminining ayni ma’nosini anglatuvchi mos so‘zning yo‘qligi edi” (Troll, 1972). Bu termin K.Troll tomonidan ikki yondashuvni, ya’ni tabiat hodisalarining makondagi o‘zaro ta’sirini o‘rganishga qaratilgan “gorizontal” hamda hodisalar orasidagi o‘zaro aloqani geotizim doirasida o‘rganuvchi “vertikal” yondashuvlarni birlashtirish maqsadga muvofiqligini ifodalash uchun kiritildi. Mazkur termin o‘scha vaqtida yaxshi tarmoqlangan strukturaga (o‘simliklar ekologiyasi, hayvonlar ekologiyasi, mikroorganizmlar ekologiyasi va h.k.) ega bo‘lgan klassik (biologik) ekologiyaga qarshi qo‘llanilgan va fanga kiritilgan edi.

Karl Troll 24.12.1899-y. Bavariyada Vassenburg shahri yaqinida tug‘ilgan va 21.07.1975-y. Bonn shahrida vafot etgan. Berlin (1930) va Bonn (1938) universitetlarining professori. Bonn universitetining Geografiya instituti direktori (1938), Bonn universiteti rektori (1960-1961), Xalqaro geografiya uyushmasi prezidenti (1960-1964). 1926-yildan boshlab, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika, Markaziy Osiyoning tog‘li rayonlariga

uyushtirilgan ekspeditsiyalarda qatnashgan. K.Troll havodan turib geografik tadqiqotlar olib borish va aerofotosuratlarni landshaft-ekologik deshifrirovka qilishga ixtisoslashdi. Asosiy ilmiy ishlari relyef, iqlim, o'simlik, ularning o'zaro aloqalari, shuningdek, landshaft ekologiyasi muammolarini o'rganishga bag'ishlangan.

Geoekologiya o'zaro ekologik munosabatlarning makondagi aloqalarini aniqlashga yo'naltirilgan geografik tadqiqotlarda ekologik metodologiyaning qo'llanishi natijasida shakllandi. Geoekologiya "landshaftlarni tadqiq etishda tirik organizm va abiotik muhit orasidagi ekologik aloqalarni tahlil qilish orqali, tabiiy komplekslarning tuzilishi va maxsus faoliyatini topologik ko'lama o'rganishi lozim. Landshaftlarning tarkibiy qismlari o'zaro aloqalari va landshaftlarning tabiiy komponentlariga jamiyatning ta'sirini tadqiq etishda modda va energiya balansini tahlil qilish yo'li bilan o'rganishi kerak. Buning uchun geografiyaga chuqur ekologik bilimlar zarur, o'z navbatida, ekologiya uchun esa yashash muhitining hududiy tabaqlanishi haqidagi bilimlar juda zarurdir". Bunday yondashuv landshaftning biologik mahsuldorligini muhitning edafik va iqlim sharoitlari bilan uzviy bog'ladi.

Bu vaqtida landshaft ekologiyasi bilan sobiq Ittifoqda landshaftshunoslik va biogeotsenologiya fanlari ham shug'ullanayotgan edi va ular doirasida yuqorida ko'rsatilgan vazifalar bajarilar edi. Jumladan, O'zbekistonda SAGU professorlari D.N.Kashkarov va E.P.Korovinlar ham (K.Troll bilan bir paytda) geografik-ekologik tadqiqotlar olib borganlar. XX asrning 50-yillardan boshlab respublikamizda L.N.Babushkin va N.A.Kogaylar tomonidan landshaftlarni o'rganish va qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan baholash ishlari bajarilgan. Keyinchalik ularning ishlari landshaft-ekologik yo'nalishda rivojlandi. Bu haqda Sh.S.Zokirov (1999) to'xtalib, "D.N.Kashkarov, E.P.Korovin, T.Z.Zohidov, V.M.Chetirkin, L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning ilmiy yo'nalishlari geografik-ekologik yo'nalish" ekanligini ta'kidlaydi.

3. Dolzarb global va regional ekologik muammolarni yechish uchun geografik va ekologik bilimlarning integratsiyasi bilan bog'liq tarmoq va kompleks geoekologik tadqiqotlar davri (1960-yillardan 1990-yillargacha). Bu davrda geoekologiyaning mazmuni kengaydi. U ko'proq inson xo'jalik faoliyatining abiotik muhit va umuman, atrof muhitga ta'sirining oqibatlarini o'rgana boshladi. Bunday mazmundagi tadqiqotlarning turdosh fanlarda ham olib borilishi geoekologiyaning qaysi fan sohasiga tegishli ekanligi borasida bahs-munozara va ko'pincha uning noto'g'ri talqin etilishiga olib keldi.

"Geografiya" fanida geografik tadqiqotlar, asosan, inson xo'jalik faoliyatining landshaftlarga ta'siri va uning oqibatlarini o'rganishga qaratildi. 1970-yillarning boshlaridan geoekologiya o'zida klassik nemis geografiyasi davridan beri rivojlanib kelgan landshaft haqidagi ta'limot, landshaftlarni parvarishlash, landshaftli rejalashtirish kabilarni sintezlashtirdi.

Sobiq Ittifoqda, xususan, mamlakatimizda "geoekologiya" terminining qo'llanilishi 1970-yillar boshidan boshlandi. Ayniqsa, geoekologik tadqiqotlar, akademik V.B.Sochava va uning izdoshlari tomonidan olib borilgan, o'zida landshaftshunoslik, fitotsenologiya va ekologiyaning ilmiy yondashuvlarini birlashtiruvchi tadqiqotlarda faol rivojlantirildi. Bunday tadqiqotlar O'zbekistonda ham olib borilib, asosan, professor A.A.Rafiqovning tadqiqotlarida rivojlantirildi va respublikamizda geoekologiyaning rivojlanishi aynan uning nomi bilan bog'liq.

Geologiyada ekologik masalalar geologiya va ekologiyaning o'rtasida vujudga kelgan yangi yo'nalish sifatida 1989-yilda Ye.A.Kozlovskiy tomonidan ta'riflangan edi. Bunda u 1967-yilda A.V.Sidorenko taklif etgan "Texnik geologiya"ni nazarda tutgan edi, ya'ni bu fanning vazifasi – insoniyat tomonidan o'zlashtirilayotgan yer po'sti va uning yuzasini o'rganish edi. Shundan so'ng "geoekologiya" atamasi geologiyada keng qo'llanila boshladi

va ko‘pincha chalkashliklar kelib chiqdi, ya’ni har safar ushbu termin ishlatilganda qanday ma’noda – geografik yoki geologik ma’noda ishlatilayotganiga izoh berishga to‘g‘ri keldi. 1990-yillarning o‘rtalariga kelib ko‘pchilik geologlar “geoekologiya” terminining o‘rniga “ekologik geologiya” atamasini ishlatishni ma’qul deb topdilar va hozirda o‘z asarlarida qo‘llamoqdalar.

Bugungi kunda ko‘pgina biologlarning fikricha, organizmlar ekologiyasini faqatgina biologik fanlar orqaligina o‘rganish biryoqlama bo‘lib qoladi va uni boshqa fanlar, ayniqsa, geografiyadan ajratgan holda o‘rganish, ya’ni ushbu organizmlarning yashash hududidan ajratib o‘rganish kutilgan natijalarga olib kelmaydi. Taniqli ekolog olim N.F.Reymersning fikricha, geoekologiya geografik fan bo‘lib, muhit (havo, quruqlik, suv) ekologiyasi, tabiiy landshaftlar ekologiyasi va madaniy landshaftlar ekologiyasi kabi tarmoqlarga bo‘linishi kerak.

Tuproqshunoslikda ekologik masalalar XX asrning 20-yillarida paydo bo‘ldi va yangi yo‘nalish – “tuproqlar ekologiyasi” shakllandi. 1960-yillarga kelib geosistema va geoekologiya terminlari paydo bo‘lganidan so‘ng tuproqni “geosistemaning markazi” sifatida qarab, “tuproqlar ekologiyasi”ni geoekologiya deb nomlash hollari bo‘ldi. Lekin bu terminning qo‘llanishi ko‘pgina tushunmovchilik va noqulayliklarni keltirib chiqargani sababli 1990-yillarning boshlariga kelib tuproqshunoslar uchun tushunarli va qulay bo‘lgan “pedoekologiya” termini ishlatila boshlandi.

Demak, 1990-yillarning boshlariga kelib geoekologiya alohida fan sifatida uzil-kesil shakllandi hamda geograflar, geologlar va tuproqshunoslarning barchasi, biologlarning aksariyati va boshqa soha vakillari tomonidan geoekologiyaning geografik fanlar tizimiga kirishi e’tirof etildi.

4. Hozirgi sivilizatsiyaning barqaror rivojlanish konsepsiyasini amaliyatga tatbiq qilish uchun geoekologik bilimlarni umumlashtirish va geoekologiya metodologiyasini rivojlanish davri (1990-yillardan hozirgacha).

Bu davrning boshlanishiga 1987-yilda BMT qoshida Norvegiya sobiq bosh vaziri Gro Xarlem Brundtland raisligidagi Atrof muhit komissiyasining “Bizning umumiy kelajagimiz” nomli hisoboti hamda 1991-yilda nashr etilgan “Yerni asrash. Barqaror hayot strategiyasi” nomli asari asos bo‘ldi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishga 1992-yilda Rio-de-Janeyroda bo‘lib o‘tgan “Atrof muhit va rivojlanish” xalqaro konferensiyasida qaror qilinib, butun dunyo mamlakatlariga murojaat etildi.

Bu davrga kelib geoekologiyaning keng qamrovli, fanlararo yondashuvga ega bo‘lgan fan sohasi ekanligi, bunda geografiyaning markaziy o‘rin egallashi, geoekologik tadqiqotlarda geografik bilimlardan keng foydalanish lozimligi o‘z isbotini topdi. Hozirgi paytda geoekologiya tabiiy muhitning (geotizimlarning) tabiiy va antropogen o‘zgarishining geografik oqibatlarini o‘rganish, ularni ekologik (ya’ni yashash sharoitiga ta’sirini) baholash bilan shug‘ullanadi. Geoekologiya geotizimlarni, bir tomondan, insonning yashash muhiti, ikkinchi tomondan esa, uning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining muhiti sifatida o‘rganadigan geografik fan bo‘lib shakllanganini V.B.Sochava, A.G.Isachenko, M.D.Grodzinskiy, A.A.Chibilyev, B.A.Kochurov, A.A.Rafiqov va boshqalarning ishlarida ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda geoekologik tadqiqotlarning rivojlanishi va professor A.A.Rafiqov geoekologiya ilmiy matabining shakllanishi. O‘zbekistonda geoekologiyaning rivojlanishi jahon ilmi, xususan, qo‘shni respublikalardagi ilmiy tadqiqotlar bilan hamnafas bordi. K.Troll bilan bir paytda O‘rta Osiyo Davlat universiteti (SAGU) professorlari D.N.Kashkarov va E.P.Korovinlar ham tadqiqotlar olib borganlar. Ularning ushbu ilmiy yo‘nalishlari nafaqat sobiq Ittifoqda, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan ham tan olinganligini va geografik-ekologik matabni aynan O‘zbekistonda ilk bor shakllanganligini professor R.U.Rahimbekov asoslab berdi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab mazkur landshaft-ekologik maktabni respublikamizda L.N.Babushkin va N.A.Kogaylar davom ettirdilar. Bu haqda Sh.S.Zokirov shunday yozadi: “landshaftlar qishloq xo‘jaligi, uning biror tarmog‘i nuqtai nazaridan tahlil qilinsa yoki baholansa, bu landshaftshunoslikda ekologik yondashish bo‘ladi”, – deydi va so‘zini davom ettirib, – bir qator olimlarning ilmiy yo‘nalishlarini geografik-ekologik yo‘nalish ekanligini ta’kidlaydi.

Keyinchalik ushbu maktabni professor A.A.Rafiqov jadal rivojlantirdi. U XX asrning 80-90-yillarida «Geoekologiya»ning asl mohiyatini ochib berishda, avvalo, O‘zRFA Geografiya bo‘limida (1981-1998-yy.), so‘ngra O‘zMU (ToshDU) Geografiya fakulteti Tabiiy geografiya kafedrasida (1998-2003-yy.) samarali faoliyat olib bordi. U respublikamizning Mirzacho‘l, Qizilqum, Orol va Orolbo‘yi kabi turli mintaqalarida olib borgan o‘nlab ekspeditsiyalari va tadqiqotlari asosida ro‘y berayotgan ekologik o‘zgarishlarni bevosita geotizimlar doirasida aks etishini isbotlab berdi.

A.A.Rafiqov boshchiligidagi O‘rtal Osiyoda olib borilgan geoekologik tadqiqot natijalari 1992-yil respublikamizda ilk bor 1:1000000 masshtabda yaratilgan “O‘zbekiston Respublikasining ekologik kartasi” da aks etdi. Kartaning mazmunida mamlakatimiz hududidagi landshaftlarning turli xil darajada ekologik o‘zgarganligi ko‘rsatib berildi. Olim bir guruh geograflar bilan hududning ekologik sharoiti geotizimlar miqyosida yaqqol namoyon bo‘lishini yoqlab chiqdi. Mazkur tadqiqot ishida ekologik vaziyat darajalari 13 ta indikator asosida tavsiflangan va 5 ta pog‘onaga ajratilgan: **qanoatlanarli, o‘rtacha qanoatlanarli, o‘rtacha, keskin, tang.** Bunda geoekologik indikatorlar sifatida tabiat komponentlarining son va sifat ko‘rsatgichlari olindi. Keyinchalik A.A.Rafiqov (1999) ushbu indikatorlarni takomillashtirib, sonini 16 taga yetkazadi, Shuningdek, 13 ta indikatordan 5 tasining o‘rniga boshqalarini taklif qiladi. Ushbu indikatorlardan “O‘zbekiston tabiatni muhofaza qilish kartasi” ni (2003) tuzishda foydalaniib, geoekologik vaziyatlar landshaftlarning o‘zgarganlik darajasi sifatida yetti pog‘onali shkalada berilib, turli ranglarda tasvirlangan. Mazkur har ikkala kartani tuzishda landshaft kartasi asos qilib olingan.

1997-yilda A.A.Rafiqovning «Geoekologik muammolar» nomli kitobi nashr etildi. Unda tabiat va jamiyat o‘rtasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning geoekologik jihatlari ochib berilgan. O‘rtal Osiyo, xususan, O‘zbekiston misolida, geoekologik muammolarning paydo bo‘lishi va shakllanishi yoritib berilgan. Global, mintaqaviy va mahalliy geoekologik masalalar tabiiy geografik nuqtai nazardan baholangan.

Professor A.A.Rafiqov rahbarligida regional va lokal miqyosdagi geoekologik tadqiqotlarga bag‘ishlangan bir qancha ilmiy ishlar bajarildi va bunday tadqiqotlar u yaratgan ilmiy mакtab vakillari tomonidan davom ettirilmoqda.

A.S.Nazarov agrolandshaftlarning pestitsidlar bilan ifloslanishini baholash va rayonlashtirish masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib bordi va hozirda ham davom ettirmoqda.

A.N.Xojimatov O‘zbekiston cho‘l zonasini voha landshaftlarining holatini, yuz berayotgan o‘zgarishlarni baholash va proqnoz qilish masalalari bo‘yicha izlanishlar olib bordi.

A.K.Kurbaniyazov Orol dengizi qurigan tubi janubiy qismi landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi hamda cho‘llashish jarayoni bilan kurashish tadbirlari bo‘yicha ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqotlar olib bormoqda.

R.Usimanova Qashqadaryo viloyatida geotizimlardan rekreatsion maqsadda foydalanishning geoekologik asoslarini ishlab chiqish bilan birga, aholining xordiq chiqarishi va dam olishini yaxshilash, sog‘ligini tiklash uchun tabiiy geografik komplekslarni atroflichha baholash va proqnozlash zarurligini asosladi.

K.J.Allanazarov Amudaryo deltasining sug‘orilmaydigan qismi tabiiy sharoiti va resurslarini qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda tutgan o‘rnini ko‘rsatish bo‘yicha tadqiqotlar

olib bormoqda. U mahalliy geoekologik muammolarni hal etishning kompleks-geografik asoslarini ishlab chiqdi va amalda tatbiq etishga doir ko'rsatmalar berdi.

G.Ch.Donbayeva Qирғизистонning Талас вodiysi suv resurslaridan oqilona foydalanish orqali atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning havzaviy usullarini ishlab chiqdi va uni amalga tatbiq etmoqda.

A.A.Nazarov Namangan viloyati tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishning ekologik-geografik asoslarini tadqiq etdi. U Namangan viloyati misolida, respublikamizda ilk bor, tabiatdan foydalanish rayonlarini ajratishning geoekologik asoslarini ishlab chiqdi hamda amaliyatga tavsiya va takliflar berdi.

Z.A.Amanbaeva Ohangaron daryo vodiysi o'rta qismi havzasining geoekologik vaziyati va uni optimallashtirish yo'llariga oid tadqiqotlarni olib bordi. U geoekologik vaziyatni optimallashtirishda relyef shakllari va elementlarini hisobga olish ijobiy natija berishini isbotladi hamda amaliyatga tavsiya va takliflar berdi.

A.A.Hamidov Farg'ona vodiysi misolida tabiiy geografik tadqiqotlarning geoekologik ahamiyatiga doir ilmiy izlanishlar olib borib, O'zbekistonda "Geoekologiya"ni rivojlantirishda tarixan boy tabiiy geografik tadqiqotlarga suyanish lozimligini isbot qildi va bu tadqiqotlarini davom ettirmoqda.

O.I.Abdug'aniyev Farg'ona viloyati misolida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish orqali geoekologik vaziyatni yaxshilash masalalarini o'rganmoqda.

Shu mакtab namoyondalaridan yana biri – Sh.M.Sharipov tabiatni muhofaza qilishda geoekologik yondashuv, ya'ni har bir geotizimning o'ziga xos xususiyatlarini, ularga antropogen yuk va geoekologik vaziyatni baholash, geoekologik vaziyatni yaxshilash va tabiatdan foydalanishni optimallashtirish chora-tadbirlarini tabaqlashgan holda amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Tadqiqotchi tomonidan Toshkent viloyati misolida, tog'oldi va tog' rayonlarida aholining joylashuvi va geotizimlarga antropogen yuk, o'z navbatida, geoekologik vaziyat balandlik mintaqalanishi qonuniyatiga bo'ysingan holda daryo o'zanlaridan suvayirg'ichlarga tomon o'zgarishini isbotladi, tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni optimallashtirish chora-tadbirlarini tabaqlashgan holda amalga oshirish bo'yicha amaliyatga tavsiya va takliflar berildi.

Professor A.A.Rafiqov yaratgan geoekologik ilmiy mакtab tadqiqotlari natijasida respublikamiz geoekologik vaziyatini baholashning son va sifat ko'rsatgichlari ishlab chiqildi, uni prognozlash va monitoringini olib borish yo'llari aniqlandi, geoekologik kartalashdirish metodlari ishlab chiqildi, mintaqaviy va mahalliy qonuniyatlar olib berildi. Hozirgi kunda O'zMU va respublikamizdagи boshqa oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilar, izlanuvchilar hamda ilmiy tekshirish institutlarining tadqiqotchilar mazkur yo'nalishda izlanishlar olib bormoqdalar.

Geoekologiyaning fan sifatidagi bugungi holati va geoekologik tadqiqotlarning mazmun-mohiyati haqida, yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtirib, quydagicha fikrga kelish mumkin:

❖ Geoekologiya – tabiiy va antropogen o'zgargan geotizimlarning tarkibi, strukturasi, maxsus faoliyatining qonuniyatlar va evolyutsiyasini o'rganuvchi fan. U Yerning ekologik muammolari haqidagi barcha bilimlarni jamlaydi hamda Yerda tabiiy muhit va hayotni saqlashni asosiy maqsad qilib oladigan, biologik, geologik va boshqa fanlarning yutuqlaridan foydalanadigan geografik fan sifatida namoyon bo'ladi.

❖ Geoekologiya – geografik qobiq va insoniyatning integratsiyalashuvi haqidagi fanlar tizimi, yoki mazkur integratsiya jarayonidagi o'zaro bog'liq tizim sifatida "yashash qobig'i" ni tadqiq etuvchi fanlararo ilmiy yo'nalishdir. Bunda "yashash qobig'i" deganda, geografik qobiqning nisbatan yupqa, ya'ni asosiy geosferalar (atmosfera, gidrosfera, litosfera) tutashadigan hamda inson yashaydigan va faoliyat ko'rsatadigan qobiq tushuniladi. Bu

holatda “yashash qobig‘i” tushunchasi geografik qobiqning bir qismi bo‘lib, V.I.Vernadskiy ta’riflagan “hayot pardasi” yoki F.N.Milkov aytgan “landshaft qobig‘i” ga mos tushadi.

❖ Geoekologiya – ekologiyaning qonunlarini Yer haqidagi barcha fanlarning qonuniyatları bilan sintezlashtiruvchi, fanlar orasida shakllangan fan sifatida qarash mumkin. Bu fan atrof muhitning qulay yoki noqulayligi, geotizimlarning inson yashashi va faoliyat ko‘rsatishi uchun qanchalik qulay yoki noqulayligi, nima uchun shundayligini o‘rganadi.

❖ Geoekologiya – geotizimlarning shakllanishi, uning antropogen o‘zgarishi, sivilizatsiyaning yashashi va barqaror rivojlanishi, shuningdek, atrof muhitning prognozi bilan shug‘ullanuvchi fandir. U juda ko‘plab, ayniqsa, geologik-geografik fanlarning ma’lumotlarini tabiiy va tabiiy-antropogen geotizimlarning strukturasi, maxsus faoliyat qonunlarini yanada chuqurroq tushunish maqsadida tahlil qiladi va sintezlashtiradi.

Demak, bugungi **geoekologiya** – tabiat-jamiyat munosabatlari va geoekologik hodisa-jarayonlarning o‘zaro bog‘liqlik, bir-birini taqozo etishini hamda insonlarning yashash muhitini optimallashtirish va geoekologik vaziyatni yaxshilashni geotizimlarda o‘rganuvchi fandir.

Geografiya va ekologiya fanlari geoekologiyaning nazariy asosi sifatida

Geoekologiyaning shakllanishida asos bo‘lgan geografiya va ekologiya fanlari so‘nggi 150 yil davomida jadal rivojlandi. Bu fanlar zaminida tabiat va jamiyat o‘zaro munosabatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ko‘pgina g‘oyalar, konsepsiylar, ilmiy yo‘nalishlar dunyoga keldi.

Geoekologiya bu jihatdan bir qancha ta’limotlar: biosfera haqidagi (Vernadskiy, 1926), geografik qobiq haqidagi (Grigorev, 1932), biogeotsenoz haqidagi (Sukachev, 1941), landshaft haqidagi (Solnsev, 1943), noosfera haqidagi (Vernadskiy, 1944), geosistemalar haqidagi (Sochava, 1963) va boshqa ta’limotlarga hamda bir nechta konsepsiylar: biotsenozlar (Myobius, 1877), ekosistemalar (Tensli, 1935), geotextizimlar (Preobrajenskiy, Reteyum, Dyakonov, Kunitsin, 1972) va boshqalarga tayanadi.

Geografiya geoekologiyaga kompleks yondashuv, tabiatdagi mavjud o‘zaro bog‘liqliklar, geokomponentlarning butun geografik qobiq rivojlanishidagi o‘rni va ularning jamiyatni barqaror rivojlanishi uchun resurs ahamiyati, geotizimlarning tabaqlanishi, barqarorligi va boshqa tushunchalarni berdi.

Ekologiya esa geoekologiyaga ekologik yondashuv, biosfera va noosfera haqida, atrof muhit va uning sifati haqidagi, organizmlar, biotsenozlar va biogeotsenozlar, ekotizimlar haqidagi, energiya, modda va axborotning almashinushi to‘g‘risidagi va boshqa tushunchalarni berdi.

Geoekologik tadqiqotlarning ilmiy nazariy asoslarini unda amal qilinadigan konsepsiylar, prinsiplar va qonunlar, qo‘llaniladigan yondashuvlar va tadqiqot usullari tashkil etadi.

Geoekologik tadqiqotlarda amal qilinadigan konsepsiylar, prinsiplar va qonunlar, qo‘llaniladigan yondashuvlar va tadqiqot usullariga o‘tishdan oldin, uning fan sohasi sifatidagi asosiy xususiyatlariga e’tibor qaratishimiz lozim:

- ❖ geoekologiya – geotizimlardagi ekologik hodisa va jarayonlar haqidagi fan;
- ❖ geoekologiya – geoekologik muammolar va geoekologik vaziyatni o‘rganuvchi fan;
- ❖ geoekologiya – tabiiy va ijtimoiy ilm sohalari doirasida rivojlanmoqda;
- ❖ geoekologiya – tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlar hamda geoekologik hodisa va jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini taqozo etishi haqidagi fan” (Timashev, 2000) ekanligi.

Nazorat savollari:

- 1.Geoekologiya atamasi mohiyatini tushuntiring.
- 2.Geoekologiyaning fan sifatida vujudga kelish tarixini yoritib bering.
3. O'zbekistonda geoekologik tadqiqotlarning rivojlanishi va professor A.A.Rafiqov geoekologiya ilmiy matabining shakllanishi haqida nimalar bilasiz?
- 4.Geografiya va ekologiya fanlari geoekologiya nazariy asosi sifatida.

3-MAVZU: GEOEKOLOGIYA – GEOTIZIMLAR EKOLOGIYASI HAQIDAGI FAN

Yer yuzida aholi sonining o'sishi bilan tabiatga ta'sir ortib borishi natijasida geotizimlarda ming yillar davomida barqaror bo'lib kelgan tabiiy muvozanat buzilib, inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabat murakkablashib, ekologik inqirozli hududlar tarkib topmoqda. Geoekologik vaziyatlar murakkablashib borayotgan sharoitda ushbu munosabatlarni o'rganish, uning makon va zamonda o'zgarishini nazorat qilish, baholash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish o'ta dolzarb masaladir.

Geoekologiya termini uchta o'zakdan tashkil topgan: *ge* – yer (abiotik komponentlar), *oikos* – uy, yashash joyi, *logos* – ta'lilot, fan.

Geoekologiyadan bioekologiyadan farqi shundaki, u barcha organizmlarning atrof muhit bilan bo'ladigan munosabatini "o'z uyi" ekotizimda emas, biron taksonomik qiymatdagi geotizimda o'rganadi. Ya'ni unda geografik qonuniyatlar qo'llaniladi. Bunda ikki tizimning o'zaro aloqasi, strukturasi o'rganiladi:

1. Tabiat tizimi – har bir geotizim va tabiat komponentlari o'zaro bir-biri bilan modda va energiya oqimi orqali bog'langanligi va o'zaro munosabatda ekanligi, ushbu munosabatning insonlarga ta'siri kabilar o'rganiladi.

2. Jamiyat tizimi – insonning atrof tabiiy muhit bilan bo'lgan munosabati o'rganiladi.

Geoekologiyada geotizim tabiat va jamiyat kichik tizimlaridan iborat yaxlit tabiiy-antropogen hududiy tizim deb qaraladi. Ushbu geotizimlarning barqarorlik, ekologik va resurs imkoniyatlari mavjud bo'lib, geoekologik tadqiqotlarda ko'proq ekologik va barqarorlik imkoniyatlari o'rganiladi.

Geotizimlarda tabiiy muvozanatning murakkablashuvi ularning xususiyatiga mos holda turli darajada va tezlikda sodir bo'lishi mumkin. Shu sababli, tabiiy jarayonlarni geotizimlarda o'rganish har tomonlama samaralidir. Chunki geotizimlar tabiiy chegaralarga ega bo'lib, bir xildagi geografik sharoit hodisa va jarayonlarni ma'lum yo'nalishda, bir xil tezlikda sodir bo'lishini ta'minlaydi. Demak, biron hududda ro'y berayotgan geoekologik o'zgarishlarni tabaqalashgan tarzda tadqiq etish yuz berayotgan voqelikning aniq sabablarini bilishga yordam beradi. Har bir geotizim ma'lum mazmundagi axborotni beradi.

Tabiiy geografiya bilan ekologiya o'rtasida bog'liqlik mavjud. Buni har bir geotizim misolida ko'rish mumkin. Tirik mavjudot atrofdagi jonsiz tabiat bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Demak, ular orasida bog'liqlik bor, ular bir-birlarga ta'sir etadi, modda va energiya almashinuvni sodir bo'ladi. Bu jarayon eng sodda geotizim – fatsiyadan tortib, eng murakkab geotizim – geografik qobiqqacha bo'lgan makonda yuz beradi, ya'ni sayyoraviy miqyosga ega.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatni nafaqat inson bilan tabiiy muhit, balki butun tirik organizmlar bilan jonsiz tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, bog'liqlik va harakat ma'nosida tushunish lozim. Chunki tirik organizmlar orasida bo'lganidek, jonli va jonsiz komponentlar o'rtasida o'zaro ta'sir mavjud. Lekin, bu murakkab ekologik jarayonlar insonning mehnat faoliyati natijasida yanada jiddiy lashadi. Oqibatda turli ko'rinishdagi geoekologik muammolar vujudga keladi.

Geotizim va ekotizim: o‘xhash va farqli tomonlari. Odatda, atrof muhit tizim sifatida qaraladi. Tizimli yondashuvning mazmuni – tizimni bilishda unga bir butun hosila sifatida qarab, shu bilan birga, u o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir qancha elementlardan iborat ekanligi ham tan olinadi. Tizimli yondashuv asosida tizimni bir butun, shuningdek, ayrim qismlardan iborat ekanligini o‘rganish imkonini ham mavjud.

Geotizim – bu tushunchaning muallifi akademik V.B.Sochava bo‘yicha – bu tabiiy geografik obyekt va tushuncha bo‘lib, geografik qobiqdan boshlab fatsiyagacha bo‘lgan tabiiy geografik birlklarni qamrab oladi.

U geotizimlarning uchta ko‘lamini ajratadi: sayyoraviy geotizim (geografik qobiq) – eng katta tabiiy birlik, regional geotizim (tabiat zonalari yoki tabiiy geografik o‘lkalar, provinsiyalar), topologik ko‘lamdagagi geotizimlar (landshaftlar va ularning morfologik qismlari). Geotizimlar politsentrik xususiyatga ega va barcha komponentlar teng ahamiyatli hisoblanadi. Geotizimlar bioekologik tizimlarni ham o‘z tarkibiga oladi, ekotizimga nisbatan murakkab tuzilgan va hudud masalasi asosiy mezonlardan.

Ekotizim – ekologiyaning asosiy tadqiqot obyekti, tirik organizmlarning yashash joylari bilan birqalikdagi tizimi, ular bir-birlari bilan modda, energiya va axborotning o‘zaro ta’siri bilan birlashgan. “Ekotizim” atamasi ilk bor ingliz botanigi A.Tensli tomonidan taklif etilgan. Ekotizim biror taksonomik qiymat, o‘lchov, murakkablik va genetik jihatdan chegaralanmagan. Shuning uchun u tabiatda xohlagan hududga yoki biron obyektga mos kelishi mumkin (daraxt yoki hayvon tanasi, botqoq, ko‘l, o‘rmon, okean, biosfera). Suv va quruqlik ekotizimlarini ajratish qabul qilingan. Ekotizim – biosferani o‘ziga xos “hujayrasi”, ba’zan biogeotsenoz ekotizimning sinonimi deb ham yuritiladi.

Ekotizim – bu biologik tushuncha. Ekotizimlar monotsentrik sistema, ularda tabiiy muhit va uning abiotik sharoiti organizmlar bilan aloqa nuqtai nazaridan qaraladi. Ekotizimda ikki kichik tizim mavjud: “ho‘jayin” va “uy-muhit”. Bu holda “ho‘jayin”ning muhitga nisbatan ustuvorligi yaxshi sezilib turadi. Ekotizimda trofik (oziq) zanjir, muhitga adaptatsiya hodisalari asosiy bo‘lib, hudud masalasi asosiy mezon emas.

Bu ikki termin tabiatning turli xususiyatlarini aks ettiradi. “Ekosistema” termini, asosan, biotani, ya’ni tirik organizmni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish masalasi o‘rganilganda (ham ilmiy, ham amaliy maqsadlarda) qo‘llanilgani ma’qul. Geotizim terminini esa ham jonli komponentlarni, ham jonsiz komponentlarni, umuman, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi o‘rganilganda qo‘llanganini ma’qul.

Geokologiya umumiylari, amaliy va regional geoekologiyaga bo‘linishi.

Umumiy geoekologiya umumsayyoraviy, global jarayonlar va hodisalarini o‘rganadi. Bunday jarayon va hodisalarga “issiqlik samarasi”, cho’llashish, “ozon tuynugi”, dunyo okeanining ifloslanishi va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Amaliy geoekologiya xo‘jalik faoliyatining ma’lum sohalarida geotizimlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq jarayonlar va hodisalarini o‘rganadi.

Amaliy geoekologik tadqiqotlar investitsion hujjatlarni (tabiiy resurslardan kompleks foydalanish va muhofaza qilish dasturlari, soha va hududiy rivojlantirish dasturlari, hududlarni muhandislik muhofazasi sxemasi, rayon planirovksi sxemasi), shaharsozlik hujjatlari (aholi punktlari bosh planini loyihalashda), loyihalash hujjatlari (bino va muhandislik inshootlarini qurish va ishchi hujjatlarini loyihalash, yerlardan foydalanish loyihalari) ni ishlashda xo‘jalik faoliyatini ekologik asoslash uchun va ekologik monitoringni tashkillashtirish uchun bajariladi.

Regional geoekologiya xo‘jalik faoliyatida foydalanilayotgan muayyan hududlardagi (turli ko‘lamdagagi tabiiy geografik birliklar, ma’muriy-hududiy birliklar, gidrogeologik havzalar yoki daryo havzalari va h.k.) yuz berayotgan geoekologik jarayonlar va hodisalarini o‘rganadi.

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Ekotizim (gr. oykos – uy, vatan+sistema – birikma, birlashma) – birga yashovchi organizmlar va ularning yashash muhiti majmui. “Ekotizim” atamasini fanga 1935-yilda ingliz botanigi Artur Jorj Tensli (1871-1955) taklif etgan. E.da muhitning barcha tirik (o’simlik, hayvon va mikroorganizmlar) va tirik bo‘lmagan (jonsiz tabiat omillari) komponentlari ma’lum qonuniyat asosida o‘zaro aloqada bo‘lib, biotik va abiotik hodisa va jarayonlarning o‘zaro muvofiqlashgan yagona tizimini paydo qiladi. E.ning hajmi ma’nodagi qismi biogeotsenoz bo‘lib, u hajmi va murakkabligi jihatidan turli obyektlarga taalluqli. Unga ko‘ra, E.lar mikroekotizim(chiriyotgan tunka yoki daraxt poyasidagi bir siqim zamburug‘ E.), mezoekotizim (suv havzasi yoki o‘rmon E.), makroekotizim (okean, qit’a E.) va megaekotizim (yaxlit biosferaning E.)ga bo‘linadi.

Geoekologik konsepsiylar

Konsepsiya (lot. *conseptio* – majmua, tizim) – biror sohaga oid qarashlar, prinsiplar tizimi, fakt va hodisalarни tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar (O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 5-jild, 23-b). Inson va tabiat orasidagi o‘zaro aloqlar va munosabatlar to‘g‘risidagi konsepsiylar mavjud jamiyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini, tabiatdan foydalanish, o‘zgartirish va muhofaza qilish borasidagi tadbirlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Bunday konsepsiylarning asosiy qismini o‘zaro munosabatlarning geoekologik jihatlari tashkil etadi.

Adabiyotlarda quyidagi konsepsiylar keltiriladi: geotizimli, tabiatni muhofazalash, texnokratik optimizm, barqaror rivojlanish va h.k. Ushbu konsepsiylar ayrim masalalarda bir-birini to‘ldirsa, ba‘zilarida o‘zaro ziddir.

Geotizimli konsepsiya. Ma’lumki, 1963-yilda V.B.Sochava geotizimlar to‘g‘risidagi ta’limotini yaratganidan so‘ng geografik tadqiqotlarda, shu jumladan, jamiyat va tabiat munosabatlariga oid izlanishlarda ham ushbu ta’limotdan keng foydalana boshlandi. Geotizimli konsepsiya ko‘ra, barcha geoekologik voqeа-hodisalar, jarayonlar, muammolar geotizim doirasida o‘rganilishi lozim. Bu konsepsiya tarafdarlari tabiat komponentlari yagona bir tizimda harakat qiladi va o‘zaro bir butundir deya, tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish chora-tadbirlari ma’muriy birliklar doirasida emas, balki tabiiy geografik birliklar – geotizimlar, xalqaro miqyosda esa geografik qobiq doirasida butun dunyo hamjamiyatining birqalikdagi harakati orqali amalga oshirilishini yoqlab chiqadilar. Bu konsepsiya turli sohadagi mutaxassislarning o‘z tadqiqotlarida tizimli yondashishlarini taqozo etadi.

“Geotizim so‘zining birinchi qismi tizimning muhim xususiyati hududiylik ekanligini ko‘rsatadi. Ta’kidlash lozimki, ko‘pgina tizimlar hududiy xususiyatga ega emas, masalan: hayvon va o‘simliklarning tanasi, asab tizimi, ta’lim tizimi, boshqaruv tizimi va h.k. Shunday ekan geotizimlar muayyan hududlarni egallaydi, ularning xossalariiga maydoni, qiyofasi va boshqa hududiy ko‘rsatkichlar ta’sir etadi”.

Geotizimli konsepsiya binoan, masalan, Chirchiq-Ohangaron okrugi bir butun yagona geotizim deb qaralib, uni bir nechta mustaqil, lekin bir-biri bilan uzviy bog‘langan va tabaqalashgan kichik geotizimlar guruhidan iboratligi hisobga olinadi. Ushbu kichik geotizimlar individual xususiyatga ega bo‘lishi bilan birga, barchasining negizida yagona rivojlanish va dinamik o‘zgarishning tabiiy omillari borligini namoyon etadi. Chirchiq-Ohangaron okrugining rivojlanishida yer usti va yer osti suv oqimlari hamda modda va energiya oqimlarining ichki harakati geotizimning bir butunligini ta’minlaydi. Xo‘jalik

faoliyatining rivojlanishi bilan antropogen yukning ortishi mazkur geotizimning strukturasi va maxsus faoliyatiga keng miqyosda ta'sir etib, uning ma'lum yo'nalishda o'zgarishiga, landshaftlardagi geoekologik vaziyatning turli darajada bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Chirchiq-Ohangaron okrugida tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, unga bo'lgan munosabatni optimallashtirishni mazkur konsepsiya orqali o'rganish turli geoekologik muammolar yechimini topishda muhim ahamiyatga ega. Sug'orma dehqonchilik uchun relyef va iqlim sharoitlari qulay bo'lgan landshaftlar, asosan, Toshkent, Mirzacho'l, Sirdaryo sikllariga tegishli terrasalarda joylashgan. Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari turli xil moddalarni oqizib, boshqa hududlarga olib borib yotqizadi. Sug'orma dehqonchilik tuproqlar tabiiy holatining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunday hududlarda uzlusiz sug'orish natijasida tuproqdagi namlik rejimi, mikroflora va mikrofauna tarkibi, chirindi miqdori hamda fizik xususiyatlari o'zgaradi. Ushbu omillar hamda agrotexnik tadbirlarning birgalikdagi ta'siri tufayli landshaftlarning xususiyatlariga mos holda turli tabiiy geografik jarayonlar faollashadi va har xil ko'rinishdagi geoekologik muammolar vujudga keladi.

Mazkur konsepsiya binoan geoekologik muammo qotib qolgan, o'zgarmas bo'lmay, balki muntazam ravishda dinamik o'zgaruvchi va rivojlanuvchi ko'pgina oddiy muammolarning tizimli uyg'unligidir. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun uning rivojlanishini tezlatuvchi birinchi omilni va qolgan barcha ikkinchi darajali omillarning bartaraf etilishi o'zaro bog'liq tadbirlar birgalikda qo'llangandagina hal qilinishi mumkin.

Tabiatni muhofazalash konsepsiysi. XX asrning so'nggi o'n yilligida jamiyat va tabiat orasidagi munosabat ziddiyatli bo'lib qolishi, tabiiy muhitning, o'z navbatida, jamiyat moddiy ahvolining yomonlashib borishi D.N.Anuchin va uning izdoshlari ilmiy asoslagan tabiatni muhofaza qilish konsepiyasining yana jonlanishiga va ekologik harakatlarning boshlanishiga sabab bo'ldi.

Mazkur konsepsiyaning maqsadi insoniyatning yer yuzida yashab qolishi uchun tabiatni asrash, kun sayin texnika bilan qurollanishi ortayotgan jamiyatning halok etuvchi faoliyatidan saqlash va muhofaza qilishdir. Bu konsepsiya binoan, tabiatni muhofaza qilish ayrim turlarni muhofaza qilish emas, balki tabiatning (geotizmlarning) tabiiy muvozanatda bo'lish imkoniyatini saqlashdir. Inson va tabiat orasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishning yo'li biosferani muayyan darajada «xonakilashtirish»dan iborat. Tabiiy landshaftlarni dastlabki paydo bo'lgan holatida saqlash va biosferadagi barcha tizimlarning hayotiy faoliyatini faqatgina qayta tiklanadigan resurslar bilan ta'minlash mumkin.

Bu harakatning tabiatni muhofaza qilishdagi yutuqlarini qo'riqxonalar tashkil etilishi, noyob turlarning muhofazaga olinishi va boshqalarda ko'rish mumkin. Lekin, qo'riqxonalar barpo etish bilan geotizmlarning tabiiy imkoniyatlarini yaxshilab, tabiiy muhitni hozirgidek optimal holatda saqlab qolib bo'lmaydi. Buning uchun har bir geotizimning xususiyatidan kelib chiqib, tizimli va kompleks tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bir so'z bilan aytganda, tabiatdan foydalanish ilmiy asoslangan va oqilona bo'lishi, foydalanish chog'ida muhofaza chora-tadbirlariga qat'iy amal qilinishi lozim.

Texnokratik optimizm konsepsiysi. Tabiiy resurslarning tugamasligi, ularning qayta tiklanuvchanligi va jamiyat qonunlarining tabiat qonunlaridan ustunligi yoki insonning tabiat ustidan hukmronligi kabilar bu konsepsiyaning asosini tashkil etadi. Ular tabiat qonunlarini fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda inson hayoti uchun xizmat qiladigan darajada o'zgartirishni olg'a suradilar. Ijtimoiy-tarixiy omillarni birinchi o'ringa qo'yib, jamiyatning rivojlanishida tabiiy muhit omilini rad etishadi. “Bu konsepsiya XX asrning 50-60-yillarida g'arb mamlakatlarida vujudga keldi va sobiq Ittifoqda ham ancha rivojlantirildi. Fan-texnika rivojlanishining salbiy oqibatlari kengroq namoyon bo'layotgan, bir-ikki avlod ko'z o'ngida geotizmlarning antropogen degradatsiyasi katta masshtabga yetib, lokal inqirozlardan mintaqaviy (ayrim hollarda global) inqirozgacha aylanayotgan bir paytda ayrim tadqiqotlarda bu konsepsiyanidan ko'proq foydalanilmogda”. Bu konsepsiya namoyandalari tabiat

qonunlarining jamiyatga bo‘ysunmasligi, jamiyat qonunlaridan avval shakllanganligi, tirik organizmlar, shu jumladan, inson ham ana shunday tabiat qonunlari natijasida paydo bo‘lganligi hamda rivojlanganligini inkor etishlari bugungi kunga kelib dunyoning ko‘plab hududlarida geoekologik vaziyatdagi inqirozlarga sabab bo‘lmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida tabiat bilan munosabatda ushbu konsepsiya hukmronlik qilgan bo‘lib, “tabiatni bo‘ysundirish”ga harakat qilindi, tabiatni rejali o‘zgartirish uchun ishlab chiqilgan loyihalarni nazariy asoslash va amalga oshirishga xizmat qildi. Shu sababli “Tabiatni yengish” ga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirildi, natijada, turli geoekologik inqirozli hududlar paydo bo‘ldi.

O‘z o‘rnida, mazkur konsepsiyaning ijobiy tomonlarini ham ta’kidlash lozim. “Tabiatni yengish” rejasida ixota o‘rmonlarini barpo etish, eroziya rivojlangan yonbag‘irlarni terrasalab daraxtlar ekish, qum to‘zishini to‘xtatish maqsadida fitomelioratsiyani amalga oshirish, sho‘rlangan yerlarning sho‘rini zovur-drenaj tarmoqlari orqali yuvib chiqarish va h.k.

Barqaror rivojlanish konsepsiysi hozirgi vaqtida ishlab chiqilmoqda, hali nihoyasiga yetkazilmagan. Bunga ko‘ra, ekologik muammolarni faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimini topish orqali kompleks ravishda mahalliy, milliy, mintaqaviy va global miqyosda uyushgan tarzda hal qilish mumkin.

Barqaror rivojlanishga 1991-yilda nashr etilgan “Yerni asrash. Barqaror hayot strategiyasi” nomli kitobda shunday ta’rif beriladi: “Barqaror rivojlanish – odamlar yashash muhitining sifatini yaxshilash. Barqaror iqtisodiyot – barqaror rivojlanishning mevasi, u resurs bilan ta’milanish va adaptatsiya yo‘li bilan rivojlanish hamda ilm, aql va texnikaning samarasini rivojlantirishdir”. Bu konsepsiya namoyondalari tabiiy sharoitga insonlarning xohishlaridan kelib chiqib moslashish orqali ekologik inqirozdan qutulish mumkinligini tavsiya etadilar. Ular geotizimlarning tashqi ta’sirlarga nisbatan qarshi turish va o‘z-o‘zini tiklash qonuniyatlarini saqlagan holda, insonlarning harakatlarini tashkil etish va moslashtirishni taklif etadi.

Demak, jamiyat va tabiat munosabatlari to‘g‘risidagi konsepsiylar mavjud jamiyatning tabiatdan foydalanish, o‘zgartirish va muhofaza qilish borasidagi tadbirlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Ularning aksariyati tabiat qonunlarining jamiyatga bo‘ysunmasligi, jamiyat qonunlaridan avval shakllanganligini ta’kidab, tabiat bilan munosabatda ushbu qonunlarga amal qilishni olg‘a surishadi, bu esa turli xil geoekologik muammolar oldini olishning muhim kafolatidir.

Geoekologik tadqiqotlarda qo‘llanuvchi prinsiplar va yondashuvlar

Prinsip (lot. *principum* – ibtido, asos, ilk sabab) – 1) turli ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar va bilimlar majmuining asosi; 2) har qanday xatti-harakat va faoliyatning boshlang‘ich qoidalari. Ilmiy muammolarni o‘rganishda tadqiqotchilar amal qiladigan yo‘naltiruvchi, maqsadga yetish jarayonidagi hukm suruvchi qoidalar, holatlar. Geoekologik tadqiqotlarning asosiy prinsiplariga ekologik, kompleks, regional, tarixiy-genetik, tizim-tarkib, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini barcha joylarda amalga oshirish va boshqalar kiradi.

Ekologik prinsipda tirik organizmlar, jumladan, insonning atrof muhit bilan o‘zaro aloqalari, ta’siri va munosabatda bo‘lishi nazarda tutiladi. Tabiiy muhitga bo‘lyotgan har qanday ta’sirni o‘rganishda tirik organizmlarga, inson sog‘ligi holatiga bo‘ladigan oqibatlari orqali qaraladi, ekologik omillarning tirik organizmlar holatiga bevosita ta’siri o‘rganiladi.

Geotizimli prinsip geotizimlar chegaralarini, joylashuvini, bir-biriga nisbatan past-balandligi, strukturali-dinamik holati, tabiiy xususiyatlari, resurslari haqida ma’lumot beradi,

shuningdek, turli tadbirlar tizimini asoslashda va ularni qo'llashda, barcha turdag'i kartalarni tuzishda asos bo'ladi.

Kompleks (geografik) prinsip barcha geokomponentlar yoki ularning tarkibiy qismlarining birligi va ular orasidagi o'zaro aloqalarni hisobga olish bilan tavsiflanadi.

Tizim-tarkib prinsipida tadqiqot obyekti sifatida geotizim, tarkibiy qismi sifatida geokomponentlar yoki morfologik birlklari qaraladi. Geotizimning bir butun ekanligi hisobga olinib, biron komponentni muhofaza qilish yoki foydalanish boshqasining salbiy o'zgarishiga ta'sir etmasligi nazarda tutilib amalga oshiriladi.

Regional prinsip har bir hududning o'ziga xos sharoitini (tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va h.k.) va geoekologik vaziyatini hisobga olish hamda shunga mos chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan tavsiflanadi. Geotizimlarning genetik yaxlitligi, boshqa joylarda qayta takrorlanmasligi va ularning individual belgilarga egaligini hisobga olishni taqozo etadi.

Havzaviy prinsip tadqiqot obyektini daryo havzalari bo'yicha modda va energiyaning oqimi orqali o'zaro bog'langan hududiy tuzilma ekanligini hisobga olishni taqozo etadi. Ayniqsa, arid mintaqada joylashgan va qishloq xo'jaligi sug'orish bilan olib boriladigan rayonlar uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tarixiy-genetik prinsip geokomponentlar, umuman, geotizimlarning genezisi (kelib chiqishi)ni, shuningdek, ularning rivojlanishidagi asosiy bosqichlarini hisobga olish bilan tavsiflanadi.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini barcha joylarda amalga oshirish prinsipi geotizimlarni bir butun holda muhofaza qilish, ularning tabiiy komponentlarini saqlash, barcha resurslaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishga imkon beradi. Ayniqsa, suv va havoning tozaligiga erishish birinchi darajali ahamiyatga ega, chunki ular nihoyatda harakatchan. Ularning musaffoligi barcha joylarda tadbirlar qo'llashni talab etadi, aks holda, ifloslanish atrofdagi barcha hududga tarqaladi.

Geoekologik tadqiqotlarda izlanishlarning hududiy asosi landshaft kartasi hisoblanadi. Shuning uchun hududning landshaft tuzilishi, uning dinamikasi har doim batafsil o'rganilishi lozim.

Geoekologik tadqiqotlarda amal qilinadigan yondashuvlar va unining mohiyati

Tabiat va inson o'zaro aloqalarining murakkab muammolarini barcha fan sohalari o'rganadi va bu borada bir nechta ilmiy yondashuvlar mavjud: geoekologik, ekologik, kompleks geografik, resursli, iqtisodiy, huquqiy, havzali, regional va h.k.

❖ ta'sir orqali qaraladi, ekologik omillarning tirik organizmlar (yoki ularning jamoasi) holatiga bevosita ta'siri o'rganiladi;

❖ geoekologik yondashuv – mohiyati shundaki, u ekologik va geografik yondashuvlarning sintezini o'zida namoyon etadi. Tadqiqot obyekti sifatida geotizim olinadi. Bu yondashuv geokomponentlarning yoki o'rganilayotgan obyekt tarkibiy qismlarining teng ahamiyatliliga asoslanadi. Jonsiz geokomponentlar va landshaftlarning, ushbu geokomponentlar va landshaftlarni qamrab oluvchi obyektlarning ekologik holati inson sog'ligi va xo'jalik faoliyati nuqtai nazaridan baholanadi. Geokomponentlar orasidagi to'g'ri va teskari o'zaro aloqalar o'rganiladi. Geoekologik yondashuvning yana bir muhim xususiyati – tadqiqot obyektining aniq hududiy bog'langanidir.

Geoekologik yondashuvning mohiyati. Taniqli geograflardan "I.P.Gerasimov, V.S.Preobrajenskiy, V.B.Sochava, T.D.Aleksandrova kabilar geotizimlarni ekologik nuqtai nazaridan o'rganish zarur ... bunda, tabiiy tizimlarni o'rganishda ekologik yondashuvni geografik yondashuv bilan mujassamlashtirish maqsadga muvofig" (Yasamanov, 2003) deb biladilar. Bu ikki yondashuv o'rtaсидаги umumiylig shundaki, ular atrof muhitning alohida

komponentlari yoki jarayonlarini emas, balki ularning komplekslarini o‘rganishga qaratilgan. Shu sababli, “ushbu ikki yondashuvni o‘zida mujassamlashtirgan, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan geoekologik yondashuv vujudga keldi. Geoekologik yondashuvda, asosan, inson nazarda tutiladi. Bunda inson obyektning yoki atrofida mavjud bo‘lgan muhitning subyekti sifatida qaraladi” (Klimanova, 2008).

V.B.Sochavaning fikricha, inson va uning muhiti birdek darajada geografiyaning o‘rganish obyekti hisoblanadi, negaki geografiya hududni unga insonning munosabati nuqtai nazaridan o‘rganadi. Bu borada landshaft eng maqbul hududiy birlikdir.

Geoekologik yondashuv jamiyatning tabiatga ta’sirining makon va zamondagi qonuniyatlarini o‘rganish hamda mutanosiblashtirish, geotizimlarning rivojlanish yo‘nalishlari va o‘zgarishini tadqiq etish, geoekologik vaziyatini hisobga olish, atrof muhitning xususiyatlarini geografik-ekologik jihatdan baholash va inson hayoti uchun optimallashtirishni nazarda tutadi.

Geografik yondashuv – umumilmiy, fanlararo yondashuvlardan biri, tizimli yondashuvning bir ko‘rinishi. Uning mohiyati – turli xil obyekt va hodisalarni hududiy tabaqlashgan, hududiy tashkillashgan, makonda rivojlanayotgan tizim sifatida qaraladi. Tabiatni muhofazalash faoliyatida geografik yondashuvni qo‘llash hodisa va jarayonlarni tizimli o‘rganishni ta’minlaydi hamda chora-tadbirlar va normativlarni muayyan geografik sharoitga qat’iy moslab, hududiy tabaqlashtirishga imkon beradi.

Demak, geografik yondashuv, masalan, Toshkent viloyatini hududiy tabaqlashgan, bir qancha landshaftlardan iborat deb qarashimizni hamda tabiatni muhofaza qilish choratadbirlari va qonunchilik me’yorlarini har bir landshaftning xususiyatidan kelib chiqib tabaqlashgan holda amalga oshirishimizni talab etadi. Bu esa landshaft yondashuvidan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Landshaft yondashuvi Toshkent viloyati hududining bir-biri bilan bog‘liq bir qancha landshaftlardan iboratlige asoslanadi. “Landshaftlar ham o‘ziga xos muhit hosil qiluvchi geotizimlardir. Ularda ham inson yashaydi. Shuning uchun ham landshaftlarni inson yashashi, salomatligi va faoliyat ko‘rsatishi nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil qilish va baholash zaruriyati tug‘iladi” (Zokirov, 1999). “Har bir landshaft o‘ziga xos ekologik imkoniyatga ega, antropogen ta’sirlarga o‘zicha beriluvchan, ushbu ta’sirlarga u yoki bu darajadagi barqarorlik bilan ajralib turadi, turli xil ekologik axborotlarni o‘zida namoyon etuvchi hamda geoekologik tahlil va baholash uchun yaxlit hududiy birlik hisoblanadi” (Isachenko, 2003). Landshaft yondashuvida tabiiy chegaralangan geotizimlarning strukturali dinamik holati, barqarorligi, tabiiy muvozanati, tabiiy resurslari, xo‘jalik faoliyatining ta’siri va boshqa jarayonlar bir butun holda o‘rganiladi. Tabiat komponentlari va xo‘jalik faoliyatini bir-biriga bog‘liq holda tahlil qilinishi mavjud geotizimlarning o‘zgaganlik yo‘nalishlari va darajalari, geoekologik vaziyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlashga imkon beradi.

Landshaft yondashuvi asosida tabiiy sharoit va resurslar, aholi hamda uning xo‘jalik faoliyatida aks etgan integral ma’lumotlar bir-biriga bog‘liq holda aniqlanadi. Bu borada tabiiy (1-9) va antropogen (15-29) landshaftlarni vaqt birligida hududiy tahlil qilish ko‘zlangan maqsadga erishishga imkon beradi. Toshkent viloyatida geoekologik muammolarning jadalligi, geoekologik vaziyatlarning murakkablashuvi landshaftlarning xususiyatiga muvofiq turli daraja va tezlikda sodir bo‘lishini ko‘rish mumkin. Viloyatning geomorfologik tuzilishiga bog‘liq holda tabiiy sharoit va geoekologik vaziyat tog‘oldi tekisligidan tog‘larning suvayirg‘ichlari tomon o‘zgarib boradi. Masalan, sug‘orma dehqonchilik uchun relyef va iqlim sharoitlari qulay bo‘lgan landshaftlar (18-29), asosan, Toshkent, Mirzacho‘l, Sirdaryo sikllariga tegishli terrasalarda joylashgan. Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari ushbu landshaftlarni kuchli parchalagan. O‘z navbatida, aholi ham aynan shu landshaftlarda zinch yashaydi, shunga bog‘liq holda yo‘llar va turli qurilish binolari ham landshaftlarning ancha qismini band etgan. Bular esa tuproqlar, o‘simlik va hayvonot

dunyosining tabiiy holatini o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ushbu landshaftlarda hozirgi paytda jarlanish, suffozion jarayonlar, surilmalar, tuproq eroziyasi, biotaning kambag'allashib borishi, I-II terrasalardagi ayrim landshaftlarda sho'rlanish kabi geoekologik vaziyatni murakkablashtiruvchi jarayonlar yuz bermoqda. Angren-Olmaliq sanoat rayonida esa tog'-kon sanoatida foydali qazilmalarning qazib olinishi jarayonida ma'lum tabiiy komponentlarning o'zgarishi geoekologik vaziyatning salbiy tomonga o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu borada ushbu jarayonlarni landshaftlar doirasida o'rganish har tomonlama ma'qul va zarurdir.

Landshaftlar, avvalo, tabiiy chegaralangan hududlarni egallaydi. Binobarin, bir xildagi geografik sharoit hodisalarni ma'lum yo'nalishda bir xil daraja va tezlikda sodir bo'lishini ta'minlaydi. Demak, hududda ro'y berayotgan o'zgarishlarni tabaqalashgan tarzda tadqiq etish yuz berayotgan vogelikning aniq sabablarini bilishga yordam beradi. Har bir landshaft ma'lum mazmundagi axborotni beradi, ular turlicha yoki bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin. Landshaftda abiotik va biotik komponentlar ma'lum muvozanatda rivojlanadi. Insonning yashashi va mehnat faoliyatini ham bu muhitda deyarli bir xil kechadi. "Bu borada landshaft ekologik jarayonlarni o'rganishda yagona va asosiy tadqiqot hududi bo'lishi lozim, undan boshqa muqobil taksonomik birlik bo'lmaydi" (Rafiqov, 1999). Bunda landshaft yondashuvi ekologik yondashuv bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Landshaftlarning bir yoki ikki komponentini o'zgartirish bilan butun landshaftning dinamikasi va maxsus faoliyatini, strukturasini o'zgartirish mumkinligi haqida adabiyotlarda ko'plab fikrlar bildirilgan. Xo'jalikda foydalanish qulay bo'lgan landshaftlarning o'zlashtirilishi antropogenlashgan landshaftlarni (15-29) vujudga keltirdi. Sanoat korxonalarining noto'g'ri joylashganligi, ularning chiqindilari bilan atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, tabiiy o'simliklarning degradatsiyaga uchrashi, tuproq eroziyasi, yer osti va usti suvlarining ifloslanishi, aholi sog'ligining yomonlashuvi kabi geoekologik muammolar shakllandi. Geoekologik vaziyatni yaxshilash uchun viloyatning landshaft tuzilishi o'ziga xos murakkabligini to'g'ri baholay olish lozim.

Geotizimlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini tadqiq etishda zonallik, balandlik mintaqalanishi va geomorfologik xususiyatlarini hisobga olish taqozo etiladi.

Ekologik yondashuv – umumilmiy, fanlararo yondashuvlardan biri, tizimli yondashuvning bir ko'rinishi. Uning mohiyati turli-tuman murakkab tizimlarni ikkita – "ho'jayin" va "muhit" kichik tizimlaridan tashkil topgan ekologik tizim (ekotizim) sifatida tadqiq etishdan iborat. Tabiiyki, "ho'jayin" sifatida tirik organizm, jumladan inson, aholi olinadi. Tizim hosil qiluvchi muhim aloqlardan biri sifatida "ho'jayin"ning muhitga moslashishi qaraladi. Ekologik yondashuv – insonning atrof muhitini muhofaza qilish nazariyasini yaratish, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish vaqtida jamiyat va tabiat munosabatlarini o'rganishda ahamiyatlidir.

"Ushbu yondashuvda geoekologik muammo yoki biron hudud uning tabiiy resurslaridan foydalanish maqsadida o'rganilayotganda unga tirik mavjudotlarning, insonning atrof muhit bilan bo'ladigan o'zaro aloqlari nuqtai nazaridan qaraladi" (Rafiqov va boshq., 2004). Insonlarning yashashi, mehnat qilishi, hordiq chiqarib sog'lig'ini tiklashi uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoiti buzilmasligi, aksincha, rekultivatsiya ishlari natijasida yaxshilanib borishi kerak. Ushbu yondashuv tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning tirik organizmlarga, jumladan, insonga bo'lgan ta'siri oldindan o'rganilishi va prognoz qilinishini, shuningdek, tabiatga qaratilgan barcha iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlar ekologik nuqtai nazaridan qaralishi hamda ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishini talab etadi.

Ekologik yondashuv landshaftlarda nafaqat inson bilan tabiiy muhit, balki barcha komponentlar bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishini nazarida tutadi. Bu esa har bir landshaftda mavjud ekologik muvozanat tarzida ifodalananadi. Ekologik muvozanatning bir

me'yorda rivojlanishi tabiiy resurslardan xo'jalik faoliyatida foydalanish jarayonining samarali bo'lishiga, uning buzilishi esa tabiiy resurslardan foydalanishda ularning kambag'allashuviga olib keladi. Natijada, landshaftlarning barqarorlik imkoniyati «pasayadi», geoekologik vaziyat salbiy holatga ega bo'la boshlaydi, oqibatda, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqadi.

Toshkent viloyatidagi geoekologik vaziyat respublikadagi ayrim hududlarga qaraganda unchalik murakkab emas, lekin ba'zi joylar (Angren-Olmaliq sanoat rayoni) da inson xo'jalik faoliyati sababli geoekologik tang vaziyat vujudga kelgan. Sug'orma dehqonchilikda mavjud tabiiy sharoitlarga e'tiborsizlik natijasida 15,18-26 landshaftlarda jarlanish, tuproq eroziyasi kabi jarayonlar, me'yordan ortiq mol boqilishi esa 13-17 landshaftlarda o'simlik degradatsiyasiga olib keldi. Aholi zich joylashgan 18-28 landshaftlarda esa antropogen yukning kattaligi bois ancha murakkab geoekologik vaziyatlar yuzaga kelgan. Bu esa o'simlik va hayvon turlarining kamayishida, aholi sog'lig'inining yomonlashuvida o'z aksini yaqqol topmoqda. Shunday ekan, tabiatdan foydalanishda va ishlab chiqarish jarayonida geoekologik yondashuv ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi lozim, aks holda noxush oqibatlar yuzaga keladi.

Nazorat savollari:

1. Geotizim va ekotizim: o'xshash va farqli tomonlarini ajratib bering.
2. Geoekologik yondashuv deganda nimani tushunasiz?
3. Geoekologik prinsiplarlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Geoekologik konsepsiylar mohiyatini yoritib bering.

4-MAVZU: GEOEKOLOGIK TADQIQOT METODLARI. BIOSFERANING TARKIBI VA UNING XUSUSIYATLARI

Geoekologik tadqiqotlarning *metodologik asosi* dialektik materializm va undan kelib chiqadigan koevolutsiyani tan olish, ya'ni inson va tabiatning o'zaro uyg'un rivojlanishini tan olish hisoblanadi. Geografik qobiq va undagi jarayonlar odam paydo bo'lmidan oldin ham bo'lgan, odamlarning ongiga bog'liq bo'lмагan holda mavjud. Shunday ekan, insoniyat Yer yuzida yashab qolishi uchun geografik qobiqdagi qonuniyatlarga, hodisa va jarayonlarning ro'y berishidagi qonunlarga moslashib faoliyat yuritishi lozim. Koevolutsion jarayonlar Yerdagi geoekologik vaziyatning zamonaviy xususiyatlarini belgilaydi.

Metodologiya (yunoncha metod+logos) – mantiqiy tashkil etish, metod va vositalar haqidagi ta'limotdir. Metodologiya – metodlar to'g'risidagi ta'limot. Metodologiya nazariy bilimlar va amaliy faoliyat prinsiplari hamda usullarini o'rgatadi.

Metodologik asos – tadqiqotchi maqsad sari qiladigan harakatida uning uchun prinsip vazifasini bajaruvchi maqsad ko'rsatkichlari bilan shu harakat davomida amal qilinishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmui.

Har bir fan turli sohalar, dunyoning u yoki bu tomonlarini o'rganar ekan, uning o'ziga xos tekshirish obyekti mavjud. Shunga muvofiq, har bir soha o'zining obyektini o'rganish uchun turli metodlar ishlab chiqadi va uning yordamida o'sha sohani o'rganishni yaxshilaydi, takomillashtiradi.

Geoekologik tadqiqotlarda kerakli ma'lumotlarni olish uchun turli xil tadqiqot metodlaridan foydalaniladi. **Metod** (yunoncha "metodos" – ta'limot, nazariya, tadqiqot yo'li, bilish yo'li) – maqsadga eltadigan eng to'g'ri yo'l, ilmiy bilish va asoslash usullar tizimi, haqiqatni amaliy va nazariy aniqlashda foydalaniladigan usul va tadbirlar majmui, maqsad va vazifalarni yechishda qo'llaniladigan usullar tizimidir. Har bir metodning bilish imkoniyati ma'lum chegaraga ega. Hech bir metod universal, har qanday obyekt yoki jarayonni o'rganish

uchun to‘la yaroqli hisoblanmaydi. Turli metodlar obyektning u yoki bu xususiyatlarini, uning alohida jihatlari yoki qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Geoekologik tadqiqot metodlari uzviy tarixiy va mantiqiy aloqador va metodlarning o‘ziga xos tizimini tashkil etadi. Tadqiqotchi qo‘yilgan vazifaga qarab ushbu metodlarning bir yoki bir nechtasidan foydalanadi.

Usul – maqsadga yetishda muayyan to‘sinqi yengish uchun qo‘llaniladigan chora-tadbir. Ya’ni tabiat va jamiyatdagi hodisa hamda jarayonlarni tadqiq etishda, ularni ilmiy bilishda va haqiqatni aniqlashda qo‘llaniladigan maqsadli tadbirdir.

Har qanday fan tarmog‘ida qo‘llaniladigan metod va usullarning soni, sifati va aniqligi mamlakatda ishlab chiqarish va madaniyatning taraqqiyot darajasiga, ishlab chiqarish va tadqiqotlarning texnik jihatdan qurollanishi kabilarga bog‘liq.

Geoekologik tadqiqot metodlarining yagona bir shaklga keltirilgan tasnifi mavjud emas.

Qo‘llanilishiga ko‘ra ushbu metodlarni 2 guruhgaga birlashtirish mumkin: *mantiqiy* va *formallashtirilgan* metodlar:

Tadqiqotchingin ish davri va holatiga qarab: *ekspeditsiya, statsionar, kamera, laboratoriya, distansion* metodlar ajratiladi.

Shakllanish tarixi va qo‘llanish tajribasiga ko‘ra, ya’ni tarixiy prinsip asosida barcha metodlarni: *an‘anaviy, yangi (zamonaviy)* va *eng yangi (istiqbolli)* guruhlarga ajratish mumkin.

An‘anaviy metodlarga azaldan qo‘llanib kelinayotgan: *qiyosiy, tarixiy, adabiyotlar bilan ishslash* va *kartografik* metodlar kiradi.

Qiyoslash metodi turli xil geoekologik ma’lumotlar ichidan eng asosiy va muhimlarini ajratib olishni osonlashtiradi. Qiyoslash yo‘li bilan obyekt va predmetlarning umumiyligi, o‘xshashligi va tafovutlari aniqlanadi. Bu metod geoekologik tadqiqotlarda bir xil antropogen omil ta’sirida vujudga kelgan ikki xil geoekologik vaziyatlari geotizimlarni bir-biriga qiyoslab, har birining tabiiy sharoitidagi o‘ziga xos tomonlarini oydinlashtirishdan iborat. Masalan, tog‘-kon sanoati yoki sug‘orma dehqonchilik ta’sirida tekislik va tog‘oldi geotizimlarida bir-biridan farq qiladigan jarayonlar rivojlanadi va oqibatda, turli darajadagi geoekologik vaziyatlar yuzaga keladi. Bunda qiyoslash bilan har ikkala geotizim uchun xos bo‘lgan hodisa va jarayonlar, quyi darajadagi geotizim birliklari aniqlanib, ularning genezisi o‘rganiladi va tasnif qilinadi.

Tarixiy-genetik metodning mohiyati o‘rganilayotgan obyektning yoki uni shakllantiradigan omillarning asosiy xususiyatlarida tabiiy va texnogen o‘zgarishlar ro‘y bergen davrlarni taqqoslashda o‘z aksini topadi. Bunda obyektning geologik taraqqiyoti, geotizimlarning rivojlanishi xronologik tartibda o‘rganiladi va tiklanadi. Chunki o‘tmish taraqqiyotini bilmay turib, geotizimlarning hozirgi holatini, ayniqsa, bundan keyingi taraqqiyotini bilish mumkin emas. Tabiiy muhitning kelajakda rivojlanishini prognoz qilishda foydalaniladigan paleobotanik, paleofaunistik metodlar ham ushbu metodning bir turi hisoblanadi.

Adabiyotlar bilan ishslash metodi geoekologiyada, ayniqsa, nazariy ishlarni bajarishda keng qo‘llaniladi. Bu metoddan har bir tadqiqotchi foydalanadi, negaki u tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlarni batafsil o‘rganishi, boshqa ishlardagi tajribalardan foydalanishi va ularning ishini takrorlamasdan qo‘yilgan ilmiy muammoning yechimiga o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim.

Geografik kartalarning paydo bo‘lishi bilan birga, tadqiqotlarning *kartografik* metodi ham paydo bo‘lgan. Bu metodning mohiyati umumgeografik va mavzuli kartalarni tuzish va bu kartalarni yuzaga kelgan vaziyatni baholash uchun o‘rganishdan iborat. Hozirgi kunda masshtabiga, mazmuniga, maqsadiga ko‘ra turli-tuman kartalar mavjud bo‘lib, geoekologik tadqiqotlarda ulardan keng foydalaniladi. Maxsus va kompleks kartalar tahlil qilinib,

geoekologik vaziyatni belgilovchi omillar, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumot olinadi. Eng asosiysi, bu metod orqali geoekologik omillar, hodisalar va jarayonlarning makonda tarqalishi va o'zgarishidagi qonuniyatlarni, ularning taraqqiyotida o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini aniqlash imkonи katta. Ko'pincha, geoekologik vaziyatning hududiy o'zgarib borishidagi qonuniyatlar geoekologik omillar, hodisa va jarayonlarni kartaga tushirgandan so'nggina ma'lum bo'ladi. Umuman, boshqa geografik fanlar singari geoekologik tadqiqotlarda ham bu metodning o'rni beqiyos.

Yangi (zamonaviy) metodlarga: *geofizik, geoximik, statistik, statsionar* metodlar, shuningdek *aerometodlar* va *landshaft indikatsiyasi* metodlari kiradi.

Geofizik metod geotizimlardagi mavjud o'zaro aloqalarni modda-energiya almashinuvi ko'rinishida zamonaviy fizika metodlaridan foydalanib o'rganishda o'z ifodasini topadi. Dastlab, bu metod yuz yildan ortiq davrdan buyon atmosferaning yer yuzasiga tutash qatlami va suv obyektlarining holatini kuzatish ishlarini olib borayotgan gidrometeorologik tadqiqotlarda foydalanilgan.

Geokimyoviy metod kimyoviy elementlarning tabiatdagи migratsiyasini (ko'chishi va qayta taqsimlanishi) tadqiq etishga qaratilgan. Tabiiy muhit ayrim qismlarining halokatli ifloslanishi munosabati bilan bu metod geoekologik tadqiqotlarda asosiy metodlardan bo'lib qoldi. Uning yordamida atmosfera havosidagi, ichimlik suvidagi, yer usti va yer osti suvlaridagi, tuproqlardagi, oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalarning miqdori va tarkibi aniqlanadi.

Statistik metod geoekologik tadqiqotlarda aholi sog'lig'i, tabiiy resurslardan foydalanish, turli mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy muhitga antropogen ta'sir, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarining bajarilishi va boshqalar bo'yicha ko'plab statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishda qo'llaniladi.

Gidrogeologik metod yer osti suvlarining fizik va kimyoviy xossalari, joylashish va tarqalish xususiyatlari, oqim rejimi hamda ularning yer osti suvlari, atmosfera, o'simliklar va tuproq (tog' jinslari) bilan aloqalarini o'rganishga qaratilgan. Ma'lumki, yer yuzasida bo'ladigan va tabiiy muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan tabiiy jarayonlar yer osti suvlarining sathi va rejimiga ko'p jihatdan bog'liq. Yer osti suvlarining xo'jalik faoliyati, va ayniqsa, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashdagi ahamiyati katta.

G'arbiy Yevropa va AQSHdagi bir qator yirik shaharlarda ichimlik suvi sifatida ekologik toza hisoblangan yer osti suvlaridan foydalaniladi. MDH dagi ko'pgina shaharlarda ichimlik suvi sifatida kuchli ifloslangan yer osti suvlaridan, aksincha, texnik maqsadlarda esa yer osti suvlaridan foydalanilmоqda. Bu esa ikki tomonlama, birinchidan aholi sog'lig'iga, ikkinchidan, suvni tozalash uchun harajatlar iqtisodga ta'sir etmoqda. Ichimlik suvi sifatida foydalanadigan yer osti suvlarini o'rganishning dolzarb muammolari qatoriga sifatining o'zgarishini nazorat qilish va prognozini ishlab chiqish, shuningdek, sifatini yaxshilash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalar kiradi.

Statsionar metod. Ko'pincha bu metod bilan geoekologik vaziyatni ko'rsatuvchi indikatorlarning holati kuzatib boriladi. Masalan, atmosfera havosining ifloslanishi, harorati, namligi, shamolning tezligi va yo'nalishi, yer osti suvlarining rejimi, ifloslanishi, minerallashuvi, shuningdek, geotizimlarning fasllar va yillar davomidagi dinamikasi o'rganiladi. Odatda, bu metod yordamida to'plangan axborotlar turli jihozlar, uskunalar, har xil texnik qurilmalardan olingan ma'lumotlarga asoslanadi va jadval, grafik holatida qayta ishlab chiqiladi. Bunday ma'lumotlar tadqiqot ishlarining ilmiyligi va amaliy ahamiyatini to'ldiradi.

Aerometodlar – tadqiqot obyektini uchadigan apparatlar (samolyot, vertolyot va h.k.) yordamida o'rganadigan metod. Aerometodlarga ikki turdagи ishlar tegishli: vizual kuzatish va aerofotosyomka. Hozirgi paytda aerometodlar, garchand ishni bajarish vaqtini anche qisqartirsa ham, ko'p mablag' talab qiladigan tadqiqot metodlariga kiradi.

Landshaft indikatsiyasi metodi geokomponentlar va geokomplekslarning o‘zaro aloqalariga asoslangan bo‘lib, hali aniqlanmagan va kuzatish qiyin tabiiy komponentlarning xususiyatlarni vizual va bevosita kuzatiladigan komponentlarning xususiyatlari orqali aniqlash imkonini beradi. Ifloslanish areallarini indikatsiya metodlarining turli xillari mavjud: dendroindikatsiya (daraxt o‘simliklar bo‘yicha indikatsiya), glyasioindikatsiya (muzlar bo‘yicha indikatsiya), pedoindikatsiya (tuproq bo‘yicha indikatsiya), lixenoindikatsiya (lishayniklar bo‘yicha indikatsiya), kripindikatsiya (moxlar bo‘yicha indikatsiya) va h.k.

Tabiiy muhit holatini *instrumental (jihozlar bilan) nazorat qilish* metodini alohida ko‘rsatish lozim. Hozirgi paytda geokomponentlar (atmosfera havosi, yer usti va yer osti suvlari, tuproqlar, o‘simliklar) holati haqidagi birlamchi ma’lumotlar, asosan, namunalar olish va ularni laboratoriya sharoitida turli xil texnik asboblar yordamida tahlil qilish usuli bilan to‘planadi. Bugungi kunda bunday asboblar juda ko‘p: fotoelektrokolorimetrik, spektrofotometrik, plazmali fotometrik, xromatograf, ionomer, nitratomer, radiatsion dozimetr va h.k.

Eng yangi (istiqbolli) tadqiqot metodlariga: *matematik, kosmik, modellashtirish, prognozlashtirish, aerogamma spektrometrik va issiqlik, ekspertlar baholashi* metodlari va boshqalar kiradi.

Matematik metod nafaqat geoekologiyada, balki barcha fanlarda axborotni to‘plash va qayta ishlash, uni saqlash va obyektiv xulosalar olish usullari yaxshilanishiga olib keluvchi, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq jarayon. Zamonaviy kompyuter texnikasining yaratilishi va takomillashib borishi “geografik va ekologik axborotlar elektron banki” ni yaratish va qisqa vaqt ichida, doimo yangilab borish imkonini berdi. Bunday ma’lumotlar geoekologik muammolarning oldini olish va bartaraf etishda juda qimmatlidir.

Kosmik metod geokomponentlarning holati, geotizimlarda kechayotgan tabiiy geografik jarayonlar, ularning dinamikasi kabilarni vaqt va makondagi holatini, shuningdek, geotizimlarda bo‘layotgan tabiiy geografik va iqtisodiy-ijtimoiy geografik jarayonlarni bir butun, bir-biriga bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi. Kosmosdan olingan suratlar yordamida sayyoramizning turli qismlarida, katta miqyosdagi hududlarda ro‘y berayotgan tabiiy va antropogen jarayonlar haqida qisqa vaqt ichida tez va aniq, istalgan mashtabda ma’lumot olish, ularning dinamikasini kuzatish mumkin. Turli spektral zonada olingan kosmik fotosuratlar mutaxassislarning yer yuzasidagi ekologik inqirozli joylarni ajratishi va ularni doimo kuzatib borishini ta’minlaydi. Kosmik axborotlar falokatli tabiiy va antropogen hodisa hamda jarayonlarni tez aniqlashda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, katta mashtabdagagi jarayonlarni kuzatish va chora-tadbirlar ishlab chiqishda bu metodning o‘rni beqiyosdir.

Modellashtirish metodi – bevosita obyektning o‘zi emas, balki uning ayni nusxasi (modeli) tadqiq etiladigan, obyektni biror narsa vositasida amaliy ko‘rsatadigan yoki nazariy ifodalaydigan metod. Modellashtirishning turli xil usullari mavjud: kartografik, kompyuterda ko‘rsatish, mакетли, matematik, mantiqiy va boshqalar. Shulardan eng ko‘p ishlatiladigan model kartalardir.

Prognozlashtirish – tadqiqot obyektning kelajakdagagi holati, yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarish yo‘nalishlari va rivojlanishini ilmiy asoslangan oldindan ko‘ra bilish, ya’ni kelajak holati haqida tasavvurlarni ishlab chiqish va rivojlanishini baholash deb ta’riflash mumkin. Prognozlashtirishning asosiy usullari: mantiqiy, qiyoslash, o‘xshashlik, ekstrapolyatsiya, interpolyatsiya, statistik, ekspertlar baholashi, kartografik, modellashtirish, sotsiologik va h.k.

Aerogamma spektrometrik va issiqlik metodlari geoekologik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu metodlar, ayniqsa, akvatoriyalarning ifloslanishini aniqlash va nazorat qilishda, terrikon va ag‘darmalarda o‘z-o‘zidan yong‘in chiqish jarayonlarini, o‘rmon

yong‘inlarini, torf va boshqa yoqilg‘i foydali qazilmalarning Yer osti yong‘inlarini aniqlashda samarali usul hisoblanadi.

Ekspertlar baholashi metodi xo‘jalik faoliyatining atrof tabiiy muhitga, aholi sog‘lig‘i va tinchlik-farovonligiga oqibatlarining hozirgi holatini aniqlash va prognozlash, shuningdek, ekologik sharoitning mumkin bo‘lgan buzilishini baholashni o‘z ichiga oladi. Hozirgi paytda yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan xo‘jalik obyektlari davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladi. Uni, odatda, ekspert (yoki ekspertlar guruhi) o‘tkazadi. Ekspertlar chuqur bilim va ko‘p yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar ichidan belgilanadi.

Geoekologik tadqiqotlarda nafaqat yuqoridagi metodlar, balki boshqa fanlarda foydalanadigan *umumilmiy metodlar* ham qo‘llaniladi. Umumilmiy metodlarga *analiz* va *sintez, induksiya va deduksiya, eksperiment, tipologiya, tasniflash* kabi metodlar kiradi.

Biosferaning tarkibi va uning xususiyatlari

Biosfera (yunoncha *bios* — hayot, *sfera* — shar so‘zlaridan olingan) — tarkibi, tuzilishi va energiyasi tirik organizmlar tomonidan aniqlanadigan Yer qobig‘i. Yer qobig‘ida hayotning tarqalgan sohalari to‘g‘risida birinchi ma’lumotlar J.B.Lamarkka tegishlidir.

“Biosfera” tushunchasini fanga birinchi bo‘lib avstriyalik geolog olim E.Zyuss 1875-yilda kiritgan. Biosfera haqidagi to‘liq ta’limotni rus olimi V.I.Vernadskiy yaratdi va rivojlantirdi. Biosfera — tirik organizmlar yashaydigan, ular faoliyati natijasida timmay o‘zgaradigan sayyoramiz qobig‘ining bir qismidir. Yerdagi hamma biogeotsenozlar umumiy ekologik sistema — biosferani hosil qiladi. Biogeotsenozlar biosferaning elementar (eng kichik) birligidir.

Biosferaning chegaralari. Tirik organizmlar Yerning gazsimon (atmosfera), suyuq-gidrosfera) qattiq (litosfera) qismlarida joylashgan. Biosferaning yuqori chegarasi dengiz sathidan 15-25 km balandlikda (Yerning turli hududlarida farqlanadi), atmosferaning quyi qatlami troposferada joylashgan. Bu chegarada quyosh nurlari energiyasi ta’sirida kislorod ozonga aylanadi va ozon ekrani hosil bo‘ladi. Ozon ekrani tirik organizmga ko‘p miqdorda zararli ta’sir ko‘rsatuvchi kosmik va ultrabinafsha nurlarining asosiy qismini Yer yuzasiga o‘tkazmaydi.

Biosferaning eng yuqori chegarasida noqulay sharoitga o‘ta chidamli bakteriyalar, zamburug‘lar, moxlar va paporotniklarning sporalari uchraydi, ular aeroplanton deyiladi. Kapalaklar, o‘rgimchaklar va ba’zi qushlar 6-7 km gacha ko‘tarilishi kuzatilgan.

Gidrosferani okeanlar, dengizlar, ko‘llar va daryolarning suvlari hosil qiladi. Gidrosfera Yer kurrasining 70 foizga yaqin qismini egallaydi. Hayot gidrosferaning hamma qismida, hatto eng chuqur – 11 km gacha bo‘lgan joylarida ham uchraydi.

Litosferada hayot uning yuqori qatlamlarida, 3-4 km chuqurlikkacha masofada tarqalgan. Missisipi daryosi havzasidan neft quduqlari kavlanganda 7,5 km chuqurlikda anaerob bakteriyalar topilgan.

Shunday qilib, biosfera — Yerning tirik organizmlar yashaydigan geologik qobiqlarining bir qismidir. Sayyoramizdagи hayot chegaralari biosferaning chegaralarini aniqlaydi.

Biosferaning tarkibi. Biosferaning tarkibi xilma-xil bo‘lib, uni 4 qismga ajratish mumkin:

1. Tirik moddalar.
2. Biogen moddalar.
3. Qattiq jismlar.
4. Biogen va abiogen hosil bo‘luvchi moddalar. Sayyoramizda yashaydigan hamma tirik organizmlarning yig‘indisi biosferaning **tirik moddasini** tashkil qiladi.

O‘zining massasiga ko‘ra tirik modda biosferaning juda kichik tarkibiy qismi bo‘lsa ham, geologik davrlar mobaynida ularning faoliyati Yerning rivojlanishiga juda katta ta’sir ko‘rsatgan (1-rasm).

V.I.Vernandskiy Yerning paydo bo‘lishidan ko‘p o‘tmasdan unda hayot paydo bo‘lgan va u sayyoramizning qiyofasini o‘zgartiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lgan deb ta’kidlaydi.

Biogen moddalar – tirik organizmlar faoliyatining mahsulotlaridir. Ularga neft, toshko‘mir, ohaktosh va atmosfera gazlarini kiritish mumkin.

Qattiq jismlar – tirik organizmlar faoliyatiga bog‘liq bo‘lmasdan, tabiiy jarayonlar, masalan, vulqonlar otilishidan hosil bo‘lgan tog‘ jinslari.

Biogen va abiogen hosil bo‘luvchi moddalarga tirik organizmlar ta’sirida hamda organik tabiat jarayonlari ta’sirida hosil bo‘ladigan tuproq misol bo‘la oladi.

Shuningdek, biosferaning tarkibida kam miqdorda radioaktiv moddalar, tarqoq atomlar, meteoritlar, kosmik chang zarrachalari ham uchraydi.

Biosfera tirik moddasining funksiyalari

- Gaz almashinish funksiyasi fotosintez va nafas olish jarayonlari natijasidir. Fotosintez va nafas olish natijasida atmosferada gazlar tarkibi idora qilinadi. Tirik organizmlar faoliyati natijasida hosil bo‘lgan atmosfera ular faoliyati tufayli saqlanib turadi.
- Konsentratsiyalash (jamg‘arish) funksiyasi – tirik organizmlarda atrof muhitdagi kimyoviy elementlar to‘planadi. O‘simliklar tuproqdan, havodan kaliy, fosfor, azot, vodorod kabi elementlarni olib, organik moddalar tarkibiga kiritadi. Cho‘kma jinslar, bo‘r, ohak jinslari ham jamg‘arilish funksiyasining mahsulidir.
- Oksidlanish-qaytarilish funksiyasi – o‘zgaruvchan valentlikka ega bo‘lgan kimyoviy elementlar – temir, oltingugurt, marganes, azot va boshqalarning aylanishlarini ta’minlaydi. Masalan, xemosintezlovchi bakteriyalar faoliyati natijasida H_2S , temir rudasi, turli xil azot oksidlari hosil bo‘ladi.
- Biokimyoviy funksiyalar – tirik organizmlarning hayot faoliyati davomida oziqlanishi, nafas olishi, ko‘payishi, o‘lganidan keyin parchalanishi va chirish jarayonlarini amalga oshiradi.

Biosferaning biomassasi. Biosferadagi tirik moddalarning umumiyy massasi **biomassa** deyiladi. Hozirgi davrda Yerda yashaydigan o‘simliklarning 500 mingga yaqin turi, hayvonlarning 1,5 milliondan ortiq turi aniqlangan. Ularning 93 foizi quruqlikda, 7 foizi suvda yashaydi. Quyidagi jadvalda suvda va quruqlikdagi organizmlarning quruq massasi tonnalarda ifodalangan (1-jadval).

1-jadval.

Yerdagi organizmlar biomassasi

Quruq mod-dalar	Qit’alarda			Okeanlarda			Jami yig‘indisi
	Yashil o‘simliklar	Hayvon- lar va mikro orga-nizmlar	Yig‘indi-si	Yashil o‘simliklar	Hayvonlar va mikroorga-nizmlar	Yig‘indisi	
Tonna	$2,4*10^{12}$	$0,02*10^{12}$	$2,42*10^{12}$	$0,0002*$ 10^{12}	$0,003*10^{12}$	$0,0032*10^{12}$	$2,4232*10^{12}$
Foiz	99,2	0,8	100	6,3	93,7	100	100

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, okeanlar yer yuzining 70 foizini egallashiga qaramasdan, uning biomassasi Yer biomassasining 0,13 foizini tashkil qiladi.

Quruqlikda o‘simliklar biomassasi (fitobiomassa) umumiy biomassaning 99 foizdan ortig‘ini tashkil etadi. Hayvonlar biomassasi (zoobiomassa) esa 1 foizdan ham kamroq.

Okeanlar biomassasining asosiy qismini (93,7%) zoobiomassa tashkil etadi.

Quruqlik biomassasi. Qutblardan ekvatorgacha biomassa miqdori va turlar xilmalligi, hayot zichligi ortib boradi. Ekvator biotsenozi larida yashash joyi, oziq-ovqat, yorug‘lik, kislород uchim kuchli raqobat kuzatiladi. Inson ta’sirida biomassa hosil bo‘ladigan maydonlar keskin o‘zgaradi. Quruqlik yuzasining asosiy qismini tuproq biogeotsenozlari egallaydi. Tuproq biogen va abiogen usulda hosil bo‘ladi, u anorganik va organik moddalardan tashkil topadi. Biosferadan tashqari, tuproqning hosil bo‘lishi mumkin emas. Tog‘ jinslariga mikroorganizmlar o‘simlik va hayvonlar ta’sirida Yerning tuproq qatlami astasekin shakllanadi. Organizmlar tarkibida to‘plangan biogen elementlar ular o‘lganidan keyin yana tuproq tarkibiga o‘tadi.

Tuproqda kechadigan jarayonlar moddalarning biosferadagi davriy aylanishining tarkibiy qismidir. Odamning xo‘jalik faoliyati tuproq tarkibining o‘zgarishiga, undagi mikroorganizmlar nobud bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham tuproqdan oqilona foydalanish tadbirlari ishlab chiqilishi zarur.

Okean biomassasi. Suv biosferaning muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lib, tirik organizmlarning yashashi uchun eng zarur omillardan biri hisoblanadi. Suvning asosiy qismi okean va dengizlarda. Okean va dengiz suvlari tarkibiga 60 ga yaqin kimyoviy elementlardan tashkil topgan mineral tuzlar kiradi. Organizmlar hayoti uchun zarur bo‘lgan kislород va karbonat angidrid gazlari suvda yaxshi eriydi. Suvdagи hayvonlar nafas olishi jarayonida karbonat angidrid ajratadi, o‘simliklar esa fotosintez natijasida suvni kislород bilan boyitadi.

Okean suvlarining 100 m gacha bo‘lgan yuqori qatlamida bir hujayrali suvo‘tlari va mikroorganizmlar ko‘p tarqalgan, ular *mikroplanktonni* (yunoncha *planktos* – sayyor, ko‘chib yuruvchi) degan so‘zdan olingan) hosil qiladi.

Sayyoramizdagи fotosintez jarayonining 30 foizga yaqini suvda kechadi. Suvo‘tlari quyosh energiyasini o‘zlashtirib, kimyoviy reaksiyalar energiyasiga aylantiradi. Suvda yashaydigan hayvonlarning oziqlanishida plankton asosiy ahamiyatga ega.

Suvning tubida hayot kechiradigan organizmlar bentos (yunoncha *bentos* – chuqurdagi degan so‘zdan olingan) deb ataladi.

Okean tubidagi bakteriyalar organik moddalarni minerallashtirib, anorganik moddalarga aylantiradi.

Gidrosfera sayyoradagi issiqlik va namlikning taqsimlanishida, moddalarning aylanishida muhim rol o‘ynagani uchun, o‘z navbatida, biosferaga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Moddalar va energiyaning davriy aylanishi. Biosferaning barcha tarkibiy qismlari tog‘ jinslari, tabiiy suvlari, gazlar, tuproq, o‘simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar – tinimsiz davriy aylanish jarayoni bilan bog‘langan.

Tirik organizmlarning tarkibiga kiruvchi elementlarning tashqi muhitdan organizmlarga o‘tib, hujayradagi metabolizmda ishtirot etishi, keyin tashqi muhitga qaytib, yana tirik organizmlar tomonidan foydalанилиши **moddalar va energiyaning biotik davriy aylanishi** deyiladi. Biotik davriy aylanish hamma tirik organizmlar ishtirotida kechadi. Biotik aylanish biosferaning mavjudligini ta’minlovchi, uning butunligini va barqarorligini saqlovchi muhim omildir. Yerdagi organizmlar tarkibiga kiruvchi elementlar miqdori cheksiz emas. Agar bu elementlar organizmlar tomonidan faqat iste’mol qilinganida, muhitga qaytarilmaganida, ertami-kech ularning zaxirasi tugab, hayot to‘xtashi mumkin edi. Akademik V.R.Vilyamsning ta’kidlashicha, kam miqdorning cheksizligini ta’minalashning birdan bir usuli uni yopiq halqa bo‘ylab aylanishga majbur etishdir. Tabiat xuddi o‘sha usulni tanlagan.

Yerda moddalarning davriy aylanishini ta'minlovchi birdan-bir manba quyosh energiyasidir.

Yashil o'simliklar – avtrotroflar quyosh energiyasi ta'sirida anorganik moddalardan organik moddalarni sintezlaydi. Boshqa organizmlar (geterotroflar) esa bu moddalarni parchalaydi. Minerallashtirilgan moddalardan esa o'simliklar yana organik moddalarni sintezlaydi.

Bir yil davomida yerga tushadigan quyosh energiyasi $10,5 \times 10^{20}$ kJ ni tashkil etadi. Bu energianing 42 foizi Yerdan koinotga qaytariladi, 58 foizi esa atmosferaga va tuproqqa yutiladi, uning 20 foizini Yer yuzidan qaytaradi.

Yerga yutilgan quyosh energiyasining 10 foizi suv va tuproqdan suvni bug'lantirish uchun sarflanadi.

Atomlarning biogen migratsiyasi. Biogen migratsiya moddalarning davriy aylanishi bo'lib, tirik organizmlarning oziqlanishi, nafas olishi, ko'payishi, organik moddalarni sintezlashi, toplashi va ko'payishi hisobiga amalga oshadi. Biogen migratsiyada eng faol ishtirok etuvchi elementlar **biogenlar** deb ataladi, ularga uglerod, vodorod, kislorod, azot, fosfor, oltingugurt, temir, marganes, molibden, magniy, mis, rux, kalsiy, natriy, kaliy va boshqalar kiradi.

Kimyoviy elementlarning izotoplari juda ko'p bo'lishiga qaramasdan, tirik organizmlar tarkibiga ularning faqat ayrim izotoplarigina o'tadi. Masalan, vodorodning H¹, H² H³ izotoplaridan eng faoli H¹ gina tirik organizmlar tarkibiga kiradi. Organik moddalar tarkibiga C¹² izotopi, anorganik moddalar tarkibiga esa C¹³ izotopi kiradi. Kislorodning O¹⁶, O¹⁷, O¹⁸ izotoplarining ichida O¹⁶ izotopigina yuksak faollikka ega bo'lib, suv va karbonat angidrid tarkibiga kiradi.

Kimyoviy elementlarning bir marta to'liq davriy aylanib chiqish vaqt biogeokimyoviy sikl deb ataladi. Masalan, atmosfera kislorodining hammasi 2000 yil, karbonat angidrid gazi 200–300 yil, biosferaga suv esa 2 million yil davomida tirik moddalar orqali o'tadi.

Tirik organizmlar o'zida faqat muhitda eng ko'p tarqalgan elementlarnigina emas, balki juda kam miqdorda uchraydigan elementlarni ham to'play olish xususiyatiga ega. Kimyoviy elementlarning tirik organizmlaridagi konsentratsiyasi muhitdagiga nisbatan ancha yuqori bo'lishi mumkin. O'simliklarda uglerodning konsentratsiyasi Yer po'stidagiga nisbatan 200 marta, azotniki esa 30 marta yuqoridir.

Har xil organizmlar turli xil elementlarni o'zida ko'proq to'play olish xususiyatiga ega. Masalan, temir bakteriyalari – temirni, ildizoyoqli sodda hayvonlar – kalsiyini, bulutsimonlar, ba'zi suvo'tlari – yodni juda ko'p miqdorda o'zlarida to'playdi.

Biogen migratsiya natijasida tirik organizmlar ta'sirida ayrim kimyoviy elementlar valentligi o'zgaradi, yangi kimyoviy birikmalar hosil bo'ladi. Bizga ma'lum kimyoviy elementlardan 40 taga yaqini biogen migratsiyasida ishtirok etadi.

Biogen migratsiyaning uch turi mavjud. Birinchi turini – mikroorganizmlar, ikkinchi turini – ko'p hujayrali organizmlar amalga oshiradi. Birinchi tur migratsiyasi ikkinchi turga qaraganda jadalroq kechadi.

Hozirgi zamonda biogen migratsiyada insonlarning ahamiyati (uchinchi tur) tobora ortib bormoqda.

Elementlar migratsiyasi biogen usuldan tashqari fizik va kimyoviy usulda ham kechadi. Lekin biogen migratsiya boshqa usuldagilarga qaraganda ustun turadi.

Quyida ba'zi biogen elementlarining migratsiyasi bilan bat afsil tanishamiz.

Uglerodmmg davriy aylanishi. Karbonat angidrid o'simliklar tomonidan yutilib, fotosintez jarayonida uglevodlarga, lipidlarga, oqsillarga va boshqa organik moddalarga aylanadi. Bu moddalar hayvonlar tomonidan iste'mol qilinib, ularning nafas olish jarayonida yana karbonat angidrid gazi holatida atmosferaga ajratiladi.

O'lik o'simlik va hayvonlar, ularning chiqindilari mikroorganizmlar tomonidan parchalanib, minerallashadi. Minerallashishning oxirgi mahsuloti bo'lgan karbonat angidrid tuproqdan va suv havzalaridan atmosferaga ajratiladi. Uglerodning bir qismi tuproqda organik moddalar sifatida saqlanib qoladi. Dengiz suvida uglerod ko'mir kislota va uning tuzlari, bo'r, ohaktosh, korallar sifatida to'planadi, cho'kindi sifatida uzoq vaqt biogen migratsiyasida qatnashmaydi. Vaqt o'tishi bilan tog' hosil bo'lish jarayonlari natijasida bu cho'kindilar yana yuqoriga ko'tarilib, kimyoviy o'zgarishlar ta'sirida davriy aylanishga qo'shiladi.

Uglerod atmosferaga avtomobillardan, ishlab chiqarish korxonalarining chiqindilari tarkibidan ham ajratiladi. Biosferada uglerod almashinishi natijasida insonning amaliyotida foydalani ladigan energiya resurslari – neft, toshko'mir, yoqilg'i gazlari, torf, yog'och hosil bo'ladi.

Azotning davriy aylanishi. Azot ham eng muhim elementlardan biridir. U oqsillar va nuklein kislotalar tarkibiga kiradi. Azotning bir qismi atmosferadan yashin paytida azot va kislorod bilan birikib, azot oksidlari hosil qilishi natijasida o'zlashtiriladi.


Tuproqda yashaydigan azot fiksatsiyalovchi bakteriyalar o'lib, minerallashishi natijasida, ular tuproqni azot bilan boyitadi. Buning natijasida har bir hektar tuproqda bir yil davomida 25 kg ga yaqin azot to'planadi. Eng samarali azot fiksatsiyalovchilar dukkakli o'simliklar ildizida hayot kechiruvchi *tuganak bakteriyalar* va tuproqda erkin yashovchi *azotobakterlar hisoblanadi*.

Ildizlarda to'plangan azot o'simliklarning yer usti qismlariga o'tib, oqsil biosinteziga sarflanadi va ildiz atrofidagi tuproqda to'planadi. Beda ekilgan bir hektar maydonga bir yilda 150-400 kg gacha azot to'planadi.

Suvda va nam tuproqda azotni ko'k-yashil suv o'tlari fiksatsiyalaydi.

Organizmlar o'lgandan keyin chirituvchi mikroorganizmlar ta'sirida oqsillar parchalanishi natijasida ammiak hosil bo'ladi (bu jarayon *ammonifikatsiya* deyiladi), qisman, o'simliklar va bakteriyalar tomonidan o'zlashtiriladi va nitratlarga aylantiriladi. Bu jarayon nitrifikatsiya deyiladi. Nitratlar ammoniy tuzlar kabi o'simliklar va mikroorganizmlar tomonidan iste'mol qilinadi. Nitratlarning bir qismi esa ayrim bakteriyalar tomonidan elementar azotgacha parchalanib, atmosferaga ajratiladi. Bu jarayon *denitrifikatsiya* deyiladi. Shu tarzda azotning tabiatda davriy aylanishi davom etaveradi.

Shunday qilib, biogen migratsiya jarayonida jonli (biotik) va jonsiz (abiotik) tabiatning o'zaro munosabati natijasida anorganik materiya tirik organizmlarga o'tib, o'zgarib, yana qaytadan abiotik holatga qaytarilaveradi. Bu davriy aylanish uzlusiz davom etaveradi.



1-rasm. Biogen migratsiya jarayoni

Nazorat uchun savollar:

1. Geoekologik metodlarni yoritib bering.
2. Biosfera va uning chegarasi haqida nimalar bilasiz?
3. Biosferada modda va enenrgiya almashinuvini mohiyatini tushuntirib bering.
4. Biogen migratsiya jarayonini sharhlab bering.

5-MAVZU: LITOSFERANING XUSUSIYATI VA EKOLOGIK MUAMMOLARI

Litosfera (litos – tosh, sfera – shar, qobiq) deganda, yerning 30-80 km. qalinlikdagi qattiq qobig'i tushuniladi. Unumdoorlik xususiyatiga ega bo'lgan yer yuzasining ustki g'ovak qatlami **tuproq** deyiladi. Tuproqlarning tabiatdagi va jamiyat hayotidagi o'rni beqiyosdir. Tuproq biosferadagi modda aylanma harakatida asosiy rol o'ynaydi. U organizmlar uchun hayot muhiti, ozuqa manbai hisoblanadi, moddalarning kichik biologik va katta geologik aylanma harakatida muhim o'rinni egallaydi. Tuproq qattiq, suyuq, va gazsimon komponentlardan iborat bo'lib, iqlim, tog' jinslari, o'simliklar va hayvonlar, mikroorganizmlarning o'zaro murakkab ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Yer inson uchun bebahol boylik hisoblanadi. Odamlar o'zlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechakni yerdan olishadi. Kimyogarlar sintetik ovqatlar, tolalar tayyorlash uchun qanchalik urinmasinlar, inson uchun oziq-ovqatni, kiyimlarni, asosan, yer yetishtirib beradi. Shuning uchun ham insoniyat tarixida bo'lib o'tgan urushlamning asosiy maqsadi boshqalarining

unumdar yerlarini tortib olish bo‘lgan. Bundan bir necha million yillar ilgari yer qattiq tosh va qoyalardan iborat edi. Unga suv, shamol, issiq va sovuq havo harorati ta’sir etib yemirganligi va tuproqqa aylanganligini fan allaqachon isbotlagan. Hosildor yerdarda o‘simpliklar, hayvonlar paydo bo‘lgan. Chunki o‘simpliklar yerdan erigan mineral tuzlarni ildizi orqali so‘rish xususiyatiga ega. Ammo inson bu boylikni saqlashni, undan oqilona foydalanishni hozirga qadar mukammal egallagan emas.

Tuproq hech qanday boshqa tabiiy boylik bilan almashtirib bo‘lmaydigan tabiiy resursdir. Uning o‘rnini bosadigan sun’iy tuproq yaratish mumkin emas. Tuproq tugaydigan, ammo tiklanadigan resurslarga kiradi. Aniqlanishicha, 1 gramm tuproqda 1 mlndan oshiq sodda hayvonlar va tuban o‘simpliklar uchraydi. Uning tarkibida 60 ga yaqin moddalar mavjud. Tuproq ko‘plab zararli va zararsiz mikroorganizmlarning hayot muhitidir. Shuningdek, tuproqda xilma-xil yuqumli kasalliklar tarqatuvchi organizmlar ham uchraydi. Tuproq tabiatdagi iflos moddalarini biologik yo‘l bilan tozalovchi, singdiruvchi, minerallashtiruvchi muhim vositadir. Tuproq o‘zini-o‘zi tozalash xususiyatiga ega. Shunday qilib, tuproqning tabiat va jamiyat hayotidagi o‘rni juda kattadir.

Sayyoramizda mayjud bo‘lgan tuproq qatlami jamiyat taraqqiyoti davomida katta o‘zgarishlarga uchradi. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida 2 mlrd gektardan ortiq unumdar tuproqli yerlar yaroqsiz holga keldi. Hozirgi kunda sayyoramizda cho‘llanish, sho‘r bosish jarayoni tufayli yiliga 7 mln. gektarga yaqin unumdar yer yaroqsiz holga kelmoqda. Ayni paytda, dehqonchilikda foydalanib kelinayotgan yer 1,5 mlrd. gektarga yaqin bo‘lib, u jami quruqlikning 10% ini tashkil qiladi, o‘tloq va yaylovlar esa 2,6 mlrd. gektarni yoki sayyoramizning 17% ini ishg‘ol etadi. Inson tuproq resurslaridan noto‘g‘ri foydalanishi oqibatida uning eroziyasi kuchaydi. Bu, ayniqsa, sug‘orish sistemasida qo‘yilgan xatolikdir. Yer eroziyasi o‘rmon va to‘qayzorlaming yo‘qotilishi orqali sodir bo‘ldi. Aniqlanishicha, har kuni sayyoramiz bo‘yicha 3500 ga unumdar tuproq eroziyaga uchramoqda. O‘zbekiston Respublikasining tog‘li hududlarida, Mirzacho‘l, Zarafshon vodiysida va Amudaryoning quyi oqimidagi anchagina yer eroziyaga uchragan. Eroziyaga uchragan yerkirada hosildorligi 20-40% ga kamayishi ma’lum.

Dunyo bo‘yicha aholi sonining sezilarli darajada ko‘payishi mahsulotlarga bo‘lgan talabni bir necha barobar (2 marta) oshirdi. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshib borishi, o‘z navbatida, tuproq eroziyasini kuchaytiradi. Chunki kishilar hosilni ko‘paytirish uchun yangi yermomi o‘zlashtirib, irrigatsion inshootlar qura boshlaydilar. Dastlab, hosildorlik oshadi, keyinchalik yer eroziyaga uchrab, hosildorlik keskin kamayadi. Yerdan ko‘p hosil olay deb, uni eroziya holatiga keltirish ko‘p mamlakatlarda sodir bo‘lmoqda. Yaponiya, Xitoy, Nepal, Indoneziya, And mamlakatlar tog‘li hududlarida yerni terrasa usulida haydab foydalanib kelishgan. Bunday yerdar ko‘chish, o‘pirilish tufayli tez-tez yemirilgan. Shuningdek, kuchli yog‘ingarchiliklardan yerning yuza qavatidagi unumdar gumus qismi tez yuvilib ketgan. Ikkinci jahon urushidan keyin arzon azot o‘g‘iti ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgach, AQSH va boshqa mamlakatlarda dehqonchilikda dukkaldi ekinlar bilan almashtirish usulidan voz kechiladi. Tuproq eroziyasining yuzaga kelishi sabablaridan yana biri AQSH va sobiq Ittifoq qishloq xo‘jaligida yirik texnikalarning qo‘llanishi bo‘ldi. Bular mehnat unumdarligini oshirsa ham, ulaming ishlashi uchun ekin maydonlari kengaytirilib, daraxtlar bilan o‘ralgan kichik maydonlardan voz kechildi. Ko‘p joylarda ihota daraxtlari bo‘lmagan keng ekinzor yerdarda tuproq eroziyasi kuchaydi.

Geolog Shildon Jatsionning hisob-kitobiga qaraganda, tuproq yuzasidagi unumdar gumus qismi yog‘ingarchiliklar ta’sirida yuvilib, daryolarga, undan dengiz va okean suvlariiga chiqish miqdori yiliga 24 mlrd. tonnaga yetdi. Masalan, Xitoydagi Xuanxe daryosidan 1980-yilda 1,6 mlrd. tonna, Gang daryosidan 1,4 mlrd. tonna, Amazonkadan 363 mln. tonna, Missisipi daryosidan 300 mln. tonna, Nil daryosidan 111 mln. tonna unumdar tuproq okeanga

oqib chiqqan. Yerning sun’iy yo‘ldoshi orqali aniqlanishicha, Shimoliy Afrikadan Atlantikaga tushadigan mayda chang to‘zoni yiliga (1972-1981-yillar) 100—140 mln. tonnani tashkil etgan. AQSH olimlarining keltirgan ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda jami 413 mln. akr (1 akr (=) 0,4047 hektar) yerdan 1,53 mld. tonna unumdar tuproq yer yuzasidan ajralgan. Hozirgi kunda sayyoramizda jami haydaladigan yer 23 mld. tonna unumdar qismidan ajralmoqda. Hosildorligi kamaygan bunday tuproqqa kimyoviy o‘g‘it berib, uning hosildorligini biroz oshirish mumkin, ammo uning strukturasini yaxshilab bo‘lmaydi. Sayyoramizda yildan yilga aholi soni ko‘payib borayotgan bir paytda bu holat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash muammosini yana ham keskinlashtiradi. BMTning keltirgan dalillariga qaraganda, yaqin 10 yillar ichida dunyo bo‘yicha unumdar yerkarning yarmiga yaqinidan ajralib qolish mumkin. Masalan, sobiq Ittifoqda turg‘unlik yillarda qurilgan irrigatsion inshootlar (suv omborlari va kanallar) ta’siridan 12 mln hektar unumdar yerning meliorativ holati buzilib, sho‘rlanib va zaxlanib, tarkibi buzildi. Har kuni 110 hektar, yilda 39,160 hektar unumdar yer yo‘l, sanoat korxonalari va turar joylar qurish uchun olindi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, 250 yildan keyin (yer tarkibining buzilishi davom etaversa) sayyoramizda 1 hektar ham ekinzor yer qolmas ekan.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Litosfera qanday qobiq?
- 2.Litosferada tuproqning o’rni.
- 3.Tuproqning buzilishiga sabab bo‘luvchi omillar.
- 4.Tuproqning qayta tiklanishi uchun texnologik jarayonlarning qo’llanilishi.

6-MAVZU: GIDROSFERANING XUSUSIYATI VA EKOLOGIK MUAMMOLARI


Yer yuzidagi barcha mavjud suvlar gidrosferani tashkil qiladi. **Gidrosfera** deganda, okean, dengiz, ko‘l, daryo, yer osti suvlari va muzliklarni o‘z ichiga olgan Yerning suv qobig‘i tushuniladi. Sayyoramizda hayot dastlab, suv muhitida paydo bo‘lgan va tirik organizmlar uchun suvning ahamiyati beqiyosdir. Yer yuzida suv suyuq, qattiq va gazsimon holatda mavjud bo‘lib, modda va energiya aylanma harakatida katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, atmosferadagi suv bug‘lari va tuproq namligining ahamiyati katta. Dunyo okeani suvlari tugamaydigan resurslarga kiradi va aylanma harakat natijasida suv zaxiralari doim tiklanib turadi. Inson bevosita ishlatishi mumkin bo‘lgan suv zaxiralari tugaydigan va tiklanadigan resurs hisoblanadi. Gidrosferadagi barcha suvlarning 97,2%-i Dunyo okeanining sho‘r suvlariiga to‘g‘ri keladi. Suv shunday mineral moddaki, u yer yuzidagi barcha organizmlar (o‘simlik va hayvonlar) tirikligini, yashashini ta’minlaydi. U barcha o‘simlik va hayvonlar hujayralari, to‘qimalari tarkibida bo‘lib, ulardagi murakkab kimyoviy reaksiyalar, ya’ni modda almashinuvi jarayoni suv ishtirokida o‘tadi. Odam tanasining 60-80% ini suv tashkil etadi. Agar tirik organizm 10-20% gacha suv yo‘qotsa, u nobud bo‘ladi. Mutaxassislarning fikricha, kelgusida metall zaxiralari tugab qolsa, unining o‘rniga plastmassadan tayyorlangan materiallar ishlatiladi, hayvon va o‘simlik mahsulotlaridan olinadigan ozuqa moddalar yetishmasa, uning o‘rniga sintetik moddalardan tayyorlangan ozuqa moddalar iste’mol qilinadi, hatto havo o‘rnida ham gazlar aralashmasi ishlatilishi mumkin, ammo hech qachon suvning funksiyasini boshqa biron modda bajara olmaydi. Suv tugamaydigan resurslar qatoriga kirib, uning aylanma harakati natijasida suv zaxiralari tiklanib turadi. Kishilar suvning ahamiyatini bilib, qadimdan daryo yoki ko‘l bo‘yida uylar, shaharlar qurib yashaganlar, ko‘chmanchi xalqlar doimo suv bor joyni izlaganlar. Kishilar dam olish uchun doimo suv bo‘lgan joylarga intiladilar. Suvda cho‘milib turish kishi salomatligini saqlashda

va chiniqishda eng asosiy vositadir. Nemis olimi G.Libman aytganidek, “Bizning sayyoramizda kishilarning salomat qolishlari uchun texnikaning mo‘jizalari emas, balki toza, ichish uchun yaroqli suv yetarli bo‘lishi kerak”.

Agar biz dunyo xaritasiga nazar tashlasak, yerimizning to‘rtdan uch qismini okean, dengiz, ko‘l va daryolar egallaganini ko‘ramiz. Dengiz va okean suvlari sho‘r bo‘lib, ichish va sug‘orish ishlariga yaramaydi. Iste’mol qilishga yaratdigan toza suv miqdori juda oz. Gidrosferadagi umumiyl suv hajmining atigi 2,24% ga yaqinini chuchuk suv tashkil etadi. Aholining chuchuk suvga bo‘lgan talabini qondirish uchun ko‘pgina mamlakatlar yerosti suvidan foydalanmoqdalar. Masalan, Daniya, Avstriya 100%, Gollandiya 70-80%, Germaniya 40% ehtiyojini yerosti suvi hisobiga qondiradi. AQSH ning ko‘p shtatlarida yerosti suvlari qurib qolgan. Buning sababi joylarda aholi soni va sanoat tarmoqlarining ko‘payishi va yerosti suvining ko‘p olinaverishidir. Keyingi yillarda shaharlarning suvga bo‘lgan talabi 10 martadan oshdi, ya’ni zamonaviy shahar aholisi (bir kishi hisobiga) sutkasiga 300-500 litr suv sarflaydi, holbuki bir kishi uchun sutkasiga 25 litr suv zarur. Rivojlangan mamlakatlarda har bir kishi bir yilda o‘z ehtiyoji uchun 1,5-2 mln. litr suv sarflasa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu qiymat 20-30 ming litrni tashkil qiladi.

Ma’lumki, hozirgi kunda dunyo bo‘yicha 240 mln. hektar yer sug‘orilib, dehqonchilik qilinadi. Shuning uchun ham suvni eng ko‘p talab qiladigan katta iste’molchisi qishloq xo‘jaligi sohasi hisoblanadi. Dunyo bo‘yicha 1 hektar yerni sug‘orish uchun 8-12 kubometr suv sarflanadi, 1 hektar sholi yetishtirish uchun 12-30 mln. litr suv kerak, 1 tonna paxta yetishtirish uchun 10 ming litr suv zarur. O‘zbekistonda 2,8 mln. hektar sug‘oriladigan yer mavjud, ya’ni respublikamizning suvga bo‘lgan ehtiyoji kattadir.


Sanoatda, ayniqsa, kimyo korxonalarida toza suv ko‘p miqdorda ish-latiladi. Masalan, 1 tonna rezina ishlab chiqarish uchun 3500 tonna, 1 ton-na shakar ishlab chiqarish uchun esa 100 tonna chuchuk suv zarur. Issiqlik va AESlarda stansiyalar agregatlarini sovitishda ko‘p miqdorda suv ishlatiladi. Masalan, quvvati 4,8 mln. kvt. soat bo‘lgan Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi kondensatorini sovitish uchun sekundiga 150-180 litr kub suv sarflaydi. Kelgusida sanoat tarmoqlarining ko‘payishi va madaniy ehtiyojlar uchun yanada ko‘p suv zarur bo‘ladi. Urbanizatsiya jarayonining taraqqiyoti aholining suvga bo‘lgan talabini yanada kuchaytiradi (2-rasm).



Ko‘pgina joylarda, ayniqsa, Osiyo va Afrika qit’alarida joylashgan mamlakatlarda suv juda tanqis. Masalan, Angolada bir litr ichimlik suvining qiymati 120 litr benzinga teng. Ba’zi mamlakatlar, masalan, Malta davlatining atrofi dengiz suvi bilan o‘ralgan bo‘lsa ham ichimlik suvini boshqa mamlakatlardan sotib olib kelib o‘z xalqini ta’minlaydi. Kelgusida chuchuk suv

eksporti va importi yanada kuchayadi. Mamlakatimizning ba'zi joylarida ichimlik suvi juda tanqis.

Masalan, bir kunda bir kishiga o'rtacha 15 litr suv zarur bo'lsa, Orol yaqinidagi Mo'ynoq aholisiga bir kunda bundan bir necha marta kam ichimlik suvi to'g'ri keladi. Respublikamizning 80% aholisi toza suv bilan ta'minlangan. Respublikamizdagi mavjud suvning 90,2%-i sug'orishga, 6,2%-i xo'jalik-ichimlik uchun, 2,2%-i sanoat uchun, 1,5%-i baliq xo'jaligiga sarflanadi (3-rasm).



Suv nafaqat tiriklik, balki daromad manbayi hamdir. Suv yetarli bo'lgan joylarning tabiat go'zal, xalqlari iqtisodiy jihatdan boy bo'ladi.


Orol muammosi. Osiyo mintaqasida qurilgan irrigatsiya inshootlaridan eng katta talafot ko'rgani Orol dengizidir. Unga quyilgan Sirdaryo va Amudaryo suvining yangi o'zlashtirilgan yerlarga, suv omborlariga, sanoat korxonalariga olinaverishi bu daryolarning quyi oqimidagi suvni juda kamaytirib yubordi. Sirdaryo suvi 1974-yildan beri Orolga yetib bormayapti, Amudaryodan borayotgan suvning miqdori ham juda kam. Oqibatda, Orol dengizining hajmi keskin kamayib bormoqda. Suvning sho'rligi bir litrda 9,9 grammdan 22 grammgacha ko'tarilgan. Suvning minerallashuvi davom etib, har litrida tuz miqdori 60-100 grammga yetishi mumkin. Bunday sho'r suvda na baliq, na boshqa hayvon yashay oladi. Orol atrofida sho'rxoklar vujudga kelib, bunday tuproqda hatto sho'rga chidamli o'simlik ham o'sa olmay qurib qolmoqda. Bu yerdagi 800 ming hektar qamishzor va o'tloqlarning ishdan chiqishi tufayli 5 million tonna qimmatbaho mol oziqasi qurib bitdi. Aniqlanishicha, shamol ta'sirida dengiz atrofidagi sho'rxoklikdan bir yilda 100 million tonna tuz to'zoni ko'tariladi. Hozirga qadar Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi va Turkmanistonning shimoliy tumaniga yog'ilgan tuz-chang to'zoni 1 milliard tonnani tashkil etadi. O'zbekiston xalq xo'jaligi bundan juda katta zarar ko'rmoqda. Bundan tashqari, Orolning quriy boshlashi iqlimga ham ta'sir ko'rsatib, yozda havo harorati ko'tarilishiga, quruqligi oshishiga va qishda sovuq sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Bunday holat aholining sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ichimlik suvi sifatining buzilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi o'rtasida turli yuqumli va oshqozon-ichak kasalliklari, onkologik xastaliklar, bolalar o'limining ko'payishiga olib keldi. Bunday holatga tushgan qoraqalpoq xalqiga O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan har tomonlama yordam berilmoqda.


Orolning qurigan o'mida qum va tuzlarning shamol bilan uchirilishiga qarshi chora ko'rish uchun sun'iy o'rmonlar bunyod qilish katta ahamiyatga egadir. 1981-yildan boshlab dengizning qurigan qismida daraxt va butalar oq va qora saksovul, kandim, cherkez va boshqa o'simliklar o'stirila boshlashi, yaxshi natijalar berdi va hozirda har yili 25 ming hektar

o‘rmonlar tashkil qilinmoqda. Dengizning yangi ochilayotgan tubi tuz bilan qoplanib qolmoqda, natijada, o‘simliklar mutlaqo o‘smasligi mumkin.

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Gidrosfera (gr. hydor-suv, namlik+spaira-muhit) – keng ma’noda, Yerning barcha suvlari (yer osti va tuproq suvlari, yer usti va atmosfera, materik va okean suvlari). Ammo, G.deganda, odatda, Yer qobig‘ining alohida qismi hisoblangan yuzadagi suvlar tushuniladi.





Orol va Orolbo‘yi muammolarini hal qilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlikda ish olib bormoqdalar. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va boshqa rivojlangan davlatlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Banki va turli davlat hamda nodavlat xalqaro tashkilotlar bu asr muammosini ijobiy hal qilishga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Gidrosfera tarkibiy qismini ajratib bering.
- 2.Suvni ifloslantiruvchi manbaalar haqida nimalar bilasiz?
3. Suv bilan bog’liq geoekologik muammolar haqida nimalar bilasiz?
- 4.Orol-Markaziy Osijoning geoekologik muammosi.

7-MAVZU: ATMOSFERANING XUSUSIYATI VA EKOLOGIK MUAMMOLARI

Yer yuzida yashaydigan barcha tirik organizmlar uchun havo eng asosiy omil hisoblanadi. Inson bir kecha-kunduzda o‘rtacha 25 kg havoni nafas organlari orqali oladi. Odam oziq-ovqatsiz besh haftadan ortiq, suvsiz bir hafta yashashi mumkin, lekin havosiz 5 daqiqa ham yashay olmaydi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, havo inson hayoti uchun benihoya mihim.

Havoning tarkibida o‘rtacha 21% atrofida kislород bo‘лади, ана шу газ мидорининг камайиб ketishi yoki o‘ta yuqori bo‘lishi ham turli halokatlarga olib kelishi mumkin. Tabiatdagi eng buyuk muvozanat Yer sharining barcha hududlarida kislородning mo‘тадиллашиб turishidadir. Agar kislородning мидори 25%-га yetsa, daraxtlar va yog‘och mahsulotlari yomg‘irda ham yona boshlaydi yoki uning мидори 10%-га tushib qolsa, hech qanday olov yoqishning imkoniyati bo‘lmaydi. Atmosfera havosini kislород билан ta’minlab

turuvchi asosiy omil bu o'simliklar olami, o'rmonlar hisoblanadi. Masalan, Janubiy Amerikadagi Amazonka chakalakzor o'rmonlari yer yuzining "o'pkasi" deb baholangan.

Havo tarkibida 78,08% azot moddasi bolib, azot hayotning asosini tashkil etadi, bu ham tiriklik uchun o'ta zarur elementlardan biri hisoblanadi. Havodagi karbonat angidrid gazi 0,03% atrofida bo'lib, bu ham, o'z navbatida, fotosintez jarayoni uchun asosiy omil hisoblanib, energiyani toplashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida qayd etilgan moddalar yer sharining barcha joylarida qariyb bir xil holatda uchrashi tabiatning buyuk yaratuvchi ekanligiga yana bir karra iqror bo'lishimizga sabab bo'ladi.

Atmosfera havosi barcha tirik organizmlami kosmik nurlardan himoya qilib turadi va sayyoramizdagagi issiqlikni inson uchun zarur bolgan me'yorda saqlaydi. Mabodo, havo qobig'i bo'lmaganida edi, yer yuzasidagi harorat kunduzi +100 daraja, kechasi -100 daraja bo'lar edi.

Atmosfera havosining tashqi ta'sirlar, ya'ni kosmik changlar, meteoritlar va Quyoshdan keladigan ultrabinafsha nurlarni, birinchi navbatda, qaytaradigan shunday qobiq borki, u **ozon qatlami** deb ataladi. Ozon qatlami zichlashtirilsa, qalinligi 3-5 sm atrofida bo'lib, yer sathidan 22-25 km yuqorida joylashgan, uni olimlarimiz "biologik qalqon" deb ham ataydilar.

Ozon qatlamiga bo'ladigan ichki ta'sirlarga insoniyat faoliyati kuchli ta'sir etmoqda. Kosmik parvozlar, reaktiv samolyotlar parvozi, avtomobillar va boshqa manbalardan chiqayotgan gazlar, ayniqsa, sovitish tizimlaridagi freon gazi bu qatlamning yemirilishiga kuchli ta'siri ko'rsatmoqda.

O'tgan XX asrda, ayniqsa, uning ikkinchi yarmidan keyin sayyoramizdagagi barcha mamlakatlarda sanoat, transport vositalari va qishloq xo'jaligi tez sur'atlarda rivojlandi. Aholisi bir necha milliondan iborat yirik, sanoati taraqqiy etgan shaharlar paydo bo'ldi. Sanoat korxonalaridan, ayniqsa, kimyoviy moddalar ishlab chiqaradigan zavodlardan, transport vositalaridan, qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan moddalardan, otilayotgan vulqonlardan hamda neft mahsulotlarining yoqib yuborilishidan chiqqan zaharli gazsimon moddalardan atmosfera havosi ifloslanmoqda.

Mutaxassislarining hisob-kitobiga qaraganda, so'nggi yuz yil ichida inson faqat yonilg'i hisobiga havoga 400 mlrd. tonnadan ortiq is gazini chiqargan. Shuningdek, otingugurt oksidi, azot oksidi, ammiak, xlor va boshqa gazlar havoga turli miqdorda chiqarilmoqda.

Atmosferada karbonat angidrid gazining ko'payib borishi natijasida o'ziga xos "issiqxona" vujudga keldi. Bu esa Yer havosi haroratining oshishi xavfini tug'dirdi.

Har yili sayyoramizda ishlab chiqarish ehtiyojlari va yonish jarayonlari uchun 10 mlrd tonnadan ortiq kislorod sarflanadi. Biosferada kislorodning miqdorini tiklovchi va ko'paytiruvchi yashil o'simliklar maydoni yildan yilga kamayib bormoqda. Oqibatda, kelajakda atmosferada kislorodning kamayish xavfi tug'ilmoqda.

Atmosfera havosi avtomobillardan chiqqan zaharli gazlar tufayli eng ko'p ifloslanmoqda. Hozirgi vaqtida avtomobillar sonining ko'payib borishi atmosfera va uning yerga yaqin qatlamlarida azot, otingugurt, uglerod gazlari, qo'rg'oshin birikmalari va boshqa zaharli moddalar miqdorining ko'payib ketishiga olib kelmoqda. Avtomobilaming ko'p qismi shaharda mavjud bo'lgani uchun ulardan chiqqan zaharli moddalar shaharlarda zich joylashgan aholi sog'lig'iga ta'sir etmoqda.

Atmosfera havosini avtomobillar ifoslantirmasligi uchun ularning dvigatellarini, ayniqsa, karbyuratorlarini takomillashtirish va nosozligining oldini olish, kelgusida elektroavtomobilga o'tish, avtobuslarni trolleybus, tramvaylar bilan almashtirish kabi choralarini ko'rish katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, atmosferaning quyi qatlami – troposferaning qalinligi 10–12 km bo'lib, unda havoning 80% i to'plangan. Ushbu qatlamda suv va boshqa kimyoviy elementlarning

aylanma harakati sodir bo‘ladi. Yer atmosfera havosining o‘rtacha harorati Yer yuzasidan qaytgan radiatsiya miqdoriga bog‘liq.

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Troposfera (gr. tropos – yo‘nalish, burilish+spaira-shar,muhit) – atmosferaning pastki qatlami (yuqori chegarasi qutblarda 8-10 km va ekvatorda 16-18 km) bo‘lib, atmosfera havosi massasining (uning umumiy massasi 5000 trln t) 90%, suv bug‘larining barchasi va yer ustida qaynab turgan hayot shu qavatda joylashgan. Ko‘pchilik meteriologik jarayonlar T.da kechadi.

Uglerodning atmosferaga ko‘p chiqishi, asosan, neft va gaz, ko‘mir yonishidan hosil bo‘ladi. Tabiiy o‘rmonlarning yo‘q qilinishi ham bu gazning (0,4-2,5 mlrd. tonna) ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda (2-jadval).

2-jadval.

2005-2011-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atmosfera havosiga asosiy ifloslantiruvchi moddalarning milliy tashlanmasi dinamikasi (ming t.)

Ifloslantiruvchi moddalar	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.
Qattiq moddalar	135,227	97,239	129,87	122,004	129,653	117,403	125,511
Azot oksidlari	169,746	168,19	176,526	187,264	174,303	164,669	205,070
Oltingugurt dioksidi	298,089	243,761	266,293	242,075	243,098	254,796	276,499
Uglevodorodlar	324,528	333,742	419,454	459,923	433,919	465,412	472,977
Uglerod oksidi	1029,439	1020,314	1048,004	1094,242	1082,196	1074,241	1039,831

Atmosferaga chiqarilgan zaharli chiqindilarning aksariyat qismi yer yuzasiga qaytib tushadi va tuproqni, suvni zaharlaydi. Bu zaharli moddalar o‘simlik va hayvonlarga ham ta’sir etadi. Tuproqqa tushgan zaharli moddalar undagi gaz rejimiga, kimyoiy jarayonlarga ta’sir etadi. Eng yomoni, zaharli moddalar tuproqdagi barcha makro va mikroorganizmlarning faoliyatini buzadi. Havodagi turli gazlar, changlar o‘simliklarda o‘tadigan assimilatsiya jarayonlarini susaytiradi. Tuproqqa tushgan metan gazi, superfosfat, sulfat kislotalari o‘simliklarning ildiz sistemalarini zararlaydi, hosildorlikni kamaytirib, ularning sifatini buzadi.

Yuqorida keltirilganidek, hozirgi davrda atmosfera havosi ifloslanishi tufayli isib bormoqda. Havoning isishiga, ayniqsa, karbonat angidrid gazi sabab bo‘lmoqda. Atmosfera havosining isishi sayyoramizda sodir bo‘layotgan global ekologik muammolardan biridir. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi davrda inson faoliyati tufayli yiliga o‘rtacha 22 milliard tonnadan ortiq is gazi atmosferaga chiqarilmoqda. Uning miqdori yildan yilga ortib bormoqda.

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Atmosfera (gr. *atmos-bug*‘+*spaira-shar, muhit*) – yerning gazsimon qobig‘i *bo‘lib*, turli gazlar aralashmasi, suv bug‘lari va chang zarralari (*aerozollar*)dan iborat. Umumiy balandligi d.s.dan taxminan 1300 km gacha. Chegaralari aralashgan uch asosiy qatlardan iborat: troposfera (ekvatorda 8 km, qutblarda 18 km), stratosfera (18-80 km) va ionosfera (80-1300 km). Ionosferada termosfera (80-900 km) va ekzosfera (900-1300 km) kichik qavatlari farqlanadi. Atmosfera gazlarining umumiy vazni 5000 trln. tonna bo‘lib, uning 79%-i troposferada, 20%-i stratosferada va 1%-i ionosferada joylashgan.

“Issiqxona samarasi”. Dunyo bo‘yicha XX asrning 50-yillaridan boshlab, energiya ishlab chiqarishning keskin ortishi munosabati bilan atmosferaga katta miqdorda chiqindilar chiqarila boshladi. Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori yiliga 5 mlrd. tonnani tashkil qildi. Bu miqdor yil sayin orta boshladi. Bu esa Yerdagi o‘rtacha harorat 1890-yildagi 14,5°C dan 1980-yilda 15,2°C ga, ya’ni 0,7 darajaga ortishiga olib keldi. Mazkur ko‘rsatkich yil sayin ortib borish xususiyatiga ega. Bu esa “issiqxona samarasi”ning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Olimlarning fikricha, “issiqxona samarasi”ni vujudga keltiruvchi gazlaming hozirgi ortish sur’ati saqlanib qolsa, har 10 yilda harorat 0,2-0,5 darajaga ortib boradi. Bu esa turli ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Dunyo bo‘yicha havo haroratining 1-2 darajaga ko‘tarilishi natijasida Yevrosiyoda tundra, o‘rmon-tundra, tayga, aralash va keng bargli o‘rmonlar, o‘rmon-dasht va dasht tabiat zonalarining shimalga siljishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Yevropa va Afrikada daryolarning suv oqimi ortadi.

Dunyo bo‘yicha havo haroratining ortishi muzliklaming erishi va okean suvlarining issiqlik ta’sirida kengayishiga olib keladi. XX asr davomida olimlarning hisobi bo‘yicha okean sathi 17,5 sm ga ko‘tarilgan. Amerika olimlarining bashoratiga ko‘ra 2100-yilga kelib, Dunyo okeanining sathi 1,4-2,2 m ga ko‘tarilishi mumkin. Bu okean sohillarida joylashgan ko‘pchilik davlatlaming suv ostida qolib ketishiga sabab bo‘ladi.

Ozon “tuynugi”. XX asrning 50-yillaridan boshlab, havoda freon gazlari (xlor, ftor, uglerod) miqdorining ko‘payganligi kuzatila boshladi. Bu gazlar 25 km balandlikda joylashgan ozon qatlarni yemira boshladi. Ma’lumki, ozon qatlami Quyoshdan kelayotgan zararli ultrabinafsha nurlarni tutib qoladi. Ozon qatlaming yemirilishi natijasida ozon “tuynugi” hosil bo‘ldi. Mazkur tuynukdan Yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarining kirib kelishi donli ekinlar hosilini keskin kamaytirib yuborishi, odamlarning teri raki kasaliga chalinishiga sabab bo‘lishi aniqlangan.

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Smog (ing. *smoke-tutun+fog-tuman*) – 1) atmosfera havosidagi chang zarralarining tuman tomchilari bilan birikmasi; 2) havoning ko‘zga tashlanib turgan, odatda, sog‘liqqa ziyon yetkazadigan ifloslanishni ifodalovchi atama. Ho‘l (London tipidagi) S.-gazsimon ifloslovchilar (asosan, oltingugurt angidridi), chang zarrachalari va tuman tomchilaridan iborat aralashma hamda fotokimyoviy (Los-Anjeles tipidagi quruq) S.farqlanadi. Bu yerda asosiy zaharli komponent – ozon, boshqa komponentlar – azot hamda oltingugurt va sh.k.larning birikmalari. **Q.- Fotokimyoviy smog.**

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Fotokimyoviy smog (fotokimyoviy+ing. smoke-tutun+fog-tuman) – havodagi ifloslovchi moddalarning quyosh nuri ta’sirida parchalanishi va o‘zgarishi, boshqa moddalar hosil qilishi tufayli sodir bo‘ladigan ikkilamchi (kumulyativ) ifloslanish. Quyoshning qisqa to‘lqinli nurini yutib o‘zida to‘plagan ifloslovchi moddalarning atom va molekulalari junbushga kelib, o‘zaro ta’sirga kirishadi va turli o‘zgarishlarga uchraydi. F.s.da asosiy oksidant ozon (oksidlovchilarning 90-95%), undan keyingi o‘rinda turli azot oksidlari, azot kislotasi, atsetilnitrat peroksidi turadi. F.s.ning paydo bo‘lishi va turg‘unligiga atmosferaning pasayuvchi inversiyasi, quyosh nurlanishi hamda havoning sanoat va transport tashlama gazlari bilan kuchli ifloslanishi ta’sir qiladi. F.s. birinchi marta o‘tgan asrning 40-yillarida Los-Anjeles (AQSH)da kuzatildi. 1952-y. London shahri ustida yuzaga kelgan F.s. 4 mingdan ko‘proq, 1963-y. Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan smog esa chamasi, 400 kishining hayotdan ko‘z yumishiga sabab bo‘ldi.

1989-yilda 81 ta mamlakat olimlari, mutaxassislari hamda davlat ar- boblari qabul qilgan “Ozon qatlamenti muhofaza qilish Xelsinki Deklaratsiyasi” da 2000-yilga qadar freon gazlaridan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni kamaytirib borish tadbirlari belgilab berildi. Natijada, so‘nggi yillarda ozon “tuynugi”ning maydoni qisqarib bormoqda.

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Atmosfera bosimi, atmosfera havosining bosimi. A.b. jism sirtining maydon birligiga atmosferaning bosib turadigan kuchiga teng bo‘lgan bosim bilan o‘lchanadi. A.b. metereologiyada barometrning simob ustunining balandligi yoki bar bilan o‘lchanadi va Paskal (Pa) bilan ifodalanadi. Harorat 0° C ga teng va barometrda simob ustunining balandligi 735.6 mm bo‘lganida A.b. 1 kg/sm^2 ga teng bo‘ladi. Balandlik dengiz sathidan ko‘tarilgan sari A.b. pasaya boradi.

Hozirgi vaqtida kishilar atmosfera havosi ifloslanishining salbiy oqibatlarini bilib, uning oldini olish borasida ma’lum choralarmi ko‘rmoqdalar. Ko‘p shaharlarning sanoat rayonlari aholi yashaydigan rayondan ajratilgan, ya’ni aholi yashaydigan uylar 2-3 km uzoqlikda, shimol tomonga joylashtirilgan. Korxonalardan chiqqan zaharli chiqindilarni shimoldan esgan shamol janubga, aholi yashamaydigan tomonga olib ketadi.

Atmosfera havosining musaffoligini saqlash uchun korxonalar texnologiyasi ekologik jihatdan sog‘lom bo‘lishi kerak, ya’ni atrof muhitga zaharli moddalar chiqarmasligi lozim. Buning uchun ular ekspertizadan o‘tkaziladi, shahar va qishloq ko‘chalarida, korxonalar atrofida ko‘kalamzorlashtirish ishlarini yanada yaxshilash lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. Atmosfera-havo qobig’i haqida nimalar bilasiz?
2. Atmosferadagi geoekologik muammolar mohiyatini tushuntirib bering.
3. Issiqxona samarasi mazmuni haqida nimalar bilasiz?
4. Ozon tuynugi muammosi haqida fikringizni bildiring.

8-MAVZU: GEOEKOLOGIK OMILLAR VA ULARNING TASNIFI

Geoekologik omillar – (lot. *faktor* – yaratuvchi, bunyod etuvchi, aybdor – biron jarayonni harakatlantiruvchi, uning xususiyatini yoki alohida jihatlarini belgilovchi kuch, sabab) – geoekologik vaziyatni belgilovchi, yuzaga keltiruvchi tabiiy va antropogen, dialektik o‘zaro aloqador ichki va tashqi jarayonlar.

Geoekologik omillarning xilma-xilligi ularni o‘rganish maqsadida guruhlashtirishni talab etadi. Ularni kelib chiqishiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Tabiiy omillar; 2. Antropogen omillar.

Tabiiy omillar – tabiiy kuchlar ta’sirida ro‘y beradigan, geotizimlarning rivojlanishiga, maxsus faoliyatiga, ekologik, barqarorlik va resurs imkoniyatlariga ta’sir etuvchi hodisa va jarayonlardir. Masalan, eroziya, deflyasiya, sho‘rlanish, cho’llashish, botqoqlanish, sel, ko‘chki, tog‘ qulashi, tuproq ko‘chishi, zilzila va h.k.

Geoekologik tadqiqotlarda ko‘proq *antropogen omillarga* e’tibor beriladi. Antropogen omil deganda, geoekologik vaziyatga ta’sir etuvchi antropogen hodisa va jarayonlar tushuniladi. Bunday hodisa va jarayonlarni adabiyotlarda antropogen ta’sir, antropogen bosim, antropogen stress kabi nomlash holatlari uchraydi. Bizningcha, “antropogen ta’sir” eng aniq va tushunarli atama bo‘lib, odamlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatining geotizimlar strukturasiga va maxsus faoliyatiga ko‘rsatayotgan ta’sirini anglatadi.

Geotizimlarning resurs, ekologik va barqarorlik imkoniyatlariga ega ekanligini hisobga olsak, ularga antropogen ta’sir turli maqsadda bo‘lishi mumkin: 1) uning resurs imkoniyatini oshirish, masalan, yerlarni shudgorlash, sug‘orish, mineral o‘g‘itlar solish, turli meliorativ tadbirlar va h.k.; 2) ekologik imkoniyatini oshirish, masalan, manzarali daraxtlar ekish, aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish, tabiiy infeksiya o‘choqlarini yo‘q qilish, botqoqlarni quritish va h.k.; 3) barqarorlik imkoniyatini oshirish, masalan, eroziya, deflyasiya, suffoziya, karst, surilma, ko‘chki, sho‘rlanish kabi tabiiy geografik jarayonlarning oldini olish va h.k.

Tabiiy komponentlarning, shuningdek, yonma-yon geotizimlarning uzviy bog‘liqligi komponentlardan biriga biror maqsadda qilingan ta’sir ko‘pincha boshqa komponentlarga ataylab qilinmagan ta’sirning sodir bo‘lishiga olib keladi (suv omborlarini qurish – atrofdagi yerlarni suv bosishiga, yer osti suvlarining olinishi – yer yuzasining cho‘kishiga va h.k.). Aslida, xo‘jalik faoliyatining deyarli barcha turi (ishlab chiqarish, rekreatsion, tabiatni muhofazalash, ilmiy-tekshirish) amalda doimiy yoki vaqt-vaqt bilan geotizimlarga ta’sir etadi. Har qanday xo‘jalik faoliyati geotizimlarning bir maromda rivojlanishiga ta’sir etish bilan kechadi. Antropogen ta’sir aholi soni va ehtiyojining ortishi hamda texnikaning rivojlanishiga mos holda jadal sur’atda ortib bormoqda. Mazkur ta’sirning miqyosi, tezligi va boshqa ko‘rsatkichlari asosida tabiiy muhit ma’lum darajada o‘zgarishga uchraydi.

Geotizimlarga ta’sir uning komponentlari yoki butun holati va strukturasida turli o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Geotizimlardagi o‘zgarish, o‘z navbatida, aholining sog‘ligi va xo‘jalik faoliyatida ijobiy yoki salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Geotizimlarga antropogen ta’sirni tasniflashda adabiyotlarda turlicha yondashilishi, mualliflar uning turli jihatlariga asoslanganligini ko‘rish mumkin. Adabiyotlardagi ushbu mavzuga oid fikrlarni umumlashtirib, uning turli jihatlarini hisobga olib, antropogen ta’sirni quyidagicha guruhlash mumkin:

- ❖ xo‘jalik *faoliyati sohalari* bo‘yicha – qishloq xo‘jaligi, sanoat, energetika, transport, qurilish, rekreatsya va h.k.;
- ❖ ta’sir etish *shakllari* bo‘yicha – maydonli, chiziqli, nuqtali;
- ❖ ta’sirning *davomiyligi* va *tartiboti* bo‘yicha – doimiy, vaqt-vaqt bilan, mavsumiy;

- ❖ ta'sir *oqibatlariga* ko'ra – ijobi, salbiy;
- ❖ ta'sirni *amalga oshirilish dasturi* bo'yicha – maqsadli, maqsadsiz;
- ❖ ta'sir etish *jarayoniga* ko'ra – bevosita, bilvosita;
- ❖ *modda va energiya almashinuviga* ko'ra – olish, kiritish va h.k.

Bizningcha, insonlarning geotizimlarga ko'rsatayotgan ta'sirini qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, rekreatsiya kabi *xo'jalik faoliyati sohalari* bo'yicha ko'rib chiqish ma'qul. Chunki ushbu tasnif bo'yicha Respublikamizda aholining geotizimlarga bo'layotgan barcha ta'sir turlarini, buning oqibatida, geotizimlar va ularning komponentlarida son va sifat jihatidan ro'y berayotgan o'zgarishlarni, yuzaga kelayotgan geoekologik vaziyatlarni qamrab olish mumkin. Geotizimlar va undagi komponentlarning qay darajada o'zgarishi antropogen ta'sirning miqyosi va turlarining miqdori bilan belgilanadi. Xo'jalik faoliyati sohalari o'z xususiyatlaridan kelib chiqib tabiiy resurslardan foydalanish turlarini, ularga mos keluvchi turli geoekologik muammolarni va geoekologik vaziyatlarni keltirib chiqaradi hamda ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarga ega bo'ladi.

Ko'pincha, xo'jalik faoliyati ma'lum tabiiy komponent bilan bog'liq bo'ladi. Lalmi dehqonchilikda tuproq, chorvachilikda va o'rmonchilikda o'simlik (o't-o'lan va daraxt), tog'-kon sanoatida tog' jinsi (foydale qazilma) bilan bog'liq bo'ladi. Binobarin, ushbu tabiiy komponentlar o'sha hududlarda ma'lum darajada o'zgarishga uchraydi. Ba'zan bu o'zgarishlar boshqa komponentlarning ham u yoki bu darajada o'zgarishiga olib keladi. Ba'zi xo'jalik sohalarida inson o'z mehnati jarayonida ikki va undan ortiq tabiiy komponentlari bilan munosabatda bo'ladi. Sug'oriladigan dehqonchilikda tuproq va suv, sanoat ishlab chiqarishida tuproq, suv, havo, o'simlik bilan munosabatda bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi tarixiy jihatdan ancha erta boshlangan xo'jalik sohasi bo'lib, landshaftlarning bioresurs imkoniyatidan foydalanishga asoslangan. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari – dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, baliqchilik bevosita tabiiy resurslarning mahalliy manbalariga tayanadi. Landshaftlarning resurs imkoniyatini xo'jalik muomalasiga kiritish katta maydonlarni talab etadi. Shuninng uchun bugungi ancha intensiv dehqonchilikka keng masshtabdagi maydonlar tegishlidir. Qishloq xo'jaligi, birinchi navbatda, bevosita iqlim va relyef omillariga, keyin esa biota va tuproqqa hamda landshaftning boshqa komponentlariga u yoki bu darajada bog'liq bo'ladi. Biota va tuproqda yuz bergan o'zgarish antropogen ta'sir to'xtatilganidan so'ng birlamchi holatiga yaqin holga qaytadi. Qishloq xo'jaligining landshaftlarga ta'siri oqibatida geoekologik vaziyat tubdan o'zgarmaydi. Lekin mikroiqlimning o'zgarishi, sinantrop kemiruvchilarining tarqalishi, landshaftlar estetik sifatlarining yomonlashuvi va boshqa jarayonlar tufayli atrof tabiiy muhitning sifati u yoki bu darajada pasayishi mumkin.

Bugungi intensiv **dehqonchilik** yerlardan foydalanishda ko'pincha landshaftning butun maydonini qamrab olmoqda. O'zbekiston hududida yerlarni o'zlashtirishning tarixiy o'choqlari daryo vodiylari va tog'oldi tekisliklarida paydo bo'ldi. Bu yerdan esa yuqoriga – tog' yonbag'irlari va adirlarga, pastga – tog' oraliq botiqlari va tekislikka tomon jadal kengayib bordi. Hududning dehqonchilikda o'zlashtirilishi, asosan, daryo vodiylari va vohalardagi o'simliklarni yo'q qilish hisobiga olib borilgan. Dehqonchilikni keng tarqalishining birinchi bevosita oqibati keng maydonlarda tabiiy biotaning yo'qolishidir. Daryo qayirlari va vohalardagi tabiiy o'simliklar deyarli qolmadi.

Bilib qo'ygan yaxshi!

Biota (gr. *biote-hayot*) – tarixan birga yashab kelgan, ma'lum bir umumiyl maydonni egallagan, sistematik jihatdan har xil turlarga kiruvchi tirik organizmlar majmui. B. ning tarkibiga ekologik jihatdan bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lmasan turlar ham kiradi(mas., O'rta Osivo chala cho'llari faunasi tarkibiga kiruvchi iavron va vumaloabosh).

Landshaftlarni dehqonchilikda o'zlashtirish jarayonida tuproq doimiy va bevosita ta'sirga uchraydi. Qishloq xo'jalik texnikalarining bosimi va ekinlar bilan mineral elementlarning doimiy olinishi tuproq strukturasini, uning fizik-kimyoviy xususiyatlarining yomonlashuviga va unumdorligining yo'qolishiga olib keladi. Mexanizatsiyalashtirish va kimyolashtirish natijasida zamonaviy intensiv dehqonchilik landshaftlarga ta'sir etmoqda. Shudgorlash, o'z-o'zidan tuproqning tabiiy strukturasini buzadi, shunga bog'liq holda uning suv o'tkazuvchanlik va namni saqlash xususiyati ham buziladi. Bu holat, o'z navbatida, yer usti oqimining kuchayishiga va tabiiy o'simlik qoplamining yetishmasligi oqibatida yuzalatma va chuqurlatma eroziyaning yanada jadallahishiga sharoit yaratadi. Turli ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent viloyatida jarlarning umumiy uzunligi 931.4 km. bo'lib, Respublikadagi jarlarning 5.3% ini tashkil etadi, 138.6 ming hektar maydon irrigatsiya eroziyasiga uchragan. Tog'oldi-tog' rayonlarida qishloq xo'jaligi yerlarining katta qismi eroziya xavfli bo'ladigan yerlarga tegishlidir. Bu hududlarga jar eroziyasi xos, jarlarning zichligi 0.1-2.0 km/km² va ko'proqdir. Jarlarning o'rtacha yillik o'sishi 4.5 m/yil. ni tashkil etadi. So'nggi yillarda ushbu jarayonlarning jadallahuviga sharoit ortib bormoqda: eroziyaga qarshi gidrotexnik inshootlar deyarli qurilmayapti, ihota o'rmonlari ekish keskin qisqardi, agrotexnika qoidalarini buzish holatlari ortib bormoqda. Yerlarning agroresurs imkoniyatini ko'tarish maqsadidagi meliorativ tadbirlar landshaftlarga ta'sir etishga qaratilgan bo'lib, uning kutilgan ijobiy samarasi juda ko'p hollarda ularning salbiy oqibatlari natijasida yo'qqa aylanadi. Uzoq o'tmishdan beri amal qilib kelinayotgan sug'orish usuli ko'pgina noxush jarayonlarni keltirib chiqarmoqda: eroziya, tuproq strukturasining yomonlashuvi, gumusning yo'qolishi, grunt suvlari sathining ko'tarilishi, ikkilamchi sho'rlanish, botqoqlanish va h.k.

O'simliklardan foydalanish jarayonida ham landshaftlarga juda katta zarar yetkaziladi. Maydonning o'simlik qoplami xom ashyo va energetika resurslarining bevosita qayta tiklanish manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunga yana o'rmonlardan rekreatsiya maqsadlarida foydalanishni, qurilish va o'tin uchun qirqishni ham kiritish mumkin. Shuning uchun o'rmon landshaftlarida turli shakldagi antropogen ta'sirlarning murakkablashganini va landshaftlarning shularga mos holda o'zgarganligini kuzatish mumkin.

Shudgorlash boshqa xo'jalik tarmoqlariga qaraganda o'rmonlarda ancha kuchli va salbiy o'zgarishni keltirib chiqaradi. Chunki u tabiiy o'simlik qoplamenti butunlay yo'q qiladi. O'rmonlarga eng kuchli antropogen ta'sir omillari bo'lib shudgorlash, daraxt va butalarni qirqish, me'yordan ortiq mol boqish hisoblanadi. Hozirgi kunda (1.01.2008) respublikamizning 18.4% maydonini – 8 178 877 Ga. davlat o'rmon fondi yerlari egallaydi, o'rmon bilan qoplanganlik 6.4% ni tashkil etadi. Tog' o'rmonlari – 874074 Ga; cho'l zonasasi o'rmonlari (saksovulzorlar) – 7022557 Ga; to'qay o'rmonlari – 106716 Ga; sun'iy o'rmonlar – 175530 Ga.ni tashkil etadi. O'rmon bilan qoplangan maydon – 2827537 Ga.ni tashkil etadi, shundan – 2120937 Ga. tabiiy o'rmonlar, 594883 Ga. esa madaniy o'rmonlardir (Milliy ma'ruza, 2008).

Yaylov chorvachiligi – xo'jalikning an'anaviy ekstensiv shakli, arid va subarid mintaqalar uchun xos bo'lib, uning ta'siri maydonli tavsifga ega. Yaylovlarga antropogen yuk, ya'ni chorva soni me'yordan bir necha marta ortadi.

Ulardan uzoq muddat nooqilona foydalanish o'simlik qoplamininng degradatsiyalashuviga olib keladi: ozuqabop o'simliklar yarimbutalar bilan almashinadi, o'simlik qoplamining qalinligi va zichligi kamayadi. Chorva boqishning tuproqqa mexanik ta'siri deflyatsiyaning rivojlanishiga, mustahkamlanmagan va chalamustahkamlangan tuproqlar maydonining kengayishiga sharoit yaratadi. "Chorvani me'yordan ortiq boqilishi bilan bog'liq quyidagi o'zaro aloqador geoekologik muammolarni ajratish mumkin: yaylovlarning degradatsiyasi, daraxt-butali va o't o'simliklarni degradatsiyalashuvi, yaylovlarda eroziyaning kuchayishi, o'pirilish, yonbag'irlarda surilmalarning paydo bo'lishi, sel hodisalarining yuz berishi va h.k."

Bilib qo‘ygan yaxshi!

Eroziya (lot. erosio – yemirilish) – tog‘ jinslari, tuproq va b. tabiiy hosilalarning o‘zgarib, ularning yaxlit sirti parchalanishi va zarralarining bir joydan boshqa joylarga ko‘chishi. Tuproq eroziyasi ikki xil bo‘ladi: tabiiy (geologik) va sun’iy (tezlashgan) E. Tabiiy eroziya abiotik muhit omillari ta’sirida kelib chiqadi. Uning kechishi tezligi tuproq hosil bo‘lish tezligiga yaqin bo‘lgani uchun ham u sezilmaydi va deyarli zarar keltirmaydi. Qishloq xo‘jaligi uchun xavfisi tezlashgan E. Tezlashgan eroziya shamol yordamida ko‘chish (shamol eroziyasi yoki eol eroziyasi – deflyatsiya), suv bilan yuvilishdan (suv eroziyasi), shuningdek, muhitning kimyoviy va fizik ifloslanishi hamda biotik omillarning ta’sirida (yaylovda chorva mollarining ko‘plab boqilishidan o‘simpliklar qoplamasining yo‘qolishi va tuproqning tuyoqlar bilan yanchilishidan) kelib chiqadi. Tuproq eroziyasi o‘tkazilayotgan agrotexnik tadbirlarga ham bog‘liq. Almashlab ekish to‘g‘ri qo‘llanilgan maydonlarda uning yillik tezligi 0,2-0,3 mm dan oshmaydi, monokulturada esa yillik tezlik 13 mm gacha yetishi, ya‘ni yo‘l qo‘yladigan darajadan 4-6 marta oshishi mumkin. O‘zbekistonning sharqiy qismiga suv eroziyasi, uning g‘arbiy hududlariga esa shamol eroziyasi xayf solib turadi. Tuproq eroziyasi AQSHda “milliy

Yaylov chorvachiligidan o‘simpliklardan nooqilona foydalanish oqibatida kelib chiqadigan jar eroziyasi yaylovlarning degradatsiyasida muhim rol o‘ynaydi. O‘t-o‘simplik qoplami va yarimbutalarning yo‘q qilinishi yonbag‘irlarda dastlab, jo‘yaklar, bir muncha vaqt o‘tganidan so‘ng haqiqiy jarliklarning hosil bo‘lishini, kuchli yog‘inlar paytida esa sel hodisasining sababchisidir. Tog‘oldi-tog‘ landshaftlarida yaylovlarni yaxshilash belgilangan uchastkalar yoki tog‘ yonbag‘irlari bo‘yicha yaylov almashlashni to‘g‘ri qo‘llash asosida amalga oshirish, qimmatli ozuqabop o‘tli ekinlar va tuproqlarni himoya qiluvchi o‘rmonlarni (mevali daraxtlar va o‘tlarni aralash) terrasalangan yonbag‘irlarda ekish hamda buta va daraxt o‘simpliklarni qirqishni qat‘iy taqiqlashni talab etadi.

Ovchilik landshaftlarning holatiga katta ta’sir etmaydi, ammo ekologik huquqbazarliklar qayd etilishi bo‘yicha boshqa sohalardan ancha “ustun”. Uning oqibatiga ba‘zi hayvon turlari areallarining qisqarishi va hattoki, butunlay qirilishi xosdir. Hozirgi kunda O‘zbekiston faunasi 280 xilni tashkil qilib, sутемизувчиларинг 44 xili, reptiliyalarning 16 xili, amfibiyalarning 2 xili, baliqlarning 23 xili, qushlarning 230 xili mayjud. Shulardan sутемизувчиларинг 3 xili, reptiliyalarning 3 xili, baliqlarning 8 xili, qushlarning 10 xili O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Nazoratsiz va taqiqlangan qurollar bilan ovlash hayvonlar va parrandalarning kamayishiga va qirilishiga, landshaftlar ekologik imkoniyatlarining buzilishiga olib keladi. Hayvonlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovlashdan tashqari, inson faoliyatining bilvosita hayvonlarning yashash muhitini yo‘q qiluvchi va buzuvchi ta’siri ham hayvonlarning nobud bo‘lishiga olib keladi.

O‘simpliklarni yig‘ish (dorivor va manzarali), pichan tayyorlash va o‘tin uchun kesish kabi o‘simplik resurslaridan foydalanishda ham landshaftlarga juda katta zarar yetkaziladi. Bunday faoliyatlar o‘simpliklarning bir qancha turlari yo‘qolib ketishiga olib kelgan. Respublikamizdagi o‘simpliklardan 28 turi Qizil kitobga kiritilgan, 650 xilga yaqin o‘simpliklar meditsinada, 400 xili esa oziq-ovqat sifatida ishlataladi (O‘zbekiston Qizil kitobi, I том, 2006).

Sanoat qishloq xo‘jaligiga qaraganda ancha kech vujudga kelgan xo‘jalik sohasi bo‘lib, landshaftlarning mahalliy energetik va xom ashyo resurslariga qaram bo‘lmasligi mumkin. Bu soha obyektlarining tarqalishi nuqtali xarakterga ega va egallagan maydoni bo‘yicha ularni qishloq xo‘jaligi yerlari bilan hech ham tenglashtirib bo‘lmaydi. Biroq, landshaftlarga antropogen yukning intensivligi va ularning geoekologik vaziyatiga ta’siri bo‘yicha qishloq xo‘jaligidan ancha ustun turadi va bu holat, ayniqsa, XX asrdan boshlab

yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Sanoat korxonalari nuqtali ta’sir manbai xususiyatiga ega. Ammo manbaning ta’siri tabiiyki, o‘z chegaralaridan ancha uzoqlarga ham tarqaladi va masofaning ortishi bilan kamayib boradi. Ushbu obyektlar bilan bevosita band hududlarda nafaqat biota va tuproq yo‘q qilinadi, balki mikroiqlim va suv rejimi, qisman relyef o‘zgaradi; landshaft qayta tiklanuvchanlik xususiyatini yo‘qotadi va qayta tiklanishi juda qiyin, ko‘p hollarda esa, yaqin kelajakda amalda umuman mumkin bo‘lmay qoladi. Bunday antropogen ta’sirning salbiy ekologik oqibatlari tabiiy muhitning ishlab chiqarish va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishida namoyon bo‘ladi.

Foydali qazilmalarni qazish xo‘jalikning qadimgi sohalaridan bo‘lib, landshaftlarning mahalliy xom ashyo resurslariga qaram bo‘ladi va qayta tiklanadigan biologik resurslar bilan bog‘liq emas. Nuqtali ta’sir manbai ko‘rinishida namoyon bo‘lib, tabiiy muhitga jiddiy antropogen yuk hosil qiladi. Chotqol va Qurama tog‘larida Qang‘ davlati er. avv. IV-II asrlardayoq turli xil rudalar qazib olib, metall eritgani ma’lum. Bugungi kunda rudali xom ashyo va ko‘mir qazib olishning asosiy salbiy oqibati bo‘lib, relyefning texnogen shakllari deb nomlanadigan buzilgan yerlar – karyerlar, ag‘darmalar, terrikonlar va h.k. tarkib topishi hisoblanadi. Ular nafaqat hosildor yerkarni muomaladan chiqaradi, balki atrof tabiiy muhitning ifloslanish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bunda landshaftlarning qayta tiklanmaydigan geologik zamini buziladi. Angren-Olmaliq sanoat rayonida tog‘-kon sanoati tufayli buzilgan yerlar va chiqindilar bilan band yerkarning umumiyy maydoni 149.967 km^2 dan ortiq bo‘lib, butun maydonining bir necha foizini egallashi mumkin. Ushbu chiqindilarning umumiyy miqdori 7 mln. tonnadan ortiq (Milliy ma’ruza, 2008). Bunday yerkarning kattagina qismi ko‘mir va rangli metall konlari havzalarida joylashgan bo‘lib, maydoni to‘xtovsiz kengayib bormoqda. Ularning rekultivatsiyasi kengayishiga nisbatan juda orqada va har doim ham samarali emas. Ushbu masala X.Vaxabov tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Qurilish xo‘jalikning eng qadimiyy sohalaridan, ammo ko‘plab muhandislik inshootlari bunyod etishning jadallahuvi XX asrning 2-yarmidan boshlandi. Oqibatda, landshaftlarda tabiiy holda mavjud bo‘limgan antropogen elementlar – turli binolardan iborat bo‘lgan aholi punktlari, qattiq qoplamlari avtomobil va temir yo‘llar, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari kengroq maydonlarni band etmoqda. Bu obyektlar nuqtali va chiziqli ta’sir manbai sifatida landshaftlar maydonining bir necha foizini band etadi va landshaftlarning maxsus faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Landshaftlarda tabiiy holda kechadigan modda va energiya almashinuviga jiddiy ta’siri barchaga ma’lum, ammo ushbu masala alohida tadqiqot ishini talab etadi. Ushbu turdagи antropogen ta’sirning salbiy ekologik oqibatlari landshaftlarning qurilish va maishiy axlatlari, sanoat va transport chiqindilari bilan ifloslanishida namoyon bo‘ladi.

Gidrotexnik inshootlar – kanal-zovurlar ancha davrlardan beri irrigatsiya, suv bilan ta’minalash, sel toshqinlaridan muhofazalash, grunt suvlari sathini pasaytirish maqsadlarida qurib kelimoqda. Suv omborlari esa XX asrning 2-yarmida, sug‘orish va energiya olish maqsadida qurildi. Shu bilan birga, rekreatsiya, qisman, sanoat va maishiy xo‘jalikda suv ta’mintoni yaxshilandi. Ammo ushbu inshootlarni qurishning ijobiy tomonlari bilan birga, salbiy tomonlari ham bor. Suv omboriga tutash tegralarda grunt suvlari sathining ko‘tarilishi, botqoqlanish kuzatiladi, qishloq xo‘jalik yerkarni ishdan chiqadi. Undan quyi oqimda esa suv sathi va toshqinlarning pasayishi qayir landshaftlarining degradatsiyasiga olib keladi. Suv omborining atrof tabiiy muhitga ta’siri Chorvoq suv ombori misolida I.Abdullayev tomonidan keng yoritilgan. Toshkent viloyatida 4 ta suv ombori bo‘lib, ularning umumiyy maydoni 71.6 km^2 ni tashkil etadi. Sug‘orma dehqonchilik tarixi 2000 yildan ortiq davrga ega bo‘lib, bugungi kunda daryolarning deltalari, daryo va soylarning o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan yoyilma konuslari va I-IV terrasalari deyarli to‘liq o‘zlashtirilgan. Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari ancha zinch to‘r hosil qilib, landshaftlarning bir necha foiz maydonini band etadi.

Rekreatsiya – antropogen ta'sirning noan'anaviy shakli bo'lib, urbanizatsiya darajasiga mos holda ortib bormoqda. Dam oluvchilarning nazoratsiz ommaviy kelishlari ta'sirida tog' landshaftlarida rekreatsion degradatsiya ro'y bermoqda – tuproq va o'simliklar toptalmoqda, o'simliklarni nazoratsiz terish natijasida o't-o'simliklar, butalar, so'ngra daraxtlar degradatsiyaga uchramoqda. Bundan tashqari, landshaftlar va suv havzalarining maishiy axlatlar bilan ifloslanishi yuz bermoqda. Bunday holat, masalan, Toshkent viloyatida, ayniqsa, Chorvoq, Hojikent, Ohangaron suv omborlari atrofida, Ugam, Piskom, Chirchiq, Ohangaron va Sirdaryo daryolarining sohillarida kuchli namoyon bo'lmoqda.

Yuqorida fikrlar va to'plangan materiallar asosida A.A.Rafiqov metodikasiga qo'shimcha kiritib, geotizimlarning o'zgarganlik darajasi, shuningdek, A.G.Isachenko bo'yicha landshaftlarning o'zgarganlik indeksi jadvallari ishlab chiqildi va ularning kartasi tuzildi.

Geotizimlarning o'zgarganlik indeksini hisoblashda A.G.Isachenko taklif qilgan metoddan foydalanildi. Bunda har bir antropogen elementga og'irlik koefitsiyenti berilib, shu antropogen elementni landshaftning umumiyligi maydonidagi % hisobidagi ulushiga ko'paytirish bilan landshaftning o'zgarganlik indeksi topildi. Misol uchun 22-1 landshaftni keltiramiz:

- 1) $24.398 \times 1 = 24.398$; 2) $1.043 \times 1 = 1.043$;
- 3) $1.187 \times 0.9 = 1.068$; 4) $73.372 \times 0.7 = 51.360$

$$O'zgarganlik indeksi: 24.398 + 1.043 + 1.068 + 51.360 = 77.869$$

Bu yerda: 24.398 – turar joy, sanoat korxonalarini va turli binolari, 1.043 – qattiq qoplamlari avtomobil va temir yo'llari, 1.187 – irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari, 73.372 – sug'oriladigan yerlar kabilarning landshaftning umumiyligi maydonidan % hisobidagi ulushi.

Landshaftlar antropogen elementlarining og'irlik koefitsiyentlari A.G.Isachenko bo'yicha:

0.1 – tabiiy suv havzalari, quritilmagan botqoqliklari; 0.2 – shartli-o'zgarmagan o'rmonlar; 0.3 – tiklanishning turli bosqichidagi o'rmonlar; 0.4 – uzoq vaqtida tiklanadigan yosh daraxtli o'rmonlar; 0.5 – yaylovlari va pichanzorlar; 0.6 – bahorikor yerlar, bog'lar, manzarali daraxtzorlar; 0.7 – sug'oriladigan yerlar; 0.8 – karerlar, terrikonlar, ag'darmalar; 0.9 – sun'iy suv havzalari; 1 – turar joy va sanoat binolari, yo'llari.

Nazorat uchun savollar:

1. Geoekologik omillar haqida nimalar bilasiz?
2. Tabiiy geoekologik omillarga qaysi omillar kiradi?
3. Antropogen geoekologik omillarga misollar keltiring.
4. Rekreatsiya va xizmt ko'rsatish tarmoqlari mohiyatini izohlab bering.

9-MAVZU: TABIIY MUHITNING INSON XO'JALIK FAOLIYATI TA'SIRIDA IFLOSLANISHI

Tabiiy muhitning ifloslanishi tabiiy omillar va inson faoliyati bilan bog'liq tarzda ro'y berishi mumkin. Tabiiy ifloslanishning asosiy manbalari: vulqon otilishi, zilzila, sel, yong'inlar, ko'chki, suv toshqini, kuchli shamollar natijasida sodir bo'ladi. Bu turdag'i ifloslanish bevosita tabiiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, unda inson ishtiroki bo'lmaydi.

Inson xo'jalik faoliyati bilan bog'liq barcha ifloslanishlar ba'zan antropogen ifloslanish, deb ataladi. Antropogen ifloslanish tabiat komponentlari bo'yicha: suvning, havoning va tuproqning ifloslanishi, Shuningdek, geotizimlarning ifloslanishi kabi

guruhlardan iborat. Antropogen ifloslanish davomiyligiga ko‘ra: vaqtinchalik va doimiy; tarqalish ko‘lamiga ko‘ra: global, regional va lokal guruhlarga ajratiladi.

Indikator (lot. *indikator* – ko‘rsatkich) – atrof muhitda (geotizmlarda) ifloslantiruvchi moddalar miqdoriy parametrlarining yoki sifatiy tarkibining mavjudligi, to‘planishi, o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi ko‘rsatkich bo‘lib fizik, kimyoviy va biologik bo‘lishi mumkin.

Geoekologik vaziyatlarni belgilovchi indikatorlar, ularning miqdori, qaysi birining ustuvor bo‘lishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, ma’lum xo‘jalik sohalariga muayyan indikatorlar to‘g‘ri keladi. Shu sababdan geoekologik vaziyatlarni va indikatorlarni aniqlashda shu hududda xo‘jalik faoliyatining qaysi sohasi rivojlanganligiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Geoekologik vaziyatlarni ko‘rsatuvchi mezonlar bir qancha indikatorlar asosida ishlab chiqiladi. Respublikamizda bu boradagi ishlar o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlangan bo‘lib, talaygina ishlar bajarilgan. Hanuzgacha, ko‘plab mutaxassislar ushbu masala yuzasidan tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Tabiiy muhitning ifloslanish turlari. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, tabiiy muhitning ifloslanishi, asosan, insonning xo‘jalik faoliyati natijasida ro‘y beradi. Barcha antropogen ifloslanishlar fizik, kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik va mexanik turlarga ajratiladi.

Fizik ifloslanish muhitning tabiiy parametrlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi turlari ajratiladi: issiqlik, yorug‘lik, shovqin, elektromagnit, radiatsion va boshqalar. Issiqlik ifloslanishi havo haroratining ko‘tarilishiga olib keladi. Bu hol issiq suvni yoki tutunli gaz oqimining atrof muhitga chiqarilishi bilan bog‘liq. Suv havzalariga sanoat korxonalaridan issiq suvning quyilishi organizmlar turining o‘zgarishiga va suv o‘tlari guruhining vujudga kelishiga olib keladi. Sanoat korxonalari, transport, qurilish, burg‘ulash, karyer maydonlarida turli darajada shovqin kelib chiqadi. Bu hol inson sog‘ligi, ayniqsa, asab tizimiga kuchli ta’sir etadi.

Kimyoviy ifloslanish tabiiy muhit kimyoviy xususiyatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq, bu holat hududga tashqaridan turli kimyoviy moddalarning kirib kelishi va ularning o‘rtacha klarkdan ortiqchaligi bilan tavsiflanadi. Misol tariqasida og‘ir metallar, pestitsidlar, yuvuvchi moddalar, organik moddalarning to‘planishi muhitning ifloslanishiga ta’sir etadi. Og‘ir metallar bilan ifloslanish qo‘rg‘oshin, simob, kadmiy va boshqa metalli detallarning ishqalanishi, korroziyasi, ichki yonish dvigatel chiqindilari, yoiqilg‘i yonganda, avariyada to‘planishi bilan bog‘liq.

Biologik ifloslanish inson organizmi uchun noqulay bo‘lgan biomoddalarning hududda ko‘payishi bilan tushuntiriladi. Foydalani layotgan geotizimga mikroorganizmlarning kirishi **bakteriologik ifloslanish** deyiladi. Muhitning biologik ifloslanishi biogen va mikrobiologik guruhlardan iborat.

Tabiiy muhit ifloslanishining tasniflanishi. Sayyora miqyosidagi ifloslanish **global ifloslanish** deyiladi. DDT pingvin va oq ayiq organizmida topilgan. Regional (mintaqaevi) ifloslanish ma’lum katta maydonagi o‘lkaga tegishli (Orolbo‘yi, O‘rta dengiz, Volga havzasi). Lokal (mahalliy) ifloslanish sanoat shaharlari, sanoat korxonalari atrofi uchun xos. Tabiat komponentlarining ham ifloslanishi kuzatilmoqda (suv, havo, tuproq, o‘simlik qoplami).

Tabiiy muhitning ifloslanishida 7 mingdan ziyod kimyoviy birikmalar ishtirok etadi. Ular orasida zaharli, mutagen (irsiy o‘zgarishga olib keladigan) va kanserogen moddalar borligi aniqlangan. Bular orasida 7 ta eng kuchli zararli modda ma’lum: 1. Havodagi azot ikki oksidi (NO_2), 2. Havodagi benzol (C_6H_6) ning organik birikmasi, sodda aromatik uglevodorod, 3. Suvdagi pestitsid, 4. Suvdagi nitratlar (azot ishqorining NO_3^- tuzlari), 5. Oziq-ovqat va tuproqdagi qo‘sh oksidlar, 6. Oziq- ovqatlardagi polixlorlashgan difenillar

(difenil C₆H₅ – C₆H₆ organik eritmada yaxshi eriydi), toshko'mirdan olinuvchi smoladagi antrotsit yog'da mavjud, 7. Tuproqdagagi ishqor.

Ifloslantiruvchi moddalarining tasniflanishi va umumiy ta'rifi. Butunjahon sog'lijni saqlash tashkiloti (BSST) ning ma'lumotiga ko'ra, hozirda yarim mln. kamyoviy birikmalar foydalanilmoqda, shundan 40 ming tasi inson sog'ligi uchun xavfli, 12 mingtasi zaharlidir.

Ifloslantiruvchi moddalar uch guruhga ajratiladi: 1) Uglerod, azot, oltingugurt oksidlari, ammiak, galogenlar va ularga mos keluvchi ishqorlar, metallar (galvanik ishlab chiqarishda foydalaniladigan va ularni suvda erigan birikmalari); 2) Barcha organik ifloslantiruvchilar, og'ir metallar va ularning suvda erigan birikmalari va h.k.; 3) Molekulyar – genetik darajadagi ifloslantiruvchilarni mutagen (o'zgaruvchi) ta'sirini aniqlovchilar. Asosiy mutagenlar pestitsidlar, ba'zi metallar, nitritlar, nitrobirikmalar, aromatik uglevodorodlar (3,4,5,6-jadvallar).

Tabiiy obyektlarning ifloslanish darajasini aniqlash uchun me'yoriy ko'rsatkichlardan foydalanish taklif qilinadi. Ruxsat etilgan me'yor (REM) – bu ifloslantiruvchilarning shunday konsentratsiyasidan iboratki, bu ko'rsatkich insonga, tirik organizmlarga bevosita yoki bilvosita zararli ta'sir etmaydi.

Atmosferaning ifloslanish me'yori. Bunda REM ikkita ko'rsatkichdan foydalaniladi: o'rtacha sutkalik (uni uzoq ta'sir etishi organizmda hech qanday patologik o'zgarishlar va ta'sirlarni vujudga keltirmaydi), maksimal bir martalik chiqindilarni chiqarish. Bunda ham 20-30 minut davomida yuqori darajadagi ifloslangan moddalarni muhitga chiqarish, bu ham yuqoridagidek organizmga ta'sir etmaydi.

Suv havzasining ifloslanish me'yorlari. Gigiyenik REM, maksimal konsentratsiya inson organizmining kasallanishiga ta'sir etmaydi va suvdan foydalanish sharoitlarini buzmaydi. REM ni aniqlash xavfli chegaralangan ko'rsatkichlardan (XCHK) foydalanish bilan bog'liq. XCHK uch guruhga bo'linadi: sanitarli toksikologik, umumsanitar va organoleptik (sezish organlari orqali hid va mazasini aniqlash).

Baliq xo'jaligining REMi – suv havzasining ekologik xavfsizligini va suv biotsenozi larining zararli moddalarga nisbatan holatini aniqlaydi. Ruxsat etilgan chiqindi (RECH) – ma'lum vaqt mobaynida mavjud manbaning zararli moddalarni chiqarishi. Ruhsat etilgan oqim, tashlama (REO) – oqava suvlarning ifloslantiruvchi moddalarni havzaga tashlashi.

Eng yuqori talab ichimlik suviga nisbatan qo'yiladi. Davlat standarti (andozasi) ichimlik suvi va oziq-ovqat sanoatiga to'g'ri keladi (2874-73). Andoza ichish uchun qulay organoleptik ko'rsatkichlar bo'lishini taqozo etadi: mazasi, hidi, rangi, tiniqligi hamda uning kamyoviy tarkibining zararsizligi va epidemiologik xavfsizligi. Ichimlik suvida 4 g/m³ miqdordan kam kislород bo'lmасligi lozim. Xlor ioni – 350, sulfat – 500, temir – 0,3, marganets – 0,1, mis – 1,0, rux – 5,0, allyuminiy – 0,5, metafosfat – 3,5, fosfat – 3,5, quruq qoldiq 1000 mg/l dan kam bo'lishi kerak. Bunday suv ichish uchun yaroqli. Suvni minerallashuvi 1000 mg/l dan ziyod bo'lsa yaroqli emas, 100 mg/l dan kam bo'lsa ham yaroqsiz, tuz kamlik qiladi, distillangan suv. Suvning qattiqligi PH 6,5-8,5 atrofida bo'lish lozim.

Me'yoriy ekologik jarayonlar. Standart, ya'ni andoza – bu me'yoriy texnik hujjat, faoliyatda foydalanish uchun aniqlangan me'yor, qoida, talablar majmuasi bo'lib, ularga bo'ysinish lozim. Me'yor – foydalaniladigan maksimal miqdordagi resurs yoki atrof muhitga chiqariladigan chiqindi miqdori. Shu munosabat bilan suvdan foydalanish me'yor, chiqindi me'yor, sanitar-gigiyenik me'yor va boshqalar ishlab chiqilgan. Normativ – belgilangan me'yor – bu elementlar bo'yicha tashkil qilingan me'yor, resurslarni solishtirma sarfi, qaytimsiz kattalikdagi iste'mol. Ekologik belgilangan me'yor insonga eng katta yoki eng kuchli darajada ta'siri darajasida belgilanadi. Ekologik belgilangan me'yor ikki ko'rsatkich asosida ishlab chiqiladi: balansli va baholovchi. Balansli me'yor maksimal miqdordagi

resursni belgilaydi, Chunki u shu ishlab chiqarish darajasida mahsulot tayyorlashga yetishi kerak. Bu usulda korxonaning rejali ko'rsatkichlari va resursslarni sarf qilish limitlari aniqlanadi. Baholovchi me'yorlar asosida ishlab chiqarish topshiriqlari, xo'jalik faoliyatining atrof muhitga ta'siri mezonlari, kelajakdag'i me'yorlar aniqlanadi. Shuningdek, bu ko'rsatkich ifloslanish xavfsizligi yoki xavfi, tabiiy muhitning buzilishi ham aniqlanadi.

3-jadval.

Atmosfera havosidagi ba'zi zararli moddalar uchun REM

Modda	REM, mg/m ³	
	Bir martalik maksimal	O'rtacha sutkalik
Azot qo'sh oksid	0,085	0,085
Ammiak	0,2	0,2
Atseton	0,35	0,35
Benzol	1,5	0,8
Geksaxlorsiklogeksan	0,03	0,03
Kaprolaktam (bug'lari, aerozol)	0,06	0,06
Karbofos	0,015	—
Mishyak	—	0,003
Simob (metalli)	—	0,0003
Qo'rg'oshin	—	0,0007
Sulfit kislota	0,3	0,1
Oltingugurt qo'sh oksidi	0,5	0,05
Uglerod oksidi	3,0	1,0
Fenol	0,01	0,01
Formaldegid	0,35	0,012
Xlor	0,1	0,03
Xlorofos	0,04	0,02

4-jadval.

Xo'jalik-ichimlik va madaniy maqsadlarda suvdan foydalanish bo'yicha suv obyektlaridagi zararli moddalar uchun REM

Modda	Zararli ko'rsatkichlarning chegaralanganligi	REM. mg/l.
Alyuminiy	Sanitar-toksikologik (S- t)	0,5
Ammiak	S- t	2
Atseton	Umumiy sanitar (U- s)	2,2
Benzalirin	S- t	0,000005
Benzin	Organoleptik (Org)	0,1
Vismut	S -t	0,1
Temir	Org.	0,3
Kadmiy	S- t	0,001
Marganes	Org.	0,1
Mis	Org.	1
Molibden	S- t	0,25
Neft	Org.	0,1

Nitratlef	S-t	45
Simob	S-t	0,0005
Qo'rg'oshin	S-t	0,03
Rux	U-s	1

5-jadval.

Tuproqlarda pestitsidlarning mavjud bo'lishi REMi (mg/kg)

Pestitsid nomi	REM	Pestitsid nomi	REM
Agelon	0,15	Linuron	1,0
Akreks	1,0	Metafos	0,1
Atrazin	0,5	Ronit	0,8
Gamma – GXPG (lindan)	0,1	Sevin	0,05
GXSG	0,1	Semerон	0,1
Geptaxlor	0,05	Fosfamid	0,1
Geterofos	0,05	Xrofos	0,5
Karbofos	2,0		

6-jadval.

Tuproqlarda og'ir metallarning mavjud bo'lishi REMi (mg/kg)

Metall	REM	Element shakli
Mishyak	2,0	Jami mavjud bo'lishi
Simob	2,1	Jami mavjud bo'lishi
Qo'rg'oshin	20,1	Jami mavjud bo'lishi
Xrom (VI)	0,05	Jami mavjud bo'lishi
Marganes	1500	Jami mavdud bo'lishi
Surma	4,5	Jami mavjud bo'lishi
Mis	3,0	Harakatchan birikma
Nikel	4,0	Harakatchan birikma
Rux	23,0	Harakatchan birikma
Kobalt	5,0	Harakatchan birikma
Xrom	6,0	Harakatchan birikma.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Fizik ifloslanish haqida nimalar bilasiz?
- 2.Kimyoiy ifloslanishga misollar keltiring.
- 3.Atmosferaning ifloslanish jarayoni mohiyatini tushuntirib bering.
- 4.Me'yoriy ekologik jarayonni mazmunini izohlab bering.

10-MAVZU: GEOEKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING TURLARI

Geoekologik muammolarning yuzaga kelishi va shakllanishi. Geoekologik muammolarning vujudga kelishi tabiat va inson faoliyati bilan bog'liq tarzda ro'y berishi mumkin. Geoekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi tabiiy omillar va jarayonlardan asosiyлari: vulqon otilishi, zilzila, surilma, ko'chki, sel, suv toshqini, kuchli shamollar, yong'inlar va boshqalar. Bunday omillar bevosita har bir geotizimning tabiiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, unda inson ishtiroki bo'lmaydi.

Insonning tabiiy muhit bilan o‘zaro ta’siri murakkablashib borishi oqibatida ko‘p qirrali va turli xususiyatlari muammolar yuzaga kelib, o‘zaro ta’sir kuchaygan sari shakllanib, yanada jadallahashmoqda.

Inson va tabiiy muhit o‘zaro ta’siri kelib chiqishi jihatidan, aslida, ekologik muammo hisoblanadi. Lekin u ma’lum geotizimda turli miqyosda hamda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik qonuniyatlar asosida ro‘y bergani sababli geografik muammo ham hisoblanadi, ya’ni ekologik muammo muayyan geotizimda tarkib topib, shakllanib, rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tadi. Shu nuqtai nazardan, qisqacha qilib, geoekologik muammo deyish mumkin.

Geoekologik muammolar – insonlarning sog‘ligi va xo‘jalik faoliyatiga salbiy ta’sir etadigan, ularning tabiiy muhit bilan munosabatlarida va geotizimlarning bir butunligida nomutanosiblikni keltirib chiqaruvchi, tabiiy va antropogen omillar natijasida yuzaga kelgan jarayon va hodisalar.

Geoekologik muammolar tabiiy geografik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Shuning uchun ham uni tadqiq etishda tabiiy geografik fanlarning tadqiqot usullaridan, yondashuvlaridan va prinsiplaridan foydalanish lozim. Geoekologik muammoni ekotizim, biogeotsenoz yoki ma’muriy-hududiy birlik doirasida o‘rganish ham mumkin. Lekin bu holda mazkur muammoning hududiy chegaralari geotizim chegaralariga har doim ham mos tushavermaydi. Inson tabiiy resurslardan foydalanganda, avvalo, tabiiy sharoit o‘zgara boshlaydi, uning asosiy haraktlantiruvchi omillari dinamik o‘zgarishda bo‘ladi, geotizimlarning ma’lum yo‘nalishdagi o‘zgarishlari tarkib topadi.

Geoekologik muammolar, odatda, tizimli xususiyatga ega bo‘lib, bu xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlar va qonuniyatlarning o‘zaro ta’siri;
- geografiya, ekologiya, geologiya va boshqa fanlar integratsiyasini talab etadigan fanlararo ahamiyat kasb etishi;
- resurslardan turli maqsadlarda bir qancha foydalanuvchilarining mavjudligi;
- geotizim yoki geoekologik muammo holatini bitta ko‘rsatkich bilan tavsiflash mumkin emasligi.

Geoekologik muammo qotib qolgan, o‘zgarmas holat bo‘lmay, balki muntazam ravishda dinamik o‘zgaruvchi va rivojlanuvchi, ko‘p sonli oddiy muammolarning tizimidir. Masalan: “Orol bo‘yida geoekologik muammo 1960-yillarning boshidan vujudga kela boshlagan bo‘lsa, 1970-yillarning o‘rtalarida (1974-yil Taxiatosh gidrouzeli qurilib, deltada tabiiy suv toshishi to‘xtatilganidan so‘ng) shakllanish bosqichiga o‘tdi. Dastlab, grunt suvlarining ko‘tarilishi bilan tuproqlar sho‘rlana boshladi, so‘ng eol relyef shakllari vujudga keldi. Tuproqlar quyidagicha yo‘nalishda o‘zgarib bormoqda: allyuvial o‘tloq – o‘tloq va botqoq – o‘tloq, sho‘rhoklar va o‘tloq-taqir – tipik sho‘rhoklar – taqirli sho‘rhok va taqir – qum cho‘l tuproqlari”.

Geoekologik muammoni bartaraf etish deganda, avvalambor, dastlabki tabiiy muvozanatni qayta tiklashni tushunmoq lozim. Tabiiy muvozanat (ekologik muvozanat) ni qayta tiklash – tabiiy komponentlar va geotizimlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, aloqadorlik va harakatni dastlabki holatiga yaqinlashtirishdir, lekin uni asl holiga qaytarib bo‘lmaydi. Buzilgan tabiiy muvozanatni qayta tiklash tadbirlarida aholining yashash sharoiti va sog‘ligini ham avvalgidek holatiga olib kelish lozim. Masalan: Orol va Orol bo‘yi bir-biri bilan uzviy bog‘liq muammolar bo‘lib, ularning yechimi o‘zaro bog‘liq, kompleks tadbirlar baravariga qo‘llangan holdagina hal qilinishi mumkin. Bunda, birinchi navbatda, tashqaridan kelayotgan suvning toza va miqdorining ko‘p bo‘lishiga erishish lozim. Chunki, muammoni tezlatuvchi kuch qurg‘oqchil iqlim sharoitida cho‘llashish hodisasiadir.

Geoekologik muammolarning tasniflanishi. Geoekologik muammolarni bir qancha ko‘rsatkichlar (xo‘jalik sohalari bilan bog‘liq, egallagan maydoni bo‘yicha, oqibatiga ko‘ra,

kelib chiqish omillari) bo'yicha tasniflash mumkin, lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek, geoekologik muammo muayyan maydonda tarkib topib, shakllanadi. Shu sababli bunday muammolar tarqalgan maydoni bo'yicha – global, regional va lokal, ayrim hollarda esa milliy kabi guruhlarga ajratiladi.

Global geoekologik muammolar – butun geografik qobiq doirasida ro'y beradigan va yer yuzining barcha qismlariga ta'sir etadigan, barcha mamlakatlarga, butun insoniyatga birdek xavf soladigan eng murakkab geoekologik muammolardir. Ularga: "issiqxona samarasi" va iqlim isishi, "Ozon tuynugi", dunyo okeani sathining ko'tarilishi va suvining ifloslanishi, cho'llashish va h.k. kiradi. Bunday geoekologik muammolarni bartaraf etish uchun barcha davlatlar birlashib, yagona dastur asosida harakat qilishlari lozim. Yer yuzidagi barcha mamlakatlar o'z hududidagi mahalliy va mintaqaviy muammolarni hal etish orqaligina global geoekologik muammolar yechimini topishlari mumkin.

Barcha global geoekologik muammolarni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

1) *sayyoraviy* – butun geografik qobiqni qamrab oladigan va yer yuzining turli rayonlarida har xil namoyon bo'ladigan muammolar. Masalan, Ozon qatlaming yemirilishi muammosi, "issiqlik samarasi" muammosi;

2) *universal* – vaqt mobaynida ko'p marotaba, lekin ma'lum ko'rinishda takrorlanadigan muammolar. Masalan, tuproq degradatsiyasi, bioxilma-xillikning qisqarishi, cho'llashish va h.k.

Quyida global geoekologik muammolardan ayrimlarini, masalan, O'zbekiston uchun yechimi muhim muammolardan bo'lgan tuproq degradatsiyasini qisqacha tavsiflaymiz.

"Degradatsiya" so'zi polyak tilidan olingan bo'lib, (degradaya, lotin tilida esa degradation) "sekin-astalik bilan kamayish" va "pastga ketish" degan ma'nolarni anglatadi.

Tuproq degradatsiyasi – jarayonlar yig'indisi bo'lib, ular tuproqlar funksiyasining o'zgarishiga, xossalaring miqdor va sifat ko'rsatkichlarining yomonlashishiga va unumdorlikning pasayishiga olib keladi, ya'ni tabiiy va antropogen omillar ta'sirida tuproqlarning turg'un xossalaring buzilishi, sifatining yomonlashuvi, xo'jalik nuqtai nazaridan bahosining tushishi va samaradorlikning pasayishidir.

Tuproq degradatsiyasining antropogen omillari ikki guruhga bo'linadi: maqsadli yo'naltirilgan va maqsadsiz yo'naltirilgan.

1. Maqsadli yo'naltirilgan – bu tuproqlarning xossalariiga aniq yo'nalishda ta'sir qilishga qaratilgan.

2. Maqsadsiz yo'naltirilgan – bu tuproq qoplamiga kompleks aralashgan holda ta'sir qilib, uning xossalaring o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Tuproq degradatsiyasi quyidagi turlarga bo'linadi:

- **Fizik va mexanik degradatsiya** – tuproq granulometrik tarkibining o'zgarishi bilan tuproq materiallarining yomonlashish jarayonining kuzatilishi, tuproq qatlamlarining nazoratsiz qolishi, ularning zichlashishi, havo va suv rejimlarining buzilishi.
- **Kimyoviy va fizikaviy degradatsiya** – bu tuproq singdirish sig'imidiagi jarayonlar, jumladan, kislotalik-ishqoriylik xossalari, oksidlanish-qaytarilish potensialini, makro va mikroelementlarini hamda o'simliklar uchun zarur bo'lgan elementlarining salbiy tomonga o'zgarishi.
- **Biologik va biokimyoviy degradatsiya** – bu tuproq organik qismining o'zgarishi va sifatining yomonlashishi, tuproq organizmlarini sifat va miqdor tarkibining salbiy tomonga o'zgarishi.

Tuproq degradatsiyasining o'ziga xos turlaridan biri – tuproqlarning zaharli kimyoviy va organik birikmalar, og'ir metallar, neft va neft mahsulotlari hamda radioaktiv elementlar bilan ifloslanishidir.

Tuproq degradatsiyasining asosiy turlariga: tuproqning fizikaviy, fizik-kimyoviy, biologik xossalari, havo, suv va issiqlik rejimiga salbiy ta'sir etuvchi, eroziya, degumifikatsiya jarayonlari, qatlamlarning zichlanishi, kislotalikning ortishi, ikkilamchi sho'rlanish, botqoqlanish kabilar kiradi.

Tuproq degradatsiyasi va butunlay yemirilish hodisasini bir necha guruhga bo'lish mumkin:

- ❖ tuproq bioenergetik rejimining buzilishi (tuproq devegetatsiyasi – o'simlik qoplaming qirilishi, tuproq degumifikatsiyasi – tuproq gumusining yo'qotilishi, tuproqlarning qashshoqlanishi – yerlardan uzoq muddat foydalanilishi natijasida tuproqlarda ro'y beradigan jarayonlar);
- ❖ tuproqlar patologik holatining buzilishi (tuproqlarning sanoat eroziyası – qishloq xo'jaligi va o'rmon yerlarining aholi punktlari, karyerlar, suv omborlari, sanoat va maishiy axlatlar chiqindixonalari qurilishiga olinishi; tuproqlarning suv va shamol eroziyası – tuproq yuza qatlamining suv va shamol ta'sirida yemirilishi; tuproq strukturasining buzilishi va qatlamlarining o'ta zichlashuvi);
- ❖ tuproqlarning suv va kimyoviy rejimining buzilishi (tuproqlar namligini va o'simlik qoplaming butunlay yo'qotilishi; tuproqlarning sho'rlanishi – tuproqlarning yuqori qatlamlarida, hosildorlikning yo'qolishiga olib keladigan, tez eruvchan tuzlarning to'planishi; tuproq asidifikatsiyasi – tuproq ishqorlik darajasining qishloq xo'jalik ekinlari va yovvoyi o'simliklar uchun optimal miqdordan ko'tarilishi bilan bog'liq jarayon; tuproqning quruqlashuvi – quritish melioratsiyasining noto'g'ri qo'llanishi oqibatida ro'y beradigan jarayon; botqoqlanish – tuproq yuqori gorizontlari namligining oshishi va namsevar o'simliklarning paydo bo'lishi);
- ❖ abraziya va daryo eroziyası natijasida tuproq qoplaming yemirilishi va suv bosishi;
- ❖ ifloslanish (tuproqlarning sanoat ifloslanishi, qishloq xo'jalik ifloslanishi, radioaktiv ifloslanishi – tuprolqlarda radionuklidlarning yadro portlashi, radioaktiv moddalarni ishlataligani korxonalaridan chiqarilishi, radioaktiv chiqindilarni ko'mish natijasida antropogen yoki tabiiy to'planishi);
- ❖ ko'p yillik muzloq yerlar tarqalgan rayonlarda tuproqlarning antropogen faoliyat natijasida yemirilishi (muzlagan gruntning erishi eroziyaning rivojlanishi va tuproqlarning yemirilishiga olib keladi);
- ❖ harbiy harakatlar zonasida tuproqlarning yemirilishi.

Regional geoekologik muammolar – egallagan maydoniga ko'ra global geoekologik muammolardan kichikroq bo'lib, ko'pincha bir yoki bir necha turlardan tashkil topgan geoekologik hodisa-jarayonlar kompleksidan iborat bo'ladi. Regional geoekologik muammolar regional miqyosdagi geotizimlarni band etib, butun yer yuzi uchun xavf solmasligi mumkin, ammo ularning soni tobora ortib bormoqda. Ushbu muammolar ayrim hududlargagina tegishli bo'lishiga qaramay, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari nihoyatda xavfli va salmoqli, o'z vaqtida ularning oldini olish va bartaraf etmaslik kelajakda keng miqyosdagi og'ir ekologik kulfatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Regional geoekologik muammolar har bir joyning o'ziga xos tabiiy sharoiti, mavjud resurslaridan noto'g'ri foydalanish, sanoat chiqindilarining suv havzalariga va atmosferaga ko'p chiqarilishi, yer-suv va yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, sanoat va qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlangan hududlarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning keskinlashuvi natijasida kelib chiqadi.

Regional geoekologik muammolar tarkib topishi jihatidan oddiy va murakkab toifadagi geoekologik muammolarga bo'linadi. Bir turdag'i hodisa va jarayonlardan iborat bo'lsa – oddiy toifadagi, bir necha geoekologik hodisa va jarayonlardan iborat bo'lsa – murakkab toifadagi geoekologik muammolar deyiladi. Murakkab geoekologik hodisalarning yechimi ham murakkab bo'lib, ko'p vaqt talab qiladi. U tobora murakkablashish va yangi

hududlarni egallash yo‘nalishida rivojlanadi. Oddiy hududiy geoekologik muammolar ham makonda va vaqt mobaynida o‘ta murakkablashuvi oqibatida murakkab tusga aylanishi mumkin. Regional miqyosdagi geoekologik muammolar juda ko‘p. Masalan: “ishqorli yomg‘irlar”, O‘rta, Qora, Azov, Boltiq, Shimoliy, Karib dengizlari havzasi, Meksika va Fors qo‘ltiqlari va boshqa dengizlar sohillaridagi muammolar. Quruqlikdagi suv havzasi muammolari – Kaspiy va Orol dengizlari, Baykal, Balxash, Ladoga, Chad, Buyuk ko‘llar, Dunay, Volga, Reyn, Kongo va boshqa daryolarning havzalaridagi geoekologik muammolar.

Lokal geoekologik muammolar – regional geoekologik muammolarga nisbatan kichikroq maydonlarni egallab, bir yoki ikki mamlakat hududida joylashgan ma’lum landshaft yoki tabiiy geografik okruglar doirasida yuzaga kelgan muammolardir. Bunday geoekologik muammolar inson xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, tabiiy resurslardan intensiv foydalanish va bu jarayonda tabiat qonuniyatlarini hisobga olmaslik, aholining bir joyda o‘ta zinch to‘planishi va boshqa sabablar tufayli kelib chiqadi. Yer yuzasining namgarchilik hududlarida botqoqliklarning quritilishi, qurg‘oqchil mintaqalarda sun‘iy sug‘orish, suv omborlari barpo etish, yaylov chorvachilagini rivojlantirish, ishlab chiqarish korxonalarining qurilishi kabi jarayonlardagi ayrim nomutanosibliklar hamda insonning ba’zi pala-partish faoliyati lokal geoekologik muammolar yuzaga kelishiga va keng miqyosda tarqalishiga sabab bo‘ladi.

Lokal geoekologik muammolar yechimi eng sodda muammolar bo‘lib, ularni bartaraf etishda, eng avvalo, geoekologik muammoli hududning tabiiy geografik sharoiti va tabiiy qonuniyatlar chuqur o‘rganilishi lozim. Har bir geotizimning xususiyatlariga mos xo‘jalik tarmoqlari va tabiatdan foydalanish chora-tadbirlarini qo‘llash orqali bunday muammolarning oldi olinadi. Masalan, yerlardan sug‘orma dehqonchilikda foydalanilganda har bir geotizimning xususiyati o‘rganilib, so‘ngra shunga mos ekin turlari, sug‘orish usuli va me’yorlari, agrotexnika tadbirlarini qo‘llash, ya’ni tabiat bilan munosabatda uning qonunlarini buzmaslik kutilgan natijalarni ta’minlashning kafolatidir.

Lokal geoekologik muammolarni O‘zbekiston misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, muammolarning har taraflama kompleks tahlili ularni kelib chiqishi sababiga ko‘ra quyidagi genetik guruhlarga ajratilgan:

- atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog‘liq muammolar – yirik shaharlar va sanoatlashgan rayonlarda (Angren-Olmaliq, Toshkent, Farg‘ona-Qo‘qon, Surxon-Sherobod);
- suvdan intensiv foydalanish bilan bog‘liq muammolar – zovur suvlarning ko‘llarda to‘planishi, chuchuk suvlarning yetishmasligi, chuchuk suv havzalarining ifloslanishi va h.k.;
- yerlardan intensiv foydalanish bilan bog‘liq muammolar – eroziya, sho‘rlanish, yaylovlarning degradatsiyaga uchrashi;
- geotizimlarga texnogen ta’sir bilan bog‘liq muammolar – tog‘kon sanoati chiqindilarining to‘planishi, geotizimlarning buzilishi, og‘ir texnikaning yaylovlarni payhon qilishi va h.k.;
- chorvaning intensiv boqilishi va buta-daraxtlarni kesish bilan bog‘liq muammolar;
- rekreatsion tizimlardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar;
- zaharli kimyoviy moddalarning tabiiy muhitni ifloslashi bilan bog‘liq muammolar va h.k.

Geoekologik muammolar yechimining ilmiy asoslari. Ushbu muammolarning yechimi mantiqiy tahlilga bog‘liq. Tizimli tahlil natijasida muammoning asosiy xususiyatlari, ko‘lami, rivojlanish bosqichlari, yo‘nalishlari, sababları va omillari, oqibatlari va boshqalar ayon bo‘ladi. Geoekologik muammolarni tadqiq etishda, asosan, hududiy, geotizimli va ekologik prinsiplar qo‘llaniladi.

Hududiy prinsipni qo'llash muammoning hududiy miqyosini aniqlashga, uning rivojlanish chegaralarini, tarqalish arealini ajratishga imkon beradi. Mazkur prinsip hudud yaxlitligi, uning boshqa rayonlar bilan aloqasi, o'zaro bog'liqlik va ta'sirda bo'lishini bilishga imkon beradi.

Geotizimli prinsip geoekologik muammo uchun geografik asos hisoblanadi, chunki u hududning tuzilishi to'g'risida axborot berish bilan birga, uning qanday tabiiy xususiyatlarga, resurslarga ega ekanligi haqida ma'lumot olishga imkon beradi. Mazkur prinsip geotizimlar chegaralarining joylashuvini, ularning nisbati, bir-birlariga nisbatan past-balandligi, strukturali-dinamik holati haqida ma'lumot beradi. Ushbu prinsip muammoning ko'pgina xususiyatlarini baholashda, kelajakda bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan prognoz qilishda, turli tadbirlar tizimini asoslashda va ularni qo'llashda, barcha turdag'i kartalarni tuzishda asos bo'ladi.

Ekologik prinsipning qo'llanilishi tirik organizmlar, jumladan, insonning atrof muhit bilan o'zaro aloqalari, ta'siri va munosabatda bo'lishi nazarda tutilganligi bilan bog'liq. Ekologik muammoning mantiqiy ma'nosini ham aslida tirik organizm bilan jonsiz tabiat orasida o'zaro aloqa va munosabatlarning buzilishidan iborat. Ushbu munosabatning ziddiyatlashuvini muayyan geotizimlarda ro'y berib, hududiy xususiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham mazkur muammoni geoekologik muammo deb tadqiq etish zarur.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Geoekologik muammolarni yoritib bering.
- 2.Tuproq degredatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
- 3.Geoekologik muammolarning qanday ilmiy yechimlarini bilasiz?
- 4.Regional va lokal geoekologik muammolarga misollar keltiring.

11-MAVZU: GEOEKOLOGIK BAHOLASH. GEOEKOLOGIK MONITORING. O'ZBEKISTONDA GEOEKOLOGIK MONITORINGNI AMALGA OSHIRISH

Inson xo'jalik faoliyat natijasida tabiiy muhitda, ya'ni geotizimlarda turli o'zgarishlar sodir bo'lishi oqibatida turli xil geoekologik vaziyatlar yuzaga keladi. Ushbu geoekologik vaziyatlarning aks ta'siri jamiyatda ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun yuzaga kelgan geoekologik vaziyatlarni o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'tgan asrning oxirlaridan boshlab geoekologiyaning mustaqil fan bo'lib shakllanishi munosabati bilan turdosh fanlardan unga juda ko'plab termin va tushunchalar kirib keldi. Shulardan biri "*ekologik vaziyat*" tushunchasi bo'lib, geoekologiyada *geoekologik vaziyat* deb qo'llanilmoqda. Lekin ayrim hollarda "*geoekologik vaziyat*" tushunchasining o'rniiga geoekologik holat, geoekologik ahvol, geoekologik muhit, geoekologik sharoit kabi tushunchalar qo'llanilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa mazkur tushuncha mazmun va mohiyatining turlicha talqin etilishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu tushunchani o'z o'rniда va to'g'ri ishlatish uchun ekologiya va geoekologiya fanlarining o'rganish obyekti bir-biridan farq qilishini hisobga olish lozim. Ekologiyaning o'rganish obyekti ekotizim bo'lib, markazida "ho'jayin" turishi va qolgan komponentlar "ho'jayin" ning yashash muhiti, omili ekanligini hisobga olsak, ekologik muhit, "ekologik (muhitning) sharoit", "ekologik (muhitning) holat", "ekologik (muhitning) ahvol" kabi tushunchalarni qo'llash balki to'g'ridir va ular qaysidir ma'noda sinonimdir. Geoekologiyaning o'rganish obyekti esa geotizim bo'lib, unda barcha tabiat komponentlari o'zaro teng ahamiyatli ekanligini va bir-birini taqozo etishini hisobga olsak, yuqorida tushunchalarning hammasini ham "geografiyalashtirib" bo'lmasligi ma'lum bo'ladi. Ekologik muhit biron organizm uchun noqulay bo'lsa, boshqasi

uchun qulay bo‘lishi mumkin. Geotizim esa bir butun bo‘lib, undagi geografik qonuniyatlariga inson ham bo‘ysunadi, modda va energiya almashinuvida boshqa komponentlar singari bir “bo‘g‘in” sifatida ishtirok etadi. Agarda geotizimlardagi bir butunlik hamda modda va energiyaning almashinuvi buzilsa (ayniqsa, inson tomonidan), tabiiy muvozanat buziladi, oqibatda, salbiy geoekologik vaziyat yuzaga keladi va bu barcha komponentlarga ta’sir etib, ularning turli darajada o‘zgarishiga olib keladi. Demak, “geoekologik vaziyat” tushunchasi inson nuqtai nazaridan, ya’ni avvalo, aholining sog‘lig‘i, keyin esa xo‘jalik faoliyati maqsadida qaralar ekan. “Geoekologik vaziyat” tushunchasiga ta’rif berishdan oldin taniqli olimlarning bu boradagi fikrlarini keltirib o‘tmoqchimiz.

A.A.Rafiqovning ta’kidlashicha, geoekologik vaziyat – ma’lum ekologik sharoitda mavjud bo‘lgan tabiiy muvozanat, uning dinamik holati, komponentlarining shu vaziyatdagi me’yoriy xususiyatlari, o‘zgarish yo‘nalishlari, tirik tabiat bilan jonsiz tabiat o‘rtasidagi munosabatning barqarorlik holati, kishilarning turg‘un tibbiy holat darajasidan iborat.

B.I.Kochurovning ta’kidlashicha, ekologik vaziyat turli darajada noqulayliklar vujudga keltiruvchi ekologik holat va insonning hayotiy tizimlari bilan bog‘liq ekologik muammolarning makon va zamonda almashib kelishidan iborat.

A.S.Stepanovskix geoekologik vaziyatni faqatgina antropogen hodisa va jarayonlarga nisbatan qo‘llash lozim, deydi.

A.G.Isachenko esa, geoekologik vaziyatni tabiiy muhitning ekologik holati sifatida qarash lozim, deb hisoblaydi.

Bizningcha, **geoekologik vaziyat** – muayyan geotizimlarda tabiiy geografik jarayonlar va inson xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq geoekologik muammolarning makon va zamonda almashinib kelishining ayni vaqtdagi holati: tabiiy landshaftlarning o‘zgarish holati; tabiat komponentlarining sifat va soniga ko‘ra holati; antropogen yuk holati; aholining salomatligi holati va h.k.

Bunda nafaqat shu geotizimdagи, balki yon atrofdan tutash geotizimlardagi antropogen salbiy ta’sirlarning ham bo‘layotgan oqibati hisobga olinadi. Ma’lumki, ifloslangan zaharli moddalar havo, suv va hayvonlar orqali mazkur geotizimga kirib keladi.

Geoekologik baholashning bosh maqsadi insonning qanday ekologik vaziyatlarda hayot kechirishini tavsiflash va u asosida yuzaga kelgan noqulay ahvolni yumshatish chora-tadbirlari majmuasini ilmiy asoslashdan iborat.

Geoekologik vaziyatni baholash uncha uzoq bo‘lmagan tarixga ega. Shundan bo‘lsa kerak bu borada adabiyotlarda turlicha fikrlar uchraydi. “Hududlarda geoekologik vaziyatni baholash murakkab masala bo‘lib, hozirgacha yagona fikrga kelingani yo‘q. Baholashda ekologik vaziyatning keskinligi bo‘yicha pog‘onalar soni, ularni ajratishdagi mezonlar turli mualliflarda bir xil emas. Hatto bir xil nom bilan ataladigan keskinlik darajasi mazmun jihatdan ham farq qiladi”. Bu borada hanuzgacha poyoniga etkazilgan mantiqiy baholash prinsipi, uslubiyoti va usullar ishlab chiqilgani yo‘q”. Demak, geoekologik vaziyatni baholash mezonlari, metodologiyasi, uslublari ham turli mutaxassislar tomonidan har xil tasniflangan. Bunday holat, bizningcha, birinchidan, turli mamlakatlardagi tabiiy sharoit va geotizimlarning tabiiy imkoniyatlarini turlichaligi bilan, ikkinchidan geotizimlarga bo‘ladigan antropogen yukning har xilligi bilan bog‘liq. Shuning uchun mazkur masala yuzasidan O‘zbekistonda bajarilgan ishlarning tahlilini ko‘rib chiqishni ma’qul topdik.

O‘zRFA Geografiya bo‘limi tomonidan A.A.Rafiqovning ilmiy rahbarligida tayyorlanib, 1992-yilda nashr etilgan 1:1000000 masshtabli “O‘zbekiston Respublikasining ekologik kartasi” da ekologik vaziyat darajalari 13 ta indikatorlar asosida tavsiflangan va 5 ta pog‘onaga ajratilgan: qanoatlanarli, o‘rtacha qanoatlanarli, o‘rtacha, keskin, tang. Keyinchalik A.A.Rafiqov (1999) ushbu indikatorlarni takomillashtirib, sonini 16 taga etkazadi, shuningdek, 13 ta indikatordan 5 tasining o‘rniga boshqalarini taklif qiladi. Ushbu indikatorlardan “O‘zbekiston tabiatni muhofaza qilish kartasi”ni (2003) tuzishda foydalananib,

geoekologik vaziyatlar landshaftlarining o‘zgarganlik darajasi sifatida yetti pog‘onali shkalada berilib, ranglarda tasvirlangan. Mazkur kartani tuzishda landshaft kartasi asos qilib olingan.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan respublikamiz hududidagi ekologik vaziyatni baholash uchun 18 ta ko‘rsatkichdan iborat shkala ishlab chiqilgan va 5 ta darajadagi ekologik zonalarga ajratib, ma’muriy tumanlar chegarasida ballarda miqdoriy baholangan. Ushbu kartaning asosini ma’muriy-hududiy bo‘linish tizimi tashkil etadi. Ekologik vaziyat quyidagi darajalarda va ballarda ifodalangan: keskin – 120 dan kam ball; kuchsiz keskin – 120-150 ball; o‘rtacha keskin – 150-250 ball; kuchli keskin – 250-400 ball; juda keskin – 400 va undan ko‘p ball. Keyinchalik, “ushbu ishlar takomillashtirilib, “ekologik rayonlashtirish metodikasi” ishlab chiqilgan. Bunda taksonomik birlik sifatida ma’muriy tumanlar olingan, biroq bu tumanlar hududning ifloslanish areallari bilan, ya’ni mavjud landshaft-geografik konturlar bilan amalda mos tushmaydi. Unda ko‘rsatkichlar soni 20 ta bo‘lib, 3 ta blokka birlashtirilgan, ekologik vaziyat 4 ta darajada ko‘rsatilib, ballarda ifodalangan: kuchsiz – 160 balldan kam, o‘rtacha – 160-220 ball, yuqori (keskin) – 220-260 ball, juda yuqori (inqirozli) – 260-300 ball”.

“Yergeodezkadastr” qo‘mitasi tomonidan tayyorlanib, nashr etilgan “O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari atlasi” da (2001) berilgan “Ekologik mintaqalashtirish” kartasida mintaqalar sifatida ma’muriy tumanlar olingan va baholashda 18 ta ko‘rsatkichdan foydalanilgan. Respublika hududi quyidagi mintaqalarga ajratilgan: 0 – qoniqarli (yo‘l qo‘yarli); I – keskin; II – favqulodda; III – halokatli. Ekologik baholashning asosiy mezonlari sifatida quyidagilar olingan: Yer usti suvlarining ifloslanish indeksi (SII), atmosferaning ifloslanish indeksi (AII), tuproqlarning pestitsidlar bilan ifloslanishi (kg/ga), ichimlik suvining davlat standartiga to‘g‘ri kelishi, tuproqlarning sho‘rlanishi, aholining umumiy kasallanishi va boshqalar.

O‘zbekiston “Geologiya va ma’dan resurslari davlat qo‘mitasi” tomonidan 1999-yilda nashr etilgan “O‘zbekiston Respublikasi geoekologik kartasi” da geoekologik vaziyatga komponentlar bo‘yicha baho berilgan. Kartada tuproqlar ifloslanishi rang bilan tasvirlanib, to‘rt xil darajada ko‘rsatilgan: ifloslanish yo‘q, kuchsiz ifloslangan, o‘rtacha ifloslangan, kuchli ifloslangan. Bu darajalar ifloslovchi moddalarning yalpi ko‘rsatkichi asosida olingan.

Z.A.Amanbayeva hamda A.A.Rafiqov taklif qilgan mezonlar shkalasidan foydalanadi va tadqiqot obyektining xususiyatlaridan kelib chiqib, mezonlar shkalasiga 3 ta qo‘srimcha kiritib, Ohangaron daryosi havzasi o‘rtacha oqimi geoekologik vaziyatini baholaydi.

A.Raxmatullayev ushbu masala yuzasidan bajarilgan bir nechta ishlarni tahlil qilib, Zarafshon vohasining geoekologik vaziyatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. U geoekologik vaziyatni keskinlik darajasi bo‘yicha 7 ta pog‘onaga ajratadi – qanoatlanarli, jiddiy, o‘rtacha keskin, kuchli keskin, tang, xavfli, halokatli.

Bular geoekologik vaziyatni baholashda barcha tabiiy komponentlarning xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan kompleks baholash ishlari bo‘lib, quyida tabiat komponentlarining ekologik holatini baholashga qaratilgan ayrim ishlarni keltiramiz.

G.N.Tinina va L.G.Pianovskayalar tomonidan suvlarning ifloslanish darajasini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Bu mezonlar shkalasini ishlab chiqishda 5 ta indikator hisobga olingan.

G.A.Tolkachova va boshq. tomonidan atmosfera havosining ifloslanishini baholovchi mezonlar ishlab chiqilgan bo‘lib, unda 7 ta indikatoridan foydalanilgan.

Sh.Iskandarova yer usti suvlarini gigiyenik jihatdan baholash metodikasini iishlab chiqdi.

“O‘zdaverloyiha” ITI tomonidan tuproqlarning sho‘rlanganlik va pestitsidlar bilan ifloslanganlik darajalari ishlab chiqilgan bo‘lib, respublika hududi 4 pog‘onali shkalada

ma'muriy tumanlar doirasida baholangan va quyidagi mintaqalarga ajratilgan: 0 – qoniqarli (yo'l qo'yarli); I – keskin; II – favqulodda; III – halokatli.

Geoekologik vaziyatni baholash integral baholash bo'lib, geotizimning barcha komponentlarini qamrab olishini hisobga olsak, bu borada A.A.Rafiqovning (1999) ishlari ancha mukammaldir. Boshqalardan farq qilib geoekologik vaziyat ma'muriy birliklar miqqosida emas, tabiiy geografik birliklar, ya'ni landshaftlar doirasida, barcha tabiiy komponent-larni hisobga olgan 16 ta indikatorдан foydalanib baholangan. Uning ishlari keyinchalik Sh.M.Sharipov (2006, 2011) tomonidan davom ettirilib, takomillashtirildi va baholash jadvaliga "Geotizimlarning o'zgarganlik indeksi va darajasi" hamda "Geotizimlarga antropogen yuk holati" qo'shil-di (7-jadvalda * bilan belgilangan). Antropogen yuk holatini 3 ta ko'rsat-kich: 1) aholi zinchligi va "Yer sig'imi", 2) geotizimlarning antropogen elementlar bilan bandligi, 3) Yerlardan foydalanish turi kabi ko'rsatkich-lardan foydalanilib, indikatorlar soni 20 taga yetkazildi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar va boshqa adabiyotlarda geoekologik vaziyat darajalarini nomlash va pog'onalarga ajratilishining turlichaligini ko'ramiz. Buning obyektiv va subyektiv sabablari bo'lib, avvalambor, tahlil qilish, qiyosiy baholash, landshaftlarni geoekologik nuqtai nazardan toifalarga ajratish uchun aniq mezonlarni ishlab chiqishni talab etadi. Obyektiv sababi – geoekologik vaziyat darajalarini pog'onalari va ularni belgilovchi indikatorlarning soni geotizimlarning taksonomik darajasiga bog'liq. Geotizimlarning quyi taksonomik darajasiga tushgan sari, indikatorlar soni va aniqligi ortib boradi. Subyektiv sababi esa, tadqiqotchilarining tayanch ma'lumoti, maqsadi va yondashuvining har xilligidir.

7-jadval.

Geoekologik vaziyatlarni aniqlovchi mezonlar

Mezonlar Indikatorlar	Geoekologik vaziyatlar				
	Falokatli	tang	keskin	o'rtacha	qanoatlanarli
1.Geotizimlar holati	Geotizimlar-ning buzilishi, tiklanmaydi gan jarayonlar kuchayadi	Buzilgan geotizimlar tiklanmaydi-gan xususiyatlar ga ega bo'ladi	Ayrim tabiat komponentlari ning buzilishi kuzatiladi	Tuproq va o'simlikning buzilish belgilarini kuzatiladi	Ayrim o'simlik va hayvonlarning miqdoriy kamayishi kuzatiladi
*1.1. Geotizim- larning o'zgarganlik indeksi va darajasi	90 dan yuqori butunlay o'zgargan	70-90 juda kuchli o'zgargan	50-70 kuchli o'zgargan	30-50 o'rtacha o'zgargan	30 dan kam o'zgarmagan va kam o'zgargan
2.Tabiat komponentlari ning holati: 2.1. Atmosfera holati	3.3 dan yuqori (API eng yuqori bo'lgan zona)	3.0-3.3 (API yuqori bo'lgan zona)	2.7-3.0 (API baland bo'lgan zona)	2.4-2.7 (API o'rtacha bo'lgan zona)	2.4 gacha (API past bo'lgan zona)
2.2. Yer usti suvlarning sifati (suvlarning ifloslanish indeksi, SII)	6-10 va undan ko'p (juda iflos va haddan tashqari iflos)	4-6 (iflos)	2-4 (ifloslangan)	1-2 (o'rtacha ifloslangan)	1 gacha toza

2.3.Yer osti suv larining minerallashuvi (har litrda gr.)	Juda baland (3-5)	Baland (2-3)	O'rtacha (1-2)	Ruxsat etilgan (1 gacha)	Me'yorda (0.3-0.5)
2.4.Ichimlik suvini davlat andozasiga mos kelmasligi, %	75-90	50-75	35-50	20-35	10-20
2.5.Tuproqlarning pestitsidlar bilan ifloslanishi (har ga. da kg.)	10 dan ortiq	5-10	3-5	1.3-3.0	1.3 dan kam
2.6.Tuproq sho'rланishi	Sho'rxok	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz	Sho'rланмаган
2.7. Tuproq larning Eroziyaga berilganligi	Juda kuchli (jar eroziyasi)	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz	Eroziyaga berilmagan
2.8.Yerlarning deflyatsiyaga berilganligi	Juda kuchli (barxan relyefi)	Kuchli (Harakatdagi qumlar vujudga keladi)	O'rtacha (botiqlar 25-50% maydonda tarkib topadi)	Kuchsiz (botiqlar 25% gacha maydonda tarkib topadi)	Deflyatsiya yuz bermaydi (botiqlar 10% gacha maydonda tarkib topadi)
2.9.O'simlik qoplaming ahvoli (mahsuldarlik darajasi, %)	15 dan kam	15-30	30-60	60-90	90 dan yuqori
2.10. Yaylovlар degradatsiyasi (buzilgan yaylovlар maydonining ko'payishi)	7.5 dan ko'p	5.0-7.5	2.5-5.0	1.5-2.5	1.5 gacha
2.11. Hayvon lar faunasining holati	Qayta o'zgargan (sinantrop va keltirilgan turlar 50% dan ortiq)	Kuchli o'zgargan (sinantrop va keltirilgan turlar 50% gacha)	O'rtacha o'zgargan (sinantrop va keltirilgan turlar 10% gacha)	Kuchsiz o'zgargan (sinantrop va keltirilgan turlar oz)	Tabiiy fauna (hayvon turlari o'zgarmagan)
3.Aholi sog'lig'i holati	Barcha yoshdagi va ijtimoiy guruhdagi aholining ahvoli qo'rinchli holda	Barcha yoshdagi aholining sog'lig'i hamma joyda yomonlashadi	Aholining ayrim guruhini sog'lig'i yomonlashadi	Aholi sog'lig'i yomonlashuvi belgilari vujudga keladi	Me'yordagi holat

3.1.Umumiy o‘lim	Juda ko‘p (1.3 x)	Ko‘p (1.2 x)	Ko‘proq (1.1 x)	Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga mos keladi (1.0 xx)	Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi-dan past (1.2 xxx)
3.2. Yosh bolalar o‘limi	Juda ko‘p (1.6x)	Ko‘p (1.4x)	Ko‘proq (1.2x)	Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga mos keladi (1.0 xx)	Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi-dan past (1.4 xxx)
3.3. Aholining kasallanishi ¹	Juda ko‘p (1.3-1.4x)	Ko‘p (1.2-1.3x)	Ko‘proq (1.1-1.2x)	Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga mos keladi (1.0 xx)	Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi-dan kam (1.3-2.0 xxx)
*4. Antropogen yuk holati: *4.1.Aholi zichligi va «Yer sig‘imi» km ² / kishi	Juda ortiq (10 000 dan ko‘p, Shahar va aglomeratsiya lar)	Ortiq (400 dan ko‘p)	Ortiqroq (300-400)	Me’yor (200-300) va Kamroq (100-200)	Kam (100 dan kam)
*4.2. Geotizim-larning antropogen elementlar bilan bandligi	Juda ortiq (50% dan tiq, shahar va aglomeratsiya lar)	Ortiq (20% dan ortiq)	Ortiqroq (15-20 %)	Me’yor (10-15%) va Kamroq (5-10%)	Kam (5% dan kam)
*4.3.Yerlardan foydalanish turi	Sanoat korxonalari va yashash binolari	Sun’iy suv havzalari, karerlar, ag‘darmalar	Sug‘orma va bahorikor dehqonchilik	uzumchilik va bog‘dorchilik, yaylov chorvachiligi	O‘rmon xo‘jaligi va davlat zahira yerlari

¹Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan: x-shuncha marta ko‘p; xx-mos keladi; xxx-shuncha marta kam.

Geoekologik vaziyatni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning ko‘p va turli xilligi geotizimlarni majmuali geoekologik baholash uchun biron-bir integral ko‘rsatkich topish imkoniyatini amalda qiyinlashtiradi. Bizning nazаримизда, maqsaddan kelib chiqib, tabiiy muhitning ko‘p sonli xususiyatlari orasidan geoekologik nuqtai nazaridan ahamiyatlilarini resurs sifatida ahamiyatlilaridan ajratib olish lozim. Masalan, tuproqni baholashda aholi salomatligi nuqtai nazaridan pestitsidlar bilan ifloslanishini birinchi darajali, eroziya va sho‘rlanishga berilganligi esa ishlab chiqarish resursi sifatida ahamiyatl bo‘lib ikkinchi darajali hisoblanadi. Yer usti va yer osti suvlarini baholashda, birinchi navbatda, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, ikkinchidan esa, ishlab chiqarishni rivojlantirish manbai sifatida qaraladi. Shuningdek, geoekologik vaziyatni baholashda barcha omillarni to‘liq qamrab olishning amalda iloji yo‘q. Ularning “vazni” ni hisobga olish lozim, ya’ni ko‘proq indikatsion va integral ahamiyatga ega bo‘lgan asosiyalarini ikkinchi darajalilaridan farqlab olish lozim. Masalan, antropogen geoekologik omillar orasidan eng integral ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkich sifatida aholi zichligini, indikatsion ahamiyat kasb etadigani sifatida geotizimlardan foydalanish turini olgan ma’qul.

Majmuali geoekologik baholashning mezonlarini ishlab chiqish va tuzish o‘rganilayotgan geotizimlarning taksonomik darajasiga bog‘liq bo‘lib, mezonlar va ularni

belgilovchi indikatorlarning soni geotizimli tabaqalanishning yuqorida quyi taksonomik darajasiga tomon ortib va aniqlashib boradi.

Geoekologik vaziyatni baholash integral baholash bo‘lib, geotizimning barcha komponentlarini qamrab olar ekan, uni amalga oshirishda komponentlar bo‘yicha baholash hamda ushbu komponentlarni son va sifat jihatidan tavsiflovchi kadastr ma’lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday ma’lumotlar har bir komponent yoki soha uchun mutaxassislar tomonidan tayyorlangan bo‘lib, ancha mukammaldir.

Geoekologik vaziyatlar darajasini aniqlovchi mezonlar (*7-javdal*) asosida Toshkent viloyati landshaftlarining geoekologik vaziyatlari baholandi. Keltirilgan ko‘rsatkichlarning hammasi ustuvorlikka ega, lekin har bir landshaftning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda, u yoki bu ko‘rsatkich bosh ustuvorlikka ega bo‘lishi mumkin. Baland tog‘larning suvayirg‘ichlarida ekzaratsiya, tog‘ yonbag‘irlarida eroziya, sanoat rivojlangan hududlarda atmosfera havosi, sug‘orma dehqonchilikda foydalanimadigan landshaftlarda tuproqlarning pestitsidlar bilan ifloslanishi va irrigatsiya eroziysi, grunt suvlari yer yuzasiga yaqin bo‘lgan landshaftlarda sho‘rlanish va botqoqlanish kabilar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi tabiiy. Baholashda ushbu jarayonlar va ko‘rsatkichlarga e’tibor berildi, shuningdek, birinchi navbatda, aholining sog‘ligiga, so‘ngra xo‘jalik faoliyatiga salbiy ta’sir etadigan ko‘rsatkichlar hisobga olindi.

O‘zbekistonda ekologik vaziyat darajalari va ularning tavsifi. Geokologik vaziyat darajalari: qanoatlanarli, o‘rtacha, keskin, tang va falokatli bo‘lishi mumkin. Ushbu tasniflash O‘zbekiston hududi uchun o‘rtacha olingen, ayrim hududlar uchun u boshqa ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, tog‘li qismida (G‘arbiy Tyanshan, Xisor va boshq.) eng qulay, qanoatlanarli, o‘rtacha va h.k. Tekislik qismida esa o‘rtacha, kuchli, keskin, tang va boshqa tarzda bo‘lishi ham mumkin. Ushbu darajalar ma’lum mezonlar asosida aniqlanadi. Masalan, geotizimlarning holati, tabiat komponentlarining holati, aholi sog‘lig‘i holati e’tiborga olinadi.

Qanoatlanarli geoekologik vaziyat uchun ayrim o‘simlik va hayvonlarning miqdoriy kamayishi xos. O‘rtacha vaziyatda esa tuproq va o‘simlikning buzilishi belgilari kuzatiladi. Keskin vaziyatda tabiatning ayrim komponentlari buzilishi ro‘y beradi. Tang vaziyatda buzilgan geotizimlar tiklanmaydigan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Falokatli vaziyatda geotizimlarning buzilishi va tiklanmaydigan jarayonlar kuchayadi.

Aholi sog‘lig‘i holati bo‘yicha qanoatlanarli vaziyat me’yordagi holatga ega, o‘rtacha vaziyatda aholi sog‘lig‘i yomonlashuvi belgilari vujudga keladi, keskin vaziyatda barcha yoshdagи aholining sog‘ligi hamma joyda yomonlashadi, falokatli vaziyatda barcha yoshdagи va ijtimoiy guruhdagи aholining sog‘lig‘i salbiy holatda bo‘ladi.

O‘zbekistonda geoekologik vaziyat, umuman olganda, o‘rtacha barqaror, joylarda turlicha: qanoatlanarli vaziyatdan tortib, falokatli vaziyatgacha mavjud. Baland va o‘rtacha balandlikdagi tog‘larning suvayirg‘ich qismlari eng qulay va qulay vaziyatga ega, chunki bu geotizimlarda inson xo‘jalik faoliyati deyarli amalga oshirilmaydi. Tabiiy sharoit deyarli buzilmagan. Tog‘larning yonbag‘irlarida inson ta’siri sezila boshlaydi, yuqori qismlarda geotizimlarning strukturasi va maxsus faoliyatida buzilishlar kuzatiladi. O‘simlik qoplami, hayvonot olami, qisman tuproqda o‘zgarishlar ro‘y beradi. Yonbag‘irlarning quyi qismlarida gravitatsion jarayonlar rivojlangan, ko‘p joylarda o‘simlik qoplami zichligi nihoyatda past, suksessiya jarayonida o‘zgarishlar kuzatiladi. Shularni e’tiborga olib, geoekologik vaziyat darajasini qanoatlanarli, joylarda o‘rtacha deb baholash mumkin.

Tog‘ oldi va adir mintaqasi inson ta’siri natijasida kuchli o‘zgargan. Ayniqsa, o‘simlik, tuproq, hayvonot olami, relyef shakllarida o‘zgarishlar kuzatiladi, xususan turli tabiiy jarayonlar sodir bo‘lgan (eroziya, sel, jarliklar va b.). Bu hududga o‘rtacha geoekologik vaziyat xos.

Vohalarda geoekologik vaziyat turlicha, lekin keskin vaziyat hukmron, chunki suv havzalari inson ta’sirida ifloslangan, tuproq eroziya va sho‘rlanishga berilgan, yerlarning

mahsuldorligi nisbatan pasayib ketgan. Aholi ichimlik suvi, shaharlar kanalizatsiya bilan to‘liq ta’minlanmagan. Binobarin, turli kasalliklar tarqalgan, o‘lim ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori.

Tang geoekologik vaziyat Xorazm, Qoraqalpog‘iston, Buxoro vohalarining bir qimsmini egallaydi. Bu vohalarda, avvalo, aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi murakkab, shu asosda kasalliklar tarqalishi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar hukmron, aholi orasida o‘lim ko‘rsatkichlari baland. Tuproqlarning sho‘rlanishi, vohalarda grunt suvlari sathining ko‘tarilib ketganligi, sug‘orishda ishlatiladigan suvlarning sho‘rlik darajasining balandligi asosiy omillardan hisoblanadi. Orol dengizi sathining pasayib bora yotganligi, suvning taqchilligi ham jiddiy ahamiyatga ega.

Falokatli vaziyat Orol bo‘yida, xususan, Mo‘ynoq atrofida rivojlangan. Bu hududda ichimlik suvi va toza daryo suvining taqchilligi, dengizning qurigan qismidan tuzlarning yog‘ilib turishi, shamollar harakati, cho‘llashish hodisasi geoekologik vaziyatni murakkablashtiradi. Aholining kasallanish koeffitsienti va o‘lim yuqori darajada. Jonli tabiat falokatga uchrashi oqibatida ekologik muvozanat buzilgan. Orolning qurigan qismi ham shu rayonga tegishli.

Geoekologik vaziyatlar barqaror emas, ular doimo o‘zgarishda, rivojlanishda. Bunday holat inson omili ta’siri darajasi va miqyosi bilan bog‘liq. Shuningdek, vaziyat inson tomonidan boshqarilib turilganligi tufayli qayta o‘zgartirishlar ularning turg‘un holda bo‘lishligiga ijobiy ta’sir etadi. Boshqarish miqyosi va ta’sir doirasi, kuchiga qarab, ayniqsa, vohalarda vaziyatlar rejimi kuchli darajada o‘zgarishga uchramayapti. Lekin barcha vohalar ham bir maromda yoki bir xil darajada boshqarilmaydi, bu hol, asosan, geotizimlarning strukturali dinamik holatiga bog‘liq, tog‘ etaklarida voha geotizimlarini boshqarish nisbatan qulay va oson. Bu zonada, asosan, eroziyaning oldini olish, qisman tuproqda tuz to‘planishi va filtratsiya, sel hodisalari boshqarilishi lozim. Tekislik zonasida deltalarning voha geotizimlarini boshqarish ancha murakkab va og‘ir. Chunki gruntuning suv o‘tkazmaslik sharoitida sug‘oriladigan yerlarning suv-tuz rejimini rostlab turish uchun katta hajmda meliorativ ishlarni bajarishga to‘g‘ri keladi.

Sanoat shaharlari (Olmaliq, Chirchiq, Angren, Navoiy, Sho‘rtan, Muborak, Uchquduq va b.)ni atrof muhitga ta’siri yetarli darajada katta. Ularning ta’siri tufayli tabiiy muhit ifloslanadi, xususan, suv va havo havzalari zararlanadi. Farg‘ona, Olmaliq, Navoiy sanoat korxonalari atrofida, Surxondaryo viloyatida Uzun va Sarosiyon tumanlarida Tursunzoda alyuminiy korxonasi ta’sirida geoekologik vaziyat murakkab. Buning oqibatida, aholi orasida turli kasalliklar tarqalgan, aholining kasallanishi va sog‘lomlashtirish punktlariga murojaati ortgan.

O‘zbekistonda suv havzalarining ifloslanganligi, buning oqibatida, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashni sekin bajarilayotganligi, ekinlarni sho‘r suv bilan sug‘orilayotganligi murakkab geoekologik vaziyatlarning tarkib topishiga olib kelmoqda. Chunki bu toifadagi suvlar davlat andozalariga to‘g‘ri kelmaydi, Shuningdek, ba’zi shahar va qishloqlarni kanalizatsiya tarmoqlari bilan ta’milanmaganligi aholi sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Texnogen omillar ta’sirida yaylovlarining buzilishi, ishdan chiqishi, mahsuldorlikning pasayib ketganligi, harakatdagi qumlarning maydoni kengayib bora yotganligi endilikda aniq sezilmoqda. Qizilqum, Ustyurt platosi, Qarshi cho‘lida va gaz hamda neft konlarining ishga tushirilishi atrof muhit va yaylovlar holatini yaxshilash uchun maxsus tadbirlar majmuasi amalga oshirishini talab etadi.

Geoekologik monitoring

Yer yuzida geoekologik tang hududlarning vujudga kelishi, atrof muhitni har tomonlama va doimo kuzatish va tahlilini ishlab chiqishni talab etmoqda. Faqatgina aniq miqdoriy ma'lumotlar asosidagina tabiiy muhitda bo'layotgan o'zgarishlarni baholash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin. Shu sababli tabiiy muhit monitoringini amalga oshirish dolzarb masaladir.

Monitoring – (*lot. monitor*) biron obyekt yoki hodisani kuzatish, nazoart qilish. "Monitoring" tushunchasining shakllanishi va nazariy asoslarini rivojlanadirishga katta hissa qo'shgan olim Y.Izraelning ta'rificha, monitoring – atrof muhit holatidagi o'zgarishlarni kuzatish, baholash va prognozlashtirishning global tizimidir.

Atrof muhit monitoringi yoki ekologik monitoring – insonlarning atrof tabiiy muhitni holatini kuzatish hamda odamlar sog'lig'i va boshqa tirik organizmlar hayoti uchun yuzaga kelayotgan keskin, zararli yoki xavfli holat haqida ogohlantirish.

"Ekologik monitoring" tushunchasi 1972-yilda BMTning Stokgolmdagi konferensiyasida ilk bor muomalaga kiritilgan.

Ekologik monitoring bir qancha guruhdagi kuzatishlarni o'z tarkibiga kiritadigan tizimdir. Birinchi guruhdagi kuzatishlar atrof muhitga ta'sir etuvchi manbalar va omillarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, tabiiy va antropogen omillarni faoliyatları bo'yicha olib boriladi. Ikkinci guruhdagi kuzatishlar atrof muhitdagi obyektlar, resurslar, landshaftlar, moddalarning aylanma harakati, muhitning fizik va kimyoviy holati, biosferaning ifloslanish manbalari va yo'llari bo'yicha amalga oshiriladi. Uchinchi guruhdagi kuzatishlar yirik tizimlarning aks ta'siri bilan bog'liq, masalan, ob-havo, iqlim, biosfera va h.k.

Ekologik monitoring natijalari, asosan, mamlakatda geoekologik vaziyatni muntazam nazorat qilib turish, vujudga kelayotgan noqulay holatlarning oldini olishga tayyorgarlik ko'rish, chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va boshqa maqsadlar uchun zarurdir. Monitoring axborotlari va ma'lumotlari ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, bir necha yillik ma'lumotlar asosida esa geoekologik vaziyatlarning yillar davomida o'zgarishlarini ishlab chiqish uchun kerak bo'ladi. Bu borda biosfera qo'riqxonalari va oddiy qo'riqxonalarda olib boriladigan ekologik monitoringning amaliy ahamiyati katta.

Agarda inson xo'jalik faoliyatiga va yashash muhitiga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen jarayonlarning muayyan geotizimlarda tarkib topib, ma'lum geografik qonuniyatlar asosida rivojlanishini hisobga olsak, ekologik monitoringni geotizimlar doirasida olib borish lozimligi oydinlashadi. Demak, geotizimlar doirasida atrof tabiiy muhitning holatini kuzatish, tahlil qilish, baholash va prognozlashtirishni o'z ichiga oluvchi tizimli tadbirlar **geoekologik monitoring** deyiladi.

Geoekologik monitoring insoniyat yashash muhitining, alohida geotizimlarning, geografik qobiqning bir butun holati bo'yicha amalga oshirishga asoslangan bo'lib, uning 3 ta bosqichi ajratiladi.

1. Bioekologik (sanitar-epidemiologik) monitoring. Ushbu monitoringning obyekti – atmosferaning quyi qatlamlari, yer osti va yer usti suvlar, tuproqlar, sanoat va maishiy chiqindilar, radioaktiv nurlanish va boshqalar hisoblanadi. Uning vazifasi – atrof tabiiy muhitning o'zgarishi bilan inson sog'lig'ining buzilishi o'rtasidagi aloqani asoslash, atrof muhitga ta'sir etuvchi kanserogen va mutagen omillarni nazorat qilish va tahlil qilish. Bioekologik monitoring odam sog'lig'i uchun eng xavfli bo'lgan zararli chiqindilar va moddalarning REMdan past bo'lishiga qaratilgan. Bunday moddalarning miqdorini aniqlovchi tashkilotlar: gidrometeorologik, suv xo'jaligi, sanitар-epidemiologik va boshqa stansiyalardir. Mazkur monitoring turi barcha tumanlar, shaharlar va boshqa aholi punktlarida amalga oshirilishi lozim. Chunki odamlarning sog'lig'iga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi moddalar haqida tezkor ma'lumotlar juda zarurdir.

2. Geoekologik (geotizimli) monitoring. Ushbu monitoringning obyekti: tabiiy va antropogen geotizimlar, rekreatsion hududlar va o'rmonlar, yo'qolib borayotgan o'simlik va

hayvon turlari. Uning vazifasi atrof muhitni o‘zgarishi, shuningdek, tabiiy-texnik tizimlar (agrogeotizim, urbogeotizim, industrial rayonlar va b.) ning dinamik o‘zgarishini nazorat va tahlil qilish, baholash va prognozlash. Asosiy ko‘rsatkichlar – biologik mahsuldarlik, tabiiy o‘z-o‘zini tozalash qobiliyati, modda-energiya balansi, geotizimlarning ifloslanish darajasi kabilar. Shuningdek, tabiiy geotizimlarning strukturasi va uning buzilishi, tuproqlarning potensial unumdarligi, qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi, o‘simlik va hayvonlarning populyatsion holati va boshqalardir. Demak, ko‘rsatkichlar-ning ko‘pchiligi alohida komponentning emas, balki butun geotizimning holatini bildiradi.

Geotizimli monitoring bioekologik monitoring indikatori bo‘lib xizmat qiluvchi obyektlarning atrof muhitdagi genezisi va o‘zaro aloqasini ajratib olishga imkon beradi. Shu bilan birga, bioekologik monitoring mazmunini chuqulashtiradi, chunki atrof muhitning stixiyali o‘zgarishi va inson yashash sharoitining, umuman biotaning yomonlashuviga sababchi bo‘lgan hodisalarni oldindan ko‘ra olishga imkon beradi.

Geotizimlar, asosan, har xil tabiiy sharoitga ega bo‘lganligi sababli geotizimli monitoringni amalga oshirish ancha murakkab kechadi. Turli geotizimlar antropogen ta’sirdan o‘zini-o‘zi turlicha tozalaydi, ularning barqarorlik imkoniyati ham turlicha bo‘ladi. Shuning uchun monitoringni tashkil qilish geotizimlarning individual xususiyatlarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi.

3. Global (biosferali) monitoring. Bu monitoring quyidagilarning holatini global masshtabda amalga oshirishga asoslangan: atmosfera va ozon qatlami, gidrosfera, o‘simlik va tuproq qoplami, hayvonot olami. Ko‘rsatkichlari – radiatsion balans, iqlim isishi, atmosferaning gaz tarkibi va changlanganligi, yirik daryo va ko‘llarning hamda dunyo okeanining ifloslanishi, shahar aglomeratsiyalarining ifloslanishi, cho‘llashish, tuproqlar, o‘simlik va hayvonlarning global holati kabilardir. Global monitoring bioekologik va geoekologik monitoring ma’lumotlaridan foydalangan holda uni to‘ldiradi va butun geografik qobiq miqyosida amalga oshiriladi. Ushbu monitoringning asosiy vazifasi – tabiiy muhitning butun geografik qobiq miqyosida o‘zgarishi parametrlarini kuzatish, nazorat qilish va bu o‘zgarishning vaqtincha yoki davriy holda bo‘lishini aniqlash hamda bu holatning inson hayoti va faoliyatiga ta’sirini ekologik baholashdan iborat. Global monitoring kuzatishlari antropogen ta’sirga eng kam uchragan hududlarda – tayanch poligon yoki stansiyalarda, ya’ni biosfera qo‘riqxonalarida amalga oshiriladi. Bunday qo‘riqhonalarni qatoriga O‘zbekistonda Chotqol biosfera qo‘riqxonasi kiradi.

Tabiiy muhitning o‘z-o‘zini tozalashining tabiiy holatini aniqlashda REM ko‘rsatkichlari va me’yoriy miqdor ko‘rsatkichlarini ekologik baholash muhim ahamiyatga ega. Bu ko‘rsatkich tabiiy geotizimlarda ma’lum trofik (konsumentlar, produtsentlar, redutsentlarning o‘zaro bog‘liqligi) va komponentlararo aloqalarni, tabiiy biologik modda almashuvining hajmi va jadalligini belgilaydi. “Shuning uchun ham geoekologik monitoring kuzatishlariidagi indikatorlar tarkibiga geotizimlarning o‘z-o‘zini tozalash ko‘rsatkichlarini kiritish ularda ifoslantiruvchi moddalar qay darajada to‘planganligini aniqlashga, bu orqali geotizimlarning turli maishiy va sanoat chiqindilari bilan ifloslanish REMi va ularni prognozlashtirish imkonи vujudga keladi. O‘z-o‘zini tozalash qobiliyati va ruxsat etilgan yuk tabiiy geotizimlarning asosiy tiplaridagi trofik aloqalar va biologik modda almashuvini jadalligini o‘rganish orqali aniqlanadi”.

Ma’lumki, tabiatda tabiiy, dinamik ekologik muvozanat mavjud bo‘lib, agarda bu muvozanat buzilsa, tabiiy muhit ham degradatsiyaga uchraydi. Oqibatda, tabiiy geotizimlarda buzilish ro‘y berib, modda va energiyaning tabiiy oqimlari va ularning balanslarida qaytarilmas o‘zgarishlar vujudga kelishi va butun geotizimning ishdan chiqishi kuzatiladi.

Geotizimlarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning mahsuldarligidir. Shuning uchun ham geoekologik monitoringga biomahsuldarlikni aniqlovchi indikatorlarni kiritish va uni tabiiy singari inson tomonidan o‘zgartirilgan geotizimlarga ham tatbiq qilinishi lozim.

Ushbu ko'rsatkichlarni taqqoslash bilan tabiiy resurslardan qanchalik samarali foydalanilayotganini aniqlash imkoniyati vujudga keladi. Shuningdek, odatdagi empirik texnik tadbirlar va statistik-me'yoriy ko'rsatkichlardan ilmiy jihatdan asoslangan foydalanishga va prognozli foydalanish koeffitsiyentiga o'tishga imkon tug'iladi.

Geoekologik monitoringni amalga oshirishda aerokosmik, landshaft indikatsiyasi, kartografik, statsionar kuzatuv, geofizik, geokimyoviy, biokimyoviy, zoologik, epidemiologik, matematik, modellashtirish va boshqa ko'plab metodlardan foydalaniladi.

Bioekologik monitoringda atrof muhitni bir nechta parametri (indikatorlari) bo'yicha geofizik, biokimyoviy va biologik sohalarda muntazam nazorat hamda kuzatishga asoslaniladi. Bunda nazorat punktlarida bioekologik ahamiyatga ega bo'lgan (REM bo'yicha) kuzatishlar amalga oshiriladi.

Geotizimli monitoringda geofizik, geokimyoviy va biokimyoviy hamda biologik usullarda nafaqat nazorat punktlarida, balki alohida maxsus (testli) maydonlarda ham nazorat va kuzatish ishlari o'tkaziladi. Test maydonlarini tabiiy test poligonlari deb atash mumkin. Ayni shu poligonlarda geotizimli testlar (indikatorlar) REM, biologik mahsuldarlik, o'z-o'zini tozalash, prognozli foydalanish koeffitsiyentini atrof muhit bo'yicha barcha monitoring uchun ishlab chiqilishi lozim. Bunday poligonlar unchalik katta bo'lishi shart emas, lekin tabiat yetarli darajada atrof muhit uchun xos yoki shu joyning barcha xususiyatlarini qamrab olgan bo'lishi lozim. Bir tabiat zonasiga yoki yirikroq tabiat-xo'jalik tizimiga bitta poligon yetarli. Bundan zonal yoki regional geoekologik poligonlar nomi kelib chiqadi. Bunday poligonlarda shu rayonga xos bo'lgan kuzatishlar va nazorat olib boriladi. Bunda eng muhim geotizimlar guruhlari mayjud bo'lishi lozim: 1) tabiiy (qo'riqxona) holda; 2) tabiiy-antropogen (agrolandshaft); 3) antropogen geotizim (shahar).

O'zbekistonda monitoringning amalga oshirilishi

Bugungi kunda tabiiy muhitning ekologik monitoringi bir qancha muassasalar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Bular: Gidrometeorologiya xizmati boshqarmasi, Davlat o'rmon xo'jaligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Geologiya davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi (SES) hamda Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va ularning bo'limmalari. Ekologik monitoring kuzatishlari belgilangan muayyan joylarda tabiiy muhitning inson tomonidan ifloslanishi, buzilishi, eroziya, sho'rlanish, deflyatsiyaga berilishi va boshqa jarayonlar bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston hududida hozirgi vaqtida, Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, yer usti suvlarining ifloslanishi 94 obyektdagi 187 nuqtada ma'lum bir muddatlarda suv namunalari olib tekshiriladi. Ushbu namunalar mineral komponentlar, biogen moddalar, neft mahsulotlari, fenollar, xlor organik va fosfor organik pestitsidlar, ftor, sintetik faol moddalar, og'ir metallar bo'yicha, jami 40 dan ortiq ingrediyyentlar bilan ifloslanishi bo'yicha laboratoriya tahlilidan o'tkaziladi. Gidrobiologik kuzatishlar 50 ta suv obyektida, 77 ta joy va 100 ta kesimda olib boriladi. Yog'inlardan olinadigan namunalar bir necha meteorologik stansiyalarda o'rganiladi. Ulardagi sulfatlar, xloridlar, gidrokarbonatlar, nitratlar, kalsiy, magniy, kaliy, ftor va boshqalar laboratoriyalarda aniqlanadi. Qor qoplaming ifloslanishi sanoati rivojlangan shaharlarda 26 ta modda bo'yicha tekshiriladi. Havoning ifloslanishi 34 ta shaharning 65 ta turg'un punktlarida kuzatiladi, ularda 30 ta zararli aralashmalarning konsentratsiyasi o'lchanadi.

Sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanish holati 1 yilda 2 marta (1-aprel va 1-oktabr) aniqlanadi. Tuproqlarda tuz miqdorining o'zgarishi deyarli barcha xo'jaliklarning ma'lum joylarida kuzatib boriladi. Tuproqlarning ifloslanishi 22 ta ingrediyyent bo'yicha nazorat qilinadi. Shuningdek, o'sha maydonlarda grunt suvlarining chuqurligi, minerallashuv darajasi,

tarkibi, ifloslanishi aniqlanadi. Vohalarda zovur suvlarining minerallashuvi, ifloslanish darajasi ham ma'lum joylarda muntazam ravishda o'rganiladi.

Tabiat komponentlarining ifloslanishi, minerallashuvi, o'zgarishlari va boshqa xususiyatlari bo'yicha ilmiy-texnik hisobotlar har yili, muayyan dasturlar asosida respublika miqyosida tuziladi va tegishli muassasalarga, shuningdek, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga yuboriladi.

Respublika atrof muhitning ifloslanish manbalari yagona monitoring tizimi quydagilarni nazarda tutadi:

- ✓ nazoratga tegishli bo'lgan korxonalar va ustuvor manbalarni inventarizatsiya qilishni bosqichma-bosqich o'tkazish;
- ✓ boshqa muassasalarning ("Boshgidromet", Qishloq va suv xo'jaligi, Geologiya qo'mitasi, Komunal xizmat ko'rsatish vazirliklari va h.k.) axborotlaridan foydalanish;
- ✓ test obyektlarida (havo, suv va tuproq holati bo'yicha) kuzatishlar olib borish;
- ✓ ifloslanish manbalari monitoringi tizimida ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va tartibga solish;
- ✓ qo'mita bazasida respublika va viloyatlar bo'iicha ma'lumotlar bankini vujudga keltirish va yangilab borish;
- ✓ tanlangan obyektlar bo'yicha atrof muhit holati to'g'risida axborot tayyorlash.

Ishlab chiqilgan metodikani aprobatsiya qilish uchun turli texnogenez sharoitlarga ega bo'lgan ikki testli obyekt tanlab olingan: Farg'ona viloyati (sanoat yo'nalishida) va Xorazm viloyati (agrар yo'nalishida). Ushbu viloyatlar uchun havo, tuproq, yer usti va yer osti suvlarining ifloslanish kartalari, vaqt mobaynida muhit sifatining o'zgarish grafiklari, nazoratga tegishli bo'lgan manbalarning ustuvorligi aniqlangan, kuzatish nuqtalari hamda davrlari belgilangan, tekshiriladigan ingrediyentlar ro'yxati aniqlangan.

Atrof muhitni xloroorganik pestitsidlari, neft mahsulotlari, og'ir metallar bilan ifloslanish manbalarini asboblar bilan nazorat qilish uchun Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Xorazm va Toshkent viloyatlarida hududiy markazlar tuzilgan.

Dala sharoitida landshaftlar ifloslanishini o'rganish va manbalarini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazishda ma'lum dastur asosida havo, suv, tuproq, o'simliklar ifloslanishi bo'yicha monitoring ishlarini o'tkazish maqsadga muvofiq. Buning uchun havo ifloslanishini o'rganish maqsadida serqatnov avtomobil yo'li chetida o'sib turgan daraxt barglaridan ma'lum masofada yig'ish, bunda daraxt turi yozib olinib, so'ngra laboratoriya da barglarning iflosligini aniqlanadi (bu og'ir metallar uchun). Tuproq tarkibidagi og'ir metallar, pestitsidlarning miqdori hamda suvlarning ifloslanganligi ham namuna olish yo'li bilan laboratoriya da aniqlanadi. Bunda 3 ta shisha idishda (0,5 l) suv olinsa, sho'rligi, sifati va boshqa moddalarni aniqlashga imkon beradi. Olingan namunalar har birining aniq manzili, vaqtqi, olingan chuqurlik, havo holati va boshqa zaruriy ma'lumotlar yozib olinadi.

Dala sharoitida monitoring muntazam bo'lmasa ham, bir martalik ma'lumotga ega bo'lishga imkon beradi, keyinchalik xuddi shu hududda yana qaytadan dala ishlari amalga oshirilsa, oldingi ma'lumotlar bilan solishtirish uchun asos bo'ladi, kartalar ishslashda zarur bo'ladi. Eng muhimmi, geoekologik monitoringni tartibli, belgilangan qoidalar asosida amalga oshirish ko'zlangan maqsadga erishishga imkon beradi. Monitoring kuzatishlarini iloji boricha majmuali olib borish yaxshi samara beradi, chunki faqat shu sharoitdagina majmuali monitoringli kuzatishni amalga oshirish mumkin, yakka tadqiqotchilar bunday murakkab ishlarni tartibli qila olmaydilar yoki jismonan charchab, uddasidan chiqa olmaydilar.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Geoekologik baholash deganda nimani tushunasiz?
- 2.Geoekologik monitoring deganda nimani tushunasiz?
- 3.Global monitoringni amalga oshirish deganda nimani tushunasiz?

4.O‘zbekistonda ekologik monitoringni amalga oshirish shartlari qanday?

12-MAVZU: GEOEKOLOGIK PROGNOZLASHTIRISH. O‘ZBEKISTONDA GEOEKOLOGIK VAZIYATLARNI O‘ZGARTIRISHNING PROGNOZI.

Prognoz – (*yunon. prognosis*) oldindan ko‘rish, oldindan aytish degan ma’nolarni bildiradi. Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar chigallashib borayotgan hozirgi vaqtda tabiiy muhitning kelajakda qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi, geoekologik vaziyat qay holatda bo‘lishini bilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, inson xo‘jalik faoliyati jadal ro‘y berayotgan, antropogen omil kuchli ta’sir etayotgan geotizimlardagi geoekologik vaziyatni prognozlashtirish va prognozlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Geoekologik prognozlashtirish. Geoekologik prognozlashtirish – tadqiqot obyektining (geotizimlar) geoekologik vaziyatining kelajakdagagi holati, yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarish yo‘nalishlari va evolyutsiyasini ilmiy asoslangan holda oldindan ko‘ra bilişdir.

Geoekologik tadqiqotlarda geotizimlar, ulardagi tabiiy va antropogen jarayonlar, hodisalar prognozlashtirish obyektlari hisoblanadi.

Geoekologik prognozlashtirishning maqsadi – kelajakda tabiiy muhitda (geotizimlarda) yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar, geoekologik vaziyatlarning evolyutsiyasi yoki asosiy yo‘nalishlarini aniqlash. Shu maqsadda geoekologik prognozlashtirish turlicha bo‘lishi mumkin:

- landshaftning dinamik o‘zgarishi natijasida geoekologik vaziyatlarning evolyutsiyasi yoki asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;
- sanoat korxonalarini chiqindilarining ko‘plab chiqarilishi natijasida atrof muhitning ifloslanishi va buning asosida geoekologik vaziyatning jiddiyashuvini prognoz qilish;
- suv havzalarining ifloslanishi va sathining pasayib borishi natijasida uning qurigan qismida geoekologik vaziyatning murakkablashuvini prognoz qilish;
- iqlimning global isishi natijasida cho‘llashish va geotizimlarda bo‘ladigan o‘zgarishlarni prognoz qilish va h.k.

Geoekologik prognoz geotizimlarning asosiy o‘zgarish yo‘nalishlarini, dinamik o‘zgarishlarini, morfologik strukturalarning murakkablashishini ham o‘z ichiga oladi. Geoekologik prognozni ishlab chiqish yetarli darajada murakkab va serqirra bo‘lib, uning qay darajada to‘liqligi, haqiqatga yaqinligi va o‘zini oqlash prognozlashtirish jarayonining kompleks holda olib borilishi va ilmiy asoslangan materiallar yetuk mutaxassislar tomonidan tayyorlanishiga bog‘liqdir.

Geoekologik prognozlashtirish jarayonida tadqiqotchining e’tibori doimo kelajakka qaratilgan bo‘ladi, ya’ni u yoki bu geotizim tabiiy va antropogen omillar ta’sirida ma’lum vaqt davomida qanday o‘zgarishlarga uchraydi va buning oqibatida uning strukturali-dinamik holati hozirgi holatidan qanday farq qiladi. O‘zgarish jarayonida endogen va ekzogen kuchlar hamda antropogen omillarning qaysi biri yetakchiligi hisobga olinadi, bu borada ularning o‘zgarish yo‘nalishi hisobga olingan holda geotizimda yuz berishi mumkin bo‘ladigan ayrim o‘zgarishlar tahlil qilinib, keyin tegishli xulosa, ya’ni prognoz qilinadi.

T.V.Zvonkovaning fikricha, prognozlashtirishning umumiyligi mantiqiy sxemasi quyidagicha:

- prognozlashtirish obyektining o‘tmishda va hozirdagi rivojlanish qonuniyatlarini hamda yo‘nalishlari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish;

- obyektning kelajakdagi rivojlanishi va holatini ilmiy jihatdan asoslash;
- obyektning o‘zgarishini belgilovchi sabablar va omillar to‘g‘isida hamda uning taraqqiyotini tezlashtiruvchi yoki to‘sinqinlik qiluvchi sharoitlar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish;
- boshqaruv bo‘yicha prognozli xulosalar va qarorlarni ishlab chiqish.

Geoekologik vaziyatlarning prognozli xususiyatlari. Har qanday geoekologik vaziyat ma’lum prognostik elementlar, xususiyatlar, belgilarga ega bo‘ladi. Buning ifodalanishi geotizimning strukturali-dinamik holati, o‘zgarish yo‘nalishi va boshqa xususiyatlariiga bog‘liq. Antropogen omil ta’sir etib turishi natijasida bir geoekologik vaziyat boshqasining shakllanishiga zamin bo‘ladi. Bu to‘g‘risida tabiiy geografik jarayonlar, grunt suvlaringin rejimi, tuproq, o‘simlik kabilar ancha ishonarli axborot beradi. Grunt suvlari sathining 7 m dan pastga tushib ketishi tekislikda elyuvial sharoitning hukmron bo‘lishidan darak beradi. Bu holda tuproq avtomorf rivojlanish bosqichiga o‘tishga intiladi, oqibatda, avvalgi mezofitlar kserofit, galofit va psammofit guruhi bilan almasha boshlaydi. Prognozlashtirishda dala sharoitida bu hodisalarni chuqur tahlil qilish ham yetarli ma’lumotlarni to‘plash imkonini beradi.

E’tiborga olish zarurki, har bir geotizimning geoekologik vaziyati faqat o‘zida yaqqol prognostik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Tog‘, tog‘ oldi, tekislik geotizimlarining geoekologik vaziyati bir-biridan sezilarli farq qiladi. Bunda eroziyaning turli darajadagi belgilarini to‘g‘ri tanlab ola bilish zarur. Shuningdek, yonbag‘irlarning surilishi, yaylov mahsulorligining o‘zgarishi, jar eroziyasining vujudga kelishi yoki avvalgi jarning tik yonbag‘irga aylanishi va boshqalarni hisobga olish lozim.

Tabiiy jarayonlarning o‘zgarish yo‘nalishlari. Prognozlashtirishda tabiiy geografik jarayonlar va hodisalarning o‘zgarish yo‘nalishlarini e’tiborga olib, ulardan xulosa chiqarish yaxshi samara beradi. Har bir geotizimda ma’lum jarayonlar guruhi rivojlanadi, ularning ba’zilari dominant xususiyatga ega. Ularning o‘zgarish yo‘nalishlarini tahlil qilish orqali yaqin kelajakda qanday hodisalar tarkib topishini to‘g‘ri baholash imkon bo‘ladi. Masalan, vohalarda tuproqlarning suv-tuz rejimi, grunt suvlari sathi va minerallashish darajasini tahlil qilish, qumli cho’llarda esa eol jarayonlarning jadallahayotgani, harakatdagи qumlar maydonining kengayib borayotgani va h.k.

Vohalarda tuproqlarning suv-tuz rejimi boshqarilmay turgan bir paytda grunt suvlari sathining joylashuvi va minerallashuv darajasiga qarab yaqin vaqt orasida qancha tuz to‘planishi mumkinligi aniqlanadi. Bu orqali sug‘oriladigan Yerlarning sho‘rxokka aylanishi va qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqib ketish vaqtini topiladi.

Qumli cho’llarda eol jarayonlari kuchayib borayotgan bir vaqtida harakatdagи qumlar maydonining kengayib borishi bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Bunda barxan relyef turlari, do‘ng va butaoldi qum shakllarining vujudga kelish areallari oldindan aniqlab olinadi. Orolning qurigan qismida hozirdanoq yaqin 5-10 yil mobaynida vujudga keladigan relyef shakllari va ular asosida shakllanadigan geotizimlar prognoz qilinishi mumkin. Chunki bu ishlanmalarni tayyorlash uchun uni aniq belgilari yoki darakchilari hozirdanoq mavjud. Bu borada grunt tarkibi va grunt suvlari sathining tushib borish tezligi to‘g‘risida miqdoriy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish lozim bo‘ladi.

Prognozlashtirish mexanizmi va prognoz natijalari. Prognozlashtirishni amalgaga oshirish uchun retrospektiv davr va hozirgi sharoit uchun barcha ma’lumotlar yig‘ilishi hamda chuqur tahlil qilinishi lozim. Bu borada landshaft va geoekologik tahlillar natijalari samarali, ular asosida prognoz sxemalari ishlab chiqiladi.

Olmaliq-Angren-Ohangaron sanoat shaharlari majmuasi zonasida tabiiy muhitning ifloslanishini prognoz qilish ancha murakkab. Buning uchun avvalgi yillarda sanoat korxonalaridan atrof muhitga qancha chiqindi chiqarilgani hamda ularning tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lish kerak. Har bir shahar atrofida ma’lum masofada chiqindilarning

akkumulyatsiyasi o'rganiladi, bunda shamollarning yo'nalishi e'tiborga olinadi. Kartaga tushirish natijasida og'ir metallarning korxonalar chegarasidan boshlab tartib bilan tarqalishi o'rganiladi, qanday metall undan qancha masofadaligi akkumulyatsiyasi miqdor ko'rsatkichlarida hisob-kitob qilinadi. Shuningdek, boshqa moddalar, chunonchi, chang, komyoviy ashylar, pestitsidlarning tarqalishidagi qonuniyatlar asosida yaqin 5 yil mobaynida atrof muhitda bo'ladigan o'zgarishlar hisob-kitob qilinadi. Bunda korxonalarning samaradorlik bilan ishlashi, chiqindilarni tutib qoluvchi moslamalar samarasini e'tiborda bo'ladi. Yangi korxonalarning, sexlarning ta'siri, umuman, korxonalarning to'la quvvat bilan ishlashi yoki ishlamayotganligi, buning natijasida, atrof muhitga chiqarilayotgan chiqindilarning miqdori va sifat ko'rsatkichlarining ortishi yoki kamayishi haqida tugallangan bir fikrga kelinadi.

Ushbu shahrlar hamda qishloq joylardagi tibbiy muassasalarning ma'lumotlarini o'rganish asosida qanday kasalliklar tarqalganligi, ularning ustuvorlari aniqlanadi. Ularni avvalgi yillarga nisbatan solishtirib ko'rish bilan kasallik turlarining ortib borayotgani yoki kamayib borishi, barqarorlik bo'lganligi haqida statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Kasalliklarning korxonalardan uzoqlashgan sari miqdoriy o'zgarishlarini aniqlanishi amaliy ahamiyatga ega. Bu borada Olmaliqdan 10-20-30-45 km masofada aholining sog'ligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish bilan kelajakda bo'ladigan o'zgarishlar to'g'risida prognoz natijalarga ega bo'linadi. Ma'lumotlar asosida prognoz kartasi ishlanadi.

O'zbekistonda geoekologik vaziyatlar o'zgarishining prognozi

Mamlakatimizda ishlab chiqarishning jadallahushi tufayli inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar murakkablashmoqda, ekologik va sotsial-iqtisodiy salbiy oqibatlar miqyosi ortmoqda. Bu borada Orol bo'yisi, Orol dengizi, Qizilqum, Qarshi cho'li, Chirchiq-Ohangaron vodiysi, yirik sanoat shahrlari va ularning atrofida ancha jiddiy, joylarda tang geoekologik vaziyatlar tarkib topmoqda. Bu sharoitda kelajakda geoekologik vaziyatning qanday bo'lishini ko'z oldiga keltira bilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Butun respublika hududi bo'yicha tabiiy muhitning kelajakda (aytaylik, yaqin 5-10 yil davomida) o'zgarishini bashorat qilish lozim, lekin bu vazifa o'ta murakkab va qiyinligini e'tiborga olib, uning ayrim hududlari bo'yicha prognoz ishlarini amalga oshirish ham katta ahamiyatga ega. Bu jihatdan hozirda O'rta Osiyoda eng dolzarb muammo bo'lib turgan Orol dengizi muammosini keyingi yillardagi rivojini bilish muhimdir.

Orol dengizining kelajakdagi holati, eng avvalo, unga quyiladigan Amudaryo suvi miqdoriga bog'liq. 1995-yildan boshlab Orol havzasida nisbatan kam suvlik davri boshlandi, natijada, keyingi vaqtarda dengizga suv juda kam quyilmoqda (1995-yilda Sirdaryo bilan birgalikda 10,3; 1996-yilda – 7,5; 1997-yilda – 6,7 km³). Bunday holat dengiz sathinng keskin tushib ketishiga ta'sir etdi. Orolning gidrorejim holatining prognozi Amudaryo oqiminining hajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Agarda dengizga Amudaryo orqali yiliga muntazam ravishda 20-30 km³ gacha suv quyilsa, uning sathi 33 m dan 36 m mutlaq balandlik orasida bo'ladi, agarda oqim 20 km³ dan kam bo'lsa, (bunda suv sathidan bo'ladigan bug'lanish miqdori yiliga 0,86 m ni tashkil qiladi) u holda (sathi 24 m ga pasayganda) Katta dengiz ikki qismga ajraladi. Bunda g'arbiy (eng chuqur) qismi ancha vaqtgacha mavjud bo'ladi, sharqiy (eng sayoz qismi borgan sari sho'rlanib boradi (1-bosqichda 60-70 g gacha), keyinchalik sho'rlanish sekinlashadi. Sharqiy ko'lning atrofi oppoq hayotsiz tuz mintaqasi bilan qoplanadi, avvaliga sulfat, keyinchalik xlorid tarkibidagi sho'rxoklar ustun bo'ladi.

Daryo suvining borgan sari barqaror kamayib borishi natijasida sharqiy ko'lning markazida ulkan sho'r ko'l tarkib topadi, uning atrofi halqasimon mintaqalardan iborat bo'lib, ular turli sho'rxoklar bilan band bo'ladi. Orol sho'rko'l Katta dengizning g'arbiy bo'lagini

egallaydi, bunda u orollar bo'yicha o'tgan submeridional o'qi (Mo'ynoq yarim Orolining Uzunquyruq burnidan to Qulanda yarim oroligacha) ni sharqida joylashadi, hozirda bu mintaqaga dengiz suvidan ozod bo'lmoqda. Dengiz suvining sho'rligi har litrda 120 g dan ortganda (I.V.Rubanov bo'yicha) qishda mirabilit tarkib topa boshlaydi, bu hol Orolbo'yini tabiiy muhit uchun xavfli hisoblanadi. Suvning sho'rligi har litrda 320-425 g bo'lganda astraxanit osh tuzi bilan aralash holda vujudga kela boshlaydi.

Dengizning qurigan qismidagi sho'rxokli tekisliklarning katta qismi deyarli o'simiksiz bo'ladi, chunki tuproqlarning tarkibida (ildiz o'sadigan qismi) juda katta miqdorda tuzlarning mavjud bo'lishi hatto supergalofitlarning ham vegetatsiyasiga ta'sir etadi. Faol sho'rxoklar mintaqasidan so'ng qoldiq, ulardan keyin taqirli sho'rxoklar joylashadi.

Shu tariqa O'zbekistonning boshqa hududlarining tabiiy muhiti o'zgarishini ham prognoz qilish mumkin. Qizilqum cho'li landshaftlari hozirda mol boqish, texnogen, dovdaraxtlarni qirqish va boshqa shakldagi antropogen omillar ta'sirida o'zgarib bormoqda. Bularning oqibatida yalang qumlik – harakatdagi qumlar areallari maydoni kengayib bormoqda. Mol iste'mol qiladigan giyohlarning maydoni kamayib, begona o'tlar egallagan maydonlar kengayib bormoqda. Texnogen omillar (og'ir avtomobillar, traktorlar, burg'ulash mashinalarining faoliyati, shuningdek, karyerlar, portlashlar) natijasida cho'1 ekotizimi buzilib bormoqda. Vohalar bilan ular atrofidagi cho'1 landshaftlari orasida murakkab o'zaro ta'sir natijasida nomatlub hodisalarning rivojlanishi kuzatilmoqda. Berk botiqlarga kollektor-zovur va tashlama suvlarning tashlanishi tufayli subakval va akvatorial komplekslarning maydoni keskin tarzda kengayib bormoqda (Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, Katta Sho'rko'l, Qoraxotin ko'li va h.k.).

Prognozlashtirishda juda ko'p usullardan foydalaniladi. Ulardan eng ko'p foydalaniladiganlari landshaft va geoekologik tahlil, o'xshatish, ekspertlar baholashi, landshaft indikatsiyasi, strukturali dinamik qatorlar va boshqalar.

Nazorat uchun savollar:

1. Geoekologik prognoz deganda nimani tushunasiz?
2. Geoekologik prognozning qanday turlarini bilasiz?
3. Geoekologik prognozlashtirish haqida fikringizni izohlab bering?
4. O'zbekistonda geoekologik prognozlashtirish qanday amalga oshirilmoqda?

13-MAVZU: ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA TABIIY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISHNING GEOEKOLOGIK ASOSLARI

Tabiatdan foydalanish murakkab jarayon. Ayniqsa, hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot bosqichida resurslardan xo'jalikda ko'plab foydalanilayotgan bir paytda tabiiy muhit inson omili ta'sirida kuchli o'zgarishlarga duchor bo'lmoqda. Buning oqibatida geoekologik vaziyat keskinlashmoqda, aholining sog'lig'iga putur yetmoqda, tabiiy resursarning degradatsiyasi tezlashib, tabiiy muhit ifloslanmoqda va h.k. Bunday holatda tabiatdan foydalanishni oqilona tashkil etish va uni ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiatdan foydalanishda tabiat qonunlari va qonuniyatlarini e'tiborga olish. Geotizimlarning obyektiv qonunlari mavjud bo'lib, qaysidir ma'noda jamiyat qonunlarini eslatadi. Agarda ular ozchilik odamlar tomonidan ayrim hollarda va kichik hududlarda buzilsa, jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir etmaydi, lekin ommaviy ravishda va kengroq hududlarda buzilsa, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarib, barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Inson – tabiatning bir qismi. Insonning tabiat bilan aloqasi ularning o‘zaro ta’sirida seziladi. Insonning tabiat bilan o‘zaro ta’sirining o‘ziga xosligi uning turmushining madaniy darajasini yaxshi ifodalaydi. Ma’lumki, ekologik ong yoki savodxonlik ekologik madaniyatni belgilaydi. Ma’rifatparvarlardan biri shunday degan ekan: agar madaniyat stixiyali rivojlansa, u holda undan so‘ng faqat cho‘l qoladi. Bu gapning ma’nosи ancha chuqur bo‘lib, u o‘tmishdan darak beribgina qolmay, balki kelajakka nisbatan ogoh bo‘lish to‘g‘risida ham xabar beradi. Shuni e’tiborga olib, inson faoliyatida tabiat qonunlariga qanchalik rioya qilinsa, yoki mos kelsa bu jamiyat uchun ham foydalidir. Aksincha, uning faoliyati tabiat qonunlariga mos kelmasa, u holda jamiyat uchun ham yomon. Chunki bu holda resurslarning holati va sifatiga ta’sir etuvchi noqlay tabiiy jarayonlarning yuzafa kelishi tezlashadi.

Geotizimlarning bir butunligi qonuni. Bu qonun eng muhim va ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, faqatgina tabiiy komponentlarga o‘zaro bog‘langan, bir butun bo‘lmay, tutash geotizimlar ham o‘zaro bir butun rivojlanadi va bir-biriga ta’sir etib turadi. Geotizimlarda bir butunlik modda va energiyaning almashinuvi bilan ta’milanadi. Geotizimda inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida bo‘ladigan ma’lum bir hududiy yoki sifatiy o‘zgarish yon-atrofdagi geotizimda ham mos holda o‘zgarish bo‘lishiga olib keladi. V.I.Vernadskiyning fikricha, Yerning barcha jonli va jonsiz komponentlari fizik-kimyoviy bir butun, shuning uchun biogeokimyoviy farqlarga ega emas.

Hozirgi kunga kelib tabiiy muhitga antropogen ta’sirning keskin ortishi natijasida geotizimlarning rivojlanishida, modda va energiyaning almashinuvida antropogen omilning hissasi, V.I.Vernadskiy ta’biri bilan aytganda, geologik kuchlarnikidan bir necha barobar ortib, shunga mos holda salbiy ta’siri kuchli bo‘ladi. Buning oqibatida, geotizimlardi tabiiy muvozanat ham inson ta’siri kuchaygan joylarda asriy turg‘unlikdan chiqib, o‘zgarish tomoniga burildi. Bu jarayon, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal ro‘y bermoqda.

Fanda shu narsa ma’lumki, tabiat va jamiyat bir butun tizimdan iborat, bunda ayrim hodisalar bir-biri bilan organik bog‘liqlikda mavjud bo‘ladi. Tabiat o‘z tarkibida juda ham ko‘p aniq shakllarni birlashtiradi, ular bir-birlari bilan o‘zaro ta’sirda va bog‘liqlikda mavjud. Tabiatning tub qonunlaridan biri moddiy tizim va atrof muhitning birlik qonunidir. Bu qonun barcha hollarda ham muntazam namoyon bo‘ladi. Jamiyatga nisbatan tatbiq qilinganda uni geografik muhit bilan birgalikda ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Odatda, tabiatda har qanday hodisa o‘zgarishi o‘zaro ta’sirda bo‘lgan boshqa hodisalarining ham o‘zgarishiga olib keladi. Bu jarayonda o‘zaro harakat tizimida eng ta’sirchan bo‘lgan hodisalar tarkibida kuchli o‘zgarishlar yuz beradi. Binobarin, tabiatda bir nuqtada yoki hududda bo‘lgan o‘zgarishlar mos ravishda boshqa hududlarda ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishini keltirib chiqaradi. Bu hol, ayniqsa, geopara, paragenetik geotizimlarga xos, masalan, Orol bo‘yi va Orol, Balxash bo‘yi va Balxash va boshqalar.

Geotizimlarning barqarorligi qonuni. Bu qonun ham eng muhim va ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, tabiatni muhofaza qilish va uning resurs-laridan oqilona foydalanishda doimo diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Geotizimlar va ularning resurslaridan foydalanish jarayonida ushbu geotizimlarga o‘zini-o‘zi tiklash (o‘zini-o‘zi tashkil etish va o‘zini-o‘zi boshqarish) xususiyatlarini saqlash imkoniyatini beruvchi chegaradan oshishi mumkin emas. Ayniqsa, “tabiiy biotaning kamayishi mumkin bo‘lgan chegaradan oshishi atrof tabiiy muhit (geotizim) ning barqarorligini pasaytiradi, oqibatda, tozalovchi inshootlarni qurish va chiqindisiz ishlab chiqarishga o‘tish bilan ham uni tiklash mumkin bo‘lmaydi”.

Geotizimlarning barqarorligini belgilovchi xususiyatlar juda ko‘p bo‘lib, bulardan issiqlik va namlikning munosabati, oqimning miqdori, tuproq-grunt qoplamining suv o‘tkazuvchanlik xususiyati, yuzalarning qiyaligi, shamol rejimi, biomassaning miqdori, biologik mahsuldorlik va biologik aylanma harakatning intensivligi, biotaning qayta tiklanish

qobiliyati, atmosfera havosining, suvning, tuproqning o‘zini-o‘zi tozalash qobiliyatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

Geotizimlarning barqarorligini unga ta’sir etuvchi har bir omilni alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqliq. Chunki mexanik ta’sirga barqaror bo‘lgan geotizim geoximik ta’sirga beqaror bo‘lishi mumkin, yoki aksincha. Ko‘pgina texnogen omillar, ayniqsa, sun’iy kimyoviy moddalar tabiatda o‘z muqobilini topmaydi va geotizimlarni ifoslantiradi. Texnogen ta’sirlarning turli xil ekanligi tabiiy kelib chiqqanlikka, geotizimning tabiiy holatini ko‘proq o‘zgarishiga sabab bo‘ladiganini ajratib olishni taqozo etadi. Geotizimlarning texnogen chiqindilarga nisbatan barqarorligi M.A.Glazovskaya tomonidan ancha chuqur o‘rganilgan.

Tabiiy muhitning tezkorlik bilan o‘zgarishida *landshaftlarning turli-tumanligi qonuni* muhim ahamiyatga ega. Tabiat bilan jamiyat o‘rtasida ma’lum ma’noda tabiatning xilma-xilligi ustuvor ta’sirga ega. Tadqiqotchilarining fikricha, tabiat va resurslarning xilma-xilligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, jamiyat taraqqiyoti uchun yaxshi sharoitlar vujudga keladi va aksincha. Bu yo‘nalishda moddiy tizimlar birligi va ularni o‘rab turuvchi tabiiy muhit va landshaftning xilma-xilligi qonunlari o‘rtasida bir paytning o‘zida baravariga harakat sodir bo‘ladi. Bu bilan murakkab landshaft strukturasiga ega bo‘lgan hududlarda tabiiy muhitning tezkorlik bilan katta areallarda o‘zgarishlarga uchrashi yuz beradi. Bu borada ko‘p hollarda o‘zaro birgalikda harakat qiluvchi jarayonlarning majburiy mos kelish qonuniga ko‘ra ekologik sharoitlarning o‘zgarishi katta maydonda sodir bo‘ladi.

Tabiat komponentlarining o‘zaro bog‘liqlik, aloqa va harakat qonuni. Tabiat komponentlari bir-bir bilan uzoq yillarda davomida tabiiy holda o‘zaro aloqa va hamjihatlikda bo‘lib, ular tashkil qilgan geotizimlar dinamik ravishda bir maromda rivojlanib kelgan. “Ularning moddiy, energetik, axborot va sifat belgilari shunchalik o‘zaro aloqadorki, ushbu omillardan birontasining o‘zgarishi butun tizimning funksional, tarkibiy, sifat va miqdor jihatlari va ularning taksonomik darajasining ham o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, bu esa ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi”. Ushbu muammolarning yechimi aksariyat holda, mazkur qonun asosida avvalgi bog‘liqlikka yaqin holatni qayta tiklash va uni barqaror boshqarish orqali amalga oshirishni talab etadi.

V.A.Anuchinning ta’kidlashicha, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir qonunlarini bilmaslik biosfera resurslaridan noto‘g‘ri foydalanishga olib keladi. Uning fikricha, tabiiy komponentlarni o‘zaro bog‘liqlik qonuniga ko‘ra, birorta komponentning o‘zgarishi butun tabiiy muhitning o‘zgarishiga sababchi bo‘ladi.

«Tabiat-jamiyat» tizimidagi o‘zgarishda ikki qonuniyatni kuzatish mumkin:

- 1) jamiyatning tabiatga ta’siri borgan sari ortib bormoqda;
- 2) jamiyat borgan sari tabiiy muhitga qaram bo‘lib bormoqda.

Bunda birinchi qonuniyatning kuchayib borayotgani ikkinchi qonuniyatni keltirib chiqarmoqda.

Tabiatdan foydalanishning geoekologik prinsiplari. Tabiiy resurslardan foydalanishning geoekologik prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Bu borada ekologik muvozanat-ekologik vaziyat-ekologik toza texnologiya va mahsulot-ekologik tozalik va salomatlik tizimlarida ishlab chiqarishni tashkil qilish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan geoekologik prinsiplar geografik prinsiplarga yaqin turadi yoki ularni to‘ldiradi, ular bir-birlari bilan o‘zaro bog‘liqlik va aloqada rivojlanadi.

Prinsip so‘zi lotin tilida “principium” – asos, boshlash qoidasi, degan ma’noni anglatib, u har bir harakat yoki faoliyatning asosi yoki yo‘naltiruvchi qoidasi deb yuritiladi.

Tabiiy boyliklardan foydalanishda shunday ilmiy prinsiplarga asoslanish zarurki, bunda tabiat ham, jamiyat ham zararlanmasligi lozim.

Geotizimlarda jonli va jonsiz tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ekologik muvozanat prinsipi. Bu prinsipga ko‘ra har bir geotizimda ikki turdagisi tabiat orasida shunday teng munosabat

mavjud bo‘ladiki, bunda ular bir-birlarini muayyan tabiiy muvozanatda bo‘lishini taqozo qiladi. Lekin ulardan birining tashqi tasir natijasida buzilishi uzoq muddatli muvozanatning izdan chiqishiga olib keladi. Ushbu buzilishning oqibati sodir bo‘lgan hodisaning boshqa bir necha hodisalarning tarkib topishiga ta’siri bilan belgilanadi. Ekologik muvozanat tabiatda juda ham mo‘rt bo‘lib, uning buzilishi ko‘p hollarda o‘simlik olamining qashshoqlanishi, suv maromining o‘zgarishi va tuproq qoplaming yemirilishi bilan bog‘liq. Ekologik muvozanat barqarorligi geotizimlarning qaysi taksonomik darajadaligiga bog‘liqligi ko‘pchilik tomonidan isbotlangan. Fatsiya va urochisheda barqarorlik landshaftga nisbatan, landshaftda esa o‘zidan yuqori darajadagi geotizimga nisbatan tez va kuchli buzilishi aniqlangan. Bunday holatlarni ekologik muvozanatni qayta tiklash vaqtida hisobga olish zarur. Ekologik muvozanatni qayta tiklash deganda, geotizimning tarkibiy qismlari orasida barqaror o‘zaro bog‘liqlik, aloqadorlik va harakatni avvalgi holdagiga yaqinlashtirishni tushunamiz. Har qanday geotizimdagi ekologik muvozanatni “evolyutsiyaning qaytarilmasligi qoidasi” ga binoan avvaligi holiga qaytarib bo‘lmaydi, lekin o‘sha holatga yaqinlashtirish mumkin. Buzilgan ekologik muvozanatni qayta tiklash kompleks jarayon bo‘lib aholining yashash sharoiti va sog‘lig‘ini ham avvalgidek yuqori darajada bo‘lishiga erishish lozim. Shuningdek, geotizimni barqaror muvozanat holatidan chiqaruvchi tashqi ta’sir bo‘lganda, bu muvozanat tashqi ta’sir kuchi zaiflashayotgan tomon yo‘nalishida rivojlanishi yoki tiklanishga harakat qilishini hisobga olish ham yuqori samara berishi mumkin.

Geotizimlarning strukturali dinamik xususiyatlarini hisobga olish prinsipi.

Geotizimlarning rivojlanish tarixi ularning strukturasi va dinamikasida ifodalanadi. Ularni o‘rganish orqali tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanish tadbirlarini amalga oshirish natijasida keljakda yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni baholash imkonni bo‘ladi. Bunda strukturaning barqaror elementlari va rivojlanish yo‘nalishlarini keljakda ham saqlab qolish imkoniga ega bo‘linadi. Geotizimlarning tashqi omillar ta’sirida o‘zgarishida ularning strukturasi va taraqqiyot dinamikasi quyidagi maqsadlarda o‘rganilishi lozim: geotizim va uning komponentlari holati hamda xususiyatlarini baholash, antropogen ta’sirga nisbatan barqarorlik imkoniyati, o‘zini-o‘zi boshqarishi, tabiiy muhitni boshqarishi va h.k. Tabiat komponentlarining barcha xususiyatlari maqsadga muvofiq ravishda o‘rganilishi lozim.

Tog‘ jinslari. Ularning birinchi suv o‘tkazmaydigan qatlamgacha bo‘lgan qismini geofizik va geokimyoviy xususiyatlari, suv o‘tkazish xususiyatlari, yotqiziqlarning joylashuvi, qalinligi, tarkibi va boshqalarini o‘rganish muhim amaliyat kasb etadi.

Relyef xususiyatlari. Tabiatni muhofaza qilish va oqilona foydalanishda relyefning quyidagi funksiyalarni bajarishi hisobga olinishi lozim: texnogen mahsulotlar va kimyoviy moddalarning to‘planishi (berk botiq), yoyilishi (tog‘ oldi, yoyilma konuslari), moddalarning tranzit oqib o‘tishi (daryo vodiysi), grunt suvlarning turli tezlikda yotiq harakati (o‘ydim-chuqurlik, nishablik) va h.k. Relyef shakllari (qabariq, botiq, tekislik) turli eroziya, deflyatsiya kabi tabiiy geografik va geokimyoviy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishiga katta ta’sir etadi.

Yer osti va yer usti suvlari. Ularning oqim tezligi va oqim miqdori moddalarning bir joydan boshqa joyga siljishiga, eritilishi, to‘planishi, minerallashuv darajasi va tipining o‘zgarishiga, tuproq va gruntu yuvilishiga ta’sir etadi. Organik moddalarning mavjudligi og‘ir metallarni eritishga ta’sir etadi, ularning migratsiyasini kuchaytiradi hamda sug‘oriladigan yerlarda tuproqda tuz to‘planishi va irrigatsiya eroziyasining turlicha bo‘lishiga faol ta’sir etadi. Suvlarning o‘zini-o‘zi tozalash qobiliyati oqim tezligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

Tuproqlar. Ularning gumus miqdori, tuz maromi, fizik xususiyatlari yerda mahsuldarlik, tuz to‘planishi (yoki yuvilishi) grunt suvlarning tik yoki yotiq harakatini belgilaydi. Tuproqning o‘zini-o‘zi tozalash xususiyati uning mexanik tarkibi, relyef xususiyati, yog‘in-sochin va boshqa omillar bilan belgilanadi.

O'simlik qoplami – hududda eroziya, deflyatsiya, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, turli tabiiy (biogeokimiyoviy) jarayonlarning dinamikasi, tabiatda modda almashinushi kabi hodisalarining yuz berishiga ta'sir etadi.

Iqlim omili. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirishda atmosfera stratifikatsiyasining holati, turli tezlik va yo'nalishdagi shamollarning mavjudligi, botiq hududlarda havo massalarining berk sirkulyatsiyasi, ultrabinafsha nurlarning intensivligi va momaqaldiroqli kunlarning miqdori (momaqaldiroqlar texnogen mahsulotlarning achisi natijasida havoning ifloslanishini tozalaydi va yog'in bilan birga atmosferadan chiqib ketishini ta'minlaydi); yog'in-sochinning davomiyligi va zichligi, tumanli kunlarning miqdori va atmosferani ifloslantiruvchi yoki tozalovchi boshqa omillar haqida to'la ma'lumotlarga ega bo'lish lozim.

Inson mehnat faoliyatining ekologik jihatdan tozalik prinsipi. Bu prinsip ishlab chiqarish jarayonida va kundalik turmushda vujudga kelayotgan turli qattiq, suyuq va gazsimon chiqindilarni atmosfera havosi, suv havzalari, grunt qoplami (tuproq) ga tashlashdan oldin ularni tozalab, butunlay zararsizlantirgandan so'ng atrof tabiiy muhitga chiqarish zarurligiga asoslanadi. Ushbu prinsipni amaliyotga tatbiq etilishi geotizimlarning ifloslanishini to'xtatish va uning barqaror tozalanishida eng samarali hisoblanadi. Bizningcha, avvaliga qisman, keyinchalik to'lig'icha amal qilishga bosqichma-bosqich o'tish bilan tabiiy muhit tozalanishiga erishish mumkin bo'ladi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, aholi sog'lig'ini mustahkamlash, kasallikni keltirib chiqaruvchi va tarqatuvchi manbalarni yo'qotish va boshqa ekologik muammolarning oldini olish maqsadida xo'jalik faoliyatining ekologik tozalik prinsipiga amal qilish, ya'ni chiqindisiz texnologiyaga o'tish yuqori samara beradi.

Tabiat resurslaridan me'yorga yarasha foydalanish prinsipini "ekologik tozalik" prinsipi bilan birgalikda qo'llanishi maqsadga muvofiq, chunki ular bir-birini taqozo etadi. Tabiatda hamma narsa va jarayonlarning o'z miqdori borligi, cheksiz emasligi hammaga ma'lum. Shunday ekan, tabiiy resurslar ham ma'lum qiyamatga ega (shu jumladan, tugamaydiganlari ham). Nafaqat tiklanmaydigan, balki tiklanadigan resurslarning ham o'z qiymati va foydalanish me'yori mavjud. Ushbu me'yorga amal qilmaslik ularning degradatsiyalashuvi va ifloslanishiga, tabiiy modda va energiya almashinuvining buzilishiga sabab bo'ladi, natijada geotizimlardagi tabiiy ekologik muvozanat buzilib, o'zgarishiga (asosan, salbiy tomonga) olib keladi. Geotizimlar va ularning komponentlaridan foydalanish jarayonini murakkablashtiradi, sun'iy taqchilliklarga sabab bo'ladi. Masalan, arid mintaqada joylashgan O'zbekiston hududida suvdan ortiqcha foydalanish tuproqlarning sho'rланishini, eroziya, suffoziya, karst, surilma kabi tabiiy geografik jarayonlarni tezlashtiradi yoki yuzaga keltiradi, daryo havzalarining quyi qismlarida esa suv tanqisligi, flora va faunaning kamayishi, cho'llanish kabi ko'plab ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Binobarin, tabiiy boyliklardan ehtiyoj va me'yorga katta e'tibor bergen holda foydalanishni tashkil etish ayni muddao. Bu borada tiklanadigan, tiklanmaydigan, ikkilamchi resurslarning barcha o'lchamlarini hisobga olgan holda barcha turdag'i ishlab chiqarish jarayonida va insonning kundalik turmushida me'yoriy foydalanishga amal qilish darkor.

Axborotning to'liqligi prinsipi. Ushbu prinsip aholining ekologik ong va madaniyatini ko'tarishda, tabiatga nisbatan muhofaza qilish hissini shakllantirishda o'zları yashayotgan tabiiy muhit (geotizim) ning ekologik holati haqida haqqoniy, tezkor ma'lumotlarni yetkazishni talab etadi. Chunki aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik qonunlarni buzmasliklari va tabiiy muhitga zarar yetkazmasliklari ularning o'zları yashayotgan atrof tabiiy muhiti haqidagi axborotlarga ko'proq ega bo'lishlari bilan bog'liq. Geotizimlarning maxsus faoliyati va mexanizmlari haqida mutlaqo ishonchli, ilmiy asoslangan ma'lumotga ega bo'lmay turib, uni yaxshilashga (o'zlashtirishga) urinish osongina zarar keltirishi mumkin. Shuning uchun ham "tabiatga inson ta'siri oqibatlarini o'rganish va bular qanday natijalarga olib kelishini oldindan bilish uchun tabiatda, geotizimlarda, ularning

komponentlarida inson xo‘jalik faoliyati bevosita vujudga keltirgan o‘zgarishlar bilan birga komponentlarning o‘zaro aloqalarida, muvozanatida ro‘y bergen o‘zgarishlarni tadqiq qilish juda muhimdir”. Shuningdek, geotizimlarning genezisi, strukturasi, geofizik va geokimyoiy tuzilishi haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘lmasdan “rejalahtirilgan va loyihalangan maqsadga erishishdagi dastlabki yutuqlar hammani shodlantiradi va hali hech kim kutmayotgan, keyinchalik ro‘y berishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni unutishga, o‘ylab ko‘rmaslikka olib keladi. Buning oqibatida, tabiatda muayyan o‘zgarishlar ro‘y beradi, tabiatning aks ta’siri unga bo‘lgan ta’sir hajmidan bir necha barobar ortiq bo‘lishi va qimmatga tushishi mumkin”. Bunga Orol bo‘yida sodir bo‘layotgan ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni misol qilib keltirish mumkin.

Xilma-xillikning zarurligi prinsipi. Geotizimlar mutlaqo bir xil elementlardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. O‘zaro tafovut, o‘zaro aloqador elementlarning ko‘pligi geotizimlarning barqarorligini ta’minalash uchun zarur. Shu o‘rinda O.Marshning “chuqur ixtisoslashgan geotizimlarning yemirilish imkoniyatlarining yuqoriligi qoidasi”ni ta’kidlash ayni muddao. Ko‘proq ixtisoslashgan geotizimlar (antropogenlashgan landshaftlar) ning keyinchalik adaptatsiyaga genetik zahiralari kamayganlari tezroq yemiriladi. Masalan: “choy”, “makkajo‘xori”, “paxta”, “sholi” va boshqa antropogenlashgan landshaftlar. “Ob-havodagi ozgina o‘zgarish yoki ayrim kasallik va zararkunandalar bunday landshaftlarni birdaniga xarob qilishi mumkin. Shularni hisobga olib, muhofaza qilish tadbirlarini qo‘llayotganda, geotizimlarni o‘zgartirish va yaxshilashda uning ko‘p elementli bo‘lishiga hamda ko‘proq mahalliy elementlardan foydalanishga e’tibor qaratish zarur”. Shundagina geotizimlar “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunda ko‘rsatilganidek, “fuqarolarning hayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minalash”ga qodir bo‘ladi. Konstitutsiyamizga binoan har bir inson bu dunyoga kelgan kundanoq toza suvdan ichish, toza havodan nafas olish, go‘zal tabiat qo‘ynida hordiq chiqarish va estetik zavq olish, o‘zi uchun zarur bo‘lgan tabiat ne’matlaridan foydalanish huquqiga egadir. Insonlarning mazkur huquqini imkonli boricha ta’minalash uchun ushbu prinsipga muvofiq geotizimlarning xilma-xil elementlardan iborat bo‘lishiga alohida e’tibor qaratmoq lozim.

Tabiatdan foydalanish jarayonining kompleksliligi va bu boradagi **tadbirlarning ekologik jihatdan asoslanganlik prinsipi** ishlab chiqarishni atrof muhitga salbiy ta’sirini iloji boricha kamaytirishga, muhitning tozalanishiga, aholining turli kasalliklarga chalinmasligiga ijobjiy ta’sir etadi. Tabiiy resurslardan foydalanish chog‘ida barcha texnologik jarayonlarning ekologik jihatdan atrof muhitga ta’siri eng kichik ko‘rsatkichlarga qadar pasaytirilishi geoekologik muammolar yechimini tezlashtiradi. Bunga chiqindisiz texnologiya, berk texnologiya kabi ishlab chiqarish jarayonlarini qo‘llashga o‘tish bilan erishiladi.

Ikkilamchi resurslarni majmuiali to‘liq qayta ishslash prinsipiga amal qilish orqali ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan terrikonlar, ag‘darmalar va boshqalarni, maiший turmushda tarkib topayotgan turli chiqindilarni qayta ishslash bilan atrof-muhitning ifloslanishini va yaylovlarning band bo‘lishi oldi olinadi.

Tabiiy resurslardan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari. Tabiiy resurslardan foydalanish ma’lum strategiya va taktikaga asoslanishi lozim, chunki ularning ba’zilari tugaydigan (tiklanmaydigan) guruhlarga oid bo‘lsa, qolganlari tugamaydigan va tiklanish xususiyatiga ega. Ba’zan tugamaydigan resurslar juda kuchli darajada foydalanishi tufayli ma’lum davrgacha sifatsiz holga kelishi mumkin.

Mineral xom ashyolardan foydalanishda ma’lum ilmiy prinsipga asoslanish o‘ta zarur. Bu borada komplekslilik prinsipi juda ham asqotadi. Tabiatda faqat bir elementdan tashkil topgan qazilma boylik kamdan-kam uchraydi, ko‘p holatlarda 2-3 va undan ko‘p, ba’zan 15-20 xil foydali elementlardan tashkil topgan konlar uchraydi. Kondan foydalanishda aksariyat kerakli modda ajratib olingan holda qolganlari (masalan, sochilma elementlar) ag‘darma sifatida terrikonlarda to‘plana boradi. Bu jarayonda ularning sifati buziladi, isrof bo‘ladi, atrof

muhitga zarar keltiradi. Ushbu noxush hodisaning oldini olish va ko‘proq iqtisodiy samara olish maqsadida konlardan majmuali foydalanish, ya’ni barcha foydali elementlarni bir vaqtda ajratib olishni yo‘lga qo‘yish ayni muddaodir. Bu har taraflama foydalidir – atrof-muhit zarar ko‘rmaydi, ortiqcha terrikonlar vujudga kelmaydi, yaylovlari maydoni qisqarmaydi. Demak, mineral xom ashylardan foydalanishda komplekslilik prinsipi ustuvor bo‘lgan holda unga hamma konlarda muntazam rioya qilinishi maqsadga muvofiq.

Sug‘oriladigan yerlar iqtisodiy jihatdan eng samarali ekanligi barchaga ayon. Biroq, sug‘orma yerlardan olinadigan yalpi mahsulot miqdori va ularning tannarxi turli vohalarda turlicha, boshqacha aytganda, iqtisodiy samara bir-biridan keskin farq qiladi. Bu holatni tahlil qilish natijalariga ko‘ra, hamma gap yerning meliorativ holatida ekanligi ma’lum bo‘ldi. Darvoqe, iqtisodiy samara ustun bo‘lgan vohalarda tuproq-meliorativ sharoit ekinlarning o‘sishi uchun qulayligi bilan tavsiflanadi va aksincha. Meliorativ sharoit og‘ir bo‘lgan viloyatlarda suvdan foydalanish ham izdan chiqqan, ya’ni gektar hisobiga sarf qilinadigan suv miqdori kattaligi bilan ajralib turadi. Yer-suvdan omilkorlik bilan foydalanish va iqtisodiy samaraga erishish uchun, eng avvalo, ularning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, suvdan rasamadiga yarasha foydalanish texnolgiyasini joriy etish va shundan so‘ng agrotexnik va agromeliorativ tadbirlarni qo‘llashga o‘tish ma’qul. Chunki ularni yetarli darajada sho‘rini kamaytirmaguncha, ularga mineral o‘g‘it solish va boshqa tadbirlarning samaradorligi mutlaqo sezilmaydi.

Vohalarda yerdan foydalanishda, eng avvalo, tuproq-meliorativ holatni tubdan yaxshilash, ekinlarni sug‘orishni me’yoriy ko‘rsatkichlar asosida amalga oshirish (sug‘orish texnikasini yanada takomillashtirish) ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozim. Mazkur yo‘nalishdagi taraqqiyot bosqichma-bosqich amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Tadbirlarni meliorativ sharoit og‘ir bo‘lgan Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon, Mirzacho‘l, Qarshi cho‘lidan boshlanishi maqsadga muvofiq.

Tabiatdan foydalanish jarayonida barcha resurslar bo‘yicha ham eng ustuvor yo‘nalishlar aniqlanishi va hayotga tatbiq etilishi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tabiatdan foydalanishda dunyo andozalariga asoslanish yuqori iqtisodiy samara beradi, tabiat potensialidan to‘liq va to‘g‘ri foydalanish imkoniga ega bo‘linadi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Geoekologik qonuniyatlar deganda nimani tushunasiz?
- 2.Geoekologik prinsiplar deganda nimani tushunasiz?
- 3.Tabiyy resurslardan foydalanishning qanday ustuvor yo‘nalishlari bor?

14-MAVZU: EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA BARQAROR RIVOJLANISH

Barqaror rivojlanish g‘oyasi umumjahon ahamiyatiga ega bo‘lib, buni faqat sayyoramiz miqyosidagina amalga oshirish mumkin. Jamiyat barqaror rivojlanishining aniq mezonlari insonlarga kelajakda hayot tarzini o‘zgartirishga yordam beradi. Demak, kelajak avlodlarning ravnaqi yo‘lida, qisqa muddatli foydadan va shaxsiy manfaatdorlikdan voz kechish lozim bo‘ladi.

Hozirgi davrda Barqaror rivojlanish kontsepsiysi iste’molchi talablarini qondirish uchun kam miqdordagi resurslardan foydalanishga, atrof muhitga ko‘rsatilayotgan salbiy ta’sirni kamaytirishga mo‘ljallangan uzlusiz jarayonni o‘z ichiga oladi.

Asosiy maqsad – atrof muhit ifloslanishining oldini olishda eng yaxshi usuli – uning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Shuning uchun ham, xom ashyo boyliklaridan oqilona foydalanish, elektr energiyasidan foydalanishni kamaytirish, ozon qatlamin buzuvchi

kimyoviy moddalardan voz kechish ushbu dasturning asosiy vazifalari hisoblanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- zararli chiqindilarning miqdorini 35%-ga, zaharli chiqindilarning atmosferaga chiqishini 60% ga pasaytirish;
- kantserogen moddalarning chiqishini 96% ga kamaytirish;
- yer usti va yer osti suvlarida zaharlovchi moddalarni to‘liq yo‘q qilish yoki ularni zararsizlantrish;
- polimerlar ishlab chiqarishda og‘ir metallardan foydalanishdan voz kechish;
- plastik chiqindilarni yo‘qotish yo‘llarini izlash;
- ekologik xavfsizlik tizimlarini rejalashtirishda mahalliy jamoatchilikni jalg etish;
- yovvoyi tabiatning yashash muhitini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni ta’minlash;
- xlor, fторlardan foydalanishni to‘xtatish va uning o‘rnini to‘ldiruvchi xavfsiz moddalarni topish va hokazolar.

Barqaror rivojlanish – insoniyatning kelajagini belgilab beradigan yagona taraqqiyot yo‘lidir. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik ko‘zda tutiladi.

Ekologik barqaror rivojlanish deganda, tashqi omillar ta’sirida ma’lum ekotizim (yoki hudud)ning o‘z tuzilmasi va faoliyatini saqlab qolish xususiyatiga aytildi.

Barqaror rivojlanish (BR) tushunchasiga berilgan ta’riflar

- BR avlod, tur, va guruhlar orasida ma’naviy printsipda tenglikka asoslanadi.
- Insoniyat uchun uzoq muddatli maksimallashtirilgan yo‘l.
- Bir-birini to‘ldiradigan iqtisodiy o‘sish va rivojlanish atrof muhit, jamiyatga ziyon yetkazmasligi zarur (ko‘pgina xalqaro tashkilotlar nuqtai nazari bo‘yicha).
- BR – bu iqtisodiy rivojlanish bo‘lib, unda atrof muhit barqarorligi va barqaror, doimiy iqtisodiy o‘sish ta’milanadi.
 - BR – insoniyat va atrof-muhitning uyg‘unlashgan jarayoni.
 - Inson va biosferaning koevolyutsiyasi (birgalikda rivojlanishi).

Rivojlanishni ta’min etishda atrof muhitga g‘amxo‘rlik qilish.

- Bizni rivojlanish yo‘liga boshlab boradigan rahbarlik.
- Bugun kelajakni tushunib yetishga urinib ko‘rish.
- Ekosistemada hayot kechirayotgan insonlar hayot sifatini yaxshilash.

Milliy va xalqaro tashabbuslar asosida BMTning BR bo‘yicha Komissiyasi 1995-yilda BR ko‘rsatkichlari bo‘yicha Dastur qabul qildi. Dastur 130 ta ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi. Ular “Majburiyat” – “Holat” – “Harakat” printsiplariga asoslanadi.

«**Majburiyat**» ko‘rsatkichi insonlar faoliyatini o‘z ichiga olib, unda insoniyat rivojlanishidagi majburiyatlar keltirib o‘tiladi.

«**Holat**» ko‘rsatkichi barqaror rivojlanish sohasidagi holatni ifodalaydi.

«**Harakat**» ko‘rsatkichi barqaror rivojlanishda qanday choralar va qadamlar tashlash, o‘zgarishlar qilish to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Barqaror taraqqiyot ta’limi

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 59-sessiyasi-da 2005-2014-yillarga mo‘ljallangan Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta’limni (BTT) amalga oshirish bo‘yicha xalqaro sxema tasdiqlangan edi.

Barqaror tarqqiyot ta’limi (BTT) fanlararo yondoshuvi asosida ta’lim olish, tarbiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish va namoyon etish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ma’nан shakllangan, ijtimoiy faol, o‘z xatti-harakatlarida axloqiy va ekologik me’yorlarga asoslanadigan, o‘zbek xalqi qadriyatlariga mos bo‘lgan, ekologik bilimga chanqoq, atrof muhit holati haqida


qayg'uradigan va yangi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni oldindan ko'ra olish xususiyatlarini shakllatirishga da'vat etadi.

BTT jamiyatning barcha a'zolarini mintaqaviy va global muammolarni hal qilish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Agar ekologik ta'lif ko'proq ekologik mavzularga e'tibor qaratса, BTT siyosat, iqtisodiyot, jamiyat va atrof muhit o'rtaсидаги о'заро aloqadorlik masalalariga alohida yondashadi.


BTTning asosiy maqsadi – barqaror taraqqiyotning g'oyalari va tamoyillarini ta'limning barcha shakllari va bosqichlari bilan integratsiyalash va mustaqil dunyoqarashga ega, tanqidiy fikrlay oladigan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik yo'naltirilgan hamda faol fuqarolik munosabatini bildira oladigan shaxslarni tayyorlash hisoblanadi.

BTTning hal qiluvchi ahamiyatga ega g'oyalari hozirgi zamon va kelajakkagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni, shu jumladan, Orol inqirozi muammolarini yechish va oldindan ko'ra olishga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish hisoblanadi. Shuningdek, BTTning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar e'tiborga olinadi:

- ❖ Jamiyatning qadriyaviy yo'nalishlari – adolat, kelajak avlodlar oldidagi javobgarlik etikasi (kelgusi avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda);
- ❖ Fanlararo yondashuv – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarning o'zaro bog'liqligi.



(“Barqaror taraqqiyot
ta’limi” asosida)



Ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyat

O‘zbekistonda aholiga uzluksiz ekologik ta’lim berish va bu sohada uning bilimini oshirish masalalari “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda.

Ekologik vaziyatni yaxshilashga yordam beradigan omillardan biri – barcha aholi qatlamlariga ekologik bilim berish va ularning ekologik madaniyatini hamda tafakkuri darjasini yuksaltirishdan iborat.

Ekologik bilim – kishilarning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, ya’ni ushbu voqelikning inson tafakkurida aks etganlik darajasi.

Ekologik madaniyat – bu insonlarda tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, uning intellektual salohiyati va uni amalda qo’llay bilish faoliyati, atrof muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va mas’uliyatli yondashuv.

Tabiatga avaylab munosabatda bo‘lish singari azaliy an'analarimizni tiklash, har bir inson va butun jamiyatning axloqiy hamda ma’naviy tarbiyasini takomillashtirish g‘oyat muhim.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadi – aholining barcha qatlamlarida atrof muhitga, jonajon tabiatimizga bo‘lgan ongli munosabatlarini to‘g‘ri shakllantirishdan iboratdir.

Buning uchun, barcha aholi ekologiyaga oid umumta’lim davlat standartlari darajasida bilim egallashi, yetarli ko‘nikma va malakaga, o‘zining ekotizimga dahldor ekanligini anglatuvchi dunyoqarashga ega bo‘lishi va buni ma’nan hamda ruhan his qilishi darkor.

Inson ongiga ekologik ta’lim-tarbiyani singdirish uchun uzluksiz ekologik ta’lim-tarbiyani joriy etish zarur. Bu, birinchi navbatda, oilada o‘z aksini topadi va maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim makkablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda,

oliy o‘quv yurtlarida, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida va aholining katta yoshdagagi qatlamlari (mahallalar)da ekologik ruhda, shaxs kamolotini yuksaltuvchi uzlusiz ekologik ta’limni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tabiatdan foydalanish sohasida insonning ekologik jihatdan saviyasiga ta’sir ko‘rsatish borasida oqilona tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifa hisoblanadi. Bu ishlar atrof muhitni saqlash bo‘yicha uzoq yillarga mo‘ljallangan yagona uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimini yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi.


Ekologik ta’lim deganda, o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya farzand tug‘ilgan kundan boshlab berilishi zarur. Bunda fikr nurlantirilishi, axloq go‘zallashtirilishi, zehn ravshanlantrilishiga erishish zarurdir. *Ekologik tarbiya*, avvalo, ota-onas zimmasidadir. So‘ng bog‘cha, mактаб, o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar hamda oliy o‘quv yurtlari, mahallalarda amalga oshiriladi.

Har qanday tarbiya, asosan, oila sharoitidan boshlanadi. O‘zbek oilalarida “harom – halol”, “uvol”, “gunoh – savob” kabi tushunchalar ko‘proq ekologik vaziyat (masalan: nonning oyoq ostiga tushishi, suvning iflos qilinishi, jonivorlarga shafqatsiz munosabatda bo‘lish, dov-daraxtlarning sindirilishi va boshqalar) yuzaga kelganda qo‘llaniladi. Bolalar hali bu so‘zlarning mohiyatini to‘liq tushunmasalar-da, kun sayin ta’kidlanaverilsa, ularda milliy ekologik xulq-atvor kurtaklari shakllanib boradi, albatta.



Ekologik bilim va madaniyatni belgilovchi fazilatlar



Nazorat uchun savollar:

- 1.Ekologik barqarorlik deganda nimani tushunasiz?
- 2.Ekologik barqaror ta'lim va tarbiya muhitini izohlab bering.
- 3.O'zbekistonda qanday ekologik ta'lim va tarbiya olib borilmoqda?

15-MAVZU: EKOLOGIYA SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TABIATNI MUHOFAZA QILISHGA OID QONUNLARI

❖ O'zbekiston Respublikasining «**Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida**» gi Qonuni. 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan. Bu Qonun respublikada tabiat muhofazasidagi bosh hujjat bo'lib, u tabiiy muhitni muhofaza qilish va uning resurslaridan foydalanishni tartibga solish bo'yicha respublikaning strategiyasini belgilab beradi. Respublikada tabiat muhofazasi bo'yicha qabul qilinadigan boshqa barcha qonunlar va respublika hukumatining me'yoriy hujjatlari unga bo'ysunadi. Qonunda inson bilan tabiat o'rtafiga munosabatlarning uyg'un rivojlanib borayotganligi aks ettirilgan bo'lib, unda tabiatning alohida olingan har bir obyekti muhofazalanishi belgilangan va respublika fuqarolari yashash uchun qulay atrof muhitiga ega bo'lishi kafolatlangan. Qonun 11 bo'lim va 53 moddadan iborat.

❖ O'zbekiston Respublikasining «**Davlat sanitariya nazorati to'g'risida**» gi Qonuni. 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan. Qonun davlat sanitariya nazorati xodimlariga insonlar yashash muhitining radiatsion va epidemiologik xavfsizligini doimiy ravishda nazorat qilib borish huquqini beradi. Qonun 6 bo'lim va 32 moddadan iborat.

❖ O'zbekiston Respublikasining «**Suv va suvdan foydalanish to'g'risida**» gi Qonuni. 1993-yil 6-mayda qabul qilingan. Qonun suvdan foydalanuvchilarning undan oqilona foydalanishlari, suv manbalarini, ochiq suv havzalari va yer osti suvlarini ifloslanishdan asrash bo'yicha huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Qonun 19 bob va 119 moddadan iborat.

❖ O'zbekiston Respublikasining «**Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida**» gi Qonuni. 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan. Qonun atmosfera havosining kimyoviy, fizikaviy va biologik ifloslanishining oldini olish, sanoat va transport korxonalarini hamda respublika fuqarolarining havoni sof saqlash bo'yicha majburiyatlarini belgilab beradi. Qonun 30 moddadan iborat.

❖ O'zbekiston Respublikasining «**O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida**» gi Qonuni. 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan. Qonun respublikaning o'simliklar dunyosi resurslaridan foydalanishda yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va majburuyatlarini belgilaydi, o'simliklar qoplamini muhofaza qilish, uning poymol qilishning oldini olish, dorivor yovvoyi o'simliklarni noqonuniy yig'ish yoki nobud qilish, ular o'sib turgan tabiiy muhitni asrash, yashil fondni ko'paytirish va shu singari boshqa ko'pgina masalalani tartibga soladi. Qonun 28 moddadan iborat.

❖ O'zbekiston Respublikasining «**Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida**» gi Qonuni. 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan. Qonun respublikaning hayvonot dunyosi resurslaridan foydalanishda yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi, yovvoyi hayvonlarning yashash joylarini saqlash, ularni noqonuniy ovlash va tutishning oldini olish, kamyob hayvonlarning genofondini yaratish va shu singari boshqa ko'pgina masalalami tartibga soladi. Qonun 4 qismga bo'lingan 41 moddadan iborat.

❖ O‘zbekiston Respublikasining «O‘rmon to‘g‘risida» gi Qonuni. 1999-yil 15-aprelda qabul qilingan. Qonunda O‘zbekistonning o‘rmon boyliklari davlatga tegishli xalq mulki ekanligi e’lon qilingan, davlat o‘rmon fondi va u egallagan maydonlar yeri, o‘rmonni muhofaza qilish va undan foydalanishda davlat boshqaruvi va bunda O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakolatlari belgilab berilgan. Qonunda, shuningdek, o‘rmondan muvaqqat va doimiy foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarini belgilangan, fuqarolarning o‘rmonda bo‘lish tartib-qoidalari o‘rnatilgan, davlat o‘rmon kadastrini yurgizish, o‘rmonni tiklash va uni ko‘paytirish tadbirlari belgilab qo‘yilgan. Qonun 43 moddadan iborat.

❖ O‘zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida» gi Qonuni. 2000-yil 25-mayda qabul qilingan. Qonun atrof muhitga iflosliklarni chiqaruvchi yangi yoki qayta quriladigan (ishlab turgan) korxonarning qurilish loyihamalarini ekologik nuqtai nazardan tahlildan o‘tkazish zarurligi va tartib-qoidalarni belgilaydi. Qonun 26 moddadan iborat.

❖ O‘zbekiston Respublikasining «Chiqindilar to‘g‘risida» gi Qonuni. 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan. Qonun chiqindilarni saqlash va zararsizlantirish bilan bog‘liq masalalarda O‘zbekiston tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi va Sog‘liqni saqlash vazirligining vakolatlari, bu ishda yuridik va jismoniy shaxslarning majburiyatlarini, chiqindilarni me’yorlashtirish, ekologik sertifikatlash, ularni tashish tartib-qoidalari belgilab berilgan. Qonun 21 moddadan iborat.

❖ O‘zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to‘g‘risida» gi Qonuni. 2002-yil 13-dekabrda qabul qilingan. Qonunda O‘zbekistonning qazilma boyliklari respublikaning milliy boyligi ekanligi ko‘rsatilib, ulardan foydalanuvchilar va foydalanish tartibi belgilab berilgan. Unda qazilma boyliklarini qayta ishslash jarayonida iqtisodiy-ekologik ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratish, texnogen hodisalar bilan muhitni ifloslamaslik, ishni xavfsizlik qoidalari asosida tashkil qilish talablari qo‘yilgan. Qonun 10 bo‘lim va 51 moddadan iborat.

❖ O‘zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida» gi Qonuni. U 1993-yil 7-mayda qabul qilingan «Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga kiritilgan o‘zgartishlar asosida 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan. Qonun qo‘riqxonalar, buyurtma qo‘riqxonalarini, xalq bog‘lari, tabiiy landshaftlar, pitomniklar va boshqa obyektlarni muhofaza ostiga olish masalalarini tartibga soladi. Qonun 10 bo‘lim va 49 moddadan iborat.

Atrof muhit muhofazasi bo‘yicha xalqaro konvensiya va bitimlar

➤ **Kit ovlashni tartibga solish bo‘yicha Xalqaro konvensiya.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1946-y. Vashington, AQSH.

Qatnashchilar: 44 davlat.

➤ **Qushlarni muhofaza qilish bo‘yicha Xalqaro konvensiya.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1950-y. Parij, Fransiya.

Qatnashchilar: Yevropaning 10 ta davlati.

➤ **Suv qushlarining yashash joylari bo‘lgan xalqaro ahamiyatga molik suvli botqoqli joylarni muhofaza qilishga doir konvensiya.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1971-y. Ramsar, Eron.

Qatnashchilar: 61 davlat.

➤ **Butunjahon madaniy va tabiiy meroslarini muhofaza qilish bo‘yicha konvensiya.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1972-y. Parij, Fransiya.

Qatnashchilar: 124 davlat (O‘zbekiston 22.12.1995-y.dan).

➤ **Yovvoyi fauna va floraning qirilib bitish xavfida bo'yicha xalqaro savdo haqida konvensiya (SITES).**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1973-y. Vashington, AQSH.

Qatnashchilar: 119 davlat (O'zbekiston 01.07.1997-y.dan).

➤ **Oq ayiqlarni muhofaza qilish bo'yicha Bitim.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1973-y. Oslo, Norvegiya.

Qatnashchilar: 5 davlat.

➤ **Boltiq dengizbo'yи hududlarida dengiz muhitini muhofaza qilish bo'yicha konvensiya (HELKOM).**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1974-y. Xelsinki, Finlyandiya.

Qatnashchilar: 8 davlat.

➤ **Ko'chmanchi yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish bo'yicha Bonn konvensiyasi.**

Qabul qilingan va qti va joyi: 1979-y. Bonn, Germaniya.

Qatnashchilar: 39 davlat va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (O'zbekiston 01.05.1998-y.dan).

➤ **Havoning yirik masofalardagi transchegaraviy ifoslanishi to'g'risida konvensiya.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1979-y. Jeneva, Shveytsariya.

Qatnashchilar: 33 davlat va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati.

➤ **Dengiz huquqlari bo'yicha BMT konvensiyasi.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1982-y. Montego Bey, Yamayka.

Qatnashchilar: 157 davlat va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati.

➤ **Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1985-y. Vena, Avstriya.

Qatnashchilar: 120 davlat (O'zbekiston 18.05.1993-y.dan).

➤ **Xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib o'tish va chiqarib tashlashni nazorat qilish bo'yicha Bazel konvensiyasi.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1989-y. Bazel, Shveytsariya.

Qatnashchilar: 71 davlat va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (O'zbekiston 22.12.1995-y.dan).

➤ **Transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta'sirni baholash to'g'risida konvensiya.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1991-y. Espo, Finlyandiya.

Qatnashchilar: 27 davlat va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati.

➤ **Arktika atrof muhitini himoyalash Strategiyasi.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1991-y. Rovaniemi, Finlyandiya.

Qatnashchilar: Arktika mintaqasining 8 davlati.

➤ **BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1992-y. Nyu-York, AQSH.

Qatnashchilar: 59 davlat (O'zbekiston 20.06.1993-y.dan).

➤ **Boltiq va Shimoliy dengizlarda kichik kitlami muhofaza qilish bo'yicha Bitim.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1992-y. Nyu-York, AQSH.

Qatnashchilar: 3 davlat (Germaniya, Shvetsiya, Birlashgan Qirollik).

➤ **Transchegaraviy suv yo'llari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha Bitim.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1992-y. Xelsinki, Finlyandiya.

Qatnashchilar: 24 davlat.

➤ **Biologik xilma-xillik to'g'risida konvensiya.**

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1992-y. Rio-de-Janeyro, Braziliya.

Qatnashchilar: 167 davlat (O'zbekiston 06.05.1995-y.dan).

- Cho'llashishga qarshi kurash bo'yicha konvensiya.

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1994-y. Parij, Fransiya (O'zbekiston 31.08.1995-y.dan).

- Tabiiy muhitdan harbiy va boshqa yovuz maqsadlarda foydalanishni taqiqlash to'g'risida konvensiya

(O'zbekiston 26.05.1993-y.dan).

- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar to'g'risida Montreal bayonnomasi.

Qabul qilingan joyi: Montreal, Kanada (O'zbekiston 22.12.1995-y.dan).

- Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi BMTning ramkali konvensiyasiga Kioto bayonnomasi.

Qabul qilingan vaqt va joyi: 1997-y. Kioto, Yaponiya.

Qatnashchilar: 125 davlat va Yevropa Ittifoqi (O'zbekiston 1999-y.dan).

- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar to'g'risida Montreal bayonnomasiga London tuzatishlari.

Qabul qilingan joyi: London, Buyuk Britaniya (O'zbekiston 01.05.1998-y.dan).

- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar to'g'risida Montreal bayonnomasiga Kopengagen tuzatishlari.

Qabul qilingan joyi: Kopengagen, Daniya (O'zbekiston 01.05.1998-y.dan).

- Bonn konvensiyasi doirasida afro-osiyo ko'chmanchi suv qushlarini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Bitim.

Qabul qilingan joyi: Gaaga, Niderlandiya (O'zbekiston 1995-y. iyunidan).

- Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar bo'yicha Stokholm konvensiyasi.


Qabul qilingan vaqt va joyi: 2001-y. Stokholm, Shvetsiya.



Qatnashchilar: 92 davlat va Yevropa Ittifoqi.


Nazorat uchun savollar:

- 1.Qanaqangi Ekologik xalqaro tashkilotlarni bilasiz?
- 2.Ekologik xalqaro tashkilotlarning vazifasi nimalardan iborat?
- 3.O'zbekistonda ekologik qanday qonuniyatlar bilan tanishsiz?
- 4.Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha xalqaro bitim va konvensiyalar haqida o'z fikringizni bildiring.

XALQARO EKOLOGIK SANALAR

 20 mart Kurraiy zamin kuni	 21 mart Navro'z bayrami	 21 mart Xalqaro o'rmonlar kuni
 14 mart To'g'onlarga qarshi harakatlar xalqaro kuni	 22 mart Jahon suv resurslari kuni	 23 mart Xalqaro meterologiya kuni

1 aprel 	7 aprel 	15 aprel 
Xalqaro qushlar kuni	Jahon sog'liqni saqlash kuni	Ekologik bilimlar kuni
11 yanvar 	2 fevral 	19 fevral 
Qo'riqxonalar va milliy bog'lar umumjahon kuni	Suv-botqoqlari umumjahon kuni	Dengiz sute Mizuvchi-larini himoyalash umumjahon kuni
18-22 aprel 	22 aprel 	22 aprel 
Bog'lar marshi	Umumjahon yer kuni	Tajriba hayvonlarini himoyalash xalqaro kuni
28 aprel 	3 may 	12 may 
Kimyoviy xavfsizlik xalqaro kuni	Quyosh kuni	Ekologik ta'lim kuni
15 may 	22 may 	11 iyul 
Xalqaro iqlim kuni	Xalqaro biologik xilma-xillini saqlash	Xalqaro aholi kuni

17 iyun 	11 sentabr 	16 sentabr 
Cho'llanish va qurg'oqchilikdan himoyalanish umumjahon kuni	Butunjahon yovvoyi tabiat fondi (WWF) tashkil etilgan kun	Ozon qatlamini muhofaza qilish xalqaro kuni
22 sentabr 	27 sentabr 	21-27 sentabr 
Avtomobilsiz bir kun	Xalqaro turizm kuni	"Sayyoramizni tozalaymiz" kuni
4 oktabr 	5 oktabr 	6 oktabr 
Hayvonlarni himoyalash umumjahon kuni	Jahon tabiatni muhofaza qilish ittifoqi kuni	Yashash joylarini muhofaza qilish umumjahon kuni
8 oktabr 	16 oktabr 	15 noyabr 
Tabiiy ofatlarga qarsh kurash kuni	Butunjahon oziq-ovqatlar kuni	Chiqindilarni ikkilamch qayta ishlash kuni
24 noyabr 	3 dekabr 	5 dekabr 
Xaridlarsiz bir kun	Pestitsidlarga qarshi kurashish xalqaro kuni	Xalqaro volontyorlar (ko'ngillilar) kuni

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu: Jamiyat va tabiat o'zaro ta'sirining hozirgi davrdagi xususiyatlari va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosining dolzarbligi.

2-mavzu: Geografik ekologiya-tabiat komplekslari ekologiyasi to'g'risidagi fan.

3-mavzu: Geoekologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.

4-mavzu: Geografiya va ekologiya fanlari geoekologiyaning nazariy asosi sifatida.

5-mavzu: Geoekologiya-geotizimlar ekologiyasi haqidagi fan.

6-mavzu: Geoekologik tadqiqotlarda amal qilinadigan prinsiplar va yondashuvlar.

7-mavzu: Geoekologik tadqiqot metodlari.

8-mavzu: Biosferaning tarkibi va uning xususiyatlari.

9-mavzu: Litosferaning xususiyatlari va ekologik muammolar.

10-mavzu: Gidrosferaning xususiyatlari va ekologik muammolar.

11-mavzu: Atmosferaning xususiyatlari va ekologik muammolar.

12-mavzu: Geoekologik omillar va ularning tasnigflanishi.

13-mavzu: O'zbekistonda geoekologik monitoringni amalga oshirish.
Geoekologik prognozlashtirish.

14-mavzu: Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning geoekologik asoslari.

15-mavzu: Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish.

TESTLAR

1. Geoekologiyaning o'r ganish ob'ekti - ...

- A) geotizim V) ekotizim
S) biogeotsenoz D) ma'muriy birlik

2. Geotizimlarda ifoslantiruvchi moddalar miqdoriy o'lchamlarining yoki sifatiy tarkibining mavjudligi, o'zgarishi to'g'risida ma'lumot beruvchi ko'rsatkich deyiladi.

- A) parametr V) indikator
S) miqdor D) me'yor

3. Geoekologik indikatorlar qanday turlarga bo'linadi?

- A) biologik V) kimyoviy
S) fizik-kimyoviy D) fizik, kimyoviy, biologik

4. Geoekologik indikatorlarning turi va miqdori nimaga bog'liq?

- A) inson faoliyatiga V) halq ho'jaligi sohalariga

S) aholi punktlariga D) sanoat korxonasining turiga

5. Geoekologik omillar qanday guruhlarga bo‘linadi?

A) Tabiiy muhit omillari V) Tabiiy geografik omillar

S) Antropogen omillar D) V va S javoblar to‘g‘ri

6. Inson faoliyatining geotizimlarga, ularning tuzilmasiga va maxsus faoliyatiga ta’sirini qanday nomlanadi?

A) Antropogen yuk V) Antropogen ta’sir

S) Ekologik iz D) Ekologik bosim

7. Geoekologik vaziyatni baholash qanday xususiyatga ega?

A) differensial V) komponentlar bo‘yicha amalga oshiriladi

S) integral D) kadastr

8. Atrof tabiiy muhit holatini kuzatish, nazorat qilish, boshqarish va bashoratlashtirishni o‘z ichiga oluvchi tadbirlar tizimi ... deyiladi.

A) kadastr V) monitoring

S) kuzatuv D) prognoz

9. Geoekologik monitoring turlarini belgilang.

A) Biosferali V) Geotizimli

S) Sanitar-epidemiologik D) Bioekologik, geotizimli, biosferali

10. Geoekologik kartalashtirish nechta bosqichdagi ishlardan iborat?

A) 4 ta V) 3 ta

S) 6 ta D) 5 ta

11. Geoekologik muammolarni qanday guruhlarga ajratiladi?

A) ho‘jalik sohalari bo‘yicha V) tarqalgan maydoni bo‘yicha

S) kelib chiqish omillari bo‘yicha D) barchasi to‘g‘ri

12. Geoekologik muammolarni tarqalgan maydoni bo‘yicha qanday guruhlarga ajratiladi?

A) lokal V) regional

S) lokal, regional, global D) global

13. “Ekoliya” so‘zi grekchada nimani anglatadi?

A) organizmlar haqidagi fan V) er haqidagi ta’limot

S) uy, yashash joyi haqidagi ta’limot D) tabiat haqidagi bilim

14. Tartibga solingan koinot nima deb ataladi?

A) Galaktika V) Somon yo‘li

S) Metagalaktika D) Kosmos

15. Tabiat nima?

A) Bizni o‘rab turgan muhit V) Koinot

S) Bizni o‘rab turgan borliqning bir qismi D) Atrof —muhit

16. Jamiyat rivojlanishining qaysi bosqichida tabiatga ta’sir kuchaydi?

A) Feodalizm davrida V) Mashina ixtiro etilgandan so‘ng

S) Atom bombasi yasalgandan so‘ng D) Hozir

17. Inson qanday mohiyatga ega?

A) Biosotsial V) Bioekologik

S) Biologik D) Ijtimoiy

18. Biogen va antropogen omil ta’sirida modda va energiya almashinuvining farqi bormi?

A) Biogen o‘rin almashinishi tabiat qonuni, shuning uchun biogen va antropogen omil ta’siri bir xil

V) Biogen o‘rin almashinishi, shuning uchun biogen omil ustivor

S) Farqi antropogen omil ta’sirida atrof muhit chiqindilar bilan ifloslanadi

D) Tabiiy va antropogen omillar tabiatni dinamik muvozanatini buzadi

19. Tabiat va jamiyat munosabatlarining rivojlanishini qanday bosqichlarga ajratsa bo'ladi?

A) Biogen, antropogen, texnogen V) Feodalizm, kapitalizm, hozirgi zamон

S) Ijobiy va salbiy D) Ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatadigan bosqich

20. Ekologiya alohida fan sifatida qachon vujudga keldi?

A) Eramizdan avvalgi II-III asrlarda V) XYIII asrda

C) XIX asrda D) XX asr boshida

21. Ekologiya fanining asoschisi kim?

A) CH.Darvin V) E.Gekkel

S) V.Vernadskiy D) J.Lamark

22. Urbanizatsiya nima?

A) Qishloq aholisini ko'payishi V) SHahar aholisini ko'payishi

S) SHaharlarni qishloq hisobiga kengayishi D) Industrializatsiya darajasini ko'rsatuvchi
ko'rsatkich

23. Atmosferaning gaz tarkibi qanday?

A) Kislород, azot, is gazi, suv bug'lari, inert gazlari

V) Karbonat angidrid, azot, kislород, suv bug'lari, inert gazlari

S) Azot, kislород, inert gazlari, karbonat angidrid

D) Suv bug'lari, kislород, azot, mayda zarrachalar

24. Geoekologiyada qanday tizimlarning strukturasi o'r ganiladi?

A) hududiy tizim va ekologik tizim V) ma'muriy birlik doirasida geotizim

S) ekologik tizimdagи populyasiya D) geotizim doirasida inson faoliyati

25. Abiotik omillar guruhibi ajrating.

A) Relef, o'simlik ta'siri V) Hayvon, tuproq ta'siri

S) Inson ta'siri D) yorug'lik, namlik, harorat

26. "Ekosistema" termini va tushunchasini fanga kim kiritgan?

A) K.Mebius V) A.Tensli

S) E.Gekkel D) J.Lamark

27. Geoekologik tadqiqotlarda qanday qonuniyatlarga amal qilinadi?

A) Umumgeografik qonuniyatlar V) Biologik qonuniyatlar

S) Ekologik qonuniyatlar D) Geografik va ekologik qonuniyatlar

28. Qurg'oqchil sharoitga moslashgan o'simliklar?

A) Kserofitlar V) Mezofitlar

S) Gigrofitlar D) Kserofit va mezofit

29. Geoekologiya atamasini fanga kim kiritdi?

A) A. Tensli V) K. Troll

S) V.B. Sochava D) V.N. Sukachev

30. Erning "hayot qobig'i" ini ajrating.

A) Gidrosfera V) Litosfera

S) Atmosfera D) Biosfera

31. Biosfera haqidagi ta'limotning asoschisi

A) V.Dokuchaev V) A.Gumboldt

S) V.Vernadskiy D) E.Zyuss

32. Tabiiy resurslar nima?

A) Tabiiy borliq

V) Insonning hayot faoliyati uchun ishlataladigan tabiatning bir qismi

S) O'z ehtiyojini qondirishga ishlatalish imkoniga ega bo'lган tabiatning bir qismi

D) Atmosfera havosi

33. Tugaydigan, tiklanmaydigan resurslarni ajrating

- A) suv, havo tuproq V) o'simlik va hayvonlar
S) er osti qazilmalari D) tuproq, suv, o'simliklar

34. Insonning tabiatga ta'sir turlari.

- A) Tabiiy resurslardan foydalanishi
V) Qo'riq erlarni o'zlashtirish
S) Bevosita va bilvosita, ijobiy va salbiy
D) O'rmonlarni tiklash, ko'kalamzorlashtirish

35. Biosferaning yangi sifat holati.

- A) troposfera V) Litosfera
S) noosfera D) ionosfera

36. Asosiy issiqxona gazlarini ajrating.

- A) CO₂, N₂O, CH₄ B) SO, CO, CO₂
C) SO₂, O₂, NO₂ D) CO₂, SO, NO₂

37. «Qizil kitob» nima?

- A) Noyob o'simliklar va hayvonot turlarining ro'yxati
V) Yo'qolib ketayotgan o'simliklar va hayvonot turlarining ro'yxati
S) Muhofazaga olingan o'simlik turlar
D) Qo'riqxona va buyurtmalarda ko'paytirilgan o'simlik va hayvonot turlari

38. Ekologik inqiroz nima?

- A) Inson yashashi uchun havfli joy
V) Tabiiy muvozanat buzilgan joy
S) Tabiat komplekslarini o'z — o'zini tiklash kobiliyatini yuqotgan joy
D) Orolning qurishi

39. Er yuzida so'nggi 100 yil ichida havo harorati neche gradusga oshgan?

- A) 0,8-1,0⁰S V) 2-3⁰S
S) 3-4⁰S D) 4-5⁰C

40. O'zbekistonda atmosferani ifloslovchi asosiy tarmoq.

- A) qishloq xo'jaligi V) sanoat
S) transport D) kommunal-maishiy

41. O'zbekistonda atmosferani ifloslovchi asosiy gaz.

- A) uglerod oksidi V) azot oksidi
S) oltingugurt qo'shoxsidi D) metan

42. «O'zbekistonda suv va suvdan foydalanish to'g'risida» qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1991 V) 1992
S) 1993 D) 1994

43. O'zbekistonda «Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida» qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1990 yil, 2 avgust V) 1991 yil, 12 noyabr
S) 1992 yil, 9 dekabr D) 1993 yil, 12 dekabr

44. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon etaklarda erlarni oddiy sug'orish usuli bilan dehqonchilik qachon boshlangan?

- A) Eramizdan avvalgi 4 minginchi yillarda
V) Eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda
S) Eramiz boshlarida D) Ilk o'rtasrlarda

45. X-XIII asrlarda binokorlikda eng ko'p ishlataligan yog'och?

- A) Tol, terak V) Tut, terak
S) Archa, terak D) O'rik, yong'ok

46. O'simliklarni yo'qotilishi natijasida tog' yon bag'irlarida qanday jarayon kuchayadi?

- A) Allyuvial va prolyuvial V) Eroziya va deflyasiya

- S) Kolyuviy va eol D) Rekultivatsiya

47. Geoekologiya nima?

- A) Turli kattalikdagi geotizimlarning ekologik xolatini o‘rganuvchi fan
V) Ekologiyaning geosistemalarning tabaýalanishini tadqiq etuvchi bo‘limi
S) Organizmlarni tabiat bilan aloqalarini o‘rganuvchi fan
D) Litosferani o‘rganuvchi fan

48. Geoekologiya atamasini fanga kim kiritdi?

- A) A. Tensli V) K. Troll
S) V.B. Sochava D) V.N. Sukachev

49. Atmosferadagi qaysi moddalarning borligi «issiqxonalar» samarasini belgilaydi?

- A) Suv bug‘lari, uglerod oksidi, azot oksidi, azon, chang zarrachalari, tutun
V) Uglerod oksidi, metan, xlor, azot oksidi, suv bug‘lari
S) Uglerod oksidi, oltingugurt oksidi, chang zarrachalari
D) YOng‘in, chang, havoning ifloslanishi

50. O‘zbekistondagi qaysi davlat organi tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun chiqaruvchi organ hisoblanadi?

- A) Vazirlar mahkamasi V) Prezident devoni
S) Oliy majlis D) Davlat qo‘mitasi

51. Qaysi xalqaro tashkilot «Inson va biosfera» dasturini qabul qilgan?

- A) YUNESKO V) YUNEP
S) BMT D) YUNISEF

52. Atrof muhitni muhofaza qilish halqaro kuni qachon nishonlanadi?

- A) 20 yanvar V) 24 mart
S) 5 iyun D) 1 avgust

53. Geoekologiya atamasi ilk bora qachon qo‘llanildi?

- A) 1963 yil V) 1939 yil
S) XX asrning birinchi yarmida D) XX asrning so‘nggi choragida

54. Tugamaydigan resurslarga nimalar kiradi?

- A) Suv,havo,tuprok,o‘simglik qoplami V) Suv,shamol,o‘simglik, tuproq qatlami
S) Suv, havo, energiya D) O‘simglik, hayvonot dunyosi

55. Insonni o‘rab turgan muhit qanday qismlardan iborat?

- A) Atrof tabiiy muhit V) Abiotik va biotik muhit
S) Tabiiy va ijtimoiy muhit D) Atrof ijtimoiy muhit

56. Ekologik omillar guruhi to‘g‘ri berilgan javobni toping.

- A) Biotik, abiotik, antropogen V) Biotik, yorug‘lik, issiqlik, namlik
S) Ijtimoiy, biotik, tuproq, suv D) Tuproq, tog‘ jinsi, suv, o‘simglik

57. Toshkentda atmosfera havosini ifloslanishiga eng ko‘p hissa qo‘shuvchi tarmoq.

- A) Zavod va fabrikalar S) Sun‘iy va tabiiy chang,xazonlarni yoqlishi
V) Avtomobil transporti D) CHirchiq shahridan esuvchi shamollar

58. Geotizimlar yaxlit holda saqlanadigan xududlar qanday nomланади?

- A) Buyurtma V) Pitomnik
S) Qo‘riqxona D) Milliy bog‘

59. SHamol ta’sirida tuproqlarning emirilishi qanday nomланади?

- A) Deflyasiya V) Eroziya
S) Korroziya D) Degradatsiya

60. Insoniyatning ehtiyojlari uchun har yili qancha ruda va qurilish materiallar ishlataladi?

- A) 50 mlrd.t. V) 80 mlrd.t
S) 100 mlrd.t D) 120 mlrd.t

61. Orol dengizini asl holiga keltirsa bo‘ladimi?

- A) Er osti suvlari yordamida V) Kaspiy suvlari hisobiga
S) Sun'iy yomg'irlar hisobiga D) Mumkin emas

62. Noosfera haqidagi ta'lilotning asoschisi kim?

- A) Beruniy V) Gekkel
S) V.Vernadskiy D) CH.Darvin

63. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun mavjud suv resurslarining necha foizi ishlatalidi?

- A) 30 % V) 50%
S) 75% D) 85%

64. Tabiiy muhitning o'zgarishiga moslashuv nima deyiladi?

- A) Adaptatsiya V) Suksessiya
S) Rekultivatsiya D) Evolyusiya

65. Muhitdagi meyordan uzoklashgan ekologik omil qanday ataladi?

- A) Ekologik omillarning kritik nuqtasi V) CHeklovchi omil
S) Antropogen omil D) Hayot muhiti

66. Geografik qobiqdagi barcha sferalardagi jarayonlarda moddalarining ko'p martalik qatnashishi nima deyiladi?

- A) Modda almashinuvi V) Modda va energiya almashinuvi
S) Moddalar migratsiyasi D) Energiya oqimi

67. Geotizim tushunchasi va ta'lilotining asoschisi kim?

- A) V.B. Sochava V) A.A. Grigorev
S) A.Tensli D) V.V. Dokuchaev

68. Geoekologiya fan sifatida qachon vujudga keldi?

- A) 1963 yil V) 1939 yil
S) XX asrning birinchi yarmida D) XX asrning so'nggi choragida

69. Atmosferada qaysi gazning ko'payishi fotoximik smogga olib keladi?

- A) Oltingugurt gazi V) azot oksidlari
S) Is gazi D) Ozon

70. Tabiat va jamiyatni o'zaro muvozanatda rivojlanishi qanday nomlanadi?

- A) Antievolysiya V) Koevolysiya
S) Evolyusiya D) Protievolysiya

71. O'zbekistonda eroziyaga uchragan erlar maydoni qancha?

- A) 500 ming ga. dan ortiq V) 1.5 mln. ga. dan ortiq
S) 2 mln. ga. dan ortiq D) 2.5 mln. ga. dan ortiq

72. Atmosfera tarkibidagi qaysi gaz ultirabinafsha nurlarini tutib qoladi?

- A) Kislorod V) Azot
S) Uglevod D) Ozon

73. O'zbekistonning «Qizil kitobi» qachon qabul qilingan?

- A) 1979 V) 1989 S) 1990 D) 1993

74. O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» gi qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1993 V) 1995 S) 1996 D) 1997

75. O'zbekistonda alohida muhofaza qilinadigan hududlarni ajrating.

- A) 8 qo'riqxona, 10 buyurtmaxona, 1 milliy bog'
V) 9 qo'riqxona, 9 buyurtmaxona, 2 milliy bog'
S) 9 qo'riqxona, 10 buyurtmaxona, 3 milliy bog'
D) 10 qo'riqxona, 12 buyurtmaxona, 4 milliy bog'

76. O'zbekiston Konstitutsiyasining qaysi moddalarida atrof-muhit masalalari ko'rildi?

- A) 50,54,55,100 V) 50,53,58,102

S) 49,51,53,100 D) 50,53,55,105

77. BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha Konferensiyasi qachon va qaerda bo'lib o'tgan?

- A) Bern, 1990 yil V) Rio-de-Janeyro, 1992 yil
S) London, 1995 yil D) Nyu-york, 2001 yil

78. Inson va tabiat munosabatlari tarixidagi dastlabki ekologik bosqich qanday nomlanadi?

- A) Antropogen V) Texnogen
S) Biogen D) Agrar

79. «Tabiatni muhofaza qilish» deganda nimani tushunasiz?

- A) Tabiatni o'z holicha saklab qolishni
V) Atrof-muhitni asli holiga qaytarishni
S) Ma'lum maqsadga qaratilgan tadbirlar yig'indisini
D) Tabiatga zarar keltirmaslikni

80. Atmosfera gaz balansining o'zgarishi deganda nima tushuniladi?

- A) Havoning zararli birikmalar bilan o'ta ifloslanishi
V) Havodagi gazlar doimiy miqdorining buzilishi
S) «Azon tuynuklari» ning o'zgarishi
D) Nafas olishning qiyinlashishi.

81. Populyasiya nima?

- A) Ma'lum maydondagi noyob hayvon va o'simlik turlari yig'indisi
V) Organizmlarning uzaro aloqador turlari yig'indisi
S) Ma'lum maydonda yashaydigan bir turning o'zaro bog'liq zotlari yig'indisi
D) Turlarning moslashuv natijasida tez tarqalishi.

82. Biotik omillar guruhini ajrating.

- A) O'simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar
V) Notirik tabiat xususiyatlarining ta'siri
S) Insonning turli ta'sir formalari yig'indisi
D) Iqlimning ta'siri

83. Hayot muhitlarini ajrating.

- A) Er, er osti, suv, suv osti, havo V) SHahar, qishloq, korxona, uy
S) Suv, er —havo, tuproq, organizm D) Biosfera

84. Ekosistema nima?

- A) Organizmlar jamoasi va yashash muhiti birligi
V) O'simlik, hayvonlar va mikroorganizmlarning alohida turlari
S) Muhitning notirik elementlari to'plami
D) Biosferadagi hamma organizmlar

85. Tugaydigan lekin tiklanadigan resurslar guruhini ajrating.

- A) YOqilg'i mineral resurslari V) Havo, suv, tuproq, energiya
S) O'simlik, hayvon, tuproq D) Foydali kazilmalarning hammasi

86. O'zbekistondagi qaysi xalq xo'jalik tarmog'ida suv eng ko'p ishlataladi?

- A) Suvni kup talab qiladigan sanoat tarmoqlari va energetikada
V) Qishloq xo'jaligida
S) Aholining maishiy va kommunal ehtiyojlari uchun
D) Qurilishda

87. O'zbekiston Respublikasi «Er to'g'risida» qonuni qachon qabul qilindi?

- A) 1992 V) 1993 S) 1994 D) 1995

88. Suvlarni nechta asosiy tozalash usullari mavjud?

- A) 3 ta V) 4 ta S) 5 ta D) 6 ta

89. Ekosistemaning dinamik muvozanati holati.

A) Suksessiya
S) Gomeostaz

V) Ekostaz
D) Adaptatsiya

90. O‘zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini kim amalga oshiradi?

A) Oliy majlis V) Oliy xo‘jalik sudi
S) Vazirlar mahkamasi D) Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi

91. Barqaror rivojlanish konsepsiysi davlatlarning qaysi sohadagi yo‘nalishlariga tavsiyalar beradi?

A) Iqtisodiy V) Ekologik
S) Ijtimoiy D) Barcha javob to‘g‘ri

92. Respublikadagi sanoat korxonalarini tomonidan atmosferaga qancha ifloslovchi birkimlar chiqariladi?

A) 100 dan ortiq V) 110 dan ortiq
S) 140 dan ortiq D) 150 dan ortiq

93. Ozon qatlami insonlar va barcha jonzotlarni quyoshning qanday nurlarining zararli ta’siridan himoya qiladi?

A) Infraqizil V) Ultrabinafsha
S) Qisqa to‘lqinli nurlar D) Uzun to‘lqinli nurlar

94. Atmosferaning eng xavfli ifloslanishi

A) Kimyoviy V) Fizik
S) Akustik D) Radioaktiv

95. Tabiiy jarayonlar va inson faoliyati natijasida erlarning biologik mahsuldarligining pasayishi yoki tabiiy ekosistemalarning degradatsiyasi nima?

A) CHo‘llashish V) Eroziya
S) Deflyasiya D) Botqoqlashish

96. Qishloq xo‘jaligida foydalilanigan er fondi qanday toifalarga bo‘linadi?

A) O‘rmonlar, sug‘oriladigan erlar, lalmikor erlar
V) Sug‘oriladigan erlar, lalmikor erlar, tabiiy yaylovlari
S) O‘rmonlar, lalmikor erlar, tabiiy yaylovlari
D) Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan erlar

97. Tashlandiq erlarni tiklash qanday nomlanadi?

A) Melioratsiya V) Rekultivatsiya
S) Obodonlashtirish D) Dezaktivatsiya

98. BMTning Atrof muhit bo‘yicha birinchi Umumjahon Konferensiysi qachon va qaerda o‘tkazilgan?

A) 1972 yil 5 iyunda Stokgolmda V) 1973 yil 6 aprel Berlinda
S) 1974 yil 24 martda Parijda D) 1974 yil 18 mayda Lissabonda

99. Ekologik ekspertiza qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?

A) Atrof muhitni muhofaza qilish
V) Inson salomatligini saqlash
S) Ekologik xavfsizlikni ta’minalash
D) Inson salomatligini saqlash va ekologik xavfsizlikni ta’minalash

100. O‘zbekistonda “CHiqindilar to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

A) 1999 yil V) 2000 yil
S) 2001 yil D) 2002 yil

GLOSSARIY

Abiotik muhit [yun. “*a*” – inkor ma’nosи, “*bios*” – hayot] – 1) tirik organizmlarni o‘rab turgan notirik jismlardan iborat muhit; 2) tirik organizmlarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari.

Adaptatsiya (moslashish) [lot. “*adaptatio*” – moslashish, ko‘nikish] – tirik organizmlarning muhitning konkret sharoitida barqaror yashab ketishini ta`minlaydigan morfofiziologik, populyatsiyaviy va boshqa xususiyatlarining yig‘indisi. Umumiy A. (keng ko‘lamdagи muhit sharoitlariga ko‘nikish) hamda xususiy A. (muhitning lokal, yoki o‘ziga xos xususiyatlар sharoitlariga ko‘nikish) farqlanadi.

Akllimatizatsiya – atrof muhitdagи o‘zgarishlarga nisbatan organizmning fiziologik va xulqiy moslashishi.

Antropogen omil – inson va uning faoliyati tomonidan organizmlarga, biogeotsenoz, landshaft, biosferaga ko‘rsatiladigan ta’sir.

Antropogen stress – inson faoliyati tufayli energiya yoki moddaning ko‘payib ketib, ekotizim funksiyalarining susayishiga sabab bo‘ladigan vaziyat; o‘tkir yoki surunkali bo‘lishi mumkin (Y.Odum bo‘yicha).

Areal [lot. “*area*” – maydon, makon] – o‘rganilayotgan obyektlar yoki hodisalar tarqalgan hudud yoki akvatorya (turning A., landshaft tipi A., antropogen ta’sirning A.).

Atmosfera [yun. “*atmos*” – bug‘ va “*sphere*” – shar] – yer va boshqa fazoviy jismlarning gazsimon qobig‘i. Yer yuzasida u, asosan, azot (78,08%), kislород (20,95%), argon (0,93%), suv bug‘i (0,2-2,6%), karbonat angidrid gazidan (0,03%) tashkil topgan.

Atrof (insonni qamragan) muhit – odamlarga va ularning xo‘jaligiga birgalikda va bevosita ta’sir etuvchi abiotik, biotik, ijtimoiy muhitlar majmuasi. A.m. tushunchasi “atrof tabiiy muhit” tushunchasidan bir muncha kengroqdir, chunki u o‘z ichiga ijtimoiy hamda texnogen muhitlarni (uylar, korxonalar, yo’llar.) ham qamrab olgan tushunchalardir.

Atrof muhitning ifloslanishi – tavsifi, joylashgan yeri yoki miqdoriga ko‘ra atrof muhit holatiga salbiy ta’sir qilayotgan moddaning atrof muhitda mavjudligi.

Bakteriologik ifloslanish – ekotizimga unga yot bo‘lgan organizmlarning chetdan olib kelinishi va ko‘payishi. Mikroorganizmlar bilan ifloslanish bakteriologik yoki mikrobiologik ifloslanish ham deyiladi.

Bardoshlik – tirik organizmlarning yashayotgan muhitidagi no’maqbul ta’sirlarga bardosh bera olish xususiyati. Yuksak B. turlar omon qolishi garovidir, muhit doimo o‘zgarib borayotgan sharoitda (sh.j.antropogen ta’sir ostida) past B. turlarning kamayishi va qirilib ketishiga olib keladi.

Biogen modda – organizmlar hayotiy faoliyati natijasida vujudga kelgan kimyoviy birikma (lekin aynan shu vaqtning o‘zida ularning jismi tarkibida ham bo‘lmasligi mumkin).

Biogenotsenoz – biogenotsenologiyaning asosiy izlanish obyekti. B. – vistasferaning elementar bioxorologik tarkibiy birligidir va shu ma’noda fatsiya, elementlar landshaft tushunchalarining sinonimidir, garchi oxirgilaridan farqli o‘larоq, tirik modda tushunchasini ham o‘z ichiga qamrab oladi. B. tushunchasi ekotizim tushunchasiga yaqin, ammo keyingisi aniq bioxorologik asosga ega emas.

Biologik ifloslanish – ekotizimga unga yot bo‘lgan organizm turlarining kiritilishi va ularning ko‘payishi. Mikroorganizmlar bilan ifloslanishga bakteriologik yoki mikrobiologik ifloslanish ham deyiladi.

Biologik soat – organizmlarda tabiat hodisalari va fasllarning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan fiziologik, biyokimyoviy o‘zgarishlar.

Biosfera [yun. “*bios*” – hayot, “*sphaira*” – shar] – yer qobig‘idan (sferalaridan) biri bo‘lib, uning tarkibi va energetikasi, asosan, tirik modda faoliyati bilan belgilanadi.

E.Zyuss tomonidan 1875-yilda kiritilgan bu atama V.I.Vernadskiyning ilmiy izlanishlari natijasida yer sayyorasining butun sirtini anglatadigan bo'ldi. **B.** troposfera, litosfera va gidrosferani o'z ichiga qamrab oladi; qalinligi 30-40 km. sin. *Ekosfera*.

Biota [yun. "biote" – hayot] – organizmlarning tarqalish mintaqasi umumiyligi tufayli birlashib, tarixan shakllangan turkumi.

Biotsenoz [yun. "bios" – hayot, "koinos" – umumiy] – o'simliklar, zamburug'lar, hayvon va mikroorganizmlarning o'ziga xos tarkibga hamda o'zaro va atrof muhit bilan bo'lgan munosabatlarga ega majmuasi. Atama K.Myobius tomonidan 1877-yilda kiritilgan. Odatda, **B.** bir *geotsenoz* va bir *geotonga* tegishliligi nazarda tutiladi.

Bug'xona yoki issiqxonha effekti [ingl. greenhouse effect] – atmosferada yer yuzasidan uzun to'lqinli issiqlik nurlanishiga xalaqt beruvchi uglevodorod (karbonat angidrid, is gazi) va ftor-xlor-uglevodorod birkmalarinig asta-sekin ko'payishi natijasida yerdagi haroratning ko'tarilishi va iqlimning umumiy issiqlanishi.

Genofond yoki genetik fond [yun. "genos" – avlod kelib chiqish, va lot. "fondus" – asos] – individlar guruhi genlari to'plamidagi nasliy axborot. Ba'zida **G.** deb, barcha tirik organizm turlari majmui tushuniladi.

Geoaxborot tizimi (GAT) – yer to'g'risidagi fanlar majmuasining ma'lumot va bilimlarini kompyuter orqali aks ettirish vositasi.

Gerbitsidlar [lot. "herbo" – o'simlik, "cedre" – o'ldirish] – qar. *Pestitsidlar*.

Global ifloslanish – ifloslanish manbaidan juda uzoq masofada, sayyoraning deyarli barcha nuqtalarida ayon bo'luvchi atrof tabiiy muhitning ifloslanishi. Havo muhitiga xos.

Gomeostaz [yun. "homios" – o'xshash, bir xil, "stasis" – holat, turg'unlik] – tabiiy tizimning (organizmning) uning asosiy strukturalarining, modda-energetik tarkibining muttasil tiklanib turishi va komponentlarning doimiy funksional o'z-o'zini tartiblash bilan bir me'yorda tutib turiluvchi ichki dinamik muvozanat holati.

Drenaj [ing. "drain" - quritish] – ortiqcha namlangan yerlarda suvni maxsus zovur va yer osti quvurlari – drenajlar yordamida boshqa joyga oqizish yo'li bilan quritish usuli.

Zaharli chiqindilar – o'z tarkibida tirik organizmlarni zaharovchi moddalarga ega chiqindilar.

Introduksiya [lot. "introduction" – kirish] – hayvon va o'simliklarning tabiiy arealdan tashqarida tarqalishi. Qar. *Iqlimga moslashish*.

Ifloslantirish manbasi – 1) ifloslantiruvchi moddani atmosferaga tashlash nuqtasi; 2) ifloslantiruvchi moddani ishlab chiqarayotgan xo'jalik yoki tabiiy obyektlar (qar. *ifloslantiruvchi*); 3) kirib kelayotgan ifloslantiruvchi moddani tarqatayotgan hudud.

Yo'qolib borayotgan tur – yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turgan va agar bu tahdidga sabab bo'layotgan omillar bartaraf qilinmasa, saqlab qolish imkoniyati bo'lmaydigan tur yoki boshqa toksonomik birlik.

Kanserogenlar [lot. "cancer" – rakva, fran. "genes" – tug'ilish] – hayvonnlar, o'simliklar va odamlar yomon sifatli o'simtalarning (shishlarning) paydo bo'lishiga olib keladigan kimyoviy brikmlar yoki fizik agentlar.

Kimyoviy ifloslanish – ekotizimga unga yot bo'lgan ifloslantiruvchi moddalarni fon konsestratsiyalaridan ziyod miqdorda kiritilishi.

Kislota yog'inlari – odatda, boshlang'ich manbadan uzoqda atmosferadagi kimyoviy jarayonlar tufayli o'zgargan oltingugurt, azot brikmlari va boshqa moddalarning yerga suyuq yoki quruq holda tushganida ro'y beradigan kompleks kimyoviy va atmosfera holati. Suyuq shakli, odatda, "kislota yomg'iri" deb nomlanadi va yerga yomg'ir, ko'rinarli to'siqlar yoki tuman ko'rinishida tushadi. Quruq shakllari – kislota gazlari, makrogazlardir.

Kuzatuv – keyinchalik faoliyat yuritish uchun asos bo'lgan, odatda, tadqiqot ishlari davomida ma'lumot olish, shu jumladan monitoring kuzatuv muayyan zarar ko'rgan atrof

muhitdan namuna olishni o‘z ichiga oladi va alohida korxonalar, uyushmalar, mahalliy milliy hukumat organlari tomonidan olib borilishi mumkin.

Landshaft – o‘zaro ta`sir etuvchi tabiat yoki tabiiy va antropogen komponentlardan hamda pastroq taksonomik tabaqali majmualardan tashkil topgan tabiiy hududiy majmua.

Landshaftning ifloslanishi – u yoki bu moddalar yoki energiya konsentratsiyasining tabiiy (yoki belgilangan me’yor) darajasidan oshishi, shuningdek, landshaftga unga yot bo‘lgan moddalar, organizm va energiya manbalarining antropogen yoki tabiiy (vulqon, moddalarning tabiiy migratsiyasi) omilllar tarzida olib kirilishi.

Mega(lo)polis [yun. “*megas(megual)*” – katta va “*pollis*” – shahar] – bir qancha shaharlarning o‘sishi va keyinchalik bir-biriga tutashib ketishi (aglomeratsiya) natijasida vujudga kelgan o‘ta katta shahar.

Mexanik ifloslanish – ekotizimga unga yot bo‘lgan va uning tabiiy faoliyatini izdan chiqaruvchi abiotik loyqalarning olib kirilishi.

Milliy bog‘ – tabiiy sharoitlari sezilarli darajada inson tomonidan o‘zgartirilmagan yoki inson faoliyati tarix mobaynida tabiat bilan uyg‘unlashgan keng muhofaza etiladigan hudud.

Moddalarning biologik aylanishi (kichik doira) – kimyoviy elementlarning tuproq va atmosferadan tirik organizmlarga ularning kimyoviy shaklini o‘zgartirib kirishi, so‘ng tuproq va atmosferaga organizmlarning hayotiy faoliyati jarayonida va keyinchalik nobud bo‘lganidan keyin qoluvchi qoldiqlar bilan qaytishi hamda mikroorganizmlar yordamida destruksiya jarayonlari va minerallahishdan keyingi yana tirik organizmlarga qaytishi. **M.b.a.**ning bunday ta’sifi biogenetik darajaga to‘g‘ri keladi.

Noosfera [yun. “*noos*” – aql] – aql-idrok sferasi. Iboraning zamonaviy talqini 1931-yilda V.I.Vernadskiy tomonidan biosfera evolyutsiyasining bosqichi, uning taraqqiyotidagi jamiyat ongli faoliyatining yetakchi rolini ifodalash uchun kiritilgan.

Ozon “darchalari” – atmosferaning ozon qatlamida (ozonosferada) ozon miqdorining (50% gacha) kamayishi. **O.d.** organizmga salbiy ta`sir ko‘rsatuvchi ultrabinafsha nurlari darajasining ortishiga sababchi bo‘ladi. **O.d.** kelib-chiqishi antropogen ta’sirga bog‘liq deb faraz qilinmoqda.

Omon (yashab) qolish – u yoki bu avlod organizmlarining yashashi va ekotizimlar faoliyatida qatnashishi uchun saqlab qolinishining o‘rtacha ehtimoli.

Oqava suvlari (oqavalari) – maishiy maqsadlarda yoki ishlab chiqarishda qo‘llanilgan va buning natijasida tarkibiga turli aralashmalar qo‘silgan hamda birlamchi fizik yoki kimyoviy xususiyatlari o‘zgargan suvlari; turar joy punktlari, sanoat va qishloq xo‘jalik hududlaridan, yog‘in-sochin, yerlar sug‘orish yoki ko‘chalarga suv sepish natijasida oqib chiqadigan suvlari ham **O.s.** deyiladi. **O.s.**, asosan, 3 turga bo‘linadi: maishiy (xo‘jalik-fekal) oqavalari, ishlab-chiqarish oqavalari, qor erishi va jala (yomg‘ir) oqavalari.

Payhonlanish – tuproqning jipslashishi, o‘simliklarning vibratsiya hamda hayvonlar va odamlar tomonidan mexanik shikastlanish jarayoni. **P.** yaylovdan me’yordan ko‘p foydalanish hamda yalpi turizm va rekreatsiya zonalarining noto‘g‘ri rejalashtirilishi bilan bog‘liq.

Pestitsidlar [lot. “*pestis*” – maraz va “*ceadre*” – o‘ldirmoq] – o‘simlik va hayvonlarning kasallik hamda zararkunandalariga, begona o‘tlar, don va don mahsulotlari, yog‘och, paxta, jun, teri va h.k.larning zararkunandalariga, odamlar va hayvonlar orasida xavfli kasalliklar tarqatuvchilarga qarshi kurashda foydalaniladigan kimyoviy moddalar.

Populyatsiya – [fr. “*population*” – aholi] – ma’lum hududni egallagan, uzoq muddat davomida (bir necha o‘n avlod davomida) o‘zidan ko‘payishi orqali nasl-nasabini barqaror saqlab qolishga qodir bo‘lgan bir turga mansub zotlar yig‘indisi; ma’lum hududni

egallagan va umumiylar genofondga ega bo‘lgan bir turga mansub zotlar yig‘indisi.

Sanoat chiqindilari – ishlab chiqarish jarayoni natijasida olingan yoki chiqarilgan keraksiz materiallar. Sanoat chiqitlari suyuq chiqitlar, balchiq, qattiq va xavfli chiqindilar singari toifalarga ajratiladi.

“Ex situ” saqlash – biologik xilma-xillik komponentlarini ularning tabiiy yashash joylaridan tashqarida saqlab qolish (parvarishxona, zoopark va b.)

“In situ” saqlash – biologik xilma-xillik komponentlarini ularning tabiiy yashash joylarida saqlab qolish.

Stress – kuchli asabiylashish holati – odam organizmida va b. hayvonlarda nomaqbul omillar (stressorlar – past harorat, ochlik, ruhiy va jismoniy jarohat, nurlanish, atrof muhitning ifloslanishi va h.k.) ta’siriga javoban fiziologik himoya reaksiyalari majmui.

Suv balansi [fr. “balance” – tarozi] – daryo havzasi, ko‘l, butun sayyora yoki b. o‘rganilayotgan obyekt uchun ma’lum vaqt oralig‘ida (yil, oy) kirib kelgan suv miqdorilarining nisbati.

Tabiat yodgorliklari – noyob yoki mazkur o‘lkagagina xos ilmiy, madaniyma-rifiy yoki estetik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan tabiat obyekti. Odadta kelib chiqishi tabiiy yoki sun’iy maydoni uncha katta bo‘lmagan tabiiy majmualardan yoki alohida obyektlardan iborat bo‘ladi: juda keksa daraxt, manzarali (noyob) o‘simpliklar guruhi, ajoyib buloq, sharshara va hokazo.

Tabiatdagi o‘zini-o‘zi tartibga solish [yun. “autos” – o‘zi va lot. “regulare” – tartiblanish] – tabiatda to‘g‘ri va aks aloqalarga asoslangan, dinamik barqarorlik yoki landshaftlarning o‘zini-o‘zi muvofiqlashtirish va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga olib keladigan o‘zaro munosabatlар tizimi.

Tabiatni muhofaza qilish Jalon strategiyasi – YUNEP ko‘magida Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) tomonidan 1980-yilda ishlab chiqilgan xalqaro hujjat bo‘lib, u insoniyatning biosfera, ekotizmlar va turlardan hozirgi avlodga barqaror foyda keltirishi bilan birga, o‘z salohiyatini asrab qolish, kelasi avlodlarning ehtiyoj va intilishlariga muvofiq ravishda foydalanishni boshqarishga yo‘naltirilgan.

Tabiiy landshaft – inson faoliyati ta’siridan xoli bo‘lgan va faqatgina tabiiy omillar ta’sirida shakillangan yoki shakllanayotgan landshaft.

Tabiiy resurs (suv, havo, tuproq va hokazo) sifati – uning tafsiflarining inson ehtiyojlar yoki texnologik talablarga (resursning tozaligi, unda foydali komponentlarning mavjudligi) mos kelish darajasi.

Tanazzul – tizim murakkabligi energetik potensiali va sig‘imining asta-sekin, real vaqt mashtabida deyarli orqaga qaytarib bo‘lmaydigan darajada kamayishi.

Tashlama – qisqa muddatli (bir marta) yoki ma’lum vaqt (soat, sutka) davomida har qanday ifloslantiruvchi moddalar yoki uchib chiqayotgan gazlar bilan ortiqcha issiqlikning atrof muhitga tashlanishishi. Alohida manbadan chiqayotgan T., va shahar, viloyat, davlat yoki umuman yer kurarsi yuzasiga tushayotgan umumiylar tashlamalarga ajratiladi.

Tirik modda – oddiy kimyoviy tarkib, vazn, quvvat miqdorli o‘lchamlarida o‘z aksini topgan, ayni paytdagi mayjud barcha tirik organizmlar to‘plami.

Toksiklik, zaharlilik – ba’zi bir kimyovy birikmalarning organizmlarga zararli, hatto o‘limga olib kelivchi ta’sir ko‘rsatish xususiyati.

Trofik zanjir (ozuqa zanjiri, oziqlanish zanjiri) [yun. “trophe” – ozuqa] – organizmlarning ekotizmdagi modda va energiyaning o‘zgarishini amalga oshiruvchi o‘zaro munosabatlari; ozuqa – iste’molchi munosabatlari orqali bir-biri bilan bog‘liq

bo‘lgan turlar guruhlari (yani har bir to‘plam o‘zidan keyingi to‘plam uchun ozuqa bo‘lib xizmat qiladigan zanjir).

Tuproq tanazzuli – tuproqning biota yashash muhiti sifatida, hamda tabiiy yoki antropogen ta’sirlar natijasida tuproq unumдорлиги, uning xususiyatларининг muttasil yomonlashishi.

Tuproqning kuchsizlanishi – tuproqdan nooqilona foydalanish yoki tuproq mahsulдорлигиниң pasayishiga olib keluvchi tabiiy rivojlanish jarayoni natijasida tuproq tarkibidagi ozuqa moddalarining kamayib ketishi.

Tuproqning ifloslanish darajasi – tuproqdagi iflosiantiruvchi modda miqdorining uning maksimum ruxsat etish darajasi qiymatiga nisbati.

Tuproqning sho’rlanishi – asosan, grunt suvlarining bug’lanishi, o’zak jinslarining sho’rлиги bilan tuproqda erigan tuzlarning to‘planishishini (sho’rxoklanishini) keltirib chiqaradigan jarayon.

Turlar xilma-xilligi indeksi – turlar miqdori va biron-bir ko‘rsatkich (soni, biomassasi, mahsulдорлиги va boshqalar) o‘rtasidagi nisbati.

Urbanizatsiya – shaharlarning o‘sishi va rivojlanishi, shahar aholisi mavqeining mamlakat, hudud, jahon miqyosida o‘sishi.

Fauna [lot. “fauna” – qadimgi Rim mifologiyasida dala va o‘rmonlar hukmdori, chorvalar homiysi] – muyyan hududda yashagan (yoki yashayotgan) barcha hayvon turlarining evolyutsiya jarayonida tarixan shakllangan majmuasi. Hayvonot olamingning iborasi bilan bir xil ma’noni anglatadi.

Fitosenoz [yun. “phyton” – o‘simlik va “koinos” – umumiyl] – yer yuzasining bir turdagи hududini egallagan, muayyan tarkib, tuzilish, bichim hamda o‘simliklarning bir-biriga bo‘lgani kabi, ularni o‘rab turgan muhit bilan munosabatlarini ifodalaydigan (tavsiflaydigan) o‘simliklar majmui.

Flora – muayan hududni egallagan barcha o‘simlik turlarining tarixan tarkib topgan va rivojlanib kelayotgan guruhi. Atama o‘simlik to‘plami va o‘simliklar qoplamlalari atamalari bilan bir xil ma’noni anglatadi.

Fotosintez [yun. “photos” – yoro‘g‘lik va “synthesis” – birlashish] – yashil o‘tlar, suv o‘tlari va ayrim mikroorganizmlar to‘qimalarida yorug‘lik ta’siri ostida uglekislota va suvdan organik moddalarning hosil bo‘lishi va kislorodning ajralib chiqishi.

Cho’llashish – cho’llarning (sahroning) qo‘shti huđudlar hisobiga kengayishi. Ch. ham tabiiy shartlar evaziga, ham tabiatga bo‘lgan antropogen ta’siri oqibatida sodir bo‘ladi.

Ekologik inqiroz – inson faoliyati yoki tabiiy omillar (masalan, iqlimning o‘zgarishi) ta’siri ostida atrof muhit holatining turg‘un, nisbatan asta-sekin qaytarish mumkin bo‘lgan yoki qaytarish mumkin bo‘lmagan ravishda o‘shishi (strukturasining soddalashishi, energetik yoki ekologik potensiyalining pasayishi).

Ekologik madaniyat – atrof muhitdan tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetgan hamda inson faoliyati tasirining yaqin va uzoq kelajakdagи oqibatlarini inobatga olgan holda foydalanish; **E.m.** – umuminsoniy madaniyatning moddiy va ma’naviy mehnat mahsuli sifatida aks etgan tarkibiy qismdir. **E. m.** taraqqiyoti kasbiy ekologik ta’lim va tarbiya hamda haqqoniy ekologok ma’lumotlarni ommaga yetkazish bilan chambarchas bog‘liqidir.

Ekologik ta’lim (ma’lumot) – tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini ilmiy asosda amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan sistematik bilimlarni chuqr o‘zlashtirish jarayoni va natijasi.

Ekologik barqaror taraqqiyot – kelgusi avlodlar uchun zarar keltirmagan holda insoniyatning o‘z ehtiyojlarini qondirib taraqqiy etishi. **E.b.t.** konsepsiysi insoniyatning

uzoq muddatli taraqqiyotining zamini bo'lib, uning kapital mablag'lari oshishiga va ekologik sharoitning yaxshilanishiga turtki bo'ladi.

Ekologik bumerang – insонning ekologik qonuniyatlarni hisobga olmasdan, tabiatga o'tkazgan ta'sirini qaytib kelib o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatishini va murakkab vaziyatni yuzaga keltirishini aks ettiruvchi ibora.

Ekologik valentlik [lot. "valentia" – kuch] – biologik turning atrof muhitning turli sharoitlarda yashay olish xususiyati.

Ekologik volyuntarizm - [lot. "voluntary" – iroda] tabiatdan ekologik chegaralarni (me'yirlarni) hisobga olmasdan foydalanish. **E. v.** ekologik madaniyati past jamiyatga xosdir.

Ekologik omil – organizmning moslashish reaksiyasini ifoda qiladigan tabiiy muhit omili. Ma'lumki, organizmning moslashishi chegarasidan tashqarida letal omil (o'lim) yotadi. **E. o.**, odatda, abiotik, biotik va antropogen omillarga bo'linadi.

Ekologik tolerantlik – organizmning atrof muhitning salbiy ta'siraga bardosh berish qobiliyati.

Ekologik xavfsizlik – tabiiy muhit va aholi salomatligiga xavf-xatar yetgazmaydigan holat. **E. x.ka** atrof muhitga salbiy antropogen ta'sirni kamaytirishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali erishiladi.

Ekologiya – [yun. "oikos" – uy, joy va "logos" – ta'limot, so'z] – E.Gekkelning ta'riflashicha, biologiyaning organizmlar bilan muhitning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi bir bo'limi (auto-ekologiya va sin-ekologiya). **E.** barcha tirik organizmlar va muhitni hayot uchun qulay qiladigan barcha jarayonlarni o'rganadi.

Ekotizim – fanda A.Tensli tomonidan kiritilgan atama bo'lib, u tarkibidagi organizm va anorganik omillar teng huquqli komponentlar bo'lmish dinamik muvozanatdagi nisbatan barqaror tizimni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, tirik mavjudotlar jamoalari va ularning yashash muhitini o'z ichiga qamrab olgan funksional tizimga ekotizm deyiladi.

Endem – [yun. "endemos" – mahalliy] – faqat aynan shu mintaqada yashaydigan biologik tur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anuchin V.A. Osnovi prirodopolzovaniy. M.: Misl, 1978.
2. Akimova T.A., Kuzmin A.P. Xaskin V.V. Ekologiya. –M.: YUNITI, 2001.
3. Akimova T.A., Xaskin V.V. Ekologiya. –M.: 1998. –455s.
4. Amanbayeva Z.A. Ohangaron daryosi o'rta qismi havzasining geoekologik vaziyati va uni optimallashtirish yo'llari. G.f.n. ilm. olish uchun taqdim et. diss. – T.: 2003.-154 b.
5. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. –T.: O'qituvchi, 1991. –250 b.
6. Gerasimov I.P. Ekologicheskiye problemi v proshloy, nastoyashey i budushey geografii mira. – M.: Nauka, 1985.-248 s.
7. Glazovskaya M.A. Geoximiya prirodnix i texnogennix landshaftov. – M.: Visshtaya shkola, 1988.-328 s.
8. Holiqov I., Parmonov A., Qosimov E., Xamidov J, Dadayev G'. Ijtimoiy biologik tabiiy ofatlar: ularning oldini olish va saqlanish usullari. –T., 2014. –87 b.
9. Isachenko A.G. Vvedeniye v ekologicheskuyu geografiya. – SPb.: Izd-vo S-Peterb. Un-ta, 2003.-192 s.
10. Jekulin V.S. Vvedeniye v geografiya. – L.: Izd-vo LGU, 1989.-272 s.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. – 325 b.
12. Klimanova O.A. Geoekologicheskiye aspekti stranovedeni. Vestnik MGU. Ser 5. Geografiya, 2008. № 4. – S. 22-27.
13. Mustafayev S., O'roqov S., Suvonov P. Umumiy ekologiya. –T., 2006. – 396 b.
14. Novikov Y.V. Ekologiya, okrujayushaya sreda i chelovek. – M.: Fairpress. 2002.-560 s.
15. Novikov Y.V. Priroda i chelovek. –M.: Prosvesheniye, 1991. –221 s.
16. Otaboyev SH., Hidoyatova Z. Ekologiya, gigiyena va sihat-salomatlik. – T.: Fan, 2007. –325 b.
17. Otaboyev SH. Ekologiya, din va salomatlik. –T., 2007. –106 b.
18. Qodirov E.V., Shermatov M.SH., Akbarov X.A., Mavlonov E., Odilov A. Tabiiy muhitni muhofazalashning geoekologik asoslari. –T.: O'zbekiston, 1999. –155 b.
19. Rafikov A.A., Tetyuxin G.F. Snijeniye urovnya Aralskogo morya i izmeneniye prirojnix usloviy Nizovyev Amudari. –T.: Fan, 1981. –200 s.
20. Rafikov A.A. Geoekologik muammolar. –T.: O'qituvchi, 1997. –112 b.
21. Razakov R.M. Prinsipi viyavleniya antropogenno narushennix rayonov na territorii Uzbekistana. // Vodniye resursi, problemi Arala i okrujayushaya sreda. – T.: Universitet, 2000. – B. 255-272.
22. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar yechimining nazariy va metodologik asoslari. //Ilmiy tezislar to'plam. Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. – T.: 1999. – B. 33-35.
23. Rafiqov A.A. O'zbekistonda ekologik vaziyatlar darajasini aniqlovchi mezonlar. //Ilmiy tezislar to'plam. Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. – T.: 1999. – B. 40-43.
24. Rafiqov A.A. Geoekologiya asoslari. – T.: Universitet, 2000.-68 b.
25. Rafiqov A., Azimov SH. Amaliy geografiya.-T.: O'qituvchi, 2000.-240 b.

26. Rafiqov A.A. Geografik prognozlashtirish asoslari. – T.: Universitet, 2003.-268 b.
27. Rafiqov A.A., Vahobov H. va boshq. Amaliy geografiya. – T.: Sharq, 2004.-160 b.
28. Raxmatullayev A. Tabiatga antropogen yuk meyori va uni baholashning hozirgi holati. // Hozirgi zamon geografiyasining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Andijon: 2007. – B.96-98.
29. Rixling A. Ekologiya landshafta – opredeleniye i razvitiye. Vestnik MGU. Ser 5. Geografiya, 1999. № 1. – S. 17-21.
30. Razakov R.M. Prinsipi viyavleniya antropogenno narushennix rayonov na territorii Uzbekistana. // Vodniye resursi, problemi Arala i okrujayushaya sreda. – T.: Universitet, 2000. – B. 255-272.
31. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. – T.: O‘qituvchi, 1997.-117 b.
32. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar yechimining nazariy va metodologik asoslari. //Ilmiy tezislar to‘plam. Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. – T.: 1999. – B. 33-35.
33. Rafiqov A.A. O‘zbekistonda ekologik vaziyatlar darajasini aniqlovchi mezonlar. //Ilmiy tezislar to‘plam. Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. – T.: 1999. – B. 40-43.
34. Rafiqov A.A. Geoekologiya asoslari. – T.: Universitet, 2000.-68 b.
35. Rafiqov A., Azimov SH. Amaliy geografiya.-T.: O‘qituvchi, 2000.-240 b.
36. Rafiqov A.A. Geografik prognozlashtirish asoslari. – T.: Universitet, 2003.-268 b.
37. Rafiqov A.A., Vahobov H. va boshq. Amaliy geografiya. – T.: Sharq, 2004.-160 b.
38. Rixling A. Ekologiya landshafta – opredeleniye i razvitiye. Vestnik MGU. Ser 5. Geografiya, 1999. № 1. – S. 17-21.
39. Razakov R.M. Prinsipi viyavleniya antropogenno narushennix rayonov na territorii Uzbekistana. // Vodniye resursi, problemi Arala i okrujayushaya sreda. – T.: Universitet, 2000. – B. 255-272.
40. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. – T.: O‘qituvchi, 1997.-117 b.
41. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar yechimining nazariy va metodologik asoslari. //Ilmiy tezislar to‘plam. Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. – T.: 1999. – B. 33-35.
42. Rafiqov A.A. O‘zbekistonda ekologik vaziyatlar darajasini aniqlovchi mezonlar. //Ilmiy tezislar to‘plam. Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. – T.: 1999. – B. 40-43.
43. Rafiqov A.A. Geoekologiya asoslari. – T.: Universitet, 2000.-68 b.
44. Raximbekov R.U. Otechestvennaya ekologicheskaya shkola: istoriya yevo formirovaniya i razvitiye // pod.red. YE.M.Murzayeva / –T.: Shark. –256 s.
45. Sultonov P.S., Axmedov B.P. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari. –T.: “G‘.G‘ulom” nashriyoti, 2004. –228 b.
46. Salimov X.V. Ekologiya. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2012. –461 b.
47. Sochava V.B. Vvedeniye v ucheniye o geosistemax. – Novosibirsk: Nauka, 1978.-320 s.
48. Stepanovskix A.S. Oxrana okrujayushey sredi. – M.: YUNITI-DANA. 2001.-559 s.

49. Timashev I.YE. Geoekologiya: pervoistochniki, podxodi, perspektivi. Vestnik MGU. Ser 5. Geografiya, 2000. № 5. – S. 18-22.
50. Tinina G.N., Pianovskaya L.G. Kriterii otsenki kachestva vod pri provedenii ekologicheskogo rayonirovaniya Respublikи Uzbekistana. //M.; Metal-lurgiya, 1998.
51. Tolkacheva G.A., i dr. Pokazateli kachestva atmosfernogo vozduxa, ispolzuemiyе pri ekologicheskem rayonirovani. //Otsenka zagryazneniya prirodnoy sredi Sredneaziatskogo regiona. Tr. SANIGMI. Vip.155. 1998.
52. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi. –T.: Moliya-iqtisod, 2007. –224 b.
53. To'xtayev A.S. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Ma'ruzalar matni. –T., 2000. –110 b.
54. To'xtayev A.S. Ekologiya. –T.: O'qituvchi, 1998. –190 b.
55. 46.To'xtayev A.S. Ekologiya. –T.: O'qituvchi, 2001. –144 b.
56. To'xtayev A.S., Haydarova H.N., Mardiyeva K., Ismoilova D. Ijtimoiy ekologiya. –T., 2005. –90 b.
57. To'xtayev A.S., Hamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. –T.: O'qituvchi, 1994. –158 b.
58. Tursunov X. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. –T.: O'zbekiston, 1997.
59. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. –T.: Chinor ENK, 2006. –149 b.
60. Vernadskiy V.I. Biosfera i noosfera. – M.: Ayris-press, 2004.-576 s.
61. Vaxabov X. Otsenka i prognoz formirovaniya gornopromishlennix landshaftov i fiziko-geograficheskiye osnovi ix rekultivatsii // Avt. diss. na uch. st. d.g.n. – T.: 2001.-48 s.
62. Xo'janazarov O'.E., Mirsovurov M., Norboyeva T. Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi. –T.: Navro'z, 2014. –190 b.
63. Yasamanov N.A. Osnovi geoekologii. – M.: Akademiya, 2003.-352s.
64. Yakubjonova Sh.T., Kuchkarov N.Y., Turabayev A.N., Shernazarova B.B. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. –T.:“Navro'z” nashriyoti. 2016 y. –92 b.
65. Zvonkova T.V. Geograficheskoye prognozirovaniye. M.: Misl. 1988.

66. Zokirov Sh.S. Kichik hududlar tabiiy geografiyasi. –T.:Universitet, 1999. –120 b.
67. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. –T.: Chinor ENK, 2006. –1-2-jildlar.
68. O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining “O'zbekiston Respublikasida atrof muhit holati va resurslardan foydalanish to'g'risida milliy ma'ruza”si. –T.: Chinor ENK, 2008. –287 b.
69. G'ulomov P.N. Inson va tabiat. – T.: “O'zbekiston miliy entsiklopediyasi”, 2009.-84 b.
70. Sharipov SH.M. Geoekologianing ta'rifi, obyekti, predmeti haqida ayrim fikrlar // O'zbekiston Geografiya jamiyatি axboroti.- Toshkent, 2007. – 29-jild. -B.50-54.
71. Shodimetov Y. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. –T.: O'qituvchi, 1994. –238 b.

